ISSN:2181-3558
«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL
OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

THE JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH

ISSN 2181-3558

VOLUME 1, ISSUE 7

COLLECTION B

DECEMBER 2022



Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. *f.f.d., prof.*
Nurullaeva Sh.U. *ped.f.d., prof.*
Tursunov K.Sh. *ped.f.d., prof.*
Babadjanova D. *tarix.f.d., prof.*
Ernazarova G.O. *ped.f.d., prof.*
Abduraximova D.A. *ped.f.d., prof.*
Мадумаров Т.Т. *yur.f.d., prof.*
Мирзаева С.Р. *fil.f.d., prof.*
Yuldashev M.M. *fil.f.d., prof.*
Xolliyev A.E. *bio.f.d., prof.*
Mahmudov N.M. *fil.f.d., prof*
Salayeva M.S. *ped.f.d., prof.*
Salaeva M.S. *psi.f.n., dotsent*
Tojiboyeva M.A. *fil.f.d., dotsent*
Sabirova N.E. *fil.f.d., dotsent*
Norboyeva U.T. *bio.f.d., dotsent*
Yarmatov R.B. *ped.f.d., dotsent*
Egamberdiyeva N.A. *tarix.f.d., dotsent*
Achilov N.K. *fil.f.d., dotsent*
Imomova G.M. *fil.f.n., dotsent*
Zakirova H.R. *f.f.n., dotsent*
Tuhtahujaev H.B. *ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*
Bakiyev Z.A. *ped.f.n., dotsent*
Razzakov H.K. *tex.f.n., f.f.d., dotsent*
Ortikov O.A. *tex.f.f.d., dotsent*
Djuraeva M.Y. *f.f.f.d.*
Nabikhodjaev A.A. *iqt.f.n., dotsent*
Otadjanova M.O. *f.f.d.*
Tajibaeva M.A. *fil.f.d., dotsent*
Hasanov A.M. *fil.f.f.d*
Kholmurodov A.E. *fiz.m.f.d., dotsent*
Aripov O.A. *iqt.f.d., dotsent*
Safarova U.A. *fil.f.d., dotsent*
Dexqonova M.Sh. *f.f.d.*
Hasanov A.M. *fil.f.d.*

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

HANIFIY MAZHABI ULUMUL HADIS FANI QOIDALARINING ETIMOLOGIYASI

Mustafoyev Abubakr Muhiddin o‘g‘li
Xalqaro Islom Akademiyasi “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi tayanch doktoranti
mustafoev.abubakr@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hanifiy mazhabi ulumul hadis fani qoidalarining etimologiyasi uning rivojlanish tendensiyasi haqida so‘z yuritilgan. No`mon ibn Sobit (Abu Hanifa)ning ulumul hadis, mustalahul hadis, hadisshunoslik sohalari borasida joriy qilgan qoida va tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek Abu Hanifa davridan boshlab Abu Bakr Jassosgacha bo`lgan davrda ushbu qoida va tamoyillarning rivojlanishi va shakllanishi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida atroflicha yoritib berilgan. Bundan tashqari hanifiy mazhabining ulumul hadis va hadisshunoslik sohasida xizmat qilgan buyuk olimlar, ularning qilgan yangiliklari, qoldirgan bebaho asarlari yoritib berilgan.

Kalit so`z: hadis, ohod, sahih, ijtihod, istinbot, “haddasana”, sunan, shozz.

Hech kimga sir emaski, bir kishini mujtahidligini e`tirof etish uning diniy ilmlarning har bir sohasida mujtahid ekanini e`tirof etishdir. Mujtahid barcha shariy hukmlarda ijtihod[1] qila olish darajasiga yetgan shaxsdir.[2] U o`zi puxta o`rganib, tuzgan usul va qoidalar asosida hukm chiqarishga qodir bo`ladi.

Mana shu mantiqiy tamoyilga asoslanib aytamizki, Imom Abu Hanifa ham Payg`ambar (s.a.v.) hadislaridan shar`iy hukmlarni istinbot[3] qila olganidek, xabarlarga aniqlik kiritish uchun o`zi ishlab chiqqan qoidalar asosida ularni sahih va zaifga ajratish saviyasiga ham ega bo`lgan. Rivoyatlar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, tarjih qoidalarini joriy qilish tamoyillariga ega bo`lgan.

Garchi Imom Abu Hanifa bu qoidalar majmuini birlashrtirib biror bir asar yozib qoldirmagan bo`lsada, yuqoridagi fikrlarni quvvatlaydigan bir qancha ishonchli xabarlar kelgan. Bir qancha usul va hadis olimlari Abu Hanifaning usulul hadis borasidagi qoida va tamoyillarini o`z asarlarida keltirib o`tganlar. Ulardan ba`zilari:

1. Quronning matniga zid kelgan “ohod” xabar qabul qilinmaydi.

Imom Abu Hanifa "ohod" xabarlar Qur'onga zid bo'lmasagina qabul qilinishini aytib o`tgan. “Rasulullоh (s.a.v.)ning hadislari Qur'onga zid bo'lmagan va unga zid bo'lmaydi ham, balki hadislar uning ma`nolarini ochib berish uchun keltirilgan",[4] deb aytganlar.

[1] Ijtihod (arab. — g‘ayrat qilish,) — shar’iy hukmni hosil qilish uchun faqihning barcha bilim va toqatini ishga solishi. Shar’iy hukmi kelmagan ishning maxsus qoidalarni ishga solib shar’iy hukmini aniqlash uchun qilinadi. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.(O`zME) 1-jild. 2000 yil
[2] Jaloliddin Suyutiy. Irshodul muhtadiyn ila nusrotil mujtahidiyn.Iroq: Jomeatul anbar. B. 14
[3] Shariy manbalardan hukm chiqarib olish
[4] No`mon ibn Sobit. Al-olim val mutaallim. Qohira: Xonajiy. 2014. B. 24-25

Shu asosda hanafiy mazhabining eng asosiy usuliy qoidalari kelib chiqdi: “Quronning naslariga muxolif kelgan ohod xabar o`zi sahih emasligiga yoki roviylar tomonidan ba`zi bir qismi unutilganida dalildir. U qayta o`rganib chiqiladi yoki ta`vil qilinadi.

1. Ohod xabarlar qabul qilinishi uchun roviy hadisni qabul qilganidan yetkigunigacha hifzi shart qilinadi.

Hofiz ibn Abu Avvom[5], Hofiz Abu Abdulloh ibn Bayyi` Hokim Naysoburiy[6] va Hofiz ibn Abdul Barr Andalusiylar[7] Abu Hanifadan rivoyat qilib aytadialar: “Kishi eshitgan kunidan to yetkazgan kunigacha yoddan bilmagan hadisini aytishligi mumkin emas”, dedilar.

Bu xabarlarni qabul qilinishidagi eng qiyin shartlaridan biri hisoblanadi. Bu Imom Abu Hanifaning hadislarni eshitgan kimsalari e`tiboridan kam hadis rivoyat qilganlarining eng asosiy sababidir

2. **Imom Abu Hanifa nazdlarida dalil martabalarining bayoni.**

Jarh va ta`dil olimlaridan Ibn Muin Abu Hanifadan quyuidagicha rivoyat qilgan: "Men avvalo Alloh taoloning kitobidan olaman. Agar undan topa olmasam Rosulullоh (s.a.v.) ning sunnatlaridan olaman. Alloh taoloning sunnatlaridan va Rosulullоh (s.a.v.) ning sunnatlaridan topa olmasam, sahobalaning qovllaridan olaman. Ulardan xohlaganimning gaplarini olaman, xohlaganimni olmayman. Ularning gapidan boshqalarning gapiga o`tmayman. Qavm ijtihod qildi. Men ham ular ijtihod qilganidek ijtihod qilaman".[8] Bundan quyidagilar kelib chiqadi:

1. Imom Abu Hanifa nazdida Islom shariatidagi manbalarning tadriji;
2. Sahobalarning aytgan gaplari ham Imom Abu Hanifa nazdida shariatda hujjat o`rnida o`tishi;
3. Tobeinlar aytgan gaplari Imom Abu Hanifa nazdida shariy hujjat o`rniga o`tmasligi;
4. Imom Abu Hanifa nazdida ohod xabarni qiyosdan ustun qo`yganligi.

Abu Hanifaning usulul hadis borasid ishlab chiqqan yana bir qancha qoida va tamoyillar bo`lib, ular:Abu Hanifaning usulul hadis borasid ishlab chiqqan yana bir qancha qoida va tamoyillar bo`lib, ular:

4. Hadisni topshirish asnosida “haddasana” lafzining joizligi.

Hofiz Xatib[9] Abu Qotndan rivoyat qilib aytadi: “Abu Hanifa menga: “Menga aytib bergin va “haddasaniy”, degin”,[10] dedi”.

5. Ahi bidat va ahli havodan rivoyat qilish joizligi.

6. Faqih olimlarning rivoyati hadis olimlarining rivoyatidan ustunligi.

[5] Shamsiddin Zahabiy. Manoqibi Imom Abu Hanifa. Haydarobod: Ihyou maarifu nu`maniyya. 2009. B. 33
[6] Muhammad ibn Abdulloh Naysoburiy. Madxol ila ma`rifati kitabul iklil. Bayrut: Dor ibn Hazm. 2003. B. 118
[7] Ibn Abdul Barr. Al-intiqo` fi fazoili aimmati salasatil fuqaho. Qohira. 2018. B. 257
[8] Ibn Maiyn. At-tarixu bi rivayatid duriy. Saudiya. Jomeatu Malik Abdul Aziz 1979. J. 2. B. 608
[9] Ahmad ibn Ali ibn Sobit Bag`dodiy (Xatib Bag`dodiy) 392-463 hij.
[10] Xatib Bag`dodiy. Kifaya fi ilmi rivaya. Dairotul maariful usmaniyya. Hindiston: Darul huda. 2010. B. 259-260

Movarounnahr olimlaridan Imom Abu Muhammad Horisiy[11] Makkada Abu Hanifa va Avzoiy orasida “roful yadayn” (namozda qo`llarni ko`tarish) masalasidagi munozarani rivoyat qilish asnosida aytib o`tgan.

7. Hadis roviylarni jarh va ta`dil qilish mumkinligi.

Imom Abu Hanifa ko`pgina roviylarni ta`dil (“Ta’dil” -“addala” so‘zining masdari bo‘lib, lug‘atda “adolatli deb topish”)[12] va ba`zilarini jarh(“Jarh» so‘zi lug‘atda- “yaralash”, “ta’na qilish” kabi ma’nolarni anglatadi. Istiloxda «jarh» deb, roviy yoki guvohga uning gapi e’tiborga olinmasligi yoki unga amal qilinmasligiga sabab bo‘luvchi salbiy shaxsiy sifatlarning nisbat berilishiga aytiladi)[13] qilganlar. Ibrohim ibn Maymun Soig` Marvaziy (vaf. 131-hij), Ja`far ibn Muhammad Boqir (80-148 hij), Hammod ibn Abu Sulaymon Kufiy (vaf. 120-hij), Sufyon ibn Said Savriy (97-121 hij) kabi olimlarni ta`dil qilganlar. Jobir Ju`fiy (vaf. 128 hij), Tolqa ibn Habib, Amr ibn Ubayd Mu`taziliy Basriy (vaf. 142-hij), Mujolid ibn Said Hamadoniy (vaf. 144-hij)ga o`xshagan roviylarni jarh qilganlar.

Bu Imom Abu Hanifa tomonidan ulumul hadis fani borasida ishlab chiqqan qoidalardan ba`zilari bo`lib, ular olimlar tomonidan yozilgan kitoblar zarvaraqlarida saqlanmoqda. Shunisi aniqki Abu Hanifa tomonidan xabarlar tahlili, ularni tarjih qilish, roviylarni jarh va ta`dili va yana ulumul hadis borasida bir qancha qatiy qoidalar majmui ishlab chiqilgan. Bugungi kunda biz uchratadigan ibora va istilohlar esa keying olimlar tomonidan o`sha qoidalar uchun ishlab chiqilgan.

Imom Abu Yusuf davrlarida ulumul hadis qoidalarining shakllanishi. Abu Hanifadan so`ng mustalahul hadis fani qoidalarini ishlab chiqishni shogirdi Imom, Hofiz[14] Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Qozi Ansoriy (113-182 hij) davom ettirdi. Abu Yusuf o`zining kitoblarida xabarlarni qabul qilish, uning usullari, qabul qilinadigan va rad qilinadigan xabarlar haqida aytib o`tdi.

1. Shozz xabarlar qabul qilinmaydi.

Abu Yusuf ozining “Roddun ala siyaril Avzoiy” asarida Imom Avzoiyning: “Shozz bo`lsa ham omma bilgan hadisni qabul qilsa bo`ladi”, degan gaplariga javoban, shozz xabarlar qabul qilinmasligi, faqatgina faqih olimlar bilgan, Kitob va sunnatga muvofiq kelgan hadislargina dalil sifatida qabul qilinishini aytib o`tgan. Va boshqa bir o`rinda shozz hadisni ta`riflab: “Kitobga va sobit sunnatga xilof bo`lgan, faqihlarga ma`lum bo`lmagan, amal qilinmaydigan xabar shozz bo`ladi”,[15] degan.

2. Ohod Xabarlarni qabul qilish uchun ular Kitob(Quron)ga va (olimlarga) ma`lum bo`lgan sunnatga xilof kelmasligi shart qilinishi.

Abu Yusuf ozining “Roddun ala siyaril Avzoiy” asarida ohod xabarni qabul qilish shartlarini birma bir sanab bergan. Faqih o`zining asarida Imom Avzoiyga

[11] Horisiy. Musnadi Abu Hanifa. Bayrut. DKI. 2009. B. 144
[12]Sayyid Abdulmajid G`ovriy. Mavsua ulumul hadis va fununih. – Damashq: Dor ibn Kasir, 2007. – J. 1. –B. 595-596
[13]Sayyid Abdulmajid G`ovriy. Mavsua ulumul hadis va fununih. – Damashq: Dor ibn Kasir, 2007. – J. 1. –B. 595-596
[14] Ibn Avvom. Manoqib. Makka: Maktabatu Imdodiyya. 2010. B. 98
[15] Abu Yusuf. Roddun ala siyaril Avzoiy. Haydarobod: Ihyou maarifu Nu`maniyya. 2009. B. 24

xitoban: “Faqihlar bilgan va (olimlar) jamoasi xabardor bo`lgan Kitob va sunnatga muvofiq kelgan hadislarni lozim tut. Hukmlarni shularga qiyosla. Garchi rivoyat qilinsada Quronga xilof kelgan narsa Rosulullоh (s.a.v.) dan emasdir”,[16] degan.

3. Quronni mutavotir sunnat bilan nasx qilish joizligi.

Imom Abul Hasan Karxiy Imom Abu Yusufdan rivoyat qilib aytadi: “Ilmni yaqiniy ilmni vojib qiladigan mutavotir sunnat bilan Quronni nasx qilish joiz. Ikki maxsiga mas`h tortish masalasidek”.[17]

4. Hadlarni joriy qilishda ohod xabarlar qabul qilinishi.

Faqih o`zining “Amaliy”[18] asarida: “Hadlar ohod xabar bilan sobit bo`ladi”,[19] degan.

5. Sahobaning gapi hujjat sifatida qabul qilinishi.

Olim o`zining “Kitabul xaroj” asarida sahobalarning gapi o`zidan keyingilar uchun hujjat bo`lishini keltirib o`tgan.

Imom Muhammad davrlarida ulumul hadis qoidalarining shakllanishi.

So`ngra Abu Hanifa va Abu Yusufdan so`ng mustalahul hadis fani qoidalarini ishlab chiqishni Imom, Hofiz, Mujtahid, lug`at olimi[20] Muhammad ibn Hasan Shayboniy (131-189 hij) davom ettirdi. Bu tengsiz Imom o`zining asarlarida juda ko`p ilmlarni tarqatdi. Imom Muhammad o`zining “Kitabul hujjati ala ahlil madiynati” asarida usulul hadisninh ko`pgina qoidalariga ishora qilib o`tgan. Ulardan ba`zilari:

1. Asar(xabar, hadis, sahobalar gapi) bo`lgan joyda qiyosga o`rin yo`q

2. Ohod xabar umumiy balvoda[21] qabul qilinmaydi.

Olim o`zining “Kitabul hujjat” asarida: “Umumiy balvo (hojat tushgan)da ohod xabar qabul qilinmaydi”,[22] degan.

3. Xabarlarni bir biriga xilof kelganda eng ishonchlisini olish.

Faqih o`zining “Kitabul hujjat” asarining ko`p o`rinlarida shu eng asosiy qoidaga urg`u berib o`tadi.

Hanafiy mazhabida mustalahul hadis faniga doir birinchi yozilgan kitob

Yuqorida ulumul hadis borasida hanafiy mazhabi asoschisi va ikki shogirdining qoidalari keltirib o`tildi. Keyingi davrda Imom Muhammadning fiqh va usul borasid katta shogirdi Imom Qozi Iso ibn Abon (vaf. 221-hij) Rosul (s.a.v.)ning hadislaridan qabul qilish usul va qoidalarini tartiblab alohida kitob yozdi. Bu Hanafiy mazhabida usulul hadis faniga doir yozilgan birinchi asar edi. Bu asarda mutavotir, mashhur va ohod hadis turlari haqida gapirib ularning har biriga alohida to`xtalgan. Xabarlarning qay biri qabul qilinishi, qasi biri tark

[16] Abu Yusuf. Roddun ala siyaril Avzoiy. Haydarobod: Ihyou maarifu Nu`maniyya. 2009. B. 31
[17] Abu Bakr Jassos. Al fusul fil usul. Vizarotul avqoful Kuvaytiyya. 1994. J. 1. B. 518
[18] Hoji Xolifa. Kashfuz zunun. 1999: “Ulumul hadis bobiga kirish qismi”. J.1 B. 164
[19] Bazdaviy. Kanzul vusul. B.181, Saraxsiy. Usulus sarsxsiy. B. 333-334
[20] Abu Bakr Jassos. Al fusul fil usul. Vizarotul avqoful Kuvaytiyya. 1994. J. 1. B. 30-31
[21] Al Javohir lug`. “Ommaviy ehtiyoj”, “Umumiy ehtiyoj”.
[22] Muhammad Ibn Hasan Shayboniy. Kitabul hujjati. Bayrut. Alamul kutub. 2009. J.1. B. 217

qilinishi, ularning shartlari, hukmlari aytib o`tilgan. Faqih o`z kitobini “Hujajus sag`ir” deb nomladi.[23]

Imom Jassos o`zining “Al-fusul fil usul” asarining “sunnat” bobida Iso ibn Abonning ko`pgina gaplarini dalil qilib keltirib, “Hujajus sag`ir” kitobni juda ko`p zikr qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Avvomaning qalamlariga mansub “Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o‘rni” asari (Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr. – T.: 2018).
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011
3. Abdul Majid Juzajoniyning “Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari” asari (Tarjimon Muhammadrahim Abdulqodirov Hilol nashr. – T.: 2021).
4. Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulumil hadis. Damashq, Dorul fikr. 2020
5. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
6. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ibn Kasir. –Bayrut.: 2020
7. Abdulmajid Turkmoniy. Al madxal fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ar-Rayohiyn. – Urdun.: 2021

[23] Abdul Majid Turkmoniy. Dirosot fi usulil hadis. Bayrut: dor ibn Kasir. 2020. B. 44.

HANIFIY MAZHABI OLIMLARINING ULUMUL HADIS FANI HAQIDA YOZGAN MASHHUR ASARLAR TASNIFI

Mustafoyev Abubakr Muhiddin o‘g‘li
Xalqaro Islom Akademiyasi “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi tayanch doktoranti
mustafoev.abubakr@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hanifiy mazhabi olimlarining ulumul hadis, mustalahul hadis va hadisshunoslik haqida yozgan mashhur asarlar tasnifi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek hanafiy mazhabi olimlarining ulumul hadis, mustalahul hadis, hadisshunoslik sohalari borasida joriy qilgan qoida va tamoyillari qanday asarlar tarkibida, qaysi boblar ostida kelganligi batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari hanifiy mazhabining ulumul hadis va hadisshunoslik sohasida xizmat qilgan buyuk olimlar, ularning qilgan yangiliklari ham aytib o`tilgan.

**Kalit so`z:** Mujtahid**,** hadis, ohod, sahih, ijtihod, istinbot, “haddasana”, jome`, Samarqandiy, Moturudiy

Mazhabning uch asoschisi Imom Abu Hanifa, Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad va Ibn Abondan so`ng hanafiy mazhabining ulumul hadis, usulul hadis va mustalahul hadis sohalaridagi qoidalarni Imom Mujtahid Hofiz Abu Ja`far Ahmad ibn Muhammad ibn Salom Azdiy Misriy Tahoviy (239-321 hij) shakllantirdi.

Imom Tahoviy o`zining “Sharhu mushkilul osor” va Sharhu maanil asaril muxtalifatil marviyyati an Rosulillahi (s.a.v.) fil ahkam” asarlarida hanafiy olimlarining hadis matniga qo`yilhan shartlari, roviyga qo`yilgan shartlari, usulul hadisga doir qoidalarni sanab o`tgan. Olim o`zining asarida ohod xabar mutavotir xabarga zid kelganda qabul qilinmasligi, sahobalarning “sunnatdandir” degan gaplaridan Payg`amabar (s.a.v.) ning sunnatlari tushunilishini aytib o`tgan.[24]

Keyingi davrlarda hanafiy mazhabining usulul hadis sohasidagi rivojlanishi usulul fiqh tarkibida, ya`ni uning “sunnat” bobida davom etdi.

Hanafiy mazhabi usululiga doir alohida yozilgan avvalgi kitob Hidoyat Imomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy (vaf. 333-hij)ning “Maaxizush sharoi`” va “Kitabul jadal” ikki kitobidir. Bu ikki asar bizgacha yetib kelmagan bo`lsada Imom Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy,[25] Abul Sana` Mahmud Lomishiy[26] va Qosim ibn Qutlubg`olar ularni Imom Moturidiyga nisbat berib keltirishgan.

Hanafiy mazhabida yozilib bizgacha yetib kelgan avvalgi usuliy kitob Abu Bakr Ahmad ibn Ali Jassos Roziy (305-370 hij)ning “Al fusul fil usul” asaridir. Hanafiy olimlar nazdida tengsiz asar hisoblanadi. Abu Bakr Jassos kitobining “sunnat” bobida usulul hadis haqida to`xtalib o`tgan.

[24] Abu Ja`far Tahoviy. Sharhu Maanil aasaar. Bayrut. Alamul kutub. 1994. J. 1. B. 104
[25] Qarang: Alouddin Samarqandiy. Miyzanul usul fi nataijil uqul. B. 3
[26] Qarang: Abul Sana` Mahmud Lomishiy. Kitab Fi usulil fiqh. B. 189

Ulardan keyin kelgan o`z sohasida tengsiz uch usuliy olimlar, o`zlaridan oldingi Imom Moturudiy va muhaqqiq Abu Bakr Jassos singari olimlarning ishlarini davom ettirdilar. Ular oldin o`tgan olimlarning qoidalarini hali hech kim tuzmagan tartibga ko`ra tartibladilar. Ta`riflarni "jins", "fasl" ostiga qaydlab, keng ma`noga dalolat qiladigan yengil so`zlar bilan ifodaladilar.

Hanafiy mazhabi usulida yangi davrni ochib bergab bu uch faqih:

1. Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ibn Iso Dabusiy (369-430 hij)dir. Hanafiy mazhabi usuliga doir yozgan asari "Taqvimul adilla" hisoblanadi.
2. Faxrul Islom Abul Usr Ali ibn Muhammad ibn Husayn Bazdaviy(400-482 hij) bo`lib, usul borasida yozgan kitobi "Kanzul vusul ila ma`rifatul usul" deb nomlanadi.
3. Shamsul Aimma Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy (vaf. 483-hij). Olimning asari "Usul us-Saraxsiy" o`z nomi bilan mashhur bo`ldi.

Aynan mana shu to`rt asasr hanafiy usulining asosi hisoblanadi. Hanafiy mazhabi olimlarining usulul hadis to`g`risida joriy qilgan qoidalari ham ushbu to`rt mashhur asarda o`z ifodasini topdi. [27]

Ulardan keyin kelgan Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid ibn Masud Siyusiy Iskandaroniy (Ibn Humom 790-861 hij), Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 539 hij), Muhammad ibn Abdulhamid Asmandiy Samarqandiy (488-553 hij)ga o`xshagan faqih, muhaqqiq olimlar usuliy qoida va tamoyillarni rivojlantirib, ularni yanada yuqori pog`onaga olib chiqdi.

Keyingi davrda kelgan olimlar asosan hanafiy mazhabi olimlarining qovllarini jamladilar. Ular o`zlaridan oldin o`tgan mazhab olimlari, faqihlar, muhaddislarning eng ishonchli, sahih qovllarini mavzulashtirib, boblarga bo`lib jamlashdi. Shuning uchun ham ular "jome`lar"(jamlovchilar) deb nom oldi. Bu davrda juda katta xizmat qilgan olimlardan: Alouddin Abdulaziz Buxoriy (kitobi "Kashful asror sharhu usulil Bazdaviy", vaf. 730-hij), Muhammad Kokiy Xo`jandiy (Qivomuddin nomi bilan mashhur, kitobi "Al-kafiy sharhul Bazdaviy", vaf. 749-hij), Abu Hanifa Qivomuddin Amir Kotib Farobiy Itqoniy (kitobi "At-tabyiyyn", 685-758 hij), Bobartiy (714-786 hij), Shamsidin Fanoriy (kitobi "Fusulul badoi` fi usulish sharoi`", 751-832 hij), Ibn Nujaym (kitobi "Mishkotul anvor fi usulil manor", 926-980 hij) va Muhammad ibn Vali Izmiriy (kitobi "Mitootul usul", vaf. 1165-hij) lardir.

Yuqorida aytib o`tilganidek ko`pchilik hanafiy mazhabi olimlarining ulumul hadis qoidalari, tamoyillari, istilohlari haqidagi qarashlari usulul fiqhning "sunnat" bobida keltirilgan bo`lsada, ba`zi bir olimlar hanafiy mazhabininh usulul hadis qoidalari haqida alohida, mustaqil kitob ham yozganlar. Jumladan:

1. Abul Fayz Muhammad ibn Muhammad ibn Ali Haraviy (vaf. 731-hij)ning "Javahirul usul fi ilmi hadisi rosul" kitobi;
2. Taqiyuddin Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Shumunniy (801-872 hij)ning "Al-aalir rutba fi sharhi nazmi nuxba" kitobi;

[27] Amir Kotib Itqoniy. Ash-shamil. Saudiya. 2001. J. 5. B. 338

3. Abul Adl Qosim ibn Qutlubg`o Suduniy (702-789 hij)ning “Qovlul mubtakar hoshiyatu nuxbatul fikar” kitobi;

4. Roziyuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim ibn Yusuf (Ibn Hanbaliy nomi bilan mashhur, 907-981 hij)ning “Qofvul asar fi sofvi ulumil asar” kitobi;

5. Abul Hasan Ali ibn Sulton Muhammad Qori (Mulla Ali Qori nomi bilan mashhur, vaf. 1014-hij)ning “Tavzihul mabaniy va tanqiyul maoniy” kitobi;

6. Abdul Haqq ibn Sayfiddin Dehlaviy (959-1052 hij)ning “Muqoddimatu fi usulil hadis” kitobi;

7. XI asr olimlaridan Muhammad Akram ibn Abdurrahmon Sindiyning “Imanu nazar fi tavziyhi nuxbatul fikar” kitobi. Olim asosan “Usul Saraxsiy” va “At-tavziyh” asarlariga suyangan;

8. Abul Hasan Sog`ir G`ulom Husayn ibn Muhammad Sodiq Sindiy (1125-1187 hij)ning “Bahjatun nazar sharhu nuxbatul fikar” asari;

9. Imom Abdulaziz ibn Ahmad ibn Homid Quroshiy (1027-1239 hij)ning “Kavsarun nabiy va zalalu havzihi roviy” asari;

10. Muhammad Abdul Hayy Laknaviy (1264-1304 hij)ning “Zofarul amaniy bisharhi Sayyid Sharif Jurjoniy” kitobi;

11. Mavlaviy Muhammad Shoh Hindiyning “Umdatul usul fi hadisi rosul” asari. Hanafiy mazhabini usuli hadisini bayonlash uchun yozgan. Hanafiy olimlarining qarashlarini usulul fiqhning “sunnat boblari”dan olgan.

12. Shibbbir Ahmad Usmoniy (1305-1369 hij)ningFathul mulhim bi sharhi sohiyhil muslim” asari;

13. Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy (1310-1394 hij)ning “I`lous sunan” kitobi. Hadis borasida tengsiz asar hisoblanadi. Xususan “qovaid fi ulumil hadis” nomli muqaddinasida hadis istilohlari, ulumul hadis qoidalari batafsil yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Avvomaning qalamlariga mansub “Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o‘rni” asari (Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr. – T.: 2018).
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011
3. Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulumil hadis. Damashq, Dorul fikr. 2020
4. Abdul Majid Juzajoniyning “Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari” asari (Tarjimon Muhammadrahim Abdulqodirov Hilol nashr. – T.: 2021).
5. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
6. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ibn Kasir. –Bayrut.: 2020
7. Abdulmajid Turkmoniy. Al madxal fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ar-Rayohiyn. – Urdun.: 2021

O'ZBEKISTONDA KO'P OVOZLI ORKESTR VA ANSAMBLLARNING TASHKIL TOPISHI

Nazarov Xolmurod
Termiz Davlat Universiteti, musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada "O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi" mavzusi asosida modernizatsiyalashtirish ishlari, ko'p ovozli orkestr va ansambllar yaratilishi yo'lida cholg'ular oilasiga asos solinishi hamda bu yo'lda yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy cholg'ular, modernizatsiya, diatonik, xromatik, diapazon, orkestr, ansambl, temperatsiya ,registr, tanbur, chang, qashqar rubobi, afg'on rubobi, g'ijjak, dutor.

Аннотация. В данной статье на тему "процессы совершенствования народных инструментов в Узбекистане и создание многоголосных оркестров и ансамблей" освещены работы по модернизации, созданию многоголосных оркестров и ансамблей, основанию семейства инструментов и недостаткам, допущенным на этом пути.

Ключевые слова: национальные инструменты, модернизация, диатоника, хроматика, диапазон, оркестр, ансамбль, темперация ,регистр, танбур, чанг, кашкарская рубоб, афганская рубоб, гиджак, дутор.

Annotation. This article is about modernization of folk instruments in Uzbekistan and the formation of polyphonic orchestras and ensembles. the establishment of a family of instruments in the creation of orchestras and ensembles, as well as the shortcomings in this direction.

Keywords: National instruments, modernization, diatonic, chromatic, range, orchestra, ensemble, temperature, register, tanbur, chang, kashgar rubob, afghan rubob, gijjak, dutar.

O'zbek xalqining tengi yo'q boyliklaridan biri sanalmish – milliy cholg'ularimiz o'zining jozibadorligi, betakrorligi va ijro imkoniyatlarining kengligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda yuksak ahamiyat kasb etadi.

Ushbu cholg'ular bizning davrimizga yetib kelgunga qadar juda ham ko'p marotaba o'zgarishlarga yuz tutgan. Bunga sabab O'zbek xalq cholg'ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish bo'lgan va bu takomillashuv o'tgan asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri kelgan. Bu ishlar birinchilardan bo'lib, hofiz Shorahim Shoumarov, ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, sozgar usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning asosiy maqsadi – musiqiy cholg'ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholg'u diapazonini kengaytishdan iborat edi. Sh.Shoumarov O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari ansamblida ishlagan kezlari g'ijjak, dutor, tanbur kabi cholg'ularning tovushi hamda tembrini yaxshilashga doir ishlarni boshlab yubordi. Laboratoriyada o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirish jarayonida u aynan g'ijjaklarning kosasini har xil xomashyodan, ya'ni kokos yong'og'i, qovoq, mis va yog'ochdan turli shakllarda

yasadi. Tajriba natijasida aynan kosasi yog'ochdan yasalgan cholg'u maqsadga muvofiq deb topildi.

Keyinchalik xalq cholg'ularini tizimli ravishda modernizatsiyalashtirish ishlari jadal sur'atda boshlanib ketdi. Ashot Ivanovich Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh musiqa ustalari ya'ni V.Romanchenko, A.Kevxosyans, S.Didenko va V.Andreyevlarning tajribasiga tayangan holda cholg'ularni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida ijrochilikning zamonaviy talab darajasigacha moslashtirishga ya'ni modernizatsiyalashtirishga kirishdilar. Modernizatsiyalashtirishdan maqsad esa, ko'p ovozli orkestr va ansambl jamoalarini tuzish ko'zda tutilgan. Bunga qadar ansambl jamoalari faqatgina bir ovozli ya'ni unison tarzida ijro etishgan. Bu yo'lda o'z-o'zidan A.Petrosyansda cholg'ularning oilasini yaratish fikri paydo bo'ladi va natijada nota orqali ijro etadigan orkestrlar hamda ansambllarning shakllanishiga asos solindi.

1950-yillarning boshlarida bu tarkibga X.Muxitdinov, Abdug'ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev va F.Bortniklar kelib qo'shilganlar. Modernizatsiyalashtirish jarayonlarida cholg'ularning oilalari yaratila boshladi. Bunda g'ijjak cholg'usining o'zi zamonaviy talablarga mos keladigan qilib takomillashtirilgan so'ng u asosida g'ijjak alt, g'ijjak bas va g'ijjak kontrabas cholg'ulari yaratildi. Ushbu oila asosida O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Murod Toshmuhamedov "Sayqal" nomli g'ijjakchilar orkestrini tuzdi va unga rahbarlik qildi. Shu tariqa diatonik tovushqatorli an'anaviy dutor asosida 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va xromatik tovushqatorga ega bo'lgan dutor tenor cholg'usi yaratildi. Dutor tenor asosida esa, dutorlar oilasiga kiruvchi dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabas cholg'ulari yaratildi. Diatonik tovushqatorga ega bo'lgan qashqar rubobi cholg'usi ham modernizatsiyadan so'ng xromatik tovushqatorga ega bo'lgan 12 bosqichli teng temperatsiyalangan, milliy va yevropa kuylarini bemalol ijro etsa bo'ladigan zamonaviy cholg'uga aylandi. Hozirgi qashqar rubobi asosida prima rubobi, metsosoprano rubobi, kichik rubob va alt rubobi yaratildi. Shularning qatorida an'anaviy afg'on rubobi ham xromatik tovushqatorga ega bo'lgan modernizatsiyalashtirilgan afg'on rubobiga aylandi va ruboblar oilasi bilan birgalikda xalq chog'ularidan tashkil topgan ansambl va orkestrlarda yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sifatida qo'llanilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalq cholg'ulari modernizatsiyasi ishlari ijrochilik amaliyotida ulkan ijobiy burulish yasadi. Cholg'ular oilasi yaratilib ko'p ovozli ansambl va orkestrlarga asos solindi. Takomillashgan cholg'ularda ham milliy ham yevropa kuylarini bemalol ijro etishimiz mumkin. Bu albatta yaxshi!. Ammo modernizatsiya jarayonidagi xato va kamchiliklar ham yetarlicha bo'lganligini hozirgi kundagi ijrochilik amaliyotlaridan kuzatishimiz mumkin. Masalan:

O'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan xromatik tovushqatorga ega cholg'ularimiz kosasiga hayvon terisidan parda tortilganligi sababli ob-havo sharoitini o'zgarishi oqibatida cholg'u sozlari ham o'zgarib ketadi. Ya'ni issiq ob-

havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan parda taranglashadi va cholg'u sozi ko'tariladi. Yoki aksincha sovuq ob-havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan teri boshashib qoladi va oqibatda cholg'uning sozi tushib ketadi;

Cholg'ularni modernizatsiya qilishda ularning oilalari yaratildi lekin ushbu oiladagi cholg'ularning ayrimlaridan hozirgi kundagi orkestr va ansambllarda foydalanilmaydi. Umuman olganda yakka ijrochilikda ham metsosoprano rubobi, kichik rubob, alt rubobi, dutor sekunda, chang bas, chang alt, chang pikkolo, chang tenor kabi cholg'ular o'z o'rnini yo'qotib, cholg'u muzeylaridan qo'nim topgan.

Fikrimcha o'zbek xalq cholg'ulari modernizatsiyasini qayta ko'rib chiqish lozim. A.Petrosyans boshchiligidagi modernizatsiyadan so'ng o'tgan vaqt bizga anchagina tajriba vazifasini bajardi deyish mumkin. Modernizatsiya jarayonlarida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan yetarlicha xulosa chiqargan holda "Milliy cholg'ularimizni" bosqichma-bosqich takomillashtirib ularni milliylik bilan birgalikda davr talabiga mos qilib mukammal ijro imkoniyatlariga ega bo'lgan cholg'u sifatida qayta ishlab chiqarish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligi "Musiqa" nashriyoti Toshkent – 2017y. 82-85-betlar.
2. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.
3. Bekzod Bahrom O'G'Li Choriyev O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi // Science and Education. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi (дата обращения: 07.10.2022).
4. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 67-73.
5. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
6. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517
7. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80)*, 83-87.
8. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401
9. DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17
10. . Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, *3*(4), 776-780.
11. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi.

12. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
13. URL: https://scienceweb.uz/publication/2144
14. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
15. O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Jarqo'rg'on","Sharshara","Mahliyo","Qo'ng'irot" va "Zevar" folkloretnografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.
16. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

ДУНЁНИ ҲАЙРАТГА СОЛГАН САНЪАТКОР

Турсунов Ҳуршид Абдураимович
Термиз давлат университети "Мусиқа таълими" кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада "дунёни ҳайратга солган санъаткор" мавзуси асосида етарлича ёритиб беришга ҳаракат қилинди.

Калит сўзлар: мусиқа, санъат, Виртуоз, санъаткор, Тантана, мерос, концерт, олимпиада, бастакор, рақс.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка достойно осветить тему «художник, удививший мир».

Ключевые слова: Музыка, Искусство, Виртуоз, Художник, Праздник, Наследие, Концерт, Олимпиада, Композитор, Танец.

Abstract. In this article, an attempt was made to adequately cover the topic of "the artist who surprised the world".

Keywords: Music, Art, Virtuoso, Artist, Celebration, Heritage, Concert, Olympics, Composer, Dance.

Йигирманчи асрнинг биринчи ярмида ўзбек ҳалқ санъати довруғи бутун дунёга тарқалди. Республика санъат усталарининг Москва, Санкт-Петербург, Бакуда қўйган концертлари томошабинларни ҳайратга солганди. 1930 йилда Москва шаҳрида бўлиб ўтган олимпиадада иштирок этган Уста Олим Комиловга миллий рақслар бўйича янги усуллар яратган ҳамда аждодлардан мерос бўлиб қолган бир юз йигирмага яқин усулни ёдида сақлагани учун "Виртуоз доирачи" деган ном берилган эди.

1935 йили ўзбек санъаткорлари Уста Олим Комилов, Тўхтасин Жалилов, Абдуқодир Исмоилов, Тамарахонимлар Англияда ўтказилган халқаро рақс фестивалида қатнашиш шарафига муяссар бўлдилар. Ўн мингга яқин томошабин йиғилган Лондон шаҳридаги муҳташам санъат кошонаси Альберт-Хиллда турли мамлакатлардан келган санъаткорлар қаторида Ўзбекистонлик санъаткорлар ҳам ўз санъатларини намойиш қилдилар. Доирачи Уста Олим Комилов ўзбек миллий рақслари "Қари наво" ҳамда "Пилла" рақси куйини маромига етказиб ижро қилганда, Альберт-Хилл санъат кошонаси гулдурос қарсаклардан ларзага келди. Хатто белгиланган вақт адоғига етганда ҳам томошабинлар ўзбек санъаткорларини саҳнадан қўйиб юборишмайди. Улар Уста Олимдан доира куйларидан яна чалиб беришни илтимос қилишади. Шунда у ўзбек халқ куйларидан "Ноғора ўйини" ва "Тантана"ни чалиб бериб, уларни яна ҳам лол колдирди. Концертда ҳозир бўлган Англия қироличаси Елизавета I куй тугагандан сўнг саҳнага чиқиб, Уста Олимнинг доирасини қўлига олиб томоша қилади ва ўзбек санъаткорининг мўъжизакор бармоқларидан гипсга нусха олиб, Лондон музейига қўйишни буюради. Бу бармоқлар нусхаси ҳамон музейда сақланади. Рақс фестивалида беш нафар санъаткор олтин медалга сазовор бўлган бўлса, шундан иккитаси ўзбек санъаткорларидан Уста Олим Комилов ва Тамарахонимлар эди. Лондон сафаридан сўнг Уста Олим Комиловнинг

довруғи Европага ёйилиб, овоз ёзиш фабрикасида унинг доирадаги ижросида юзга яқин усуллар ёзиб олинган.

Уста Олим Комилов доира учун яратган асарлари халқ меросининг ажралмас мулкига айланиб кетган. Уларнинг айримлари ҳақида қисқача маълумотлар:

Катта ўйин. *Катта ўйин (ноғора ўйин) - қадимий рақслардан бўлиб, одатда халқ байрамлари ва тўй-тантаналарида, катта майдонларда ноғора, карнай-сурнай жўрлигида ижро этиган. Рақснинг кўшалоқ номланиши унинг мусиқий жўрлиги, нисбатан давомли ижро этилишидадир. "Катта ўйин " рақси Алишер Навоийнинг "Фарҳод ва Ширин " мусиқий операсига киритилган. Рақс тантанавор тарзда ашула билан ижро этилган. Уста Олим Комилов ашулаларнинг усулларини жамлаб тартибга келтирган.*

Пилла. *Уста Олим Комилов томонидан яратилган бу мусиқий асарни Мукаррама Тургунбоева доира жўрлигида концерт номери сифатида саҳналаштирган. Рақсда пилла қуртларининг тут барги билан боқилиши, шойи матосини тўқиш ва белбоғ - қийиқча тикиш жараёни бошдан-охиригача акс эттирилган.*

Кўқонча. *Водийга хос бўлган усуллар мажмуаси Кўқонда қадимдан мавжуд бўлган халқ оғзаки ижоди, хусусан, лапар, ялла ва бошқа айтишувларга асосланган.*

Тантана. *Тўй, тантана ва байрамларда ижро этишадиган усуллар тантанавор, байрамона оҳангда жаранглайди.*

Довул. *"Довул " — икки хил маънони англатади. Биринчиси, кучли бўрон, иккинчиси, овчилар, тўпчи қоровуллар ёки ҳарбийлар учун белгиланган махсус ноғора. Ушбу усуллар, момақалдироқ, чақмоқ каби табиат ҳодисаларини тасвирлайди.*

Шодлик. *"Шодлик"да инсон ҳаётидаги қувончли кунлар, яшашдан завқланиш, яхши кайфият тасвирланган. "Шодлик " ашула ва рақс ансамбли Уста Олим Комилов ижодига мансуб доира ижросидаги ушбу куй номи билан аталган.*

Қўшқарсак. *Ушбу асар XX асрнинг йигирманчи йилларида туркум кўринишда вужудга келган бўлиб, икки зарб маъносини англатади. Доира чолғусида созанданинг иккала қўл иштирокида ижро этиши ва шу билан бирга, доирада иккита асосий зарб - "бум " ва "бак" усуллари ҳам бу номланишга асос қилиб олинган. Устоз доирачшар "Кўшқарсак"ни доира ижрочилигидаги барча усулларнинг асоси, дея таърифлаганлар.*

Бурулча. *"Бурул" сўзининг луғавий маъноси холдор кўкиш отни англатади. Рақсда эса, чаққон буршиб, айланиб ўйнаш маъносини беради.*

Уста Олим Комилов халқимиз асрлар бўйи эъзозлаб келган чолғу асбоби - доирада камолот касб этганидан ташқари, раққос, бир неча мусиқа чолғуларининг моҳир ижрочиси сифатида халқ меҳрини қозонган санъаткор эди. У чанг, дутор, ноғора, доираларни ўзи ясар ва бу чолғуларда чалишни ҳам маромига етказарди. "Гул ўйин", "Занг", "Садр", "Пилла" каби санъат

асарларини у Тамарахоним билан ҳамкорликда яратган. У оддий ижрочи эмас, балки хореография постановкачиси ҳам эди. "Фарҳод ва Ширин", "Гулсара" мусиқали драмаларидаги ҳамда "Бўрон", "Буюк канал" операларидаги миллий рақсларнинг ижодкори ҳам Уста Олим Комилов бўлган.

Марғилонда тўқувчи-косиб оиласида дунёга келган Уста Олим Комилов таваллудига бу йил баҳорда 147, Лондон фестивалида иштирок этганига эса 87 йил тўлади. Халқ санъатини юксак даражада дунёга намойиш эта олган санъаткор яратган асарлар умри боқийлиги унинг номига ҳам абадийлик бахш этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. https://arboblar.uz/uz/people/kamilov-usta-olim
2. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.
3. Bekzod Bahrom O'G'Li Choriyev (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3 (4), 776-780.
4. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi
5. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.
6. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.
7. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
8. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517
9. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 83-87.
10. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401
11. DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17
12. https://ru.wikipedia.org/wiki/
13. http://www.classicmusic.uz/usta_olim_komilov_uz.htm

ХЎШБОҚ БАХШИ МАРДОНАҚУЛ ЎҒЛИ

Турсунов Жамшид Абдураимович
Термиз давлат университети "Мусиқа таълими" кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада "Хўшбоқ бахши Мардонақул ўғли" мавзуси асосида етарлича ёритиб беришга ҳаракат қилинди.

Калит сўзлар: Мусиқа, санъат, маросим, санъаткор, Тантана, мерос, оғзаки, маданият, ижод, халқ.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка достаточно осветить тему «Хошбок Бахши Мардонакул оглы».

Ключевые слова: Музыка, искусство, ритуал, художник, праздник, наследие, устное, культура, творчество, народ.

Annotation. In this article, an attempt was made to sufficiently illuminate the topic of "Khoshbok Bakhshi Mardonakul Oglu".

Keywords: Music, art, ritual, artist, celebration, heritage, oral, culture, creativity, people.

XXI аср дунё миқёсида маданият ва маърифат соҳалари ҳам кенг қулоч отиб тараққий этмоқда. Инчунин, халқ оғзаки ижодига ҳам қарашлар, қизиқишлар ўзгарди. Айниқса, бизнинг Ўзбекистонимизда бу борада ибрат олгулик ишлар амалга оширилди. Президент Ш. Мирзиёев ташаббусларининг самарасини айтмайсизми?! Термиз шаҳрида бахшилар мактабининг янгидан қурилиши, мусиқа ва санъат мактабларида бахшичилик гуруҳларининг барпо этилиши, халқ ижодига бўлган янгича қарашлар маҳсулидир. Ҳар икки йилда бир марта халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида фармон-ку, нур устига нур бўлди.

Шунга таянган ҳолда мамлакатимизда фольклор ва халқ оғзаки ижоди соҳасидаги устоз-шогирдлик анъаналари тарихини синчиклаб ўрганиш, бахшилар ҳаёти ва ижодий фаолиятини кенг ёритиш зарурати ҳам туғилди. Шунга кўра, ёзувларимизда Ўзбекистон халқ бахшиси Хўшбоқ Мардонақул ўғли ҳаёти ва ижодини ҳам қаламга олдик. Бахши 1940 йил 25 декабрда Шеробод туманидаги Азон қишлоғида бахши-шоир Мардонақул Авлиёқул ўғли хонадонида дунёга келди. У болалигидан отаси билан ҳар хил маросимларда бирга қатнашиб, падари бузрукворининг айтган терма, достонларини ўрганиб, кези келган-да отасининг дўмбирасини қўлига олиб чертиб, калта-калта қўшиқ айтиб юрарди. Бахшичилик қонида бор эмасми, тезда тингловчи-томошабинлар кўзига ташлана бошлади. Шу билан бир қаторда қишлоғидаги мактабда таълим оларди. Ўн йилликни тугатиб, маълум муддат жамоа хўжалигидаги мактаб-маориф шохобчаларида меҳнат қидди.

Аммо бахшичилик иқтидори қалбини тинч қўймасди. Ниҳоят бахшичилик санъатига бўлган иштиёқ уни Тошкент давлат маданий-оқартув техникумига етаклади. Бу санъат даргоҳида 1963-1966 йиллари ўқиб, туғилиб ўсган туманининг маданият бўлимига ишга келди. Шу билан бир қаторда Хўшбоқ Термиз давлат педагогика институти (ҳозирги ТерДУда, 1968-1973 йиллар) филология факультетида сиртдан таҳсил олди. Мактабларда тил-ада-

биёт фани бўйича ўқувчиларга сабоқ берди. Айни пайтда туман маданият бўлимида бахшичилик санъати бўйича фаолият олиб бориб ўз касбининг устаси бўлиб етишди. От ўрнини той босар деганларидек, ота-боболари, тоғалари изидан бориб, машҳур бахши бўлиб етишди, Узбекистон халқ бахшиси деган унвонга сазовор бўлди.

Хўшбоқ бахши репертуарида ўттизга яқин достонлар бор. Бахши "Зарнигор", "Сувнори", "Олтин қобоқ", "Малла савдогар", "Сулувхон" каби бир қанча достонларни қўлёзма қилиб Ўзбекистон Фанлар Академиясининг фольклоршунослик бўлимига, академик Тўра Мирзаевга топширди. Шунингдек, 1999 йили ЮНЕСКО ташаббуси билан "Алпомиш" эпосининг 1000 йиллиги нишонланишида филология фанлари номзоди, фольк-лоршунос олим Тоштемир Турдиев Хўшбоқ бахшидан "Алпомиш"нинг Сурхондарё вариантини ёзиб олиб, ўн минг нусхада чоп эттирди, шундан сўнг, қайта нашрга тайёрлаб, 1000 нусхада нашр эттирилди. 2009 йили "Кўнглинг ўзга бўлмасин" назмий ҳикоялар тўплами 2000 нусхада "Насаф" нашриётида чоп этилди, "Ўзбек халқ мақоллари" (шарҳлар) китоби ("Ноширлик ёғдуси". Тошкент, 2019.) 800 нусхада чоп этилди. Шунинг билан бир қаторда бахши ўзбек халқ мақоллари, ўзбек халқ эртаклари, Ҳазрат Хожа Аҳмад Яссавий ҳикматларига шарҳ китоби ҳам тайёрланди ва 92 бовли ўзбек уруғлари Қўнғирот уруғининг шажарасига шарҳлар ёзиб, Ўзбекистон Мусулмонлари диний идорасига топширган. Бу қўлёзмалар асосида илмий ишлар қилинмоқда.

Хўшбоқ Мардонақул ўғли ўзбек бахшичилик санъатининг анъанавий устоз-шогирдлик борасида ҳам бобоси Шерна шоир ва отаси Мардонақул бахшига тортган. Сурхон ва Қашқадарё воҳаларида жўшиб ижод қилаётган кўплаб бахшиларга устозлик қилган. Айниқса, Ўзбекистон халқ бахшилари Боборайим Маматмуродов (марҳум), Шоберди Болтаев, Абдуназар Поёнов, Шодмон Хўжамбердиев, шунингдек, Омондавлат Шерназаров, Зулхумор Шерназарова, Панжи Тожиев, Сафар Поёнов (бу рўйхат чўзилиши мумкин) сингари шогирдлари бутунги кунда жўшқин ижод қилиб, эл-халқ назарига тушмоқда. Бахши ҳар қандай давра-ю йиғинларда шогирдларининг фаол иштирок этаётганлигидан мамнун. Шогирдлари ҳам устозининг иззат-ҳурматини жойига қўймоқда. Эслашиб, излашиб турадилар. Бахшининг хонадонида бўлсангиз, ҳақиқий ўзбекона муҳитга тушиб қоласиз. Ҳовли-жойлари ҳам оддийгина, худди муомалалари каби.

Шоир ҳамиша ижод билан машғул. Қўлида ручка, мўъжазгина столи устида китоб, дафтар, қоғозлар. Маърифат-маънавият қалбидан доим нур таратиб тургандай. У зотга барқарор, бардавом ижодни табиат ҳамиша инъом этгандай. Демакки, шогирдлари ён-берида ғуж-ғуж бўлаверади. Бахшининг ўтмишига яна бир разм соламиз. Хўшбоқ болалигидан бошлаб терма, достон айтиб улғайди. Мактаб, техникум, олий даргоҳ, меҳнатнинг турли жабҳаларида ишлаш, жуфти ҳалоли билан ҳаёт кечириш, унинг покиза заҳмати иштирокида фарзандлар тарбияси, уларнинг униб-ўсиши бахшининг

руҳини янада тетиклаштирмоқда. Бир суҳбатидаги ҳикоясини айнан баён қиламиз. Бахши 1968 йили Шерободнинг Сўхта қишлоғидан Тоштемир исмли одамнинг Ойхол деган қизи билан турмуш қуради. Улар уч ўғил (Саидмурод, Жўрабек, Отабек), беш қиз (Гулноз, Лола, Моҳи, Қизларбас, Дилафрўз)ни оқ ювиб, оқ тараб, тарбиялаб, вояга етказди. Тўнғич ўғли Саидмурод отаси ва бобоси йўлидан бориб бахши бўлиб етишди. У бахшичилик бўйича кўп синовлардан ўтди. Саидмурод чин берилиб айтганда, дўмбирасининг куйига, овозининг тиниқлигига тингловчилар қойил қолишарди. Қизиқ дунё, бу сулоланинг қонида бахшичилик бўлгани билан, Саидмуродда ирсиятдан бор, аммо иккала кичик ўғиллари Жўрабек билан Отабекда бу қобилият ва қизиқиш йўқ.

Лекин Отабекнинг етти яшар Шаҳзодбек исмли ўғли боболарининг изидан бориб, дўмбира чертиб, қўшиқ хиргойи қила бошлаган. Бобоси унга ўзига мосгина кичгина дўмбирача ясаб берган. Мухлислар ҳам шу мурғак-кина бўлажак бахшига хайрли йўл тилаб, дуодалар, албатта. Хўшбоқ бахши Мардонақул ўғли — пиру бадавлат инсон. Ёши саксонга етса ҳам, ўзи истиқомат қилаётган туман, вилоят, ҳатто республика ҳудудларидаги ижодкор созанда-ю бахшиларга самимий маслаҳатларини, бахшичилик ижодининг назарий билимларини, дўмбира чалиш маҳоратини ўрганиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. https://kh-davron.uz/tag/xoshboq-baxshi-mardonaqul-ogli
2. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.
3. Bekzod Bahrom O’G’Li Choriyev (2022). O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3 (4), 776-780.
4. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi
5. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
6. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA INSON MA'NAVIYATINING TARKIBIY QISMI BO'LGAN MUSIQIY DARSLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Tursunov Zohid Abduraimovich
Termiz davlat universiteti "Musiqa ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Bolalar musiqa va san'at maktablarida inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy darslar samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusi asosida yetarlicha yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, kuy-qo'shiq, dutor, doira, badiiy, tajriba, pedagogika, psixologiya, fizologiya, etika, estetika.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка предоставить достаточно информации по теме «Пути повышения эффективности занятий музыкой, являющихся составляющей духовности человека в детских музыкальных и художественных школах».

Ключевые слова: Музыка, искусство, музыка, учеба, кружок, художественный опыт, педагогика, психология, физиология, этика, эстетика.

Annotation. In this article, an attempt was made to provide enough information on the topic of "Ways to improve the effectiveness of music lessons, which are a component of human spirituality in children's music and art schools."

Key words: Music, art, music, study, circle, artistic, experience, pedagogy, psychology, physiology, ethics, aesthetics.

Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati novqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda"[28].

O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yil 23-sentaybr №637-sonli O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni asosida yangi tashkil etilayotgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi jahonning ko'plab ta'lim ekspertlarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Ular Respublikada va uning tashqarisida shu sohada o'tkazilayotgan anjumanlar minbarida kasb-hunar ta'limini o'zbekcha modeliga ijobiy baho bermoqdalar. Ommaviy axborot vositalari va televideniya orqali uzoqni ko'ruvchi chet el mutaxassislarining chiqishlari ham fikrimizning isbotidir. Bir vaqtlar biz chet el tajribalarini o'zimizda sinab ko'rib o'zlashtirgan bo'lsak, hozirda esa, bizning tajribamiz chet elliklarga asqotganday ko'rinmoqda. Bu hol albatta, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini o'z vaqtida va mukammal ishlanganidan darak beradi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan kasb turidir. Musiqa tarbiyasi,

[28] O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asaridan

nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy "Bu fan tanning sog'lig'i uchun foydalidir" degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: "Musiqa odam ruxining yo'ldoshidir". Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan, o'z kasbiga, ona vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. O'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jaroyonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli keng dunyoqarashli ma'naviy yetuk, biror bir cholg'u asbobini mohirlik bilan ijro eta oladigan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fizologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak. Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim.

Foydalaniulgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari.
2. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
3. URL: https://scienceweb.uz/publication/2144
4. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 67-73.
5. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.

6. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC

FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATIDA QO'SHIQ JANRINING O'RNI

Xakimov Orifjon Boboramazonovich
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek folklor ijrochilik san'atida qo'shiq janri xususida so'z boradi. Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida xalq qo'shiqlari mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borgan. Shuning uchun qo'shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o'rta asrlarda, hamda kuni kecha yoxud bugun yuz berayotgan voqealarning, kechinmalar o'z ifodasini topadi. Maqolada qo'shiq janri batafsil yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, qo'shiq, janr, ijrochilik, san'at, doston.

Аннотация. В статье говорится о песенном жанре в узбекском фольклорном исполнительском искусстве. В ходе длительного исторического развития народные песни превратились из мифологического мышления в художественное. Поэтому, помимо следов античного воображения, песни выражают события и переживания Средневековья, а также сегодня, вчера и сегодня. В статье сделана попытка подробно осветить песенный жанр.

Ключевые слова: фольклор, песня, жанр, исполнительство, искусство, эпос.

Abstract. The article talks about the song genre in Uzbek folklore performance art. During the long historical development, folk songs have turned from mythological to artistic thinking. Therefore, in addition to traces of ancient imagination, the songs express the events and experiences of the Middle Ages, as well as today, yesterday and today. The article tried to cover the song genre in detail.

Keywords: folklore, song, genre, performance, art, epic.

Qo'shiq – to'rtliklardan tashkil topgan, kuyga, ohangga solinib ijro etiladigan she'riy san'at. Turkiy xalqlar folkloridagi eng qadimiy va boy janrlardan biri. Yaratilish asoslariga ko'ra, qadimiy inonch-e'tioqod va tasavvurlar, jumladan, naimistik, totemistik, shomonlik dunyoqarashi, kultlar, marosim va udumlar, kundalik maishiy hayot bilan uzviy bog'langan, kuy hamda raqslar bilan munosabatini barqaror saqlab qolgan, lirik xarakterdagi she'riy sa'nat namunalari xalq qo'shig'i deyiladi.

Qo'shiq haqida dastlabki ma'lumot Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» kitobida uchraydi. Bu xalq qo'shiqlarining o'sha olis davrlarda ham rang-barang bo'lganligini, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

«Qo'shiq» so'zi «Devonu lug'otit turk»da «koshug'», Yusuf Xos Hojibda «qoshuq», Haydar Xorazmiyda «qo'sh», Mahmud Umar Zamahshariyning «Muqaddimatul-adab» asarida «qo'shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo'shiq», «surud», «ayolg'u», «lahn», «turku», Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobirnonoma»sida «qo'shiq» shaklida kelganini ko'ramiz. Alisher Navoiy ham, Bobur ham xalq qo'shiqlarini nazarda tutganda «qo'shiq» kalimasini ishlatadi. Qolgan paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.

Qadimda ajdodlarimiz qo'shiqni odamlarga tinch-tovulik, hosildorlik, farovonlik, farzand va farovon kelajak ulashadigan iloha deb tassavur qilganlar. Bir rivoyatga ko'ra: Bir zamonlar qo'shiq yer uzra uchib, odamlarni kuylashga o'rgatgan. U ayolday injiq va go'zal bo'lgan. Qo'shiq qaysi joyda ko'proq to'xtab, quvonsa, u yerda odamlar serfarzand va farovon yashashgan.

Garchand, bugungi kunga kelib turkiy xalqlarda qo'shiqlar turlicha nom bilan atalsada, ularning ildizlari bir. O'zbeklar- qo'shiq, qozoq, qoraqalpoqlar - qo'siq, turkmanlar -aydim, turk va ozorlar koshma, goshma, turku, uyg'urlar - qo'shoq deb ataydilar. Ba'zi turkiy xalqlarda qo'shiq turki ham deb ataladi. Biroq qo'sh va qo'shiq so'zlari qadimiyroq bo'lib, bugungi tushunchadagi xalq lirikasi ma'nosini anglatadi.

Og'zaki ijod namunasi bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan ma'lum bir individual ijodkor tomonidan yaratilgan adabiy qo'shiq o'rtasida o'zaro o'xshashlik va farq mavjud. O'xshashlik har ikkala qo'shiqning ham musiqaga, ohangga, ma'lum bir o'lchov - vaznlarga amal qilishidadir. Xalq qo'shig'i yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlardan an'anaviyligi, jamoaviyligi, maishiy yo'nalganligi, variantliligi, ya'ni asrlar davomida xalq tomonidan og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilib, og'zaki meros qilib qoldirib kelinayotganligi bilan tubdan farq qiladi.

Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida xalq qo'shiqlari mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borgan. Shuning uchun qo'shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o'rta asrlarda, hamda kuni kecha yoxud bugun yuz berayotgan voqealarning, kechinmalar o'z ifodasini topadi.

Qo'shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to'rtliklardan iborat bo'lib aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi. To'rtliklar qo'shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e'tirof etishadi. Qo'shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo'shiqning ohangdorligini ta'minlab, uning poetik xususiyatini ko'chaytirishga xizmat qiladi.

Xo'p hayda-yo, xo'p hayda, mayda-yo, mayda.
Qalqon tuyog'im hayda, mayda-yo, mayda.
Temir tuyog'im hayda, mayda-yo, mayda.
Xirmonni qilgin mayda, mayda-yo, mayda.

Qo'shiqlarning ijro san'atidagi o'rnini undagi ramzlar tutgan o'rni bilan belgilanadi. Shunday ekan eng avvalo ramz nima degan savolga javob berish kerak bo'ladi. Ramzlar turmushda, fanda, adabiyot va san'atda keng qo'llaniladi. Bu sohalarning barchasidagi «ramz» tushunchasini bir-biriga bog'lab turuvchi yetakchi xossalardan biri - ularning har qaysisida ramz sifatida kelayotgan, anglanayotgan narsaning o'zida bir qancha tushunchalarni jamlab, turg'un assosatsiya (imuquq) uyg'otishidir. Lekin har bir soha o'z tabiati(sfetsifikasi)dan kelib chiqib, ramzlarga o'ziga xos mezonlar asosida yondoshadi. Ko'pchilik holatlarda bir sohada qo'llanuvchi ramzlar ikkinchi sohada bu xil vazifa bajarmaydi.

Turmushda, fanda, adabiyot va san'atdagi ramzlar vazifalariga ko'ra ham farqlanishadi. Turmushdagi ramzlar asosan komunikativ vazifa bajarishsa, fandagi ramzlar ma'lum tushunchalarni bildirishga, adabiyot va san'atdagi ramzlar

kechinma, holat va voqealarni badiiy estetik anglatishga xizmat qiladi. Fan, adabiyot va san’atdagi ramzlarning umumiy va xususiy jihatlari haqida ilmiy adabiyotlarda qimmatli fikrlar aytilgan.

Poetik ijod mahsuli bo'lmish folklor va adabiyot o'rtasida ko'pgina mushtarak tomonlar mavjud. Shu bilan birlikda ularning o'ziga xos tuzilishi, sfetsifik ichki qonuniyatlari va boshqa muhim xossalari bir-biridan ajratib turadi.

Folklorda ijrochi (u yuksak darajada impravizator bo’lsa ham) folklor asarlarini ijro etishda, yangi asar yaratishda asrlar davomida vujudga kelgan qat’iy an’analar doirasidan butunlay chetga chiqa olmaydi. Folklorda turg‘un an’analarning buzulishi, eskilik o'rniga yangisining kirib kelishi juda sekinlik bilan asrlar davomida kechadi. Adabiyotda an’analarning yangilanishida ijodkor roli katta. Xususan adabiyotdagi shakliy an’analar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi o'zanga burilib ketishi mumkin. Aynan shu holni folklor va adabiyotdagi poetik obrazlar, jumladan poetik ramzlarning qo'llanilishi va tarixiy taraqqiyotida ham ko'rish mumkin.

Biz bu o'rinda dastavval folklor va adabiyotda ramz deyilganda nimani tushunishimizni aniqlashtirib olishimiz kerak. Biz badiiy asarda (folklor va adabiyotda) ramz deb-biror so‘z (obraz yoki detal) va so'zlar birikmasining o‘zi ifodalab kelayotgan lug'aviy ma’nodan tashqari, shartli ravishda turg'un assotsatsiya uyg‘otishni va bu assotsatsiyaning nazarda tutilayotgan poetik ma’noning yuzaga chiqishida xizmat qilishini tushunamiz.

Folklordagi ramzlar birinchi galda an’anaviyligi bilan xarakterlanadi. Bu an’ana asrlar davomida shakllanib, ko'pchilik o'rinlarda tarixan xalqning uzoq o'tmishiga, turli mifologik ishonch e’tiqodlarga borib bog'lanadi. Shu sababli ham ular ijrochi va tinglovchiga mazmunan begona bo‘lmaydi. Lekin an’anaviylikda primitivlikni ko'rmaslik kerak. Har bir an’anaviy ramz konkret matnda o'zining yangi semantik qirralarini namoyon qila oladi. Bu esa folklordagi sodda, takrorlanmas go'zallikni, serma’nolikni ta’minlaydi. Folklordagi ko'pchilik ramzlarning tub poetik ma’nosi deyarli o'zgarishsiz avloddan-avlodlarga o'tadi. Yangi ramzlarning paydo bo'lishi adabiyotdagiga nisbatan sekinlik bilan kechadi. Folklorda muayyan bir asar yoki ijodkorga tegishli induvidial ramz yo'q. An’anaviylik, ommaviylik, bir janrga tegishli asarlar doirasida tub turg‘un ma’nolilik folklordagi ramzlar uchun yetakchi xossalar hisoblanadi.

Folklorga qarama-qarshi o'laroq adabiyotdagi ramzlar ijodkor talanti va iqtidori bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Har bir ijodkorda xalq simvolikasini, umum adabiyotdagi an’anaviy ramzlarni qo'llash, ularga o'zgacha poetik ma’no bera olish bilan bir qatorda yangi ramzlar yaratish, boshqa adabiyot, xalqlarga mansub ramzlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Adabiyotdagi ko'pchilik an’anaviy ramzlar tarixan folklordagi ramzlarga borib bog‘lanadi. Lekin ular aynan folklordagi poetik ma’noni tashiydi deb hukm chiqarib bo'lmaydi. Folklor va adabiyotdagi ramzlarning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi yana bir muhim xossalardan biri, asarda ramz ifodalayotgan poetik ma’noning namoyon bo'lishida matn mazmunining roli masalasidir.

Folklordagi ramzlarning poetik ma’nosini anglashda tinglovchiga yo'nalish beruvchi asosiy omil, shu ramziy obrazning uzoq vaqtlar davomida xalq ongida shakllanib, an’anaviy ko'rinish olgan tasavvurlar tizimi bo'lsa (bu o'rinda xalq qo'shiqlaridagi vaziyat ramzlar ma’lum jihatlari bilan adabiyotdagi ramzlarga yaqin kelishini nazardan qochirmaslik kerak), adabiyotda ramziy obraz ifodalayotgan haqiqiy poetik ma’no bevosita matn mazmuni orqali yuzaga chiqadi.

Masalan:

Savrixonning ro’moli,
To’zimasmi qirg’og’i?
Mahmudalini kuydirgan,
Qoshi bilan qabog‘i.

Keltirilgan to’rtlikda «ro’mol» poetik ramz. Lekin matnda ushbu obrazning ramziy ma’nosi nima ekanligiga biror -bir aniq ishora yo‘q. Mabodo ro'molni ramz sifatida olmay, o'zining buyum ma’nosida anglab, to‘rtlikni talqin etishga urinib ko'rsak, o'ta jo'n xabarni uqamiz. Bu o'rinda ro'molning xalq tasavvurida va qo'shiqlarida oila ramzi ekanligini nazarda tutib matnga yondoshsak, qo'shiqda ko'ylangan asl holat ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Folklordagi bevosita tabiiy qiyos asosida paydo bo'lgan ramzlarda so'zning leksik va ko'chma ramziy ma’nosi o'rtasida bog'liqlik bilvosita sezilib turadi. Ayni holatni adabiyot va folklordagi ramzlar uchun umumiy xossalar qatorida sanash mumkin. Folklordagi ramzlar janrlar aro nafaqat mazmunan balki har bir janr tabiatiga ko'ra shaklan tafovutlarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan: o'zbek folklorida doston janri kompozitsion qurilishi, bayon usuli, tasvirlayotgan obyektni qamrov imkoniyati, ifoda shakli va hajm jihatlari bilan ham qo'shiq janridan keskin farq qiladi. Bir qancha dostonlardan olingan quyidagi she’riy parchalarga e’tibor beraylik;

Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi,
Bahor bo'lsa bog'da ochilgan gul bormi,
Bek Go'ro'g'li tilla tomni ko'tardi,
Shu kosani olib ichar ul bormi.

Yoki

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Ko'ngil suysa yorning labi bol bo'lsin.
Senday o'g'lon bu yerlarga kelmaydi,
Turkmanning egasi senga yo'l bo’lsin.

Keltirilgan misollarda xalq dostonlaridan keluvchi poetik ramzlar folklorshunosligimizda epik kilishelar qatorida bog'lanuvchi «Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi,» «Bahor bo’lsa bog'da ochilgan gul bormi»; «Ol-ol bo’lsin, ol-ol bo’lsin, ol bo’lsin»; «Bir bog'chada olma edi, nor edi»; turg'un, an’anaviy she’riy misralarda namoyon bo'lmoqda. Bu an’anaviy misralar «Oh tortganda ko'zdan oqar selob yosh»; «To o'lguncha so'ylab turgan til bo’lsin»; «G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor» kabi epik kilishelardan doimiy assotsitsiya uyg'otuvchi turg'un she’riy misralar diqqat bilan kuzatilsa ularning har birida ma’lum so'z va

birikmalarning ko'chma ma’no uchun asos bo'layotganligini ilg'ash mumkin. Masalan: birgina «Qori yo'q tumansiz tog'da bel bormi?» misrasini olib ko'raylik.

Turkiy xalqlar o'rtasida tog'ning ulug' bobo, homiy sifatida qaraluvchi inonch qadimdan mavjud bo'lganligini va bu mifologik inonchning turli mazmunli shaklli ko'rinishlari turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan. O'zbek dostonlari tarkibida ham bu qadim inonch izlarini ko’plab uchratamiz. Dostonlarda birgina tog‘ bilan bog‘liq qator an’anaviy she’riy ifodalarni ko’rishimiz mumkin. Masalan: «Erisin tog’larning qori erisin» «Yomg’urda emranmas tog‘larning toshi», «Manov tog‘ning boshin cholg‘on tumana». Bu an’anaviy she’riy misralardagi «tog‘» so'zi asosida kelib chiquvchi ramziy ma’nolar ham bevosta yuqorida keltirilgan umumturkiy mifologik zaminga borib bog‘lanadi. Folklordagi ramzlar janrlararo har bir janr tabiati tasvir obyekti bilan ma’lum tafovutlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

10. J.Eshonqulov “Folklor ijrochilik san’ati tarixi” ma’ruzalar matni. Toshkent 2018
11. “Бойсун – моддий ва номоддий маданият бешиги” Бойсун баҳори. Халқаро илмийамалий конференция 2018 йил 27 апрель Термиз 2018.
12. Умаров И. Бадаш: тарих ва анъана. – Термиз: Сурхон-Нашр. 2018. Б.136
13. S.Qurbonov “Folklor o’qitish metodikasi” Toshkent. 2021-yil
14. M.Naimov “Surxondaryo folklor-etnografik “Xalq havaskorlik” jamoalari”. Toshkent. 2022-yil
15. S.Yo’ldosheva G.Sattorova “Folklor etnografik ansambllari” Toshkent, O’qituvchi 2007.
16. “Boysun-bahori” ochiq folklor festivalini “jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqolalar to’plami. “Yangi nashr” Toshkent 2019.
17. R.Mo’minov, Q.Amonqulov “Moziydan bir sado keldi” “Adabiyot uchquni” Toshkent 2017.
18. S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev “Surxondaryo tarix ko’zgusida” “Sharq” nashriyoti Toshkent 2001.
19. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 67-73.
20. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80)*, 83-87.
21. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401
22. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, *3*(4), 776-780.
23. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi.

24. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
25. URL: https://scienceweb.uz/publication/2144
26. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.

ОММАВИЙ БАЙРАМ ВА ТОМОШАЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ - МАЪНАВИЙ- ХУСУСИЯТЛАРИ

Ҳусан Жумаев
Термиз давлат университети "Мусиқа таълими" кафедраси Маданият ва санъат соҳасини ташкил этиш ва бошқариш асослари фани ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада очиқ майдонларда ташкил этиладиган оммавий байрам ва томошаларни ташкил этишдаги энг муҳим жиҳатлар, унинг замонавий талқинларини тадқиқ этиш ҳамда бу борада олиб борилаётган ислоҳотларнинг негизини англаш ва очиқ майдон томошаларининг бадиий услубиятини таҳлил этишдир.

Калит сўзлар: байрам, оммавий томоша, миллий қадрятлар, мусиқа, қўшиқ.

Аннотация. В данной статье важнейшими аспектами организации массовых празднеств и представлений, организуемых на открытых пространствах, являются исследование его современных интерпретаций и осмысление основы проводимых в связи с этим реформ, анализ художественная методика перфомансов на открытом пространстве.

Ключевые слова: Праздник, публичное зрелище, национальные ценности, музыка, песня.

Annotation. In this article, the most important aspects of the organization of public celebrations and performances organized in open spaces are the research of its modern interpretations and the understanding of the basis of the reforms being carried out in this regard, and the analysis of the artistic methodology of open space performances.

Key words: Holiday, public spectacle, national values, music, song.

Байрамлар кишилар ҳаётидаги энг қувончли, ҳиссиётли дамлар, хушкайфият чоғлар, бирдамлик, меҳр-оқибат, келажакка ишонч туйғуларини узида қамраб олган буюк бир ижодий ва ташкилий жараёндир.

Байрам деганда, ҳаётдаги муҳим воқеа, санани кўтаринки руҳда, хурсандчилик билан нишонлаш тушунилади, яъни «**байрам»** туркча сўздан олинган булиб туй, маросим, хурсандчилик деган маънони англатади.

Томоша – томошабин кўз олдида намойиш этилган, юқори савияда бадиий жиҳатдан безатилган, эффектли ижро услубларидан моҳирона фойдаланилган, томошабин куриб эстетик завқ оладиган ва бевосита шу тадбирда иштирокчига айланадиган маданий тадбирдир.

Демак, биз байрам ёки томошани туғри ташкил қилиш учун қайси соҳаларга эътибор беришимиз керак?

"Биринчидан, байрам ва томошанинг драматик асоси булган сценарий, унинг ёзилиши жараёнлари, сценаристлар ҳақида;

Иккинчидан, томошабиннинг назари дарров байрам ёки томоша утказиладиган жойнинг безагига тушади. Демак, бунда биз оммавий байрамларнинг бадиий безаги, тасвирий санъат, рассомлар ижоди, декорациялар яратилиши ҳақида;

Учинчидан, куй, қушиқлар ва мусиқа барчамизнинг ҳаётимизга шундай сингиб кетганки, байрамларни санъатнинг бу турисиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Демак мусиқа, унинг оммавий байрам ва томошаларда тутган урни ва роли, бастакорлик ижоди ҳақида:

Туртинчидан, ҳеч бир байрам ва томошани рақсларсиз амалга ошириш мумкин эмас, демак, хореография санъати, балетмейстерлар, уларнинг ижодий фаолиятлари, рақсларнинг байрам ва томошаларда тутган урни ҳақида;

Бешинчидан, оммавий байрам ва томошаларда бадиий фон ва фон гуруҳларининг аҳамияти, уларни ташкил қилиш ва бошқариш туғрисида;

Олтинчидан, ҳозирги кунда ҳар қандай байрам ва томошаларда, контсертларда театрлаштириш усулларидан фойдаланиш ва қуллаш анъанага айланган. Демак, театрлаштириш усуллари ва шу соҳада фаолият курсатаётган ижодкорлар туғрисида;

Еттинчидан, байрам қатнашчиларини кийинтириш, мавзуга мос равишда либос танлаш жараёни ҳам байрам ёки томошада томошавийликка эришишининг муҳим шартидир.”[29]

“Оммавий томошалар халқнинг ижтимоий-маданий ҳаётида, меҳнаткашларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил қилишда муҳим рол ўйнайди. Улар шахснинг ҳар томонлама ривожланиши ва ижтимоий-маданий фаоллигини ошириш жараёнини ўзига хос вазифаларини бажаришга, яъни ҳаваскорлик ижодига жалб қилиш ва мазмунли дам олиш, ҳордиқ чиқаришни уюштиришга ёрдам беради. Оммавий томошалар фақатгина кишиларнинг ҳордиқ чиқаришигина эмас, балки билимини, дунёқарашини ўстиришга, ижодкорлигини оширишга қаратилган бўлиб,ўз навбатида, жамиятдаги асосий иш фаолияти билан яхшироқ шуғулланишга самарали ёрдам беради.

Аввалambор,томошаларнинг асл моҳиятини тушуниб олишимиз лозим.

- **биринчидан,** оммавий томошалар реал ҳаётда бўлаётган муҳим воқеаларни ва маҳаллий турмуш муаммоларини бадиий образли акс эттиради.

-**Иккинчидан,** оммавий томоша, қандай мавзудаги ижтимоий-маданий ҳодисага бағишланмасин, у фақат аниқ шароит учун белгиланган аудиторияга мўлжалланиб, айни вақтда эса бир марта ташкил қилинади.

- **Учинчидан,** оммавий театрлаштирилган томошалар реал ҳаётнинг энг муҳим воқеаларини ҳужжатли-бадиий воситаларга таяниб уюштирилади.

- **Тўртинчидан**, томошалар ижрочиламинг кенг омма (қатнашчилар) билан бирга ҳаракат қилишини тақозо қилади Оммавий театрлаштирилган томошалар-йирик воқеаларни кенг нишонлаш, байрам кайфиятини яратиш, оммавий ғоявий бирлаштириш учун ташкил қилинади.

Айниқса, охирги йилларда ташкил қилинаётган оммавий томошаларда бой халқ оғзаки ижоди намуналаридан самарали фойдаланиш туфайли улар халқ ўртасида катта обрў топмоқда.

[29] В.Рустамов. “Оммавий байрамлар режиссураси ва саҳналаштириш асослари”. Тошкент- 2007. 3-10 бет.

Булардан,

- Халқ мусиқа фолклори

-Халқ рақс санъати

-Халқ театри санъати.

Халқ театрининг қуйидаги асосий турлари шаклланган:

1. Масхарабозлик ва қизиқчилик.

2. Дорбозлик ва найрангбозлик (сирк санъати).

3. Қўғирчоқбозлик.

- Аския санъати

Оммавий театрлаштирилган томошалар-йирик воқеаларни кенг нишонлаш, байрам кайфиятини яратиш, оммавий ғоявий бирлаштириш учун ташкил қилинади.Томоша санъатининг ўзига хос хусусияти шундаки, у ўзи учун санъатнинг бошқа турларидан кўплаб турли шакллар ва таъсирчан воситаларни танлаши мумкин. Масалан: адабиёт,мусиқа, тасвирий санъат, архитектура ва ҳ.к. Томоша доимо маълум бир саҳна майдонида ўтказилиб, узвий саҳнавий чегарага эга бўлиб, аммо томошабин ва иштирокчига бўлинади.”[30]

3-август куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев ижодкорлар зиёлилар билан учрашуви бўлиб ўтди.Учрашувда ижодкор зиёлиларни бугунги кунда жамият ҳаёти,ислоҳотлар жараёнидаги ўрни ва вазифаси ҳақида муҳим ва долзарб фикрлар баён қилинди.

“Инсон қалбини ,унинг дарди ташвишларини ҳалқнинг орзу-интилишлари,Ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуси –бетакрор сўз оҳанг ва рангларда тараннум этишни ўз ҳаётининг маъно-мазмуни деб биладиган сиз муҳтарам ижод аҳлининг меҳнати нақадар машаққатли,масъулиятли ва шарафли эканлигини барчамиз яхши биламиз” [31]-деди муҳтарам юртбошимиз Ш.Мирзиёев

Сўнгги ойларда мамлакатимизда жорий этилган карантин тартиб қоидалари юрдошларимизни маданий ва кўнгилочар тадбирлардан бироз узоқлаштирди. Халқимиз куй-қўшиқларни, байрам ва тантаналарни соғинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-6000 Фармонига мувофиқ Маданият вазирлиги фаолияти ўрни,нуфузини ва салоҳиятини янада ошириш ҳамда маданият ва санъат соҳасини янада такомиллаштириш борасида ПҚ-4730 сонли қарор қабул қилинди. Бу муҳим қарор тасдиғи сифатида Ҳамда халқимизни маданий дам олишини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 сентабрь куни ўтказилган йиғилиши ҳамда Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан ҳафтанинг шанба ва якшанба кунлари “Майдон томошалари” фестивалини

[30] Ф.Аҳмедов. Оммавий байрамлар режиссураси асослари. Т.“Алоқачи” 2008, 166 -175 бет.

[31] Мирзиёев Ш.М.“Адабиёт ва санъат,маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”.Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллаори билан учрашувдаги маърузаси.Халқ сўзи.2017 йил 4-август

мунтазам равишда ўтказиб бориш режалаштирилди ва республика бўйлаб “Майдон томошалари” фестивали ўтказилди.”[32]

Томошаларни тайёрлашда аввало очиқ майдон дастури концепциясига оид турли эпизодлар ва номерларни асосан жўшқинлик кўтаринкилик ва байрамона руҳиятдаги дастурлар билан композицион боғланишига эътибор бериш лозим.

Жумладан;

- қўшиқ ва рақслар;
- саҳна кўриниши ва эстрада томошалари;
-қўғирчоқ театри томошалари ;
-бадиий композициялар ва ҳ.к;

дастурларида халқ билан биргаликдаги бадиий иштирокларини таъминловчи дастурлардан иборат бўлиши томошанинг янада жонли таъсирчан ва эмоционал бўлишини белгилайди. Бу каби оммавий томошалар ва майдон фестивалидан ягона мақсад асосан халқнинг маданий ҳордиқ чиқариши билан бир қаторда маданий маърифий ва маънавий ижтимоий онгигини янада ривожлантириш ҳамда бугунги давр билан ҳамнафас бўлиши мамлакатимизда олиб борилаётган улкан ислоҳотлардан хабардор қилиш ва унинг моҳиятини англаш каби устувор мақсадлар ҳам белгилангандир.

Шундай қилиб,бу каби мустақил жамиятимизда ўтказилаётган томошалар-ўзига хос педагогик система бўлиб, ушбу ижтимоий жамиятдаги барча тарбиявий ишлар органик бирлашган бўлиб , инсонларга доимий таъсир қилиб, уларнинг жамиятдаги дунёқарашларини,ғоявий-маънавий ва эстетик ҳолатларининг ривожига ёрдам бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-6000 Фармони.
2. Мирзиёев Ш.М.“Адабиёт ва санъат,маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллаори билан учрашувдаги маърузаси.Халқ сўзи.2017 йил 4-август
3. В.К.Рустамов. “Оммавий байрамлар режиссураси ва саҳналаштириш асослари”. Тошкент-2007. 3-10 бет.
4. Ф.Аҳмедов. Оммавий байрамлар режиссураси асослари. Т.“Алоқачи” 2008, 166 -175 бет.
5. Bekzod Bahrom O’G’Li Choriyev O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi // Science and Education. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-

[32] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-6000 Фармони.

takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi (дата обращения: 07.10.2022).
6. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 67-73.
7. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
8. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517
9. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80)*, 83-87.
10. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401 DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17
11. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, *3*(4), 776-780.
12. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi.
13. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
14. URL: https://scienceweb.uz/publication/2144
15. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
16. O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Jarqo'rg'on","Sharshara","Mahliyo","Qo'ng'irot" va "Zevar" folkloretnografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.
17. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

G’IJJAK QOBUZ BAS CHOLG’USINING YARATILISH TARIXI VA O’ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O’RNI

Choriyev Bekzod Bahrom o’g’li
Termiz davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi
Bekzodbekbahromovich1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “G’ijjak qobuz bas cholg’usining yaratilish tarixi va o’zbek musiqa ijrochiligida tutgan o’rni” mavzusi asosida yetarlicha yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so’zlar: Musiqa, san’at, cholg’u, g’ijjak, qobuz, prima, alt, bas, ijrochilik, diapazon, menzura, orkestr, bastakor, kompozitor, ansambl, tenor.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка адекватно осветить тему «История создания басового инструмента Гиджак кобуз и его роль в узбекском музыкальном исполнительстве».

Ключевые слова: Музыка, искусство, инструмент, гизжак, кабуз, прима, альт, бас, исполнение, диапазон, менсура, оркестр, композитор, ансамбль, тенор.

Annotation. In this article, an attempt was made to adequately cover the topic "The history of the creation of the Gijjak Qabuz bass instrument and its role in Uzbek music performance".

Key words: Music, art, instrument, gizjak, qabuz, prima, alto, bass, performance, range, mensura, orchestra, composer, composer, ensemble, tenor.

Hozirgi kunda o‘zbek musiqasida cholg‘u musiqasi muhim o‘rin egallab kelmoqda. Xalq cholg‘ularimizning betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o‘rin tutmoqda. Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan g‘ijjak asosida g‘ijjak prima, g‘ijjak alt, g‘ijjak bas va kontrabaslardan tashkil topgan g‘ijjaklar oilasi hamda qobuz prima, alt, bas va kontrabaslardan tashkil topgan qobuzlar oilasi yaratildi. Bu cholg‘ular oilasini yaratish jarayonida usta-konstruktorlar simfonik orkestrning kamonli cholg‘ularini yaratishdagi ish tajribasiga tayanganlar. Shuning uchun ham simfonik orkestrining kamonli cholg‘ular guruhi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining kamonli cholg‘ulari guruhining tarkibi bir-biriga o‘xshaydi. Ularning sozi, menzurasi, diapazoni, zarblari va ijro uslubi hamda ovoz chiqarish uchun qo‘llaniladigan kamoni ham bir xil. Xalqimizning torli-kamonli cholg‘ularidan g‘ijjaklar oilasi haqida so‘z yuritar ekanmiz avvalambor kamonli sozlarning kelib chiqishi va ibtidosi qadimgi Qobuz soziga borib taqaladi. Allomalarning fikricha Qobuz cholg‘usi turklarning eng qadimiy musiqiy sozlaridan bo‘lib, u haqdagi hikoya va rivoyatlar juda ko‘plab uchraydi. Darvesh Ali Changiy o‘zining Musiqiy risolasida Qobuzning yaratilishini Sulton Uvays Jaloyir nomi bilan bog‘laydi. Tarixiy malumotlarga ko‘ra barcha kamonli cholg‘ularning yaratilishiga qobuz sozi asos bo‘lgan ekan.

1936 yillardan boshlab milliy cholg‘ularimizni takomillashtirilganligi sababli musiqiy sozlar oilasi paydo bo‘la boshladi. Dutor, rubob, chang va g‘ijjaklar oilasi ham takomillashtirilib kengaytirildi. Shu jumladan g‘ijjak bas cholg‘usi ham

o‘zining ohangi va shirali ovozi bilan xalq cholg‘ularimiz ichida alohida e’tiborga loyiq. G‘ijjak bas cholg‘usi haqida gapiradigan bo‘lsak bu cholg‘uning tarixi haqida ustoz san’atkorlarimiz va musiqashunoslarimiz tomonidan qisqacha ma’lumotlar mavjud. Bazi ma’lumotlarga qaraganda professor A.I.Petrosyans xalq cholg‘ularini takomillashtirish jarayonida dastlabki qobuz (qo‘buz) qadimiy turk cholg‘usi ya’ni torli-kamonchali musiqa cholg‘usi ko‘rinishidan foydalangan ekan.

1934 yilda Qozoq bastakori, cholg‘ushunos olim A.K.Jubanov musiqa cholg‘usi, qobuzning turdosh oilasini yaratgan. Qobuzning alt, bas, kontrabas turlari mavjud. Bugungi kunda g‘ijjak bas cholg‘usi haqida bilmagan, uning mungli, ifodaviy tembiri (ohangi), nafis ovozining boyligi haqida eshitmagan inson bo‘lmasa kerak. Ijrochilar g‘ijjak bas cholg‘usining kattagina ijro imkoniyatlari, xalq cholg‘ulari orkestri va kamer asarlarda, mahalliy davralarda, yakkaxon ijrochilikda ham naqadar betakror ekanligini e’tirof etishadi. Ayniqsa o‘zbek xalq kuylarini marog‘ bilan ijro yetish mumkin. Orkestrda g‘ijjak bas asosan orkestr asosi, ya’ni tayanchi hisoblanadi. Eng pastki registr notalarini chaladi. Dutor bas, g‘ijjak bas, g‘ijjak kontrabas asboblari bilan birgalikda orkestrni ushlab turadigan guruh xisoblanadi. G‘ijjak bas (qobuz bas) sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1949-yilda tashkil qilingan. G.N.Ivanovning shogirdi X.Tursunov mazkur sinfning ilk bitiruvchisi bo‘lgan. G‘ijjak bas cholg‘usi asosiy g‘ijjakning katta qilib ishlangan turi bo‘lib, violonchel vazifasini ham bajaradi. G‘ijjak basning torlari kvinta oralig‘ida sozlanadi. 4-eng pastki tori katta oktavadagi do notasiga, 3-tor-katta oktavadagi sol notasiga 2-tori kichik oktavadagi re notasiga va 1-tor kichik oktavadagi lya notasiga sozlanadi. G‘ijjak basning (qobuz bas) umumiy ovoz xajmi katta oktavadagi do notasidan uchinchi oktavadagi re notasiga qadar. Notalari bas kalitida yoziladi, baland tovushlari skripka va tenor kalitida yoziladi. Tajribali o‘qituvchi violonchilist I.I.Shelpukning 1966- yildan g‘ijjak bas (qobuz bas) sinfiga rahbarlik qilishi bilan bu sohada mutaxassislar tayyorlash ishi ancha faollashdi. I.I.Shelpukni shogirdlari orasida konkurs sohibi Shohid Qoraboyev (birinchi mukofot) va Yo‘ldosh To‘laganovlar alohida diqqatga sazovor bo‘lganlar. G‘ijjak bas cholg‘usi uchun ilk yaratilgan asarlar: G.Mushel ,,Ekspromt” (1961 y.), T. Qurbonov ,,Eskiz” (1965 y.), N.Zokirov ,,Sonata-improvizatsiya” (1971 y.), F.Yanov-Yanovskiy ,,Elegiya” (1973 y.), G.Sobitov ,,Aylasa” o‘zbek xalq kuyi notalashtirilgan (1973 y.) O‘zbek xalq kuylaridan ,,Chaman yalla” ,,Yolg‘iz” ,,Sharob” va boshqa kuylarni marog‘ bilan ijro etish mumkin. Bu cholg‘u borasida 1960 yildan boshlab hozirgi kunga qadar katta ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan 1970 yilda bo‘lib o‘tgan Respublika ko‘rik tanlovida Xasan Komilov I o‘rin, Ozoda Ibragimova III o‘rinni egallaganlar. 1980 yilda bo‘lib o’tgan tanlovda esa Shohid Qoraboev I o‘rin sohibi bo‘lgan. 1988 yilda Valijon Qo‘ldoshev II o‘ringa loyiq deb sanalgan.

1960 yildan 2018 yilga qadar g‘ijjak bas cholg‘usining taraqqiyoti ancha rivojlanib murakkablashdi. Respublikamizning har bir musiqa o‘quv yurtlarida malakali mutaxasislarimiz yosh avlodga ta’lim berib kelishmoqda. Hozirgi kunga xizmat qilib kelayotgan g‘ijjak baschilardan: Ozoda Ibragimova, Zulfiya

Xisamiddinova, Saidkarimova D, Qoraboev Shohid, Muhiddinov Bahrom, Safarov Orzubek, Rahimov Abror, Ne'matjonov Jalol, Karimov Inoyat, Nosirov Zuxriddin, Yusupov Begzod, Akbarov Qudrat, Soliev Siyovush, Choriyev Bekzod va boshqalar ish faoliyatlarini o'tab bormoqdalar. Mutaxasislarimizning say harakatlari bilan ijrochilik texnikasi kun sayin rivojlanmoqda. Bu cholg'u asosida ko'plab kompozitorlarimiz tomonidan asarlar yaratilgan. Musiqa tarixida "Ulug'larning ulug'ligi vaqt o'tgan sari oydinlashadi" degan dono naql qayta-qayta takrorlanadi. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'atida ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida bir qancha asarlarni meros qilib qoldirishgan. Hozirgi kunda ijod qilayotgan ko'plab kompozitorlarlarimiz tomonidan turli xil janrlarda kamer asarlar, xususan, xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratilmoqda va bu samarali ijod mahsuli o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va ansambllarida ijro etilmoqda va bu janrlar noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. XX asrning 40-50-yillaridan o'zbek musiqa san'atida, ayniqsa ijod va ijroda yangi-yangi qarashlar yuzaga kela boshladi. Musiqaning sehri va jozibasi yanada teranroq va zamon ruhi bilan uyg'unlikda aks ettirila boshlangan. Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg'u yo'llarining bir qator tomonlari mavjud bo'lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo'lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya'ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o'ziga xos xususiyatlardir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darjasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi. G'ijjak (qobuz) – bas maxsus sinfida yuqori malakali yetuk sozanda – ijrochi, xalq cholg'ulari orkestri dirijyori, shuningdek orkestr va ansambllar sozandasi shakllanib bormoqda. Binobarin, g'ijjak- bas sinfida tahsil oluvchi talaba kelajakda yuqori malakali mutaxassis, badiiy mahoratli konsert ijrochisi, orkestr sozandasi, yakkanavoz cholg'uchi, qolaversa muallim-murabbiy sifatida shakillanishida o'qituvchi-rahbarning faoliyati nihoyatda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azatgul Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" «Musiqa» nashriyoti Toshkent – 2017.
2. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.
3. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517
4. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.
5. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.

6. O’zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko’rsatib kelayotgan “Jarqo’rg’on”,“Sharshara”,“Mahliyo”,“Qo’ng’irot” va “Zevar” folkloretnografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.
7. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
8. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
9. URL: https://scienceweb.uz/publication/2144
10. Bekzod Bahrom O’G’Li Choriyev (2022). O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3 (4), 776-780.
11. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi

O‘QITUVCHILARDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

I.S.Soliev
Farg’ona davlat universiteti falsafa fanlari p.h.d

G.N.Sirojiddinova
2-kurs magistri

Annotatsiya. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va usullarini takomillashtirish alohida rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, kamida o‘z kasbini va bolani qanchalik yaxshi ko‘rishiga bog‘liq.

Kalit so’zlar: bank, balans, birja, valyuta kursi, import, soliq, kapital, kredit, mehnat birjasi, pul, raqobatchilik, savdo, tovar birjasi, hissadorlar jamiyati, pensiyonerlar.

Аннотатция. Совершенствование содержания, форм и методов учебного процесса играет особую роль в становлении экономического образования. Это зависит от уровня знаний учителя, педагогического мастерства, как минимум его профессии и от того, насколько он любит ребенка.

Ключевые слова: банк, баланс, фондовая биржа, валютный курс, импорт, налог, капитал, кредит, рынок труда, деньги, конкуренция, торговля, товарный рынок, акционерное общество, пенсионеры.

Annotation. Improving the content, forms and methods of the educational process plays a special role in the formation of economic education. It depends on the teacher's level of knowledge, pedagogical skills, at least his profession and how much he loves the child.

Key words: bank, balance sheet, stock exchange, exchange rate, import, tax, capital, credit, labor market, money, competition, trade, commodity market, joint stock company, pensioners

O‘qituvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda mehnat faoliyati, ta’lim jarayoni, o‘zaro munosabatlar, ularning jamoasi muhim vosita bo‘lib qolmog‘i kerak. Chunki jamoa va o‘zaro munosabatlar faoliyatida o‘quvchilarda odamlarga nisbatan ishonish, halollik, poklik, mehribonlik, hislari shakllanadi. Shu sababli ota-ona, o‘qituvchilar bola shaxsini jamoada o‘zaro munosabatlarda shakllantirish uchun ular bilan doimo munosabatda bo‘lishi tajamkorlik va ehtiyotkorlik, ijtimoiy foydali mehnatda hamisha umumiy jarayonini tashkil etishni uyushtirishlari lozim. Iqtisodiy tarbiya faoliyatda jarayonni belgilagan maqsadga erishish, o‘zini boshqarishga xohish bo‘yicha ishlash emas, balki kerakli ishlarni bajarishga o‘rgatish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, hamma joyda oldi-sotdi ishlarini bajarish, kishilar haqiga hiyonat qilmaslik, o‘z-o‘zini tarbiyalash va bunda kuchli-kuchsiz tomonlarini aniqlash, iqtisodiy bilimlarni egallashi va dovyuraklik va talabchanlik, mustaqillik, o‘zini tuta bilish kabilar tashkil etadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining iqtisodiy tarbiyasini shakllantirish dasturi, kundalik ish rejasi tutishi o‘quvchilardagi o‘zgarishlar, odob qoidalarining bajarilishini yozib boradilar.

Shu bilan birga iqtisodiy bilimlar insonning haqiqatga bo‘lgan munosabati shakllanishiga va rivojlanishiga, turmushga, ongiga, hayotiga ta’sir etadi, ya’ni iqtisodiy bilimlar inson faoliyati, madaniyatining asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy bilimlar inson faoliyatida iqtisodiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Demak, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Bu odoblar o‘quvchilarda maktabni turli ijtimoiy fanlar asoslarini va ijtimoiy hayot munosabatlarida paydo bo‘ladi.

Natijada iqtisodiy ong va bilimlar rivojlanib boradi. Iqtisodiy tarbiya va bilim orqali bola iqtisodiy madaniyatga erishadi. Hayotda tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko‘p uchratish mumkin. Bola qanchalar iqtisodiy munosabatlarda qiynalsa , u shunchalik iqtisodiy bilimlarni ko‘proq egallaydi. Bu holat o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ham bog‘liq.

Shunday ekan, har bir dars jarayonida o‘quvchi tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlar iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, shakl va usullarini takomillashtirish alohida rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, kamida o‘z kasbini va bolani qanchalik yaxshi ko‘rishiga bog‘liq. O‘quvchilarning dars jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari, ularning tushunishida, odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy bilim boylik manbai bo‘lib, kishi aqlini mustahkamlaydi, izzatini oshiradi, har bir kishini kamolga yetkazadi, ularni boqiy qiladi. Iqtisodiy tarbiya tuzilishida iqtisodiy his-tuyg‘ular o‘quvchilar hayotida asosiy o‘rinni egallaydi. Bu tuyg‘ular yurt obodligi, kishilarning farovon yashashi uchun kurashish fazilatlarini shakllantiradi.

Dunyoda yaratilayotgan noz-ne’matlar va mahsulotlarning hammasi faqat insonning yaxshi yashashi va farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish orqali iqtisodiy tarbiya va ahloqiy me’yorlarni yaxshilashdan iborat. Yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar faqatgina ijobiy va salbiy me’yorlar sifatida emas, balki inson his qilishi orqali ham o‘zgartiriladi.

Iqtisodiy tarbiya kishining iqtisodiy faoliyatida voqea va hodisalarida, iqtisodiy jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tarbiya bola xohish-irodasining iqtisodiy ong, iqtisodiy bilish asosida ifodalanadi. Iqtisodiy tarbiya kishilarning o‘z-o‘ziga, jamiyatga, hayotga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Ishonch, qayg‘urish, ko‘ra olmaslik, g‘urur va manmanlik, o‘ziga bino qo‘yish, salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan iqtisodiy his-tuyg‘ular kundalik turmushda ko‘plab uchraydi. Demak, iqtisodiy his-tuyg‘ular o‘zining kelib chiqishi va ahamiyati bilan ijtimoiy xarakteriga ega. Iqtisodiy tarbiya his-tuyg‘ulari o‘z mazmuniga ko‘ra savdo sohasida ishonch, halollik va poklik, iqtisodiy ong bilan chambarchas bog‘liq.

Iqtisodiy tarbiya bilish, his qilish, tushunish, tasavvur qilish kabi inson faoliyatidagi turli-tuman jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs

faolligini oshiradi. Iqtisodiy odob his-tuyg‘ularini tarbiyalashda o‘qituvchilardan maxsus ish olib borishni, o‘quvchi shaxsiga xos ta’sir etishni bolalarning turmush tarzi, hayot odobini tashkil etishni talab qiladi. Ta’lim jarayoni, mehnat faoliyati, o‘quvchilar jamosi iqtisodiy his-tuyg‘ulari shakllantirishning asosiy vositalari hisoblanadi. O‘quvchilarning iqtisodiy his-tuyg‘ularini tarbiyalashda sog‘lom muhit, zavqli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ana shunday sharoitda o‘quvchilarda odamiylik, hayrixohlik va poklik, tejamkorlik kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar sinf rahbarlari bilan muloqotga kirishar ekanlar o‘z ongida kishilarning iqtisodiyot tarbiyasidagi muayyan namunalarni tasavvur qiladilar. Ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qilib, o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari, iqtisodiy meyoriy va qoidalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar muloqot jarayonida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning asosiy omillari bo‘lgan ma’naviy qarashlar, iqtisodiy his-tuyg‘ular, meyorlarni qabul qiladilar, o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘quvchining iqtisodiy his-tuyg‘ularini ijobiy shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda sinf rahbari doimo ularni ma’naviy nazorat qilishi va iqtisodiy tarbiya, shakl, vositalaridan foydalanishi, ma’qullash, qoralash uslublarini qo‘llashi lozim. Bunday muloqotlar o‘quvchilarning iqtisodiy ongini rivojlantiradi. Ularning xatti-harakatlarini belgilaydi. Iqtisodiy tarbiyaga ta’sir etadi, fe’l-atvorini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya oila, maktab va keng jamoatchilik ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda bolaning xulq-atvori muhim o‘rinni egallaydi. Xulq-atvor ahloq madaniyatining muhim qismi bo‘lib, u tartib-intizomda, hayot meyorlarini bajarishda, jamiyatga, mehnatga, odamlar bilan bajariladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Kishilarning qay darajada iqtisodiy jihatdan madaniyatli ekanligini uning xulq-atvoridan bilish mumkin. Bu uning muomalasida, xatti-harakatlarida, didi, faxm-farosatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning xulq-atvori iqtisodiyot tarbiyani shakllantirish o‘quvchidan iqtisodiy odob ishlarini olib borishni talab etadi. Albatta, bunda o‘quvchi bola xulq-atvor odobini tarbiyalashda uning axloqiy ongiga, sinf jamoasiga asoslanishi kerak. Shu bilan birga o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta bilish ham xulq-atvor odobini tarbiyalashda samarali natijalar beradi. Albatta, bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy xulq-atvorni tarbiyalash, ularni nazorat qilish, xatti-harakatlariga alohida ahamiyat berish bilan birgalikda, doimiy talabchan bo‘lish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy xulq-atvor o‘quvchilarning iqtisodiy faoliyati davomida mustahkamlashadi.

Iqtisodiy faoliyatda o‘quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo‘lgan xulq-atvorlarini ko‘rish mumkin.

Shuning uchun ham o‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchidagi iqtisodiy bilim, tushuncha va odobni chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko‘maklashishi lozim. Iqtisodiy xatti-harakat o‘quvchining iqtisodiy jihatdan tarbiyalanganligi, iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni o‘z hayotida qo‘llayotganligini ko‘rsatadi. Bolaning iqtisodiy odobini shakllantirish

uning iqtisodiy xulqini tarbiyalash va iqtisodiy xulqidagi salbiy tomonlarini bartaraf etish haqida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida atroflicha yoritilgan. Uning fikricha, boladagi ezgu va oliyjanob yoki razil badbin xulq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.

Ularning shakllanishi uchun ma’lum sharoit va tarbiya kerak. Bola tarbiyasida Abdulla Avloniy to‘xtalib "Agar yaxshi tarbiya topib buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar. Agar tartibsiz, axloqi buzilib o‘ssa Allohdan qo‘rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog‘iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon johil bir rasvoyi olam bo‘lib qolur "-deb yozadi. Dono xalqimizning "Xulq- aqilli kishi uchun ulug‘lik va fazilat", "Xulqi yo‘qning aqli yo‘q" naqllari bejiz aytilmagan.

O‘zbekiston mustaqilligi tufayli ota-bobolarimizning axloq-odobi haqidagi hikoyatlar, naql va rivoyatlari farzandlarimizning iqtisodiy tarbiyasini shakllantirishda yangicha mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, halollik, poklik, to‘g‘ri so‘z, ishonchlilik va insoniylik kabi iqtisodiy odob fazilatlari o‘quvchilarni kamolot sari yetaklaydi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga atrofdagi kishilarning shaxsiy na’munasi, buyuk siymolar odobi, mehnat va urush faxriylari, kino va sahna asarlarining qahramonlari hayoti doimo ibrat qilib ko‘rsatiladi. Iqtisodiy odob, ko‘nikma malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ota -ona va o‘qituvchilar hulqi, odobi o‘quvchi uchun doimo na’muna bo‘lmog‘i kerak.

Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari katta hayotga qadam qo‘yish oldidan e’tiborli, g‘amxo‘r, adolatli odatlarni astoydil sevadilar, hamma ishda kishilar haqiga hiyonat qilmaslik, tejamkor, vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanish kabi xislatlar mujassamlanib, o‘quvchining iqtisodiy tarbiyasini shakllanishiga olib keladi. Demak, o‘z tilini, odobi va iqtisodiy tarbiyasi bilan qurollantirgan, qo‘lini esa to‘g‘rilikka odatlantirgan kishigina kamolotga yetishi mumkin. Kamolotga yetgan inson yaxshilik va yomonlik farqini biladi, foyda bilan zarar o‘rtasidagi tafovutni anglaydi, o‘z iqtisodiy faoliyatida yomon xususiyatlardan holi bo‘ladi, chiroyli odatlarni egallaydi.

Iqtisodiy tarbiya funksiyalari iqtisodiy tarbiya negizini tashkil etib, uni shakllantirish ma’naviy boyliklar, iqtisodiy bilimlar, ijobiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi chuqur fikr-mulohazalar asosida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tarbiya funksiyalari insonning kundalik turmushida, hayotga bo‘lgan munosabatlarida, iqtisodiy faoliyatlarida rivojlanadi va kamol topadi. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqilligi tufayli qayta tiklangan boy ma’naviy merosimiz, undagi ming yillik tariximiz, ijtimoiy adolat, mustaqillik yo‘lidagi kurashlar iqtisodiy tarbiya poydevori hisoblanadi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yakdillik, iymon va insof, to‘g‘ri so‘z va ish birligi, kishilarga hiyonat qilmaslik, insonparvarlik, yangi qurilayotgan jamiyatning boshlaridan biriga aylangan. Shunday ekan jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini, har bir fuqaro his etishi va unga

amal qilishi lozim. O‘zbekistonda yashovchi har bir kishi, kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil davlatimizni umumbashariyatga tanishtirishda va xalqimiz o‘rtasidagi inoqlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog‘i kerak. Ayniqsa, yoshlarni, o‘sib kelayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yangilanayotgan demokratik, insonparvar jamiyatga munosib qilib tarbiyalash o‘z navbatida maktab, kasb-hunar kolleji faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirda yangilanayotgan jamiyat istiqboli uchun kurashish, chuqur mas’uliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalash maktab o‘qituvchilarining asosiy vazifasi bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan islohotlar, bozor munosabatlari mustaqil davlatimizning yangi sharoitlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ham jamiyatimiz manfaati yo‘lidagi yuksak talablar ta’siri ostida uning hayot tajribasi, iqtisodiy tarbiya shakllanib boradi. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanmoqda. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi iqtisodiy tarbiya ishining muhim tamoyili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi jamiyat manfaati uchun qanday ulush qo‘shayotganligini, o‘zgalarga nima foyda keltirayotganligini his etish iqtisodiy tarbiyaning yuqori cho‘qqisi. Chunki bu o‘quvchining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning ongda yetilganligining dalilidir. Shuni aytish kerakki, o‘quvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida, yurt obodligi uchun kurashda, poklik, milliy hamkorlik tuyg‘ulari kabi bir butun sifatlar shakllanadi.

Iqtisodiy tarbiya insonning jamiyatga bo‘lgan hurmati munosabati negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o‘quvchida jamiyatga bo‘lgan hurmatni yuksaltirish, iqtisodiy tarbiyalangan bo‘lishiga, iqtisodiy ongining o‘zini-o‘zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo‘lgan e’tiqodini rivojlantirishga olib keladi. Demak, xalqning kuch-qudrati uning sonida emas, balki jamiyatga bo‘lgan hurmatidir. Maktab o‘quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda iqtisodiy tarbiyaning halollik, tejamkorlik, to‘g‘riso‘zlik, vaqtdan unumli foydalanish, ishbilarmonlik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o‘z o‘quvchilariga tushuntirish lozim.

O‘zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o‘qishdan, izlanishdan, mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchililardan qo‘rqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat ruhida tarbiyalashni talab qiladi.

Chunki bugungi O‘zbekiston zaminida yashayotgan har bir yigit-qiz o‘z vijdoni oldida javob berishi, shu yurtning ravnaqi va obodligi uchun kurashish asosiy burchi ekanligini anglamog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ilhom, S. (2022). EARLY STUDENTS IN MATHEMATICS FORMATION OF FUNDAMENTALS OF ECONOMIC KNOWLEDGE.
2. Soliev, I. S. (2020). FACTORS OF FORMATION OF INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. In *Наука*

и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 218-220).
3. Sobirjonovich, S. I. (2022). Child Thinking and Problem Solving. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *4*, 111-115.
4. Sobirjonovich, S. I. (2021). Teaching Preschool Children in a Second Language. *International Journal of Culture and Modernity*, *11*, 406-411.
5. Sobirjonovich, S. I. (2021). Professionalism as a Factor in the Development of the Pedagogical Activity of the Future Teacher. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, *1*(7), 76-81.
6. Sobirjonovich, S. I. (2021). Speech Education for Children from 1 To 3 Years of Age. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, *1*(7), 135-141.
7. Sobirjonovich, S. I. (2021). Didactic Interaction as Whole Integral Education. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, *1*(7), 80-83.
8. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Child Thinking and Problem Solving. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (4) 111-115.
9. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
10. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
11. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Features of the Development of Social Intelligence in Preschool Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, (6) 83-87.
12. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). The Concept of Connected Speech and its Significance for the Development of Preschool Children. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY. 05. 518-523.
13. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). Heuristic Activity in the Educational Process of the Institutions of Preschool Education. Spanish Journal of Innovation and INTEGRITY, 05. 529-534.
14. “EARLY STUDENTS IN MATHEMATICS FORMATION OF FUNDAMENTALS OF ECONOMIC KNOWLEDGE” Soliyev Ilhom, Sirojiddinova Gulchehra Nematilo qizi

LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDA BADIIY VOSITALARNING O‘RNI

Mahliyo Sherali qizi Axmadaliyeva
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Lirika odam ichki dunyosining so‘zdagi izhori bo‘lganida shoir har bir she’rida muayyan vaqtdagi konkret holati , ruhiy holatini chizadi. Agar odamning hayot yo‘li son-sanoqsiz nuqtalar to‘plamida iborat desak, she’r alohida olingan bir nuqtaning lisoniy muhridir. Shuning uchun ham, ko‘p shoirlar o‘z tarjimai holini yozganlarida, eng oxirida “qolganini she’rlarimdan topasizlar” deya qo‘shib qo‘yadilar. Zotan, shoirlarning haqiqiy tarjimai holi – she’rlarida aks etadi.

Kalit so‘zlar: Lirika, she’r, bolalar adabiyoti, shoirlar.

Annotation. When the lyric is a verbal expression of a person's inner world, the poet describes his concrete state and mental state at a certain time in each poem. If we say that a person's life path consists of a set of countless points, then a poem is a linguistic seal of a single point. That is why, when many poets write their biographies, they add at the end, "you will find the rest in my poems." Indeed, the true biography of poets is reflected in their poems.

Key words: Lyrics, poetry, children's literature, poets.

Аннотация. Когда лирика представляет собой словесное выражение внутреннего мира человека, поэт в каждом стихотворении описывает его конкретное состояние и душевное состояние в определенное время. Если мы говорим, что жизненный путь человека состоит из множества бесчисленных точек, то стихотворение есть языковая печать одной точки. Вот почему, когда многие поэты пишут свои биографии, они добавляют в конце: «остальное вы найдете в моих стихах». Ведь подлинная биография поэтов отражена в их стихах.

Ключевые слова: Лирика, поэзия, детская литература, поэты.

Adabiyotshunoslikda inson ma’naviy-ruhiy olamini talqin qilish va xilma-xil manzaralarda jonlantirish nazmga nisbatan nasrda ustunroq degan qarashlar ham ilgari surilgan. Holbuki, o‘zbek she’riyatining uzoq asrlik tarixi bunday fikr-qarashlarning cheklanganligini tasdiqlaydi. Chunki, jahon she’riyatida bo‘lgani kabi, o‘zbek she’riyatining deyarli hamma davrlarida iste’dodli shoirlar inson qalbi va ruhiy olamidagi haqiqatlarni butun kengligi, murakkabligi va ziddiyatlari bilan tasvirlashga erishganlar. Bu fikrlar tasdig‘i sifatida xalqimizning buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiy she’riyatini eslashimiz mumkin. Inson qalbi va ruhiy olami tasviri she’riyatda, akademik Izzat Sulton so‘zlari bilan aytganda, “shoir shaxsi bilan estetik idielning quymasidan” dunyoga kelgan lirik qahramon ruhiy hayoti sifatida ko‘rinadi. Shu ma’noda B.G.Belinskiyning “poeziya … subyektivlik saltanatidir, bu ichki dunyodir, o‘z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki dunyo elementida , sezuvchi va filkrlovchi xayol doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o‘tib, o‘z ichiga o‘zi yashirinadi va tashqi dunyoni o‘zida aks ettirgan ichki hayotining mislsiz jilo va

jilvalarini poeziyaga hadya etadi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi planda namoyon bo‘ladi, biz hamma narsani faqat va faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz”[33], degan fikrlari o‘z kuchini saqlab qoladi.

Lirika odam ichki dunyosining so‘zdagi izhori bo‘lganida shoir har bir she’rida muayyan vaqtdagi konkret holati , ruhiy holatini chizadi. Agar odamning hayot yo‘li son-sanoqsiz nuqtalar to‘plamida iborat desak, she’r alohida olingan bir nuqtaning lisoniy muhridir. Shuning uchun ham, ko‘p shoirlar o‘z tarjimai holini yozganlarida, eng oxirida “qolganini she’rlarimdan topasizlar” deya qo‘shib qo‘yadilar. Zotan, shoirlarning haqiqiy tarjimai holi – she’rlarida aks etadi.

Istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar she’riyati uchun chinakkamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A’zam va Anvar Obidjonning shakl va mazmun uyg‘unligiga asoslangan quvnoq she’rlari, Safar Barnoyev va Tursunboy Adashboyevning atrof-muhitni badiiy idrok etishda hayratlarga cho‘mgan bolakayning beg‘ubor tuyg‘ulari aks etgan ertak, dostonlari, Hamza Imonberdiyevning o‘z xayolotida dunyoni qanday bo‘lsa shundayligicha kashf etishga qaratilgan yumorga boy “lof” lari, Qambar Ota va Abusaid Ko‘chimovning jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy fuqarolik tarbiyasi bilan bog‘liq yangilanishlarga munosabati jo‘shqin falsafiy-publitsistik ruhda aks etgan she’riyati namunalari, Rustam Nazar va Abdurahmon Akbarning beg‘ubor bolalik kechinmalarini odatdagidan o‘zgacha shakl va ranglarda ko‘rishga, ko‘rsatishga intilgan izlanishlari, Kavsar Turdiyevaning bolalik dunyosini onalik tuyg‘usi bilan tavsif markaziga qo‘ygan o‘ynoqi she’r va tarjima asarlari, istiqlol davri bolalar she’riyatining bo‘y-bastini ko‘rsatadigan ijod mahsullaridir. Ularning ichida badiiy ijodga doir o‘tish davri mashaqqatlarini bosib o‘tib, istiqbolga dadil qadam qo‘ygan Dilshod Rajab asarlari o‘ziga xos o‘rin tutadi. Dilshod Rajab o`z she’rlarida o`xshatish, sifatlash, jonlantirish, anafora, tavze, takror kabi badiiy san’atlardan foydalanib, she’rlarining ohangdorligini, mazmundorligini oshiradi. Shoir asarlari badiyati bilan ham ajralib turadi. Uning sherlarida Vatan obrazi asosiy o`rin tutadi. Shoir majoziy obrazlar yordamida bolalarga to`g`ri talim berib, ularning barkamol avlod bo`lib yetishuviga munosib hissa qo`shmoqda.

Xulosa qilib aytganda istiqlol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar adabiyoti, she’riyati uchun chinakkamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A’zam, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev , Tursunboy Adashboyev, Hamza Imonberdiyev, Qambar Ota, Abusaid Ko‘chimov, Rustam Nazar, Abdurahmon Akbar, Kavsar Turdiyeva, Dilshod Rajab va boshqa yozuvchilar bolalar uchun yozgan she’rlarida bolalar dunyosi, ona-Vatan, ijtimoiy-hayotiy voqealar, zamona taloto`plari, jamiyatda kechayotgan yaxshi-yomon o`zgarishlarlarni o`ziga xos uslubda, ohangda bolalarbop ifoda etadi. Ijodkorlarning o`z ovozi, tahliliy mushohadalarga boy publitsistikasi, esse va ertaklari istiqlol davri bolalar adabiyotini yangi tamoyillar bilan boyitishga o‘z hissalarini qo`shdilar. Ularning she’rlarida hurfikrlilik yarq etib ko`zga tashlanadi, lirik qahramonlar haqiqatga tik boqadi. Ularning asarlarida Vatan oldidagi burch

[33] Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar.-T.: 1995.- B.134.

va masuliyat eng oliy insoniy tuyg`u ekanligi anglashilib turadi. Xuddi shu qirralar istiqilol davri bolalar adabiyotining yetakchi g‘oyalaridandir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmadaliyeva, M. S. (2022). Text and interpretation in discourse analysis. Trends in Education Foreign Languages and International Economics, *1*(1), 382-386.
2. Ахмадалиева, М. Ш. (2022). Роль литературной критики в саморазвитии писателя. Мугаллим, 1(2), 14-17.
3. Давлатова, А. Р., & Ахмадалиева, М. Ш. Қ. (2021). Жадид драматургиясида баркамол шахс ва идеал жамият талқини. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 1100-1108.
4. Туньян, А. А., Тошпулатов, Х. М., Ибрагимов, Ф. З., Умматов, А. А., Пулатов, А. А., Ашуркова, С. Ф. (2021). Развитие паралимпийского спорта в Ташкентской области. Спорт и социум, 5(14), 76-78.
5. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 212-217.
6. Musayev, N. U. (2022). SKILLS OF PATRIOTIC EDUCATION OF STUDENTS IN MUSIC LESSONS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 482-486.
7. Musayev, N. U. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O ‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TAMOYILLARI. Uzbek Scholar Journal, 10, 183-189.

THE SIGNIFICANCE OF HELPFUL DIDACTIC TOOLS IN TEACHING BIOLOGY

Orazimbetov Edilbek Kayipbekovich
Graduate student of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
Methodology of teaching exact and natural sciences (Biology)

Annotation. The importance of auxiliary didactic tools in biology teaching, logical methods of teaching, demonstration tools, and didactic purpose, tasks, and content of the subject studied in biology lessons are discussed in the article, and the cognitive activity of students is organized individually, in small groups, and as a whole. information about the forms is provided.

Key words: Biology, didactic material, teacher, student, lesson, method

The components of the educational content and their acquisition by students require the correct selection of teaching tools and their effective use. In biology lessons, it is recommended to use natural, pictorial exhibitions, screen tools, educational equipment, multimedia, electronic versions and manuals, which allow to illuminate them based on the content of the studied subject. The content of the lesson and the visual aids used require certain teaching methods.

A teacher should know well the types of teaching methods, their methods, and ways of using them. With this in mind, we will discuss groups of teaching methods below. The group of oral presentation methods includes conversation, story, and lecture methods. Below are the methodological methods included in these methods: The interview method is a method of putting interview questions in a sequence, asking auxiliary and additional questions at the right time, activating students, correcting mistakes in students' answers, creating conclusions and generalizations. The story method is a method of vividly describing the educational material, features specific to objects, scientificity, consistency, comprehensibility of information, fluency and expressiveness of speech.

The lecture method is a method of presenting the educational material in a logical sequence, posing problems, identifying objects, comparing, drawing conclusions, summarizing, attracting the attention of students. The group of visual methods includes natural and living objects, visual exhibition, screen tools.

Computer visual programs, multimedia presentation methods, including, in particular, the following visual aids, illustration, demonstration, educational films, video films, computer educational, modeling programs, electronic textbooks, multimedia presentation, meeting the taste and aesthetic requirements of the exhibition, illuminating the content of the lesson, and organizing students' activities in a sequence.

The group of practical methods includes the methods of observation, organization and conducting of experiments, methods of performing practical work, which are suitable for recognizing and identifying objects, observing and conducting experiments, explaining the progress of practical work to students, and drawing up a plan for performing practical work. , will consist of the methods of monitoring the execution of practical tasks, analyzing the results of tasks, self-

monitoring, completing and formalizing practical work, observation and experiments.

Methods of problem research include creating problem situations, creating a chain of problem questions, creating problem tasks and conducting experiments, creating learning hypotheses for solving problem situations, proving learning hypotheses, comparing objects, making logical reasoning, learning includes methods of conducting research experiments, describing learning conclusions and generalizations.

The group of logical methods of teaching consists of inductive, deductive, analysis, separation of the main idea, comparison, and generalization methods:

a) inductive method - a method of problem statement of specific facts, directing students' activities to drawing general conclusions from specific facts, giving problematic tasks; b) deductive method - a method of explaining general laws, directing students' activities from general to specific conclusions;

d) method of analysis - a method of understanding information, identifying similarities and differences between studied objects, dividing studied objects into components, and determining the beginnings between them;

e) method of separation of the main idea - separation and sorting of the main idea in the educational material, separation of information into logically completed parts of ideas, separation of the main idea and secondary ideas, separation of basic words and concepts, summary of the main idea release method;

f) method of comparison - the method of identifying comparative objects, determining the main characteristics of objects, comparing, identifying similarities and differences, formalizing the results of comparison with conditional symbols;

g) method of generalization - it includes the methods of identifying, comparing, preliminary conclusions, imagining the dynamics of the development of the phenomenon, formalizing the results of generalization using conditional symbols, drawing general conclusions.

The group of independent work methods includes exhibition tools and methods of independent work on the textbook. They include the methods of giving independent work assignments, developing independence in educational activities, developing educational work skills, organizing independent work according to the model, and giving creative assignments.

Methods of increasing interest in learning, didactic-game, learning discussions, forming the duties and responsibilities of students in learning belong to the group of methods of stimulating and justifying education, and they are as follows:

a) methods of increasing interest in reading, creating a positive feeling in students, using interesting analogies, the effect of surprise, creating the joy of learning, encouraging and reprimanding students;

b) didactic-game method, the method of choosing a game plot, creating game situations, choosing educational games, encouraging students;

c) the method of educational debates is to create a situation that causes educational debates, to create scientific debates. How to lead students to success, express their opinions, correct mistakes in their answers, motivate students;

d) the method of forming the duties and responsibilities of students in studying includes methods such as explaining the social importance of education, explaining the personal importance of studying, setting educational requirements, encouraging and reprimanding in teaching.

The group of control and self-control methods in teaching are examples of control methods using oral and written control, control using laboratory and practical work, self-control, mutual control sheet and tests. and the following:

a) oral and written control methods are used to teach students to logically and coherently express knowledge, to develop speech, to identify and eliminate typical errors in students' answers;

b) control methods with the help of laboratory and practical work to determine educational and practical skills, to determine students' skills in working with educational equipment and tools, to determine and evaluate the quality of completed tasks, depending on the content of the work, objects and correct selection of tools, completion of the work and formalization of the result, method of determining the correctness of the obtained results;

d) self-control methods, a short plan on the educational material, making questions, distinguishing the main idea, finding answers to questions, solving problems and checking them according to the sample, comparing, correctness of the obtained results the method of checking the reliability;

e) a chapter in which control methods are studied with the help of a cross-check sheet, creating control questions on the topic, methodological correctness of questions, logical sequence, accuracy of monitoring students' knowledge, a broad view laziness style;

f) the chapter on methods of control with the help of tests, from such methods as the creation of control tests on the topic, methodological correctness of test questions and answers, logical sequence, truthfulness and comprehensiveness of control of students' knowledge consists of Educational content, tools and methods require integrated forms of teaching.

Based on the didactic purpose, tasks, and content of the subject studied in biology classes, it is recommended to use the forms of organization of students' cognitive activities individually, in small groups, and as a whole. It is known that teaching biology is organized in the form of lessons, extracurricular activities, extracurricular activities and excursions. Lectures are divided into three parts: introduction, main part, conclusion.

In the introductory part of the lecture, students' attention and cognitive activity are activated, the ground is prepared for receiving knowledge. For this, at the beginning of the lecture, interesting examples of its content, bright and emotional events and incidents are described, and students are presented with problems. In the main part of the lecture, the educational material is presented in a

logical sequence, following didactic principles. In the concluding part of the lecture, students' knowledge is organized, summarized, and conclusions are drawn.

The lecture can be structured inductively or deductively according to the content and organization of students' activities. When the lecture is structured inductively, students are first introduced to events and objects, and then a general conclusion is drawn. In this regard, the learning activity of students is organized in an inductive way. Didactic game technology used in biology teaching activates students' cognitive activity, independent work on textbooks and additional literature, development of speech and communication culture, consciously guides them to the profession, eliminates difficulties that arise during the didactic game Getting the goal right, analyzing various situations and making the right conclusions.

Didactic-game technologies are used in the educational process in the form of a didactic game lesson. Lessons with didactic games are plot role-playing games, presentations, creative games, businessmen's games, conferences and games, according to the content and essence of the harmony of students' learning activities with game activities. divided into exercises. The didactic purpose, specific characteristics, role and content of each didactic game lesson in the educational process were developed and put into practice on the example of biology lessons.

References

1. N.M. Abdurahmonova. Advantages of innovative education in teaching biology and its possibilities. Pages 1-3. https://kopilkaurokov.ru
2. N. Reyimbaeva. Practical importance of new pedagogical technologies in teaching biology. https://megaline.uz
3. D.R.Iminova Using game-based educational technologies in biology classes. Pages 19-20.
4. https://www.conferences.uz

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASINING TARAQQIYOTI VA UNGA ALOQADOR HODISALAR

Anvar Eshnazarov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
Anvarjon14091995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Javog‘i qishlog‘ining shevasiga oid so‘zlarning ilmiy tahlili berilgan. Shevashunoslikka oid nazariy qarashlarga munosabat bildirilgan va misol tariqasida berilgan noadabiy leksik birliklarning adabiy tildagi muqobili qiyosan tahlil qilingan. Shevaga oid so‘zlarning hozirgi adabiy tilimizga qay darajada yaqinligi, ularning leksik va grammmatik jihatdan farqli tomonlari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, fonetik jihatidan qisman farq qiluvchi leksemalar ham nazariy jihatdan qiyosiy tahlilga tortilgan. O‘zbek tili dialektologiyasi, shevashunos olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari misolida sheva, dialekt, lahja atamalarining bir-biridan farqi va adabiy tilimizda tutgan o‘rniga ham alohida e’tibor berilgan. Misol tariqasidan tanlab olingan so‘zlar leksikamizda salbiy, ijobiy bo‘yoqdorligi yoki neytral ekanligiga ham alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: dialekt, shevashunoslik, sotsiolingvistika, lahja, sheva, adabiy til, neytral leksika, sinonim.

Annotation. In this article,a scientific analysis of the words related to the dialect of the village Javagi, Yakkabog‘ District, Kashkadarya Region is given. The literary equivalent of non-literary lexical units that responded to theoretical views about linguistics and given as examples is comparatively analysed. How close the words of the dialect are to our current literary language, their lexical and grammatical differences are mentioned. Also, lexemes with partial differences in phonetics are theoretically subjected to comparative analysis. In the example of the dialectology of the Uzbek language, scientific research conducted by linguists, special attention was paid to the differences between the terms dialect, dialect, dialect and their place in our literary language. It is also emphasized that the words selected as examples are negative, positive or neutral in our lexicon.

Key words: dialect, linguistics, sociolinguistics, dialect, dialect, literary language, neutral lexicon, synonym.

Аннотация. В статье проводится научный анализ слов, относящихся к диалекту села Жаваги Яккабогского района Кашкадарьинской области. Высказываются теоретические взгляды на языкознание и сравнительно анализируется приведенная в качестве примера альтернатива нелитературных лексических единиц в литературном языке. В данной статье проводится научный анализ слов, относящихся к говору села Джаваги Яккабогского района Кашкадарьинской области. Дана реакция на теоретические взгляды языкознания и проведен сравнительный анализ приведенной в качестве примера альтернативы нелитературных лексических единиц в литературном языке. Отмечается, насколько слова диалекта близки

современному нашему литературному языку, их лексические и грамматические отличия. Также сравнительному анализу теоретически подлежат лексемы с частичными различиями в фонетике. На примере диалектологии узбекского языка, научных исследований, проведенных лингвистами, особое внимание было уделено различиям между терминами диалект, говор, говор и их месту в нашем литературном языке. Также подчеркивается, что слова, выбранные в качестве примеров, являются в нашем лексиконе отрицательными, положительными или нейтральными.

Ключевые слова: диалект, языкознание, социолингвистика, диалект, диалект, литературный язык, нейтральная лексика, синоним.

O‘zbek tili turli lahja, sheva va dialektlardan tashkil topgan. Adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar shevalarda boshqacha variantda ishlatilishi mumkin. Yoxud tilimizda yo‘qolib ketayotgan ba’zi so‘z va qo‘shimchalar shevalarimizda barqaror ishlatilayotgan bo‘ladi . Bu o‘rinda tilshunoslar shunday leksik birliklarni chuqur o’rganishi, adabiy til doirasida tahlil qilishi va keng ommaga taqdim etishi mumkin. Shundagina olinma so‘zlarning ba’zilarini o‘z tilimizdagi ekvevalenti bilan almashtira olish mumkin. Avvalo, sheva, lahja, dialekt atamalarining o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qaratildi:

Sheva – *biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik qismi (*oraliq sheva, shevalar guruhi *degan terminlar ham bor)* (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 406). Toshkent shevasi, Shahrisabz shevasi, Qo‘qon shevasi, Buka shevasi *kabi shevalarni misol sifatida keltirish mumkin.*

Lahja – *shevaning fonetik, leksik, so‘z yasalishi hamda grammatik xususiyatlarini ma’lum bir tizim asosida o‘zida birlashtirgan shevalar yig‘indisi*[1] (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 430).
Ayni vaqtda tilimizda uchta lahja bor: 1) qorluq lahjasi, 2) qipchoq lahjasi3) o‘g‘uz lahjasi. *Ularning nomlanishi turkiy urug‘-qabilalar nomidan shakllangan. Lahja so‘zi arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib,* tarz, ravish, yo‘sin *singari ma’nolarni bildiradi.*

Dialekt *atamasi – dialektologik adabiyotlarda lahja, sheva ma’nolarida ham ishlatiladi. Hoziri kunda esa u umumlingvistik dialekt atamasi ma’nosida ishlatilmoqda. Dialekt atamasi grek tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, Prof. V.V.Reshetov*
bu atamani o‘z tadqiqotlarida shevalar guruhi ma’nosida faol darajada qo‘llagan. Mazkur atama bu fanga oid rus tilidagi ilmiy hamda ilmiy metodik adabiyotlarda ham uchraydi (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 11).

O‘zbek tili shevashunosligi V.V.Reshetov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, B.Jo‘rayev, X.Doniyorov, Y.G‘ulomov, Y.Jumanazarov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, N.Rajabov,

Q.Muhammadjonov, N.Shoimova kabi dialektolog olimlar tomonidan chuqur o‘rganib tahlil etilgan. Shuningdek prof. I. I.Zarubin, prof. K. K. Yudaxin; prof. G‘ozi
Olim, prof. A. K. Borovkov, prof. V.V.Reshetovlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo‘yicha olib borilgan ishlarni shevalarimizning mamlakatimiz va qo‘shni davlatlarning hududlarida joylashishi jihatdan tasnifiga misol bo‘la oladi (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. –B. 23).

XX asrning 50-90 yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F.Abdullayev, A.Shermatov, B.Jo‘rayev; A.Aliyev, Saidmuso Rahimov o‘zbek shevalarini guruhlab o‘rganishgan (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 30).Bu esa ko‘pgina noma’lum xarakterga ega shevaga xos birliklarning ma’nosi va shakllanish tarixiga oydinlik kiritadi.

O‘zbek dialektologiyasi *geografiya* fani bilan uzviy aloqador, ya’ni, har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko‘lami, aholining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham to‘planadi, ya’ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi *o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyasi, san’ati* fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va ular uchun boy material beradi (Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun – Toshkent, 2013. – B. 8). Shuningdek, areologiya ham dialektologiyaning bir tarmog’i sanalib, bevosita geografiya fani bilan mushtarak sohalardandir. Dialektologiyaning o’rganish obyekti shevaga oid so’zlar bo’lsa, areologiya fani esa shevaga oid so’zlarni hududiy jihatdan, geografik xususiyatiga ko’ra tahlil qilishdan iboratdir.

O‘zbek dialektologlari. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo‘lgan professor E.D.Polivanov, mashhur professorlar K.K.Yudaxin, G‘ozi Olim, A.K. Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlaming buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o‘zbek olimlari yetishib chiqdi. O‘zbek shevalari akademik Sh.Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M.Mirzayev, F.Abdullaev, S.Ibrohimov, X.G‘ulomov, Y.G‘ulomov, A.Aliev, A.Shermatov, A.Jo‘raev, O.Madrahimov, T.Yo‘ldoshev, N.Rajabov, X.Doniyorov, T.Nafasov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan (Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013, – B. 45).

Shevalar har bir xalqning umumiy milliy tili tarkibiga kiradi, lekin ular shu milliy adabiy tildan o‘zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Demak, sheva milliy adabiy tilning bir tarmog‘i sanaladi. O‘zbek adabiy tili murakkab tarixiy jarayonda tashkil topgan. Eski o‘zbek tilida yozilgan asarlar umumxalq o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, ularda turli mahalliy shevalarning

xususiyatlari aks etgan edi. Masalan: bir asarda yaqin so‘zi uchrasa, ikkinchi asarda esa shu ma‘noda yovuq so‘zi uchraydi (*Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 20).* Demak, sheva(lar)ga xos bo‘lgan so‘zlarda ham ma‘noviy o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Adabiy tilning orfoepik qoidalari hamma shevalar uchun umumiy bo‘lgan bir xil talaffuz me’yorlarini hosil qiladi. Xuddi shuningdek, adabiy tilning orfografik qoidalari shevalarimiz uchun so‘zlarni to‘g‘ri yozish me’yorlarini amaliy jihatdan kuchaytirishga yordam beradi.

Tahlil uchun Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Javog‘i qishlog‘ida yashovchi insonlar tomonidan og‘zaki so‘zlashuv uslubida ishlatiladigan so‘zlarni tanlandi. O’rganilgan so‘zlar adabiy tilda nisbatan kam qo‘llaniladi yoki umuman qo‘llanilmasligi kuzatildi. Misol uchun keltirib o‘tish joizki: beqiliq, boyna, boynagi, chinaqay, do‘qalash, g‘ujurli, gajir, girillak, glagay, hayat, itirqim, kaypang, olashaqshaq, pidana, pinna, pori, qo‘tan, sergimoq, shapshak, sho‘tanoq, sho‘ttak, siyirmoq, so‘narmoq, sonsiz, taypish, timirskilanib, tuyatoppon.

Ayrim fe’llarning talaffuzida farqlar kuzatiladi. Chunonchi; *shunday qilib-sh*uytib deb aytiladi. Yana shunday otlar borki aytilishida ozgina tafovut seziladi: *supurgi-shivitki, lovlovi-lavlagi* kabi. Shuningdek, yana ayrim so‘zlar xalq tiliga boshqa tildan o‘zlashgan va shu tildagi so‘zdan foydalanadi. Qishloq aholisi bundan ellik-oltmish yil avval turli joylardan ko‘chib kelishgani bois bu yerda yashovchi kishilar tallaffuzida ham turlichalikni uchratish mumkin. Keyingi davrlarda boshqa hududdan qiz olib, qiz uzatish ko‘paygani bois yosh bolalar nutqida turli shevalarga xos so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Bu bevosita onalar nutqi bilan bog‘liqdir. Quyida biz o‘sha so‘zlarni va ularning adabiy tilimizdagi izohini berib o‘tamiz (tahlilda tilshunos Shavkat Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ga murojaat qilindi. Tahlil davomida e’tibordan chetda qoldirilgan ayrim so‘zlarning jadvali tuzildi). Ba’zi so‘zlar haqiqatda yuqorida tilga olingan qishloq aholisining doimiy kundalik so‘zlashuvida ishlatilib kelinmoqda. Bu so‘zlar faqat shu qishloq shevasida emas boshqa qishloqlarda ham ishlatiladi. Savdo-sotiq, bordi-keldi va to‘y-marosimlardagi yaqinlik sabab Javog‘i qishlog‘i odamlarining shevalari Yakkabog‘ tumanidagi boshqa qishloqlar, jumladan, Sovuqbuloq, Qasnoq, Tezob, G‘ozliq, Qo‘tontepa va Chiroqchi tumanidagi O‘ymovut qishlog‘i odamlarining shevalarida uchraydi.

Bu o‘rinda Qashqadaryoning qipchoq lahjasida bo‘lgan “J” lashishga oid so’zlar tahlilga tortilmadi. Bu ayni sheva bo‘lsa-da, bittagina tovush o‘zgarayotgani uchun adabiy tildagi har bitta “Y” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlarini misol keltirishni joiz deb topilmadi. Qolaversa, voha tilidagi so‘z so‘ngida keluvchi “G‘” undoshining “V” kabi talaffuz etilishini ham, so‘z oxiridagi “Q”, “K” undoshlarining tushirib qoldirilishini ham yozish ma’qul topilmadi.

Ushbu tadqiqotda, asosan, adabiy tildagi so‘zlarning shevada boshqacha aytilishi yoki yondosh so‘zga yaqin talaffuz etilishi tahlil qilindi. Umuman olganda, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xorijiy so‘zlarning ko‘plab olinishi yoki ba’zi qo‘shimchalarning tilimizdan yo‘qolib borayotganligi tufayli ularning o‘rnini chekka hududlardagi o‘zbek shevalari orqali to‘ldirish, muqobil variantini aniqlash lozimdir. Zotan, ushbu izlanish milliy tilning ravnaqi va naqadar boy ekanligi belgilashga xizmat qiladi.

Fonetik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar

T/R	Shevadagi so‘z	Adabiy tildagi variant	Izohi (O‘xshash va farqli jihatlari)	So‘z turkumi
	Belqars	Belbog‘	Qo‘shma so‘zning ikkinchi qismidagi so‘zda o‘zgarish yuz bergan.	Ot
	Billa	Birga	Tovush o‘zgargan.	Olmosh
	Birich	Guruch	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Boshmardoq	Boshbarmoq	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Buva	Bobo	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Buytib, betib	Bunday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
	Byaqda	Bu yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Byarda	Bu yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Chuchchi	Chuchuk, shirin	Tovush tushishi va tovush ortishi ro‘y bergan.	Sifat
	Chapcha	Sapcha; Qovunning kattaroq tugunagi, hali pishmagan mayda qovun	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Dostiq	Yostiq, bolish	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Dumaloq	Yumaloq	Tovush o‘zgargan.	Sifat
	Do‘ppi	To‘p	Tovush o‘zgarishi va ortishi yuz bergan.	Ot
	Duvol	Devor	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Elanish	Yalinish	Tovush tushishi va tovush o‘zgarishi yuz bergan.	Fe’l
	Ena	Ona, oyi	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Eyaqda	U yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Eyarda	U yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Gittak	Qittak, Ozgina	Tovush o‘zgargan.	Sifat
	Hi	Ha	Tovush o‘zgargan.	Modal so‘z
	Iyarib	Ergashib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
	Ko‘ppala, ko‘ppalavola	Ko‘p, bir talay	Tovush ortishi yuz bergan.	Ravish
	Ko‘cha osh	Go‘ja osh	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Lovlovi	Lavlagi	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Makkai	Makkajo‘xori	Tovush tushishi yuz bergan.	Ot
	Meylov	Mo‘ylab	Tovush o‘zgargan.	Ot

	Navoda	Mobodo, bordi-yu	Tovush o‘zgargan.	Bog‘lovchi
	Oya	Ona	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Pichchi	Picha	Tovush o‘zgarishi va ortishi yuz bergan.	Sifat, ravish
	Shashov	Shoshqaloq	Tovush tushishi yuz bergan.	Sifat
	Shirvunich	Shirguruch	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Shirchoy	Sutchoy	Qo‘shma so‘zning birinchi qismidagi so‘z boshqasi bilan almashgan.	Ot
	Shivitki	Supurgi	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Sho‘tanaq (sho‘tanoq)	Sho‘x– shaddod	Tovush ortgan.	Sifat
	Sho‘ttak	Nordon, sho‘r (sho‘rdak),	Tovush o‘zgargan.	Sifat
	Shuytib, shetib	Shunday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
	Shyaqda	Shu yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Shyarda	Shu yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Tuva, teva	Tepa, tepalik	Tovush o‘zgargan.	Ot
	Ul	O‘g‘il	Tovush tushgan.	Ot
	Uytib, etib	Unday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l

Morfologik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar

T/R	Shevadagi so‘z	Adabiy tildagi variant	Graditsional shakli	So‘z turkumi
1	Ajriq	Chim	Neytral so‘z	Ot
2	Alqindi	Ishlatilgan sovun, sovun bo‘lagi	Salbiy	Ot
3	Alag‘da bo‘lmoq	Xavotir olmoq	Salbiy	Ibora
4	Arimoq	Ketmoq, daf bo‘lmoq	Ijobiy	Fe’l
5	Arg‘amchi	Ingichka arqon.*[34]	Tabu va yevfimizm doirasida ilonni anglatgani uchun salbiy ma’noda ishlatiladi.	Ot
6	Avramoq	Ishontirish, ko‘ndirish*	Ijobiy	Fe’l
7	Aya	Ona	Neytral so‘z	Ot
8	Bayavoy	Bahaybat, gavdali	Ijobiy	Sifat
9	Bachcha	Bola	Neytral so‘z	Ot
10	Bepallaki	O‘ylamay gapiradigan	Salbiy	Sifat
11	Beqiliq	Shum	Salbiy	Sifat
12	Biyi	Qaynona	Neytral so‘z	Ot
13	Bodi	Olifta	Salbiy	Sifat
14	Boyna	Biroz avval	Neytral so‘z	Ravish
15	Boynagi	Haligi	Neytral so‘z	Sifat
16	Bultur	O‘tgan yili	Neytral so‘z	Ravish
17	Bo‘la	Amakivachcha, ammavachcha, xolavachcha,	Neytral so‘z	Ot

[34] Yulduzcha bilan alohida belgilangan so‘zlar Shavkat Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”dan olindi. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent, 2000.

		tog‘avachcha		
18	Bo‘xcha	Kiyim-kechak o‘ralgan tugun*	Neytral so‘z	Ot
19	Chakki	Suzma	Neytral so‘z	Ot
20	Chaqqon	Yengil, yupun	Neytral so‘z	Sifat
21	Chayla	Kapa	Neytral so‘z	Ot
22	Checha	Yanga	Neytral so‘z	Ot
23	Chechan	So‘zamol	Ijobiy	Sifat
24	Chikin(a)	O‘xshab (Undaychikin-unga o‘xshab)	Salbiy	Ko‘makchi
25	Chin	Rost	Neytral so‘z	Sifat
26	Chinchinaki	Haqiqiy	Ijobiy	Sifat
27	Chinaqay	Jimjiloq	Neytral so‘z	Ot
28	Darmayit	Boqimanda	Salbiy	Sifat
29	Do‘ng	Tepa	Neytral so‘z	Sifat
30	Do‘nglik	Tepalik	Neytral so‘z	Ot
31	Do‘qalash	Qo‘zg‘ash, aralashtirish	Salbiy	Fe’l
32	Doritmoq	Yaqinlashtirmoq	Salbiy	Fe’l
33	Dovur	-gacha	Neytral so‘z	Ravishdosh
34	Dovruppa	Nahotki, bo‘lishi mumkinmas	Salbiy	Modal so‘z
35	Emchi	Tabib	Neytral so‘z	Ot
36	Ertachi	Barvaqt, vaqtli	Neytral so‘z	Ravish
37	G‘ujurli	Tadbirli	Ijobiy	Sifat
38	Gajir	Janjalkash	Ijobiy	Sifat
39	Girillak	Aylana	Neytral so‘z	Sifat
40	Glagay	Yangi tuqqan sigirning suti	Neytral so‘z	Ot
41	Govxona	Molxona	Neytral so‘z	Ot
42	Gurri	Urishqoq	Salbiy	Sifat
43	Gurung	Suhbat	Neytral so‘z	Ot
44	Havo	Yomg‘ir, yog‘in	Neytral so‘z	Ot
45	Hachcha	Tirgak	Neytral so‘z	Ot
46	Halinchak	Arg‘imchoq	Neytral so‘z	Ot
47	Hayat	To‘r, adoq, hovlining to‘ri	Neytral so‘z	Ot
48	Hayiqmoq	Qo‘rqmoq, hadiksiramoq	Salbiy	Fe’l
49	Hiyla	Ana	Neytral so‘z	Olmosh
50	Hiyyi	Ha, albatta	Salbiy	Modal so‘z
51	I-i	Yo‘q	Salbiy	Modal so‘z
52	Ilashmoq	Zich bo‘lmagan holda yopishmoq, tegmoq*	Neytral so‘z	Fe’l
53	Iring	Injiq qaysar	Salbiy	Sifat
54	Itirqim	Ko‘p, sanoqsiz	Salbiy	Ravish
55	Janqovul	“J” bilan gapiruvchilar	Salbiy	Ot
56	Jittilamoq	Qilpillab o‘zini ko‘rsatmoq	Salbiy	Fe’l
57	Jomaykor	Ish kiyimi	Neytral so‘z	Ot
58	Juvona	Ho‘kiz	Neytral so‘z	Ot
59	Kakkillamoq	Sharaqlab kulmoq	Salbiy	Fe’l
60	Kamitir	Oqsoqol	Neytral so‘z	Ot
61	Kaypang	Oxirini o‘ylamaydigan	Salbiy	Sifat

		kishi, o‘ylamay shoshib qaror qabul qiluvchi		
62	Kayvoni	Yoshi ulug‘ bilgich	Neytral so‘z	Ot
63	Kuchuk	It	Neytral so‘z	Ot
64	Kuttacha	Nimcha, jaket	Neytral so‘z	Ot
65	Lahat	Qabr	Salbiy	Ot
66	Laxcha-to‘ppa	Xamirli ovqatning bir turi	Neytral so‘z	Ot
67	Lo‘la	Katta bolish	Neytral so‘z	Ot
68	Lo‘x	Qamishning boshqacha turi	Neytral so‘z	Ot
69	Mayak	Tuxum	Neytral so‘z	Ot
70	Mashak	Qunduz, ondatra	Neytral so‘z	Ot
71	Mo‘rcha	Chumoli, qumursqa	Neytral so‘z	Ot
72	Moma	Buvi	Neytral so‘z	Ot
73	Moy	Yog‘	Neytral so‘z	Ot
74	Murdashov	Yuvg‘ich		Ot
75	Muyum	Narsa, buyum	Neytral so‘z	Ot
76	Naynov	Bo‘lar-bo‘lmasga aljiraydigan	Salbiy	Sifat
77	Naqiris	Xasis, ziqna	Salbiy	Sifat
78	O‘lamsa	Nozik, kasalvand	Salbiy	Sifat
79	Obtova	Qumg‘on	Neytral so‘z	Ot
80	Olashaqshaq	Hakka	Neytral so‘z	Ot
81	Pandiyat	Saboq, dars, xulosa	Neytral so‘z	Ot
82	Paqir	Chelak	Neytral so‘z	Ot
83	Pasil (Bir pasil)	Bir oz, bir dam	Neytral so‘z	Ravish
84	Payanap	Suvning chiqishi, izova suv	Neytral so‘z	Ot
85	Pidana	Yalpiz	Neytral so‘z	Ot
86	Pinna	Puxta, mug‘ombir	Salbiy	Sifat
87	Pishak	Mushuk	Neytral so‘z	Ot
88	Piyova	Yovg‘on	Neytral so‘z	Ot
89	Pori	Go‘ng	Neytral so‘z	Ot
90	Potirdoq (patirdaq)	Qoqi, ko‘kat	Neytral so‘z	Ot
91	Povut	Xalal, xalaqit	Salbiy	Ot
92	Puchcha	Mug‘ombir, ichidan pishgan	Salbiy	Sifat
93	Qalampir	Garmdori	Neytral so‘z	Ot
94	Qalang‘i-qasang‘i	Tagi zoti past	Salbiy	Sifat
95	Qalpoq	Do‘ppi	Neytral so‘z	Ot
96	Qasqon	Gardish, doira shaklidagi temir	Neytral so‘z	Ot
97	Qayishmoq	Yonini olmoq	Ijobiy	Fe’l
98	Qitmir	Quv, shum	Salbiy	Sifat
99	Qo‘tan	Qo‘ra, qo‘yxona	Neytral so‘z	Ot
100	Qultum	Ho‘plam, yutum	Neytral so‘z	Hisob so‘z
101	Qumursqa	Chumoli	Neytral so‘z	Ot
102	Sergimoq	Qurimoq, nami qochmoq	Neytral so‘z	Fe’l

103	Shalaq	Og‘zi yomon	Salbiy	Sifat
104	Sholaq (sholax)	Mazax, kalaka	Salbiy	Ot
105	Sholcha	Gilamcha, to‘shamchi		Ot
106	Shapshak	Betgachopar, o‘ylamay gapiradigan	Salbiy	Sifat
107	Shiptir	Kiyimi nam va sasigan	Salbiy	Sifat
108	Siyirmoq	Shilmoq, archimoq	Salbiy	Fe’l
109	So‘g‘un	Keyin	Neytral so‘z	Ravish
110	So‘narmoq	Mo‘ltirab qaramoq	Salbiy	Fe’l
111	So‘rri	Novcha, bo‘yi uzun.	Salbiy	Sifat
112	Sonsiz	Uquvsiz, befarosat, didsiz	Salbiy	Sifat
113	Tapalanglab	Hovliqib, dovdirab	Salbiy	Fe’l
114	Tappi	Tezak	Neytral so‘z	Ot
115	Tarmashmoq	Mahkam ushlamoq, yopishmoq*	Salbiy	Fe’l
116	Taypish	Hovliqma	Salbiy	Sifat
117	Timirskilanmoq	Sinchkovlik bilan qaramoq	Salbiy	Fe’l
118	Tirrancha	Kuchi yetmasa ham zo‘ravonlik qiladigan, zumrasha	Salbiy	Ot
119	Tirtanglamoq	Biron ishga kuchi yetmasa ham o‘zini urmoq		
120	Toti	Bodi, olifta	Salbiy	Sifat
121	Tuyatoppon	Beso‘naqay, beo‘xshov	Salbiy	Sifat
122	Unnamoq, unnab qolmoq	O‘tirmoq, o‘tirib qolmoq (hidga nisbatan)	Salbiy	Fe’l
123	Uvuz	Tug‘ish oldidagi sigirning yelinidagi suyuqlik	Neytral so‘z	Ot
124	Xamsiya, hamsoya	Qo‘shni	Neytral so‘z	Ot
125	Xaymi	Xo‘pmi	Salbiy	Modal so‘z
126	Xezlanmoq	Qasdlanmoq	Salbiy	Fe’l
127	Xiyli (xiylivola)	Ko‘p	Neytral so‘z	Ravish
128	Xurri	Xurrak otuvchi	Salbiy	Sifat
129	Yo‘ng‘ichqa	Beda	Neytral so‘z	Ot
130	Zardoli	O‘rik	Neytral so‘z	Ot

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma), – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 11.*
2. Ashirboyev Samixon *O‘zbek dialektologiyasi O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun, – Toshkent, 2013. – B. 8.*
3. Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (turkiy so‘zlar), – Toshkent, 2000.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 430

5. [1] *Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. –B. 23.*
6. *Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 30.*
7. Ashirboyev S. *O‘zbek dialektologiyasi O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun – Toshkent, 2013. – B. 8.*
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013, – B. 45.
9. *Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 20.*
10. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent, 2000.

MILLIY VA MADANIY KOLORITINI IFODALASHDA REALIYANING ENG MUHIM HUSUSIYATLARI

G.S.Mirzayeva
Farg‘ona Davlat Universiteti Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
mirzayevagulbahor8@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslikda nutq va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning tadqiq doirasi kundan kunga kengayib bormoqda. Ushbu maqolada nutq birliklarini o‘rganishda madaniy va milliy xususiyatlarni o‘rganishda realiyaning muhim jihatlari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** lingvokulturologiya,realiya, milliy va madaniy so`lar, so`z birliklari, nutq birligi, semantika, milliy kolorit.

Аннотация. В языкознании важна связь речи и культуры, и сфера ее исследования расширяется день ото дня. В данной статье освещаются важные аспекты при реалиа изучении культурно-национальных особенностей при изучении речевых единиц.

Ключевые слова: языковая культура, реалиа, национально-культурные слова, словесные единицы, речевая единица, семантика, национальный колорит.

Annotation. In linguistics, the connection between speech and culture is important, and the scope of its study is expanding day by day. This article highlights important aspects of realia in the study of cultural and national characteristics in the study of speech units.

Key words: language culture, realia, national cultural words, verbal units, speech unit, semantics, national character.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida ingliz tili keng tarqalgan. Bu ilg‘or ilm-fan va texnika, savdo va madaniy aloqalar, savdo va biznes tilidir. Shuningdek, ingliz tili ham diplomatiyaning asosiy tillaridan biri hisoblanadi. Tillarni o‘rganish esa bevosita xalqlarni va millatlarni o‘zaro bog‘laydi hamda birgalikda hamkorlik aloqalarini olib borish uchun muhm vositadir.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) insonni ijtimoiy va madaniy hayotidagi uning tabiat, jamiyat, tarix, san’at va boshqa sohalarga ko‘ra o‘zini o‘zi anglashini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko‘rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o‘rganadi. Lingvokulturologiyaning predmeti o‘zaro chambarchas aloqada, muloqotda bo‘lgan til va madaniyat sanaladi. Insonning hayot kechirishida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan voqea-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikr yuritsa ham bo’ladi. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir tomondan mumkin emasdek ko’rinadi. Ammo barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalarning mavjud ekanligi ma’lum. Lekin ba’zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (slavyanlar va germanlar) quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi.

Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo`ladi. Biz bilamizki, til so`zlardan tashkil topadi.

Keyingi yillarda lingvokulturologiyaga bag‘ishlangan ishlar ko‘payib qoldi. Jumladan, Y.S.Stepanov “Konstantlar: Rus madaniyati lug‘ati”ni yaratgan bo‘lib, rus tili egalarining tillari uchun faol bo‘lgan konseptlarni jamlagan va keng ma‘lumot bergan. (Stepanov, 2001). N.D.Arutyunovaning “Til va inson olami” tadqiqoti turli davrlar va turli xalqlar madaniyatiga tegishli universal terminlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. (1999) V.N.Teliya va uning maktabi vakillari esa iboralarni o‘rgandi, bundan maqsad esa ularning milliy-madaniy ko‘chma ma‘nolarini tavsiflash va mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishdir. (1996) Umuman olganda, lingvokulturologiya va lingvokulturologik terminlari oxirgi vaqtda ko‘pgina tadqiqotlarda tez-tez uchraydigan bo‘lib qoldi. Bu terminlar birmuncha erkin ishlatilmoqda: ba‘zan til siyosati sifatida ham ta‘riflanmoqda (Artemeva, 2003).

So‘z –tilning asosiy birligi bo‘lib, predmetlarning nomlarini va ularning xususiyatlarini, hodisalarni, borliqqa munosabatlarini bildirishga xizmat qiladi. So‘zlarda milliy-madaniy komponent turlicha berilgan. Madaniy boy mazmunga ega bo‘lganligi darajasiga ko‘ra quyidagi so‘z guruhlari farqlanadi.

Realiyalar- real borliq darajasi. Tili o‘rganilayotgan xalq madaniyatida u yoki bu realiyaning, o‘ziga xos so‘zning, pretmetning mavjud emasligi shunga olib keladiki, so‘zning barcha semantik tuzulishi, uning leksik asosini qo‘shib hisoblaganda madaniy o‘ziga xos bo‘lib qoladi. Shuningdek, og‘zaki nutqimizda mavjud bo‘lib, milliy hamda madaniy xususiyatlarimizni ko‘rsatib beruvchi so‘z birliklari mavjudki, ular bizning atrof olam va tabiat bilan uzviy bog‘liq holda tafakkurimizda mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvokturemadan farqli o‘laroq ***realiya*** faqat so‘z va iboralarda aks etadi. Bu borada olib borilgan izlanishlar unga turlicha ta’rif berilishiga sabab bo‘lgan. Jumladan R.Fayzullayeva tarjimada milliy koloritni aks ettirishni o‘rganar ekan unga quyidagicha izoh beradi: “Realiyalar bir xalq tilida paydo bo‘lib, millatning turmush tarzi, tarixi, madaniyatini o‘zida aks ettiradi va o‘zga tilda uning aniq muqobili bo‘lmaydi” [14.104].

Realiyalar ma’lum bir xalqqa xos bo‘lgan milliy-madaniy jihatlarni aks ettiruvchi birlik bo‘lib, ularda xalqning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ruhi, tarixi va madaniyati bilan bog‘liq axborot zohir bo‘ladi.

Realiya faqat bir xalqqa xos bo‘lgani va u boshqa xalq uchun notanish bo‘lgani uchun tarjimada uni ifodalash uchun maxsus usul va metodlardan foydalaniladi. Realiyalar ko‘proq badiiy adabiyotlarda, shuningdek insonlarning og‘zaki nutqida ishlatilib, u yerda nafaqat stilistik maqsadlarda, balki milliy, mahalliy va tarixiy kolorit (buyoqdorlikni) tug‘dirish uchun xizmat qiladi [3.12].

Realiya, lingvokulturemani tarjimada ifodalashdagi qiyinchilik ularni lakunalarga o‘xshatib qo‘yadi. Lakuna ham tarjima qilib bo‘lmaydigan birlik sifatida talqin qilinadi. Lakuna termini fanga ilk bor J.P.Vine va J.Darbelenlar tomonidan kiritilgan. Ular lakunaga “bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini

topolmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi” deb izoh bildirishgan [16.12].

Quyida biz realiyalarni boshqa jihatdan o`rganamiz, bu so`z birliklari albatta boshqa tillarda aynan o`ziga mos so`z bilan ifodalanib, unga ekvivalent sifatida ishlatiladi, lekin ko`chma holatda u biznng milliy hamda madaniy jihatdan o`zimizni shu so`zlar bilan bog`liq holda anglashimizni bildiradi. Shuningdek, ushbu so`zlar bizni turmush tarzimiz, odatlarimiz va bizni o`rab turgan tevarak atrofimizdagi o`simliklar va jonli tabiat bilan bog`liq ekanligini ko`rishimiz mumkin.

**Bo`taloq-** 1. Tuyaning bolasi; bo`ta; 2. Ko`chma. Ayn bo`ta, bolalarni, yoshlarni erkalatib aytiladi.

Vavag – 1. Bedananing sayrashi haqida; 2. Ko`chma. Baqirib vagillab gapiradigan odam haqida.

Sarv- 1. Janubiy mamlakatlarda o`sadigan igna bargli doim yashil tik daraxt.

2. Ko`chma. Qaddi-qomati kelishgan, hushqomat ayol haqida.

Sarvi noz- go`zal va ser ishva ayol; nozanin, sevimli yor.

Sarvi ravon- qaddi-qomati kelishgan, go`zal va yurishi chiroyli ayol.

Yosuman- 1. Xushbo`y, oq tup gulli dekorativ buta. 2. Ko`chma. Hiylagar, makkor ayol. Navoiyning “Farhod va Shirin” asaridagi Farhodni hiyla bilan qo`lga tushirgan ayol nomidan.

Oyimsupurgi- 1. Poyasidan supurgi qilinadigan, doni qizil boshoqli o`simlik. 2. Shu o`simlik poyasidan bog`langan supurgi. 3. Ko`chma. Supurgiday egilib-bukiladigan, muloyim odam haqida.

Bo`tako`z- 1. Dalada o`sadigan bir tup ko`k gulli yovvoyi o`t; 2. Ko`chma. Tuya bolasining ko`ziga o`xshagan chiroyli ko`z, shaxlo ko`z va shunday ko`zli kishi. **Pista-** 1. Bot. Janub tog`larida o`sadigan past bo`yli daraxt; 2.ko`chma “pista dahan” og`zi kichik va kelishgan.

**Ko`rnamak-** yaxshilikni qadrlamaydigan, yaxshilikka yomonlik qiladigan, tuzingni ichib, tuzlig`ingga tupuradigan; nonko`r.

Yostiqdosh- bir yostiqqa bosh qo`ygan, birga turmush qurgan kishi, er yoki xotin.

Oqsoqol- 1....2...3. ko`chma. Biror sohada ishlagan, mehnati singan keksa kishi.

**Bo`z -** .....bo`z bola (yoki yigit) turmush achchiq-chuchugini totmagan, turmush tarjibasiga ega bo`lmagan, xom bola, o`smir.

Mushtipar- qo`lidan biror ish kelmaydigan, ojiz, bechora (ayollar haqida)

Mo`rchamiyon- ingichka belli, beli ingichka, xipcha bel (xotin qizlar haqida)

Tirmizak – 1. Hali qo`lidan biror ish kelmaydigan, turmushning og`ir-yengilini ko`rmagan, yosh, g`o`r bola haqida. 2. Sho`x bolalarga nisbatan “shumtaka”, “tirrancha” kabi ma`nolarda ishlatiladi. Bu so`zlardan ko`rinib turibdiki, ularni borliqdagi so`zlardan ayni milliy qadryatlar asosida yuzaga kelgan hamda ko`p yillardan beri ishlatilib kelinadi.

Shuningdek, zamonaviy og`zaki nutqimizda mavjud bo`lgan til birligi sifatidagi realiya muqobilsiz leksika sirasiga kiradi. U lingvistik bilimning ajralmas qismi bo`lib, til va madaniyatning o`zaro aloqasini tadqiq etishda muhim qiziqish uyg`otadi. Ko`p hollarda biz tilning ijtimoiy tomoniga ko`proqV.G.Gak esa lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo`shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi" deya ta'rif beradi. Ya'ni bir tilda mavjud ma'lum bir tushuncha boshqa bir tilda ham mavjud bo'ladi, biroq buni ifodalaydigan vosita so'z mavjud bo'lmaydi. Lakunaning realiyaga o'xshash biroq lingvokturemadan farqli tomoni ham ayni shunda, ya'ni u tillar o'rtasidagi madaniy turli xillik tufayli yuzaga keladi. Biroq uni realiyadek tarjima qilish uchun muqobil ham boshqa vosita ham bo'lmaydi. Shunchaki bu bo'shliqlikning mavjudligi hisoblanadi. Shu sababdan "lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo'lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so'z va so'z birikmalaridir" [15.12]

Realiyalarning atamalardan farqi shundaki, ko`p jihatdan u yoki bu tushuncha va narsalarni atash uchun sun`iy yaratiladi. Realiyalar esa tabiiy yo`l bilan, ya`ni xalq ijodi orqali ro`yobga chiqadi. [15.12] Atamalar biror predmet – narsalarning nomi sifatida shu predmet-narsalarning tarqalishi hisobiga tarqaladi, o'sha millatning boyligi sifatida e'tirof etiladi. Na obrazlik va na emotsional atamalarga xos, biroq bunday hususiyatlar realiyada mavjud.

Realiya atamasi S.I.Vlaxov va S.P.Florin tomonidan taklif qilingan [7.13]

[Vlaxov, Florin, 2012]. Bu atama obektlarga, urf-odatlarga, ma'lum bir tilning shakllanishiga ta'sir qiluvchi odatlar va boshqa madaniy va moddiy jihatlar. Realiyani ekvivalent etishmasligi doirasida muhokama qilish mumkin birliklardir. Ekvivalent etishmasligi ko'ra birliklar - bu maqsadli til va madaniyatda mavjud bo'lmagan tushunchalar. Ular ba'zan tarjima qilinmaydigan birliklar deb ham ataladi. Shuningdek, ushbu realiyalar og'zaki nutqqa xos bo'lib, badiiy asarlarda real voqealarni tasvirlash, ularni o'quvchi ko'z oldida jonlantirishga, uni to'liq his qilgan holda qabul qilishga yordam beradi, shuningdek, bu so'zlar semantikasi milliy va madaniy xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yhati

1. A. E. Mamatov "Zamonaviy Lingvistika" 2019, Toshkent
2. A. Mo'minova, Monografiya,2016
3. Baxtiyor Mengliyev " Hozirgi o`zbek tili" 2018,Toshkent
4. Butayev Sh., Irisqulov A., Ing.-O'zb, O'zb-Ing. Lug'at. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Bakiyev F "Gid ekskursovodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi" maqolasi, "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
6. Butayev Sh., Irisqulov A., Ing.-O'zb, O'zb-Ing. Lug'at. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Bakiyev F "Gid ekskursovodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi" maqolasi, "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.

8. E.Ochilov “Badiiy tarjima masalalari”-Toshkent, 2014.
9. J.Jalolov. “Chet tili o`qitish metodikasi” Toshkent.2012.
10. Irisqulov M.T., Tilshunoslikka kirish, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2009
11. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012.
12. M.Zokirov, R.Majidova, Sh.Sultonova.O‘zbekcha – ruscha – inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug‘ati.Farg`ona.2016.
13. 13.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0Ie2GvAAAAAJ&citation_for_view=0Ie2GvAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

THEORETICAL ANALYSIS OF TRAINING TO IMPROVE TOURISM IN THE COUNTRY

Kazakova Dilnoza Bobirovna
Master's degree from the Bukhara State University
kazakovadilnoza830@gmail.com

Abstract. This article provides feedback on the theoretical analysis of training to improve tourism in the country, and a detailed study and analysis of existing shortcomings in the field.

Keywords: tourism, personnel, research, quota, analysis, service, marketing, specialist.

Аннотация. В данной статье в целях совершенствования туризма внутри страны были даны мнения по теоретическому анализу подготовки кадров, а также тщательно изучены и проанализированы имеющиеся недостатки в сфере.

Ключевые слова: туризм, персонал, исследование, квота, анализ, сервис, маркетинг, специалист.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat doirasida turizmni takomillashtirish maqsadida kadrlar tayyorlashning nazariy tahlili yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi va soha bo`yicha mavjud kamchiliklar atroflicha o`rganildi hamda tahlil etildi.

**Kalit so`zlar**: turizm, kadrlar, tadqiqot, kvota, tahlil, xizmat ko`rsatish, marketing, mutaxassis.

The development of tourism remains one of the most pressing issues today. The work being done in this area, the introduction of a number of new decrees and decisions, the creation of benefits and privileges in this area can serve as proof of our words. For the development of any industry, for professional staff in this field is the basis of innovation and development. Especially in tourism, it is very important to have qualified personnel, to be able to do their job at a professional level. Observations of the research of European scientists show that personnel is everything for the activity and development of the industry.

First of all, let's pay attention to the question of what conditions a specialist working in the field of tourism must meet. So, what are the requirements for a specialist in the field of tourism, and to what extent are currently working in the field of tourism in the Republic of Uzbekistan able to meet these requirements?

For the development of tourism, in general, for the development of this sector, the specialist must have:

- Treatment culture;
- Knowledge of a foreign language;
- Have a good appearance;
- Always be positive and polite.

In tourism, in main task of personnel is to provide services, which is why the culture of communication is of particular importance in the implementation of these services. The sweetness of the waiter helps to solve many problems easily, as

a result, the tourist returns to his home country (if foreign), home (if local) with good impressions.

Another requirement of our staff is a perfect knowledge of foreign language. Based on my theoretical analysis, I can say that 60-65% of graduates who have just started working in the field of tourism, have a bachelor degree, graduated from professional collegesdo not know more than 1 foreign language. This is a very serious issue in the field. The reason for this is the lack of hours of teaching foreign languages, incomplete or no teaching at all. Failure to meet this requirement indicates that the employee working in the tourism sector is unprofessional.

The next requirement is the presence of a good appearance, which will increase the trust and respect of the tourist for the specialist providing the service. Neglect of appearance leads to a decrease in trust and respect not only for tourists, but also for those around them. Having a good appearance is not about expensive clothes, gold jewelry and a beautiful dress, it means dressing cleanly and neatly, wearing comfortable and appropriate clothes, and the clothes worn must comply with the rules of etiquette.

The next, more difficult requirement is to be able to control emotions, that is, always think positively. The ability to control oneself in various force majeure situations while traveling and resolve disputes according to the principle “The customer is always right”. In this case, it is necessary to resolve the conflict on a professional level and with a positive attitude.

In order to improve tourism within the country, I presented this issue on the example of the Bukhara State University in the theoretical analysis of personnel training. According to him, in the 2021-2022 academic year, the Faculty of Economics and Tourism allocated quotas in 3 areas in the field of tourism. They are as follows: for those wishing to study in the Uzbek language, 40 quotas are allocated, in Russian - 30 quotas, in English - 30 quotas. The same is true in the field of hotel management: 40 places for Uzbek students, 30 places for Russians and 30 places for English students. In the field of marketing, 25 places have been allocated for students studying the Uzbek language and 15 places for students studying the Russian language.

In the field of tourism, 52 Uzbek students, 24 Russian students and 22 English students were admitted. The number of evening parties in this direction is 31 people. 47 students of the Uzbek language, 28 students of the Russian language and 22 students of the English language were admitted to the direction of hotel management. In the evening, 31 students study in this direction. 25 people study in the Uzbek language, 15 people in the field of marketing study in Russian. There are 33 students in the evening course. In total, 235 students study at the Faculty of Tourism during the daytime, and 92 students in the evening. The main issue is the quality of their knowledge, qualifications and skills. To train professional staff from students, it is necessary to significantly increase the hours of practice. Increasing demand for their foreign language learning and constantly testing their language learning. In addition, it is necessary to ensure their direct connection with

tourists. The national training program is the main regulatory document in the development of the personnel training system, and one of the measures to ensure the implementation of the program is the development and implementation of effective mechanisms for integrating education with science and production, which serves to improve the quality of education, and also serves as an important factor.

References

1. Alieva M.T. Textbook "Economics of tourist countries", Tashkent, TDIU, 2009.
2. Allaberganov A. A. "T
3. 146 pages. tourism industry" Tashkent. 2004, 210 pages.
4. Kamilova F.K. Textbook "Hotel and restaurant marketing".
5. Tashkent, 2007, 97 pages.
6. Kamilova F.K., Taisheva I.M., Sayfutdinov Sh.S. "Tourism Industry". Education

O'ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA YUKSAK AHAMIYATGA EGA SHASHMAQOMNING RIVOJLANISH TARIXI

Xidirov Kamil Achilovich
Termiz davlat universiteti "Musiqa ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "O'zbek musiqa madaniyatida yuksak ahamiyatga ega shashmaqomning rivojlanish tarixi" mavzusi asosida yetarlicha yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: parda, ohang, usul, shakl, uslub, mumtoz, shashmaqom buzruk, rost, navo, dugoh, segoh, iroq, ovoz, tanbur, surnay, dutor.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка достойно осветить тему «История развития шашмакама, имеющего большое значение в узбекской музыкальной культуре».

Ключевые слова: Парда, тон, стиль, форма, стиль, классика, шашмаком бузрук, рост, наво, дугох, сегох, ирак, голос, танбур, труба, дутор.

Abstract. In this article, an attempt was made to adequately cover the topic "The history of the development of shashmakam, which is highly important in the culture of Uzbek music."

Key words: Parda, tone, style, form, style, classic, shashmaqom buzruk, rost, navo, dugoh, segoh, iraq, voice, tanbur, trumpet, dutor.

Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shartsharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiyijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'analarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir.

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiyijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi.

Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula

namunalaridan iborat. Shu qunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo‘llarining ko‘plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo‘llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar.

Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo‘rovozlik va jo‘rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so‘nggi davrda jo‘rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo‘lgan), afg‘on rubobi, sato yoki qo‘biz, imkonga ko‘ra bo‘lamon cholg‘ularidan iborat bo‘lgan. Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo‘llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir maqomning bosh tovushqatori o‘ziga xos va nisbatan barqaror bo‘lib, turkumning to‘liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o‘zgarishlar ham sodir bo‘lib turadi. Chunki shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga 12 maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzui tabiatiga ohangdosh o‘zga sho‘ba va maqom yo‘llari ham kiritilgan. Ularning lad tonalligi asosiy maqom yo‘llariga ba’zan mos kelmasligi ham mumkin. Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki — cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo‘limlaridan iborat. Cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataluvchi cholg‘u qismlari mavjud bo‘lib, ohanglari o‘zlari mansub bo‘lgan maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiylari Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil deb ataladi. Bu kismlar maqom nomlariga qo‘shib (mas, Tasnifi Buzruk, Tarjei Dugoh, Garduni Segoh kabi), ayrimlari esa bastakorlar nomi bilan birga (mas, Muxammasi Nasrulloyi, Saqili Islimxon) ataladi. Ba’zi cholg‘u qismlari alohida nomga ega (mas, Nag‘mai Orazi Navo), Dugoh va Segoxda esa maqom nomi bilan qo‘shib aytiladi (mas, Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Xafifi Segoh). Shashmaqomning cholg‘u qismlari xona va bozgo‘y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o‘zgaruvchi xonalarning rivojlanishi uchun qo‘llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasnif, Tarje, Nag‘mai Oraz, Samoi, Xafif kabi cholg‘u qismlari bir-biriga o‘xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav birmuncha rivojlangan; Muxammas va Saqil yo‘llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining ichki tuzilishi murakkab bo‘lsada, o‘zining ravon ohangdorligi va rangbarangligi bilan shu maqom quy mavzulari bilan bevosita bog‘likdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi, tinglovchilardan esa eshitish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi. Odatda, shashmaqom cholg‘u qismlari birinketin yaxlit tarzda ijro etilgandan so‘ng uning „Nasr“ bo‘limiga o‘tiladi. Ashula qismlari ancha murakkab shakldagi sho‘balar, ularning tarona yoki shoxobchalaridan iborat. Bular ham yaxlit turkum tarzida ijro etiladi. Shashmaqom ashula bo‘limlari tuzilish jihatidan bir-biridan farqlanadigan ikki toifa sho‘balar guruhidan tashkil topgan; birinchisiga Saraxbor, Talqin, Nasr deb nomlanuvchi sho‘balar va yakuniy Ufar qismi, ikkinchisiga esa, asosan, Savt va Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balar va ularning

shoxobchalari kiradi. Shashmaqomdagi nomdosh shoʻbalar (Saraxbori Buzruk, Saraxbori Navo va boshqalar)ning kuyohanglari turlicha boʻlsada, doira usuli va kuylariga bogʻlab aytiladigan she'r vaznlari bir xildir. Shoʻbalarning ikkinchi guruhida Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb nomlanadigan shoxobchalar mavjud va ular shu nomdagi oʻziga xos doira usullarida yangraydi. Shashmaqom shoʻbalarining rivojlanishida avj va namudlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ashulaning yirik shakl olishi va mazmunan chuqurlashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Namudlar maqom yoʻllarida yakka avj yoki guruh tartibida erkin ishlatiladi. Oʻtmishda hofizlarning xohish va imkoniyatiga qarab namudlar soni (bir shoʻbada 4 tagacha) oʻzgarib turgan. Shashmaqom ashula boʻlimi shoʻbalari shaklan barkamol boʻlib, ichki tuzilmalar tarkibi turlicha boʻlishi mumkin. Mas, har bir shoʻba yoʻli cholgʻu muqaddimasi bilan boshlanadi. Keyin daromad nomli bosh xat ijro etiladi va oʻrta pardalarda bayon etiluvchi miyonxat jumlalariga oʻtiladi. Urniga qarab dunasr tuzilmasida yuqori pardalar zabt etiladi. Soʻngra shoʻbalarga xos avjda namudlar aytilib, ashula yoʻli miyonxat orqali yoki usiz ulanib ketadigan furovard (tushirim) tuzilmasi bilan yakunlanadi. Ba'zi shoʻbalar tuzilishi boshqacharoq boʻlishi ham mumkin.

Shashmaqom ashula boʻlimining ikkinchi guruhidagi shoʻbalar oʻzaro bogʻlanmagan tarzda mustaqil ashula yoʻllari hisoblanib, ularning har biri, asosan, 5 qismli turkumni tashkil etadi. Masalan, asosiy Savt yoki Moʻgʻulcha ashula yoʻlidan keyin unga ushbu kuy mavzuining yangicha vaznusulli (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar) namunalari navbatmanavbat ulanadi. Maqomlarning tarixiy, nazariy, estetik masalalari uzoq oʻtmishdan shu kunga qadar musiqashunoslar tomonidan har tomonlama oʻrganilmoqda. Xususan, Urta asrlar musiqa risolalarida Sharq mumtoz musiqasiga xos pardalad tuzilmalari keltirilib, maqomot hamda xalq musiqasiga xos tovushqator va usullar tuzilishi haqida mulohazalar yuritilgan. 19-asr boshi va oʻrtalarida shashmaqomga oid maxsus yozma she'riy toʻplam — bayozlar yuzaga keldi. Ularda maqomlarga aytilgan gʻazal matnlari keltirilgan, maqom va shoʻbalar nomlari hamda ijro etiladigan ashulalar turkumining tartibi koʻrsatilgan. Komil Xorazmiy va uning oʻgʻli Muhammad Rasul tanbur chizigʻi yordamida yozib olgan Xorazm maqomlari ham shashmaqomning 19-asr namunalari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Shashmaqom ashula yoʻllarida oʻzbek hamda fors mumtoz shoirlaridan Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqalarning ishqiylirik, falsafiy, nasihatomuz, diniy mazmundagi gʻazallari, shuningdek, xalq toʻrtliklari jalb etilgan. Oʻzbek xalqi musiqa boyliklari asosida yuzaga kelgan shashmaqom, oʻz navbatida, zamonaviy musiqa san'ati rivojlanishiga samarali ta'sir koʻrsatdi. Oʻzbekiston bastakorlari va kompozitorlari oʻz ijodida shashmaqomdan keng koʻlamda foydalanishni davom ettirmoqdalar. Bulardan M.Ashrafiy, M.Burhonov, K.Jabborov, T.Jalilov, D.Zokirov, S.Kalonov, Y.Rajabiy, T.Sodiqov, Fahr.Sodiqov, M.Tojiyev, O.Hotamov va boshqalar yaratgan ashula, romans, xor, simfoniya va opera asarlarida maqomlar salohiyatini oshirishda salmoqli yutuqlarni qoʻlga kiritishgan.

„O‘zbektelefilm“ studiyasi tomonidan „Shashmaqom“ filmi suratga olingan (1972, rejissor T.Akromov).

Hozirgi davrda O‘zbekiston bo‘ylab shashmaqomni ijro etishga ixtisoslashgan Maqom ansambli kabi professional ansambllar, havaskor badiiy jamoalar maqomlarni ijodiy o‘zlashtirish hamda targ‘ib etish borasida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Rajabov “Maqomlar masalasiga doir”, Toshkent, 1963.
2. Matyoqubov O., “Maqomat” Toshkent, 2004.
3. I.Rajabov, R Yunusov
4. Bekzod Bahrom O’G’Li Choriyev O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi // Science and Education. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi (дата обращения: 07.10.2022).
5. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O’zbekistonda xalq cholg’ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko’p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, *3*(4), 776-780.
6. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi.
7. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(1), 67-73.
8. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.
9. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.
10. O’zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko’rsatib kelayotgan “Jarqo’rg’on”,“Sharshara”,“Mahliyo”,“Qo’ng’irot” va “Zevar” folkloretnografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.
11. URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom.

KILINIKA OLDI MODULLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASH (Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari misolida)

Irgashev Suyundik Uktamovich,
Xayitova Yulduz Davlatovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
Irgashev_2019@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada, tibbiyot ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan modullarning mazmunini modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish masalalari o‘z aksini topgan. Unda ushbu tizimda o‘qitilayotgan amaliy mashg‘ulotlar darslari bo‘yicha mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Intellektual, sub’ekt, xalqaro ta’lim standartlari, modernizatsiya, pedagogik jarayon.

Абстракт. В статье отражены вопросы модернизации содержания модулей, преподаваемых в медицинских учебных заведениях, и поднятия эффективности образования на новый качественный уровень. Описаны технологии, разработанные авторами для практических занятий, проводимых в этой системе.

Ключевые слова: Интеллектуал, предмет, международные образовательные стандарты, модернизация, педагогический процесс.

Abstract. The article reflects the issues of modernizing the content of the modules taught in medical educational institutions and raising the effectiveness of education to a new level of quality. It describes the technologies developed by the authors for the practical training classes taught in this system.

Key words: Intellectual, subject, international educational standards, moderniza-tion, pedagogical process.

Mamlakatimizda milliy tibbiyot va farmasevtika ta’limini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ta’lim olayotgan yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1].

Intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun tibbiy ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. Bunda innovatsion faoliyat sub’ektining talablarini qondirishdan, innovatsion faoliyat sub’ekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo‘lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi sub’ektning yangilikni yaratish va o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o‘zida ifoda etuvchi bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda tibbiy ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan asosiy maqsad talabalarimizning zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lishi, jamiyatimiz hayotida

munosib o‘rin egallashini ta’minlashdan iborat. Bugungi kunda tibbiy ta’lim tizimida amaliy mashg‘ulotni quyidagi bosqichlarda o‘tkazish maqsadga muvofiq:

- yangilik kiritishni shakllantirish, o‘quv jarayonini loyihalashtirish;
- innovatsion g‘oyalarni ijodkor o‘qituvchilar guruhi bilan sinovdan o‘tkazish, tajriba sinovdan o‘tkazilgan amaliy ishning yakunini chiqarish, shu asosda yangilikni keng miqyosda qo‘llash bo‘yicha qaror qabul qilish va uni amalga oshirish;
- yangi g‘oyalarni izlash: axborotlar bankini yaratish, innovatsion jarayonlar rivojlanishiga bag‘ishlangan nazariy-amaliy seminar, treninglarni tashkil etish va ularni qo‘llashga tayyorlash;
- yangilikni joriy etishni tahlil qilish, tanqidiy qarash, tadbirlar tashkil etish va yangilikni ta’lim tizimiga tadbiq etish va boshqalar. Indikatorlar tizimi orqali ta’lim sifatini boshqarish mexanizmini yaratish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bugungi kunda hayotimizda tobora katta o‘rin olayotgan ilmu-fan, ta’lim-tarbiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, tibbiyot, madaniyat va san’at kabi muhim sohalar rivojini olimlar ishtirokida rivojlantirilishi zarur. Ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, tarbiyaning ta’sirini oshirish, o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilish, shu va shunga o‘xshash barcha savollarga javob topish uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar va boshqa soha mutasaddilari jalb etilmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va professor-o‘qituvchilarning o‘qitish sifatini oshirish bilan ilg‘or pedagogik uslublarini qo‘llash tavsiya etiladi.[2]

Pirbord texnikasi. Pirbord inglizcha Pin - mahkamlash, board - doska so‘zidan olingan bo‘lib, muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirib, guruhlashni amalga oshirish, jamoa tarzda yoki yagona holda qarama-qarshi fikrlarni shakllantirishga imkon beradi. Dastlab o‘qituvchi muammoli savolni o‘rtaga tashlaydi va talabalardan o‘z fikrlarini bayon etishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil etadi. Faol talabalar rag‘batlantiriladi. Keyin fikrlar tahlil qilinib, muhokama qilinadi, baholanadi va eng samarali fikr tanlanadi. Ushbu tayanch xulosaviy fikr alohida qog‘ozlarga va doskaga yoziladi (mahkamlanadi).

Ushbu texnologiyada muammoli savol bo‘yicha barcha fikrlar jamlangach, guruh namoyandalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- xato yoki takrorlanayotgan fikrlar olib tashlanadi;
- bahsli fikrlarga aniqlik kiritiladi;
- fikrlar ma’lum belgilar bo‘yicha tizimlashtiriladi, guruhlarga ajratiladi;
- ularning o‘zaro munosabatlari chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida belgilanadi. Jamoaning yagona yoki qarama-qarshi fikrlari ishlab chiqiladi.

“Veer” texnologiyasi. Murakkab, muammo xarakterdagi mavzularni o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu texnologiyada mavzu bo‘yicha dastlab to‘liq va qisqa ma’lumot beriladi. Mavzu bo‘yicha asosiy muammoli savollar ajratilib, alohida

kichik guruhlarda muhokama etiladi, ya'ni muammoning ijobiy va salbiy jihatlari, yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni shakllantrib, talabalarga o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma bayon etishlariga, himoya qilishlarisha sharoit yaratadi."Veer" texnologiyasi yordamida mavzuning alohida savollari bo'yicha kichik guruhlarning, har bir talabaning faol ishtirok etishi ta'minlanadi va ularning ushbu savol bo'yicha bilimlari baholanadi.

FSMU texnologiyasi. Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, bahslashishga, egallagan bilimlarini tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi

F – fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasida mavzu bo'yicha savol qo'yiladi. Talabalarga FSMU texnologiyasining mohiti va ularning vazifasi tushuntiriladi. Topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt belgilaydi, masalan 15-20 minut. Topshiriqni har bir talaba shaxsan bajarishi talab etiladi. Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularning savollariga javob berib boradi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Kuzatuv davrida to'g'ri qaror yoki fikr yozayotgan talabalarni aniqlaydi. Javoblarni yig'ib olib, kuzatuv davrida nisbatan to'g'ri deb topilgan talabalarning fikrlarini o'qiydi, qo'shimchalar kiritib, savol bo'yicha to'liq ma'lumot beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarni bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin.

"Skarabey" texnologiyasi. O'qitishning interaktiv texnologiyalaridan biri bo'lib, undan o'quv materiallarini o'rganishning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu texnologiyada talabalar tajribasidan foydalaniladi, reflektiv kuzatishni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ushbu texnologiya quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

- dastlab o'quv mavzusining mohiyati, tuzilishi va mazmuni "aqliy hujum" texnologiyasi asosida belgilanadi;

- mavzu bo'yicha o'rganiladigan savollar o'rtasidagi aloqalar, bog'liqlik, asosiy tushunchalar aniqlanadi;

- mavzuning har bir savoli chuqurroq o'rganiladi, mavzu bo'yicha talabalarda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga imkoniyat yaratiladi.

- O'qituvchi mavzuni yakunlab, olingan bilimlarni mustahkamlaydi.[3] Shunday qilib, amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tibbiyot ta'limida tizimida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, o'qitish

sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, talabalarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Yuqoridagi texnologiyalar orqali diqqatni jamlash, erkin mushohada yuritish, ishonchli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda guruhni faollashtirishga erishiladi. Innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ifoda etadi. Ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda muayyan metod, usul va vositalar asosida samarali boshqarish tizimi maqsadga yo‘naltiriladi. Ko‘zlangan natijalarga erishishda ko‘makchi bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so’zi 26.01.2020 y.
2. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro‘ziev. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya”. 2013 y.
3. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013 y.

ENG QADIMGI TEONIMLARNING LEKSIK-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ernazarova D.O.
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada eng qadimgi teonimlarning leksik-etimologik xususiyatlari ochib berilgan. Onomastika haqidagi qarashlar bayon etilgan.Teolingvistika yangi yo‘nalish sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: teolingvistika,lingvistika, onomastika,teonimlar, diniy matnlar,tangri.

Annotation. This article reveals the lexical and etymological features of the oldest theonyms. Views on onomastics are stated.Teolinguistics is interpreted as a new direction.

Keywords: theolinguistics, linguistics, onomastics, theonyms, religious texts, god.

Аннотация. В статье раскрываются лексико-этимологические особенности древнейших теонимов. Изложены взгляды на ономастику. Теолингвистика трактуется как новое направление.

Ключевые слова: теолингвистика, языкознание, ономастика, теонимы, религиозные тексты, бог.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri teolingvistika hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida teonimlar etimologiyasi chuqur va mukammal o‘rganilmagan, o‘z tadqiqini kutayotgan masalalardan biri sanaladi. O‘zbek teonimlarini to‘plash ,guruhlash va lisoniy xususiyatlarini o‘rganish nomshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek onomastikasi keng ko‘lamli va ko‘p qirralidir. Teonimlar onomastikaning tarmoqlaridan biri bo‘lib, diniy tushunchalar nomlari hisoblanadi. «Teonimlar diniy muloqotni o‘rganuvchi tilshunoslikning yangi yo‘nalishi – teolingvistikaning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Teolingvistika termini inglizcha theo – din, xudo va linguistics – tilshunoslik so‘zlaridan olingan. Demak, Teolingvistika – diniy tilni o‘rganuvchi fan»[35] Teolingvistika inson diniy faoliyati va uning lisoniy ifodasini tadqiq qiluvchi fan hisoblanadi. Teolingvistikaning tadqiqot ob’ekti diniy tafakkurning tildagi ifodasi sanaladi. Dunyo tilshunosligida bunday yo‘nalish teolingvistika nomi bilan yuritila boshlandi. Ayni paytda bunday tadqiqotlarning dastlabki namunalari jahon tilshunosligida Devid Kristal, Jan Per, Van Noppen va Uilyam Samarin kabi taniqli olimlarning amaliy va ilmiy izlanishlarida ko‘zga tashlanadi.Van Noppen «teolingvistika» atamasini fanga olib kirgan. Ilk bor «Teolingvistika» nomli maqolalar to‘plamini jamlashga muvaffaq bo‘lgan olimdir. XXI asrga kelib jahon tilshunosligida til va din masalalariga bag‘ishlangan ensiklopediya ham vujudga keldi. J.Soyer va J.Simpson tomonidan yaratilgan «Til va dinning qisqacha ensiklopediyasi»da dunyoning turli

[35]https: //www.definitions.net/definition/theolinguistics; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com (date of access: 12.01.2019).

burchaklarida yashovchi xalqlarga oid diniy tushunchalar va til bilan bog‘liq xususiyatlar yoritilgan. Bu esa teolingvistika va uning muammolariga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi.[36] Sharqda din va til masalalarini o‘rganish ancha oldin boshlangan. Arab tilshunosligida Qur’oni karimni lingvistik tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. O‘zbek tilshunosligida diniy lingvistika bo‘yicha E.Begmatov, N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Umarxo‘jaev, M.Galieva, Sh.Sultonova ,Sh.Yusupova kabi tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shunday ekan, teolingvistika o‘zbek tilshunosligida ham rivojlanib borayotgan tilshunoslik tarmoqlaridan biridir. M.Umarxo‘jaev o‘zbek tilida «Diniy atamalar va iboralar» izohli lug‘atini yaratgan olim sifatida mashhurdir.

O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar tarjima tilida muqobili bo‘lmaganligi uchun asl holicha qo‘llanadi. Matnga xos diniy ruhni ta’minlash uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan N.Uluqov teonimlarni ekzotik leksika sirasiga kiritadi.[37]

Qozon tilshunos olimi M.X.Bakirovning ma’lumot berishicha, dunyo tilshunosligida Borean nazariyasi mavjud[38]. Unga ko‘ra hind-evropa,afroosiyo,kartvel, ural va oltoy tillar oilalari genetik jihatdan bog‘liq. Umumiy bobo tilning emirilishi natijasida til oilalari bir qancha turdosh dialekt guruhlarga bo‘linib ketadi. Taniqli tilshunos olim N.S.Trubetskiyning xulosasiga ko‘ra, dastlab, hind-evropa tillar oilasi tashkil topadi. Keyinchalik ,Ural-Oltoy va O‘rta Er dengizi bilan aloqa-aralashuv natijasida kavkaz tillar oilasi ajralib chiqadi[39]. So‘ng oltoy tillar oilasi vujudga keladi. Tilshunoslik tarixida o‘zbek tili ,dastlab, oltoy tillar oilasi tarkibida bo‘lgan. Keyinchalik turkiy tillar oilasi alohida ajralib chiqadi.Turkiy tillarning tuzilishi va ildiz tizimi nihoyatda chidamli hisoblanadi. Lug‘at tizimi ham boshqa tillarga nisbatan kam o‘zgarishga uchragan. Masalan, O‘rxun-Enasoy obidalari tili, VIII asr adabiy tili namunasidir. Asar tilidagi ko‘plab so‘zlar hozirgi o‘zbek leksikasida keng qo‘llanilib kelmoqda. Ba’zi so‘zlarda tovush o‘zgarishlari yuzaga kelgan. Yana bir toifa so‘zlar esa iste’moldan chiqib ketgan.«Tangri ancha tamis arinch: qan bartim» («(Ko‘k) Tangri shunday degan shekilli: xon berdim»)[40].

Qadimgi mifologik teonimlar umummilliyligi va parallelligi bilan turli tildagi xalqlarni birlashtiradi. Biz maqolamizda eng ko‘p qo‘llaniladigan teonimlardan biri Tangri teonimiga to‘xtalib o‘tamiz.

Tangri so‘zi milloddan 2500 yil avval paydo bo‘lgan. Etimologik lug‘atlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan,qozoq turkologi K.M.Musaev teng+ir qadimiy “ko‘tarilmoq” o‘nlik fe’liga -ir qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan deb izohlaydi. Yoqut olimi N.K.Antonova esa tang+ir – “tong odami” ma’nosida

[36]Юсупова Ш., Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.фалсафа доктори....дисс.автореф. –Фарғона, 2021. –12 б.
[37] Улуқов Н.,Ўзбекча диний матнларда теонимлар ва уларнинг тадқиқи ҳамда талқини.-Наманган,2020.-2 б.
[38]Бакиров М., Феномен параллелизма древнейших мифологических теонимов.-Казан,2011.-1
[39] Трубецкой Н.С. Мысли об индоевропейской проблеме // Вопросы языкознания. – 1958. –№1. – С.65–77.
[40] Исҳоқов М.,Содиқов Қ.,Омонов Қ.,Мангу битиглар.-Тошкент,2009.-30-б.

qo‘llanganini aytadi.[41] Lekin o‘zbek tilining etimologik lug‘atida bu so‘zning etimologiyasi berilmagan.Tangri teonimi islom dini paydo bo‘lgandan so‘ng Alloh teonimi bilan sinonimga aylandi.Hozirda ham muloqot jarayonlarida Tanrgi teonimi faol qo‘llaniladi.

Dunyo tilshunosligida Tangri teonimi quyidagicha ishlatilgan:

1.	Turkiy xalqlar tillarida	Tengre/Tengeri/Tenri/Tanri	Osmon xudosi
2.	Mo‘g‘ul,tungus-manjur tillarida	Tengri/Tengere/Tanara	Oliy xudo
3.	Urat,Ossuriya,Poloneziya	Tangora	Oliy xudo
4.	Xitoy	Tyan/Tien	Oliy xudo
5.	Elamliklar(O‘rta er dengizi)	Tingir	Oliy xudo
6.	Qadimgi nemis tili	Tonor	Momaqaldiroq xudosi
7.	Fransuz	Tonner	Momaqaldiroq xudosi
8.	Shumerlar	Dinger	Oliy xudo
9.	Gotika va Nemis tillarida	Donar	Oliy xudo
10.	Qadimgi germaniya	Tor	Momaqaldiroq xudosi
11.	Qadimgi islandiya	Tir	Osmon xudosi
12.	Xanto-Mansi	Torin	Samoviy xudo
13.	Estoniya	Taara	Oliy xudo
14.	Finlandiya	Toora	Oliy xudo
15.	Dravid	Tiru/chiru	Oliy xudo
16.	Chuvash	Tur	Oliy xudo
17.	Qorachoy	Teyri	Oliy xudo
18.	Tatar	Tere	Oliy xudo
19.	Oltoy tillar oilasi	Tengri/Tenger/Tanara	Oliy xudo
20.	Qadimgi Skandinaviya	Tonar	Momaqaldiroq xudosi

Dunyo mifologiyasida xudolarning nomlari Tengri/Tengere/Tangara so‘zlarining **re/ri/ra** qismlari bilan bog‘lanadi:

1	O**ro**	Quyosh xudosi	Poloneziya
2	**Ra**	Quyosh xudosi	Misr
3	**Re-Re**	Quyosh,tong xudosi	Borey
4	Na**ra**	Quyosh,kun xudosi	Oltoy
5.	A**ra**	Bahor xudosi	Arman
6	**Ra**vi+sura	Quyosh xudosi	Sanskrit
7	Mit**ra**	Quyosh xudosi	Turkiy xalqlar
8	Ahu**ra**mazda	YAxshilik xudosi	Turkiy xalqlar
9	Ax**ri**man	YOmonlik xudosi	Turkiy xalqlar
10	Ind**ra**	Quyosh xudosi(Xudo –osmon, quyosh uningko‘zi)	Eron
11	Auro**ra**	SHafaq (tong) ma’budasi	YUnon

[41] Бакиров М., Феномен параллелизма древнейших мифологических теонимов.-Казан,2011.-5

Keyinchalik xudolarning nomi bilan bog‘liq yangi ma’noli so‘zlar paydo bo‘ldi.

1	**Re**	Qirol	Italiya
2	**Ra**ja	Qirol	Hindiston
3	**Re**vin	Quyosh o‘g‘li	Semit
4	**Ra**y	SHafaq ,porlash	Lotin
5	Yu**re**	Tong,ertalab	CHechen
6	**Re**she	Quyosh tumanligi	Tatar

Tangri so‘zi deyarli barcha tillarda *osmon,samo, momaqaldiroq,chaqmoq, gumburlash,quyosh,tong* ma’nolarini ifodalab keladi. Bu so‘zdan hosil bo‘lgan yangi so‘zlar ham bir-biriga yaqin lug‘aviy ma’no ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, har bir so‘zning o‘ziga xos kelib chiqish tarixi va taraqqiyoti mavjud. Eng qadimgi teonimlarning etimologik xususiyatlarini tadqiq qilish – zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Insoniyat olamini bog‘lab turuvchi vositalardan biri bu-e’tiqod masalasi hisoblanadi. Shunday ekan, diniy tafakkurning lisoniy ifodasi masalalari har doim dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https: //www.definitions.net/definition/theolinguistics; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com (date of access: 12.01.2019).
2. Yusupova Sh., Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol.fan.falsafa doktori....diss.avtoref. –Farg‘ona, 2021. –12 b.
3. Uluqov N.,O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar va ularning tadqiqi hamda talqini.-Namangan,2020.-2 b.[1]
4. Bakirov M., Fenomen parallelizma drevneyshix mifologicheskix teonimov.-Kazan,2011.-1
5. Trubetskoy N.S. Мысli ob indoevropeyskoy probleme // Voprosы yazыkoznaniya. – 1958. –№1. – S.65–77.
6. Ishoqov M.,Sodiqov Q.,Omonov Q.,Mangu bitiglar.-Toshkent,2009.-30-b.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Мавлонова С.Х.
старший преподаватель,Джизакский Государственный Университет

Тулкинова Мухлиса
студентка 2 курса Джизакского педагогического университета

Аннотация. Педагогические технологии, гуманистические не только по своей философской и психологической сути, но и в чисто нравственном аспекте, обеспечивают не только успешное усвоение учебного материала всеми учениками, но и интеллектуальное, и нравственное развитие детей, их самостоятельность, доброжелательность по отношению к учителю и друг к другу, коммуникабельность, желание помочь другим.

Ключевые слова: педагогика, интеллект, нравственность, дифференциация, физиология, особь, бактерии, лишайник, кластер, материал, сырье, скелет рыбы.

Annotatsiya. Nafaqat falsafiy-psixologik mohiyatida, balki sof axloqiy jihatdan ham insonparvar bo'lgan pedagogik texnologiyalar nafaqat o'quv materialini barcha o'quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirishni, balki bolalarning intellektual va axloqiy rivojlanishini, ularning mustaqilligini, bolalarga nisbatan yaxshi niyatlarini ta'minlaydi. o'qituvchi va bir-biriga nisbatan, xushmuomalalik, boshqalarga yordam berish istagi.

Kalit so’zlar: pedogogika,intellektuallik,aloq,differensatsiya, fiziologiya, indiudal, bakteriya, lishaynik,klaster, material, xomashyo,baliq skleti.

Annotation. Pedagogical technologies, humanistic not only in their philosophical and psychological essence, but also in a purely moral aspect, ensure not only the successful assimilation of educational material by all students, but also the intellectual and moral development of children, their independence, goodwill towards the teacher and towards each other, sociability, desire to help others.

Key words: pedagogy, intelligence, morality, differentiation, physiology, individual, bacteria, lichen, cluster, material, raw material, fish skeleton.

Аннотация. В статье описан метод проведения практических занятий по физике в технических вузах через метод проектирования объектов профессиональной деятельности. Приведены конкретные примеры метода проектирования, этапов организации и его непосредственного применения при подготовке специалистов в области архитектуры и строительства. А также отмечено, что эффективное применение данного метода в учебном процессе обеспечит развитие профессиональных компетенций будущих инженеров-строителей и их интеграцию в общетехнические науки.

Ключевые слова: метод проектирования, физика, уроки физики, компетентность, объекты профессиональной деятельности, теплообмен, конвекция, межпредметная интеграция.

Аннотация. Мақолада техника олий таълим муассасаларида физика фанидан амалий машғулотларни касбий фаолият обеъктларини лойиҳалаш методи орқали ўтказиш методикаси кўрсатиб ўтилган. Бунда, архитектура ва қурилиш соҳалари бўйича мутахассислар тайёрлашда лойиҳалаш методининг ўзига ҳос хусусиятлари, ташкил этиш босқичлари ва унинг бевосита қўлланилишига аниқ мисол келтирилган. Шунингдек, бу методнинг ўқув жараёнида самарали қўлланилиши бўлажак қурувчи-муҳандисларнинг касбий компетенциясини ривожланишига ва умумуҳандислик фанларига интеграциясини таъминлаши келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: лойиҳалаш методи, физика фани, физика машғулотлари, компетентлик, касбий фаолият обеъктлари, иссиқлик узатиш, конвекция, фанлараро интеграция.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти тамонидан қабул қилинган харакатлар стретегиясида устивор йўналиш сифатида қурилиш соҳасига, ҳусусан янги бино ва иншоотларни қуришга алоҳида урғу берилиб,

юқори малакали кадрлар тайёрлаш масаласи белгиланган. Сўнгги йилларда юртимизда улкан қурилиш ва бунёдкорлик ишлари амалга оширилиб, бу соҳада малакали кадрларга талаб ортиб бормоқда. Шу сабабли, бўлажак қурувчи-муҳандисларнинг тайёрлаш жараёнини самарали ташкил этиш, умумуҳандислик фанларини ўзлаштиришда физика фанини ихтисосликга йўналтирилганлик асосида такомиллаштириш ва бу орқали талабаларнинг касбий компетенциясини интеграцион таълим ва лойиҳалаш технологиялари асосида ривожлантириш долзарб вазифалардан биридир.

-Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review). В. В. Соболеванинг фикрича, физика машғулотларида касбий фаолият объектларини лойиҳалаш методидан самарали фойдаланиш уларнинг келажакдаги диплом лойиҳалари мавзулари билан мувофиқлаштирилиши ва бунда объектнинг физикавий ва техник хусусиятлари шунингдек, қурилиш майдонининг механик, акустик, теплопфизик, ёруғлик параметрлари ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблайди. Е.Б.Шоштаева фикрига кўра, фанлараро алоқа ўзида касбий фаолият бирлиги, узлуксиз ва яхлит ҳодисаларини акс эттирувчи ўқув фанлари алоқадорлиги жараёнини ифодалайди. Е.В.Перехошева фанлараро интеграцияни билим ва технологик муаммолар асосида ўқув фанларини бирлаштириш жараёни сифатида белгилайди. А.В.Хуторский, Е.В.Перехожева, Н.А.Муслимов ва бошқа тадқиқотчилар тушунчаларига риоя қилган ҳолда, ушбу соҳада фаолият олиб бораётганлар, техника олий таълим муассасалари талабалари касбий компетентлигини шахс фазилатлари бирлашмасини ташкил этиш сифатида кейинчалик уларга муҳандислик фаолиятида ўз билим, кўникма ва малакаларини муваффақиятли амалга оширишда ёрдам беради деб ҳисоблайди. Gareth Jones фикрича, физика курсида талабаларнинг касбий компетенциясини ривожлантиришда коммуникатив компетентциянинг айрим асосий жиҳатларига ва шахсий фазилатларни ҳисобга олиш керак деб ҳисоблайди [2].

-Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Техника олий таълим муассасаларида архитектура ва қурилиш йўналиши бўйича мутахассисларни тайёрлаш бўйича ўқув жараёнининг яхлитлиги фанлараро интеграция алоқалари орқали эришилади. Ўқитишнинг фанлараро ёндашуви талабаларга мустақил равишда фан ва ишлаб чиқаришнинг турли соҳаларидаги билимларни олиш, уларни гуруҳлаш ва муайян касбий муаммони ечишга йўналтиришга имкон беради. Бундай ҳолда, курслар ва фанлар ўртасидаги чегаралар ўзгарувчан бўлиб, бу талабаларга билимларнинг ажралмас тизимини шакллантиришга имкон беради [3]. Физик билимларнинг туб моҳияти шуни назарда тутадики, техника олий таълим муассасаларида талабалар томонидан физика дарсларида шаклланадиган билимлар умумий техник ва махсус фанларни ўрганишда, янги техника ва технологияларни ўзлаштириш учун асос бўлади [4]. Физика курсининг мазмуни талабаларнинг дунёнинг замонавий физик тасвири ҳақидаги ғояларини шакллантиришга ҳисса қўшиши керак. Бу ҳолда физик билимлар яхлитлашади ва

ўқитиладиган фанларни фанлараро алоқаларга йўналтирилган умумий қурилиш методологияси бирлаштиради [5]. Физика дарсларида касбий фаолият обеъктларини лойиҳалаштириш услубини амалга оширишнинг муваффақияти табиий ва касбий фанлари профессор-ўқитувчиларининг ҳамкорлигига боғлиқдир [6]. Буни таъминлаш учун физика профессор-ўқитувчиси қуйидагилар ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиши керак [7]:

•умуммуҳандислик фанларининг фундаментал асослари мазмуни билиш;

•умуммуҳандислик фан блокларидаги ишлатиладиган физик қонунларни, тушунчаларни, таърифларни тўғри талқин қилиш.

Бу бир хил физик тушунчаларни турли фан блокларидаги профессор-ўқитувчилар томонидан талқин қилинишидаги ноаниқликни йўқ қилишга имкон беради [1]. Касбий фаолият обеъктларини лойиҳалаштириш услубининг дидактик моделида ички ва ташқи алоқалар фарқланади. Ички алоқа-бу умумий физика курсининг таркибидаги етакчи қоидаларни ва ундаги асосий боғловчи элементларни аниқлаш мақсадида таҳлил қилиш натижасидир. Ташқи алоқа-бу ўқув режасидаги махсус фанларнинг мавзуларини таркибий ва мантиқий таҳлил қилиш, уларнинг мазмунини физиканинг асосий қонунлари [12], тушунчалари билан ўзаро боғлиқлик даражасини ажратиб кўрсатиш ва физикани ўрганиш бўйича мутахассисларни тайёрлаш учун зарур бўлган асосий мавзулараро билимларни аниқлашдан иборат [8].

Касбий фаолият обеъктларини лойиҳалаш усули бўйича физикани касбий йўналтирилган ўқитишни ташкил этиш тўрт босқичдан иборат [9].

I босқич- маърузаларда янги материални ўрганаётганда ўқитувчи касбий фаолиятда юзага келадиган муаммоли вазиятни шакллантиради ва талабалар билан биргаликда физик моҳиятини ажратади ва физик назарияларга асосланиб ушбу муаммони ҳал қилиш йўлларини белгилаб беради;

II босқич-талаба физика курсининг турли мавзуларида маълум бир шаклда касбий фаолият обеъктларини лойиҳалаштириш усулини амалга ошириш бўйича кўникмаларни тўплайди;


III босқич-талаба физик билимларнинг келажакдаги касбий фаолияти учун зарурияти ва аҳамиятини аллақачон англаган ҳолда, ўз фаолиятини излаш, лойиҳалаш, фикрлаш фаолиятининг барча турли шаклларида ташкил этади;

IV босқич-курс ва диплом ишларини бажаришда ушбу усулдан кенг фойдаланиш бўйича талабаларнинг мустақил фаолияти.

-Таҳлили ва натижалар (Analysis and results). Техника олий таълим муассасалари талабаларига физика фанидан амалий машғулотларни лойиҳалаш методи орқали ўтказилиши уларни бевосита қурилиш соҳаларига йўналишини таъминлайди ҳамда касбий компетентлигини шакллантиришга асос яратади [10]. Шунингдек, лойиҳалаш методи натижасида умуммуҳандислик фанларига интеграция таъминланади [11].

Лойиҳалаш методи орқали бевосита қурилиш соҳаларига йўналтирилган физика фанидан амалий масаланинг ечилиши 1-жадвалда аниқ мисол орқали кўрсатиб ўтилган.

1-жадвал.

№	Умумий усулларнинг амалга оширилиши	Бажариладиган амаллар
Бино ва иншоотларнинг теплофизик хусусиятларини ҳисоблаш		
1.	Масаланинг қўйилиши:	*Баландлиги 3 метр, асосини юзи 20 м^2 бўлган хонани иситиш учун қанча иссиқлик қуввати лозим ва бунинг учун нечта секцияли радиатор(алюминий) ўрнатилиши керак? (1-расм).*
2.	Объект ёки унинг алоҳида олинган элементларини ажратиб кўрсатиш:	*ўртача теплоизоляция қилинган хона.*
3.	Ажратиб олиб қаралаётган объект ёки унинг алоҳида олинган элементларига таъсир қилувчи иссиқлик узатиш турларини ажратиш:	*конвекция ҳодисаси*
4.	Иссиқлик узатилиш турлари ва физик ҳодисаларни кўрсатиш:	*иссиқлик ўтказувчанлик, конвекция.*
5.	Лойиҳалаштирилаётган объект ёки унинг алоҳида олинган элементлари табиати моделини график тасвирлаш.	 *1-Расм. Хонада иссиқлик оқимининг ҳаракати графиги.*
6.	Қараб чиқилаётган иссиқлик узатиш турларини ифодаловчи физик катталикларни аниқлаш:	*иссиқлик оқими, иссиқлик қуввати.*
7.	Берилган шароитларда объект ёки унинг айрим олинган элементлари табиатини ифодалаб берувчи физик қонуниятларни тавсифлаш.	*Қурилиш меъёр ва қоидаларига кўра, панель уйларнинг 1 м^3 хажмини қиздириш учун ўртача 41 Вт иссиқлик қуввати керак бўлади.* $P = V \cdot 41$ Вт. *Радиатор секциялари сонини топиш учун:* $N = \frac{P}{170\ \text{Вт}}$.
8.	Олинган тенгламалар	$P = 60 \cdot 41$ Вт $= 2460$ Вт.

	системасини ечиш ва қидиралаётган физик катталиклар қийматларини аниқлаш:	$N = \frac{2460\ \text{Вт}}{170\ \text{Вт}} = 15$ та. *(радиатордаги секциялар сони)*
9.	Лойиҳалаштириш қоидаларига ва техник шарт-шароитларга мос келувчи ҳисоблаб топилган катталикларни солиштириш:	*ҳисоблаб топилган натижалар қурилиш меъёр ва қоидаларига тўлиқ мос келади.*
10.	Лойиҳалаш фаолияти натижасида қайси умуммуҳандислик фанларига интеграция таъминланади:	*қурилиш физикаси, теплофизика.*
11.	Лойиҳалаш фаолияти натижасида шаклланадиган компетентлик турлари:	*махсус компетентлик; технологик компетентлик.*

-Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Техника олий таълим муассасаларида архитектура ва қурилиш соҳалари бўйича мутахассислар тайёрлашда талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилган, амалий масалалар ҳамда лойиҳаларга асосланган методикани жорий этиш механизми фанлараро лойиҳа ҳамда ахборот-дидактик таъминотни мослаштириш орқали уларнинг касбий компетенциясини ривожлантиришга олиб келади.

Адабиётлар

1. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M., Khudayberdiyev S.S., Mahmadiyorov A.Z., Nosirov N.B. The importance of physical exercises in the training of specialists in the field of architecture and construction // International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 030056 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089959 Published Online: 16 June 2022. (Scopus IF 0.402).
2. Gareth Jones. “Competence and Understanding—A Personal Perspective” Selected Contributions from the International Conference GIREP EPEC 2015, Wroclaw Poland, 6–10 July 2015 y. P. 11-24.
3. Nortojiev A.M. Method of conducting practical training in physics in technical higher education institutions by the method of designing professional activities // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – **Scientific journal impact factor: 8.061(2022). P.350-354.**
4. Nortojiyev A. M. Fizika mashg‘ulotlarini integrativ va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish usullari // O‘zMU xabarlari. – ***Toshkent, 2021.*** – №1/6/1. – B. 168–172.
5. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M. Qurilish sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida fizika mashg‘ulotlarini o‘tkazishning integratsiyasi //

Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2020. – №12. – B. 40–45.
6. Nortojiyev A. M. Methods of ensuring integrative approach to teaching physics // International Multidisciplinary Conference on Scientific Developments and Innovations in Education. –Greece, 2022. – P 19-21.
7. Nortojiyev A. M. Teaching physics on the basis of integration of architecture and building sciences // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Hosted from Washington, DC USA, 2022. – P. 116-117.
8. Jeffrey E. Froyd, Matthew W. Ohland. "Integrated Engineering Curricula". Journal of Engineering Education. P. 147-164.
9. Мирзабекова О.В., Соболева В.В., Агафонова А. Формирование проектной деятельности при обучении физике студентов инженерно-строительных специальностей // Человек и образование. – 2013. –№ 1 (34). –113–116 с.
10. Фахертдинова, Д.И. Межпредметная связь в формировании компетентностного специалиста при изучении физики //- Орел: Орел ГТУ, 2009. - С. 148-150.
11. Д. И. Фахертдинова, В. В. Кондратьев, А. И. Осипова. Методические особенности преподавания физики в строительном вузе. Вестник Казанского технологического университета. 2014. 319-323 стр.
12. E.B.Saitov., Sh.Kodirov., Z.F.Beknazarova., B.M.Kamanov., A.Nortojiyev., N.Siddikov. Developing Renewable Sources of Energy in Uzbekistan Renewable Energy Short Overview: Programs and Prospects. // International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 020015 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0090438 Published Online: 16 June 2022.

QISHLOQ AYOLLARIDAGI QADRIYATLAR YO‘NALISHLARINING O‘ZIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Jurayeva Shaxnoza Saadmuratovna
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Qishloq ayollarining hayot strategiyalarini o‘rganishning dolzarbligi ushbu ijtimoiy-demografik guruhning oila, an'analar, oila o‘ziga xosligini saqlash manbai bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy funksiyalarni bajarishga bo‘lgan munosabati va qobiliyatlarining ahamiyati bilan bog‘liq. Maqolada zamonaviy qishloq ayollarining qadriyatlar yo‘nalishlarining ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklari masalalariga doir qarashlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qishloq ayoli, qadriyatlar yo‘nalishi, muloqot, shaxslararo munosabat, psixologik xizmat, ustuvor qadriyatlar, mehnat, zo‘ravonlik, iqtisodiy munosabatlar.

Аннотация. Актуальность изучения жизненных стратегий сельских женщин связана с важностью отношения и способностей этой социально-демографической группы к выполнению социальных функций, служащих источником сохранения семьи, традиций, семейной идентичности. В статье освещаются взгляды на социально-психологические особенности ценностей современных сельских женщин.

Ключевые слова: деревенская женщина, ценностные ориентации, общение, межличностные отношения, психологическая служба, приоритетные ценности, труд, насилие, экономические отношения.

Abstract. The relevance of studying the life strategies of rural women is related to the importance of this socio-demographic group's attitude and abilities to perform social functions that serve as a source of preservation of family, traditions, and family identity. The article highlights the views on the socio-psychological peculiarities of the values of modern rural women.

Key words: village woman, value orientation, communication, interpersonal relations, psychological service, priority values, work, violence, economic relations.

Qishloq ayollari qishloqda doimiy yashovchi ayollardir. Qishloq ayollari atamasi dehqon ayoli atamasidan kengroqdir. Qishloq ayollariga dehqon ayollari ham, qishloq o‘qituvchilari ham, shifokorlar, pensionerlar, ishsizlar, uy bekalari va boshqalar, ya’ni asosiy ish joyidan qat’i nazar, qishloqda yashovchi barcha ayollar kiradi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrida shahar va qishloq ayollarining imkoniyatlari o‘rtasidagi farq ancha yomonlashdi. Shahar va qishloq turmush tarziga muntazam ta’sir ko‘rsatuvchi va tashkil etuvchi tashqi sharoitlar o‘rtasidagi ob’ektiv farq qishloq ayollarini shahar ayollaridan turmush tarzi bilan farq qiluvchi alohida guruhga ajratish imkonini beradi. Hayot tarzi deganda shaxsan muhim sohalarda (shu jumladan xulq-atvor stereotiplarini) amalga oshirish va rivojlantirish imkoniyatlari va usullari tizimi tushuniladi: oila, ish, aloqa, sog‘liq, moliyaviy xavfsizlik, ijodkorlik, ta'lim, axborot, hayot, ma'naviyat, dam

olish va boshqalar. Hayot tarzi hayot sharoitlari va individual qadriyatlar va manfaatlar ierarxiyasining o‘zaro ta'siri bilan belgilanadi. Qishloq joylarida shaxsiy qadriyatlar va manfaatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini obyektiv cheklash, shahar sharoitlari bilan solishtirganda, qishloq ayollarining hayot yo‘nalishlari ierarxiyasida o‘z izini qoldiradi.

Har yili 15 oktyabr - Butunjahon qishloq ayollari kuni. Rasmiy darajada bu kun BMT Bosh Assambleyasining 2008 yil 12 fevraldagi “Qishloq joylarda ayollarning mavqeini oshirish” rezolyutsiyasida belgilab qo‘yilgan. Bu kunning nishonlanishi qishloq ayollarining ko‘p qirrali rolini jamoatchilik e’tirof etish va qo‘llab-quvvatlashning amaliy usuli sifatida qaralmoqda.

“Qishloq kundalik hayotida erkakning roli qanchalik muhim bo‘lsa ham, bu ko‘proq ayol dunyosidir” degan fikr mavjud [1]. Qishloq ayoli 2/3 (erkak 1/3) haq to‘lanmaydigan uy ishlarini, bolalarni tarbiyalash va ularga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq ishlarni bajaradi. Qishloq oilalarining 71 foizida oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish, uy ishlarini bajarish ayolning zimmasidadir [2]. Qishloq ayollari jamiyatning alohida ijtimoiy-demografik guruhini ifodalaydi, ular o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, turli rol funksiyalari va ma'lum bir ijtimoiy maqom bilan ajralib turadi. Bu ijtimoiy-demografik guruhning xususiyati qishloq joylarida doimiy yashash bo‘lib, ular tipik ijtimoiy-psixologik, mafkuraviy, axloqiy va etnik-madaniy xususiyatlar, o‘xshash ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba, turmush tarzi bilan ajralib turadi [3].

Qishloq ayollari hayot strategiyalari - shaxsning ijtimoiy funksiyalarni bajarish, individuallikni rivojlantirish va o‘z hayotiy dunyosini shakllantirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Yosh qishloq ayollarining ijtimoiy, madaniy va shaxsiy yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning hayot strategiyalarini turli xil ilmiy pozitsiyalardan o‘rganildi: kamsitish va tenglik (P.P.Velikiy; A.K.Volovik) [4]; reproduktiv xulq (T.V.Blinova; S.V.Zaxarov; A.M.Sergienko) [5]; mehnat bozoriga jalb qilish (O.V.Lylova; L.M.Erdinieva) [6] ; tarixiy obraz (A.A.Antipova; V.B.Bezgin; M.G.Pankratova) [7], moliyaviy ahvoli (L.V.Bondarenko; S.V.Igrunova) []; ijtimoiy ish (E.N.Novikova, E.B.Savostyanova, E.I.Xolostova) [8]; hayotiy qadriyatlar (L.G.Buzunova; D.V.Zernov; O.V.Chernisheva) [9].

Chet el manbalari, shuningdek, etnik qadriyatlarni modernizatsiya qilish masalalarini, shu jumladan oilaviy munosabatlar sohasida, ayniqsa, yosh qishloq ayollarining qadriyatlar tizimini turli soha olimlari (Jeffrey C., Myklebus J., Vinken H.) [10] ko‘rib chiqdi.

Qishloq ayolining turmush tarzini belgilovchi tashqi omillar sirasiga olimlar quyidagilarni kiritib o‘tgan:

Ijtimoiy zaiflik va huquqiy savodsizlik. Huquqiy savodxonlikning past darajasi qishloq ayollariga nafaqat himoya qilish, balki ko‘pchilik qishloq ayollari bilmaydigan huquqlarini amalga oshirishga ham imkon bermaydi.

Ta’lim olish, kasb tanlash, martaba qurish imkoniyatlarini toraytirish. ishsizlik, kam maosh, qashshoqlik.

Uy xo‘jaligi uchun zamonaviy texnik qurilmalarning yetishmasligi. Kundalik hayotda texnologik taraqqiyotning barcha afzalliklari orasida ko‘plab qishloqlarda elektrlashtirish uy xo‘jaligini inqilobdan oldingi davrdan ajratib turadigan yagona “yangilik” dir. Ovqat pishirish, tozalikni saqlash va uyni isitish jismoniy kuch talab qiladi va ayollarga shaharlardagiga qaraganda ko‘proq vaqt talab etadi.

Jamoatchilik fikrining bosimi, shaxsiy hayot chegaralarining torayishi. Og‘ir vaziyatlarda har bir qishloq ayoli omon qolish uchun qo‘shnilaridan, qishloqdoshlaridan yordam so‘rashga majbur bo‘ladi. Qishloq ayolining hayotidagi kunlik voqealar, o‘zgarishlar, yangi uchrashuvlar va taassurotlar shaharlik nuqtai nazardan, mahrumlik deb talqin qilinishi mumkin. Binobarin, qishloq ayollarining shahar sharoitida jamoatchilik muhokamasi va bahosiga taqdim etilmaydigan, qishloqlardagi shaxsiy hayoti tafsilotlari umumiy muhokama mavzusiga aylanishi tabiiy.

Qishloqdagi ayolning odatiy turmush tarzining buzilishi, uning qishloq mehnatkash sifatidagi ijtimoiy mavqei, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni mazmunli boshqara olmaslik sarosimaga, xavotirga, umidsizlik hissini uyg‘otadi. Ularning yarmidan ko‘pi bilim yetishmasligini aytadi va qishloqda bu kamchilikni qoplaydigan joy va hech narsa yo‘q, ularning ijodiy, ishbilarmonlik faolligi amalga oshmay qolmoqda. Barcha ayollar tashlab ketish, jamiyat tomonidan rad etilishini qayd etadilar. Hissiy stress ayollarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi, aybdorlik, tushkunlik, tashvish, asabiylashish, tajovuzkorlik tuyg‘ularini qo‘zg‘atadi, nizolarga, spirtli ichimliklarga qaramlikka olib keladi.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, oila - er-uy egasining mavjudligi - qishloq turmush tarzining asosiy qadriyatlaridan biridir. Qishloq ayollarining yarmidan ko‘pi erlari bilan muammolarga duch kelishadi, lekin ular ajralish uchun advokatga emas, ruhiy tushkunlikdan chiqish, chidashni osonlashtirish uchun psixologga murojaat qilishni afzal ko‘rishadi. Umuman olganda, oilada qishloq ayollari ona sifatida ko‘proq tushuniladi: ularning aksariyati uchun bolalar erlardan ko‘ra muhimroqdir. Statistik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarda tug‘ilishning umumiy koeffitsienti ikki baravardan ko‘proq qisqargan va hozir shahar darajasiga yaqinlashmoqda. O‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, 25 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan ayollarning katta qismi ikkitadan ortiq bolaga ega emas. Eng o‘tkir muammolar orasida barcha yoshdagi qishloq ayollari: qashshoqlik birinchi o‘rinda, qiziqarli muloqotning yetishmasligi ikkinchi o‘rinda, keyin yangi turmush sharoitlariga moslasha olmaslik, yomon sog‘liq, tez-tez hissiy stress, o‘z maqsadlarini amalga oshirishning real istiqbollari, bilim yetishmasligi va zarur ma'lumotlarning mavjud emasligi kabilar muhimlik darajasiga ko‘ra yuqori o‘rinlarda turishi qayd etilgan [11].

Qishloq ayollarining asosiy shaxsiy qadriyatlari oilada, do‘stlar bilan muloqotda va kasbiy faoliyatda amalga oshiriladi. So‘nggi ikki yo‘nalish bir xil darajada muhimdir, bu zamonaviy shahar ayollari hayotida martaba ahamiyatini oshirish tendentsiyasi bilan solishtirganda qishloq ayollarining o‘ziga xos xususiyatidir. Qishloq ayollarining turli yoshdagi toifalari o‘rtasida asosiy hayotiy

qadriyatlar, muammolar va ehtiyojlar ierarxiyasida statistik jihatdan sezilarli farqlar yo‘q edi, bu ham an'anaviy turmush tarzini, ham qishloqdagi uzoq muddatli muammoli obyektiv sharoitlarni, stereotiplarni ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Антипова А.А., Касаркина Е.Н., Ледяйкин Е.Е. Трансформационные процессы в современной эрзянской семье в России // Вестник угроведения. 2017. Т. 7. № 4. С. 169-181.
2. Безгин В.Б. «На миру» и в семье: русская крестьянка конца XIX - начала XX века. Тамбов: РГНФ, ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2015. 192 с.
3. Беляева Н.Ф. Мокшанская сельская семья в контексте современных модернизационных процессов // Финно-угорский мир. 2018. Т. 10. № 1. С. 75-88.
4. Блинова Т.В., Вяльшина А.А. Репродуктивное поведение сельских женщин и ценность детей в семье. Саратов: Изд-во «Саратовский источник», 2016. 232 с.
5. Бондаренко Л.В. Сельская Россия в начале XXI века (социальный аспект) // Социологические исследования. 2005. № 11. С. 68-75.
6. Бузунова Л.Г. Жизненные стратегии женщин российской провинции // Психологическая наука и образование. 2007. № 3. С. 47-59.
7. Великий П.П. Российское село в условиях новых вызовов // Социологические исследования. 2007. № 7. С. 63-71.
8. Воловик А.К. Равноправие молодых сельских женщин в получении высшего образования: надежды и ожидания. Рязань: Ряз. гос. пед. ун-т, 2002. 113 с.
9. Захаров С.В. Браки и разводы в современной России // Демоскоп Weekly (электронный журнал). 2015. № 625-626.
10. Захаров С.В. Потенциал структурных факторов роста рождаемости исчерпан? // Демоскоп Weekly (электронный журнал).
11. Зернов Д.В., Иудин А.А. Роль брака в трансформации морально-этических норм поведения сельских молодых женщин // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. 2012. № 5 (1). С. 325-333.

МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕПЛОТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ОБЪЕКТАМИ

Nasiba Djumabayevna Xodjiyeva
Latipova Nodira Xalimovna
Ganikhodjayeva Dilfuza Ziyavutdinovna
Bakhodir Akilovich Sharipov
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада Аль-Хоразми
nhojieva8@gmail.com

Аннотация. На основе анализа соверменного состояния теории и практики глубокой переработки углеводородного сырья показана актуальность и востребованность разработки методики оценки энерго- и ресурсоэффективности теплотехнологических аппаратов и установок с введением коэффициента эффективности $К_э$, позволяющего учитывать не только термодинамические характеристики теплотехнологической системы, но и конструктивные характеристики исследуемой технологической структуры. Показано, что использование рассматриваемой методики при разработке оптимальных энергосбергающих систем позволяет существенно сократить энергопотребление.

Ключевые слова: энерго- и ресурсосбережение, теплотехнологическая аппаратура, методика оценки энергоэффективности теплотехнологических систем.

Аннотация. Углеводородли хомашёларни чуқур қайта ишлаш назарияси ва амалиётининг замонавий ҳолатини таҳлил қилиш асосида иссиқлик-технологик тизимларнинг нафақат термодинамик хоссаларини, балки тадқиқ этилаётган технологик структураларнинг конструктив тавсифларини ҳам ҳисобга олиш имконини берадиган самарадорлик коэффициенти $К_с$ ни киритиш орқали иссиқлик-технологик аппаратлар ва қурилмаларнинг энергия ва ресурс самарадорлигини баҳолаш услубиятини ишлаб чиқишнинг долзарблиги ва аҳамияти кўрсатиб берилган. Кўриб чиқилаётган услубиятдан оптимал энергиятежамкор тизимларни ишлаб чиқишда фойдаланиш энергия истеъмолини сезиларли даражада камайтириши кўрсатилган.

Таянч сўзлар: энергия ва ресурсларни тежаш, иссиқлик-технологик қурилмалар, иссиқлик-технологик тизимларнинг энергия самарадорлигини баҳолаш услубияти.

Abstract. Based on the analysis of the current state of the theory and practice of deep processing of hydrocarbon raw materials, the relevance and relevance of developing a methodology for assessing the energy and resource efficiency of heat-technological devices and installations with the introduction of the efficiency coefficient Ke, which allows taking into account not only the thermodynamic characteristics of the heat-technological system, but also the design characteristics of the studied technological structure, is shown. It is shown that the use of the

considered technique in the development of optimal energy-saving systems can significantly reduce energy consumption.

Keywords*:* energy and resource saving, heat technology equipment, methodology for assessing the energy efficiency of heat technology systems.

Ввдение. Одним из приоритетных направлений повышения эффективности энерго- и ресурсоэффективности процессов переработки углеводородного сырья является увеличение использования вторичных топливно-энергетических ресурсов, максимальное использование рекуперации теплоты и оптимизация технологических режимов работы технологических комплексов и установок [1].

В целом ряда случаев технологическое оборудование нефте- и газоперерабатывающих производств не обеспечивает необходимые регламентные параметры даже после оптимизации. Поэтому экономически целесообразным является реализация и внедрение высокоэффективного ресурсосберегающего оборудования. Наряду с повышением тепловой эффективности такого технологического оборудования зачастую возникает необходимость решения задач повышения эксплуатационной надежности, металлоемкости и ремонтопригодности технологического оборудование [2].

Определение энергетической эффективности функционирования теплотехнологической аппаратуры. Обратимся к задаче определения экономической эффективности работы теплотехнологической аппаратуры на примере установки атмосферно-вакуумной трубчатки (АВТ) нефтеперерабатывающего завода, все технологическое оборудование которого взаимосвязано между собой. Для определения эффективности такого оборудования необходимы исходные данные, позволяющие в полной мере отображать протекающие в аппаратах технологические процессы. Эти необходимые исходные данные получают путем экспериментальных исследований.

Рассмотрим вопросы изучения термодинамических характеристик нагрвательного блока установки первичной переработки нефти и создания оптимальных энергосбергающих теплообменных систем, сводящих к увеличенного использование вторичных энергоресурсов, максимальному использованию рекуперируемой теплоты и оптимизации режимов функционирования теплотехнологических установок. В нашем случае оценка эффективности работы исследуемых систем проводится по критерию качества или критерю эффективности, поиск которого для конкретных промышленных условий представляет собой достаточно сложную задачу [3].

Для оптимизации работы существующей схемы нагревательного блока предлагается использовать следующий критерий оптимальности – коэффициент эффективности $К_Э$.

$$К_Э = \frac{К_з \sum_{i=1}^{n} F_{факт}}{\sum_{i=1}^{n} F_{уст}} = \frac{(1{,}15 \div 1{,}2) \sum_{i=1}^{n} F_{факт}}{\sum_{i=1}^{n} F_{уст}}$$

где $\sum_{i=1}^{n} F_{\text{факт}}$ – фактически необходимая площадь теплопередающей поверхности теплообменной системы, м^2; $\sum_{i=1}^{n} F_{\text{уст}}$ – установленная площадь теплопередающей поверхности теплообменной системы, м^2; $К_з$ – коэффициент запаса поверхности теплообмена.

При оптимизации нагревательного блока коэффициент $К_Э$ должен стремиться к единице, следующим образом:

$К_Э \to 1$, когда $\sum_{i=1}^{n} F_{\text{факт}} \to \sum_{i=1}^{n} F_{\text{уст}}$.

Использование коэффициента $К_Э$ при разработке оптимальных энергосберегающих теплообменных систем позволяет учитывать не только термодинамические характеристики теплообменной системы – такие, как количество передаваемого тепла (тепловой поток), скорости потоков, коэффициент загрязнения поверхности теплообмена, но и конструктивные характеристики теплообменного аппарата. Выбранный коэффициент эффективности также позволяет судить, насколько полезно используется поверхность теплообмена аппаратов. Неэффективное использование поверхности теплообмена приводит фактически к простою аппаратов, а, значит, и к излишним капитальным затратам и амортизационным отчислениям.

С помощью выбранного критерия в качестве примера были оптимизированы схемы нагревательных блоков АВТ «Чиназского нефтеперерабатывающнго завода». Степень регенерации тепла на этих установках составляет 37,105%, после оптимизации расчетная степень регенерации тепла отходящих технологических потоков 42,613 %

Определено влияние степени регенерации тепла в нагревательном блоке на работу технологических печей установок первичной переработки нефти, в которых происходит дополнительный нагрев обессоленной нефти после нагревательного блока перед подачей ее в ректификационную колонну. В результате расход топливного газа увеличивается и ощущается нехватка в сухом газе. В этом случае в печь направляется жирный газ первичной переработки, теплотворная способность которого более чем на 35 % превосходит сухой газ. Кроме того, температуры их горения отличаются на 600 °С. Периодическая замена одного вида газа на другой отрицательно влияет на работу трубчатых змеевиков печей. При недостаточной регенерации тепла технологических потоков в теплообменных аппаратах подогрева нефти эти потоки поступают в холодильники с повышенной температурой. Это приводит не только к потере тепла, которое можно дополнительно использовать в нагревательном блоке и сократить расход топлива, но и к напряженной работе самих холодильников. Не обеспечивается необходимая температура потоков на выходе из холодильников. Технологические продукты направляются в парк с повышенной температурой. Увеличивается температура оборотной воды на выходе из погружных аппаратов. Это приводит к потерям последней от испарения и требует дополнительных затрат на охлаждение. Эксперименты

на холодильниках установок первичной переработки нефти подтверждают изложенное выше [4].

Заключение. Нефтеперерабатывающие заводы являются крупнейшим потребителем топливно-энергетических ресурсов, а том числе топлива, тепловой и электрической энергии. Эффективности рациональность их использования в процессах переработки нефти во многом определяется эффективностью работы технологического оборудования предприятия.

Для удовлетворения современных требований существующие установки необходимо реконструировать, когда капиталовложение в новое оборудование должно быть сведено к минимуму путем наиболее полного использования уже имеющейся аппаратуры. Оптимизация работы оборудования необходима и по другой причине. Существующие заводы были спроектированы и построены во времена значительно более дешевой, чем сейчас, энергии, поэтому актуальной является необходимость предусмотреть меры по ее экономии.

Особенностью процессов переработки углеводородного сыря является то, что сами технологические процессы несовершенны. Так, процессы первичной переработки нефти потребляют 1,91 т у.т. на переработку 100 т нефти при теоритически необходимом 1,016. В то же время на нефтеперерабатывающих и нефтхимических заводах вся получаемая тепловая энергия используется лишь на 30-35%, а остальная часть (с низкопотенциальной тепловой энергией) становится нерекуперативно-способной. Например, около 36% энергии, поступающей на завод, уходит с охлаждающей водой или воздухом, до 16% вместе с дымовыми газами технологических печей выделяется в атмосферу, 12-14% энергии рассеивается в окружающую среду в виде тепла, отдаваемого горячими поверхностями оборудования.

В настоящее время востребована задача повышения тепловой эффективности теплотехнологического оборудования нефте-перерабатывающих предприятий. Для этого необходимо эксперементальное определение степени энергоэффективности работы теплотехнологического оборудования нефтеперерабатывающих промышленных производств и разработка энергосрегающих теплообменных систем, которые позволяли бы использовать уже задействованные в технологической цепочке теплообменные аппараты с минимизацией капитальных затрат.

Литература

1. Тсатсаронис, Дж. взаимодействие термодинамики и экономики для минимизации стоимости энергопреобразующей системы. Дж.Тсатсаронис. – Одесса: Негоциант, 2002. -152 с.
2. Torres, C.Structural Theory and Thermoeconomic Diagnosis Part I.On Malfunction and Dysfunction Analesis/C.Torres, A.Valero, L.Serra, J.Royo/ Energy Conversion and Management. – 2002. –Vol.43. -№9. –P. 1503-1518.
3. Бродянский, В.Фратшер, К.Михалек. –М.:Энергоатомиздат, 1988.-288 с.

4. Мартыновский, В.С.Циклы, схемы и характеристики трансформаторов/В.С.Мартыновский. – М.:Энергия, 1979. -288 с.
5. Коздоба, Л.А.Критерии эффективности тепловых и комплексных тепловых систем/Л.А.Коздоба// Промышленная теплотехника. -2000. – Т.22. - №5-6. –С.22-28
6. Boer, D.Exergy and Structural Analysis of an Absorption Cooling Cycle and the Effect of Efficiency Parameters/ D.Boer//International Journal of Thermodynamics. – Vol.8 (4). -2005. –P. 191-198.
7. Калинина, Е.И.Основанқе положения методики термоэкономического анализа комплексных процессов/ Е.И.Калинина, В.М.Бродянский/ Изв.вузов СССР. Энергетика. -1973. -12. –С. 57-63.
8. Сорин, М.В.Зависимость КПД систем преобразования энергии и вещества от КПД составляющих ее элементов / М.В.Сорин, В.М.Бродянский / Изв.вузов СССР. Энергетика. -1990. -№4. –С. 75-83.
9. Андреев, Л.П. Расчет термодинамических показателей тепловых схем ТЭС и АЭС / Л.П.Андреев, В.Р.Никульшин, Т.Г.Заярная // Промышленная теплотехника. – 1988. –Т. 10, №6. –С. 88-92.
10. Канавец, Г.Е. Об оптимальном распределении эксергетических потерь / Г.Е. Канавец, Л.К.Вукович, В.Р.Никульшин / Изв.вузов СССР. Энергетика. -1979. -№9. –С. 112-116.
11. Ноздренко, Г.В. Структурный анализ энерготехнологических блоков электростанций / Г.В.Ноздренко // Изв.вузов СССР. Энергетика. -1988. -№12. –С. 74-77.88.
12. Долгополов, И.С. Топологоэксергетический подход при исследовании эксергетической способов соединения элементов физикотехнологических систем (часть 1) / И.С.Долгополов, В.Т.Тучин, О.Е. Кравец // Математическое моделирование. -2009. -№1 (20). –С. 73-77.
13. Харлампиди, Д.Х.Влияние структурной сложной технологической схемы на термодинамическое совершенство теплонасосных установок / Д.Х. Харлампиди // Технические газы. -2009. -№3. _С. 45-53.
14. Сорин, М.В. термодинамические принципы и алгоритм структурно-вариантной оптимизации энерготехнологических схем паркомпрессорных термотрансформаторов/ Д.Х.Харлампиди// Технические газы. -2010. -№4. –С. 45-53.
15. Троценко, А.В. термодинамическая идеализация прооцессов и циклов низкотемпературных систем / А.В.Троценко // Технические газы. -2008. -№2. –с. 56-61.
16. Н.Р.Юсупбеков, Ш.М.Гулямов, М.Б.Зайнутдинова, Н.Ж.Хожиева. Анализ информационных характеристик объектов химической технологии // Международный научно-технический журнал “Химическая технология. Контроль и управление”. Ташкент, 2019. – №1 (85). – С.83-88.

17. Н.Ж.Хожиева. Методы и алгоритми информационной поддержки принятия решений в информационно-управляющих системах .-Ташкент, 202. -41 с.
18. T.Tommila, J.Hirvonen, L. Jaakkoln, J.Peltoniemi. Next generation of industrial automation. Concepts and architecture of a component-based control system //VTT Technical Research Centre of Findland, 2005. -PP.58-63.
19. N.R.Yusupbekov, S.M.Gulyamov, Y.Sh.Avazov, N.J.Khojieva. Methods of organizing energy-closed technology // International scientific and technical journal “Chemical technology. Control and management”. –Tashkent, 2020. –№2 (92). -PP.21-28.

Сведения об авторах

1. Nasiba Djumabayevna Xodjiyeva PhD, Department of "System and Applied Programming" Tashkent University of Information Technologies, Tel.:(+99894) 683-38-37, nhojieva8@gmail.com
2. Latipova Nodira Halimovna - Candidate of technical sciences, associate professor of the department “System and Applied Programming” Tashkent University of Information Technology named after Muhammad Al-Khorazmi, Uzbekistan E-mail: nadira-latipova@mail.ru.
3. Ganikhodjayeva Dilfuza Ziyavutdinovna Teacher of the department “System and Applied Programming” Tashkent University of Information Technology named after Muhammad Al- Khorazmi, Uzbekistan, ganihodjayeva@mail.ru
4. Bakhodir Akilovich Sharipov. Applicant of the Department "System and Applied Programming" Tashkent University of Information Technologies bahodir.61@mail.ru

САИД РИЗО АЛИЗОДАНИНГ САМАРҚАНД ЖАДИДЧИЛИГИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

У. Назаров
СамДЧТИ тютори

Аннотация. Мазкур мақолада Саид Ризо Ализоданинг Самарқанд жадидлари сафида Туркистон маорифига қўшган ҳиссаси ижтимоий-фалсафий таҳлил эилган.

Калит сўзлар: Жадид, маърифатпапвар, қолоқлик, дин, таълим, мафкура.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-философский анализ вклада Саида Реза Ализода в просвещение Туркестана среди самаркандских джадидов.

Ключевые слова: джадиды, просвещение, отсталость, религия, образование, идеология.

Annotation. V dannoy state analiziruetsya sotsialno-philosofskih analiz vklada Saida Rezy Alizoda v prosveshchenie Turkestana sredi samarkandskikh djadidov.

Key words: djadidy, enlightenment, backwardness, religion, education, ideology.

Жадид маърифатпапварлиги, моҳият эътиборига кўра, миллий маориф тизимини тубдан ислоҳ этишдан бошланган бўлса-да, мазкур даврда юзага келган ҳар бир ижтимоий-сиёсий ва маънавий-ахлоқий ўзгаришлар силсиласи жадидлар таъсири доирасида бўлган. Тўла ишонч билан айтиш мумкин, усули жадид мактаблари очиш заминида ҳам сиёсий масала - истиқлол, миллатни мустамлака зулмидан озод қилиш, Туркистон ахолисини тараққий топган, фаровон миллатлар қаторида кўриш ғояси билан чамбарчас боғлиқ эди. Шуни ҳам унутмаслик керакки, шўролар даврида жамиятшунос олимлар томонидан бу оқим фаолияти энг кўп ноилмий талқин қилинган, уларнинг кўплаб намояндалари, раҳбарлари фаолиятини ўрганиш ман этилган давр ҳам мана шу вақтга тўғри келади.

Умуман олганда, Туркистонни умумий қолоқликдан чиқариш йўлидаги энг катта тўсиқ бўлган эскича ўқитиш усулини таълимнинг европача ўқитиш тартибига асосланган янгича усул билан алмаштириш ва бусиз маърифий юксалишга эришиш мумкин эмаслиги масалалари жадид маърифатпарварларининг бош ғояси бўлган. “Ислоҳни нимадан бошларга” сарлавҳали мақола муаллифи: “Мен оврупа халқининг бу даражада тараққий ва толеларининг биринчи сабабини ва бош сабабини кўп ахтардим. Лекин ибтидоий тарбияларининг мукаммаллигидан бошқа сабаб топа олмадим. Ва, бинобарин ислоҳотимизни мактаб ибтидоларимиздан бошламоқ даркор деб ҳисоблайман”[42], деб ёзади ва Туркистондаги мактаб-мадрасаларда амал қилинаётган ўқитиш тартибини замон талабларига жавоб бера олмаслигини,

[42] Мухторов Ш. Ислоҳни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.

турмушдан орқада қолганлигини шундай тушунтиради: “мадраса талабаларига тарихи миллият ва ҳисоб ўқитмоқ одати бизда ўлда-жўлда ёки асло йўқ. Жўғрофия ва риёзатга сайр қилувчи дарсларни албатта мударрисларимиз ўқимайдилар, шогирдларига ўқитмайдилар. Демак, бизнинг мадраса шогирдларимиз ниҳоятда паст қадам бўлиб қолмоқдалар”[43].

Жадидларнинг маърифатпарварлик мафкураси ижтимоий жиҳатдан анча бой ва ранг-баранг бўлган. Унда ҳозирги кунимизда ҳам жамиятни тўлқинлантирадиган, ҳаяжонга соладиган тарихий вазифа ва масалалар қаторига биз маънавий баркамолликка етишда динни тўғри англаб тушуниб етишимиз, ҳуқуқий ва иқтисодий бозор маконини ташкил қилиш жараёнини тезлаштириш, тараққий этган илғор демократик институтларни бунёд қилиш, ўзига хос миллий ривожланишларни киритишимиз мумкин. Бу масалаларни ҳал этиб амалга оширишда муҳим омил сифатида исломнинг модернизациялашуви, уни қотиб қолган ақидалардан тозалаш, фан ва илғор технология ютуқларини эгаллаб бориш муаммолари майдонга чиқади.

Бу даврда маорифдаги бу уткир муаммони ўз вақтида англаб етган Сайид Ризо жуда кўплаб газета ва журналларда мақолалар эълон қилиб боради. Шундай мақолардан бирини ўқиймиз “Ҳамма бадбахтлик ва разолат, қашшоқлигу разолат биз Туркистонликларни қоплаб олиши сабаби замона мадрасаларининг удуми ва мактабларнинг ситаму фақирлигидадур”[44] деб ёзади Сайид Ризо Ализода 1913 йил “Ойна” журналининг 15 ноябр 3-сонида у киши “Мактаб ва мадраса ислоҳоти бизга зарур” номли мақоласида “Ҳамма басират арбобларга ошкор ва возеъдирким, ҳар бир миллат, ҳар бир тоифанинг равнақи мактаб сиёсатининг равнақи ва сиёсатига боғлиқдир. Самарқанд ва унинг атрофида 150 минг ортиқ нуфўзи бўлиб, мусулмонлардан қанча тожир, судгар қанча мағозачи, контрчи бор? Қаерда духтир, муаллим, муҳандис ва муншийдирки бизга сув ва ҳаводай зарурдир”[45]. Самарқандда уша даврда қанча иш ўрнига эҳтиёж борлиги аниқ сонлар билан маълум қилмоқда ва қайси касблар учунлигини ҳам билиб олишимиз мумкин.Уша давр муҳим ижтимоий муаммоларни кўрсатиб берган. Сайид Ризо Ализоданинг орзуси барча тараққийпарвар жадидлар каби Туркистонни озод ва ҳур замонавий Оврупа давлатлари қаторида кўриш эди. Бу мақсад йўлида у қўлидан келган барча ишларни қилишга ҳаракат қилди. Буни биз унинг қуйидаги фикрлари орқали билиб олишимиз мумкин. “Йиллар бўлибдики, соир мамлакатлар мусулмонлар илм даражаси, мактаб ва мадрасалар фаолиятини билиб, ҳар шаҳарда жадид мактаб очиб, унинг такомилига ҳаракат қилмоқдалар. Аммо биз Туркистон мусулмонлари наинки жадид мактаб ва мадраса очмаяпмиз. Балки уларни ҳалигача бидат ва ҳаром санаяпмиз. Билмайман биз Туркистон мусулмонларга нима бўлди ? Эй Туркистонлик биродарлар! Эй азиз юртдошлар! Ғафлат қачонгача! Жаҳолат

[43] Мухторов Ш. Ислоҳни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.
[44] Ғ.Ҳ. Раҳимов “Саид Ризо Ализода абадияти” .–Т. “Шарқ”. 2017 й. 4-5 бет.
[45] Ғ.Ҳ. Раҳимов “Саид Ризо Ализода абадияти” .–Т. “Шарқ”. 2017 й. 6-бет.

қачонгача? ” Ушбу фикрлардан кўриниб турибдики Ализода нақадар қалами ўткир ижодкор эканлиги ва ўз даври учун долзарб муаммоларни нақадар очиқлик ва аниқ ва равшан ёндашганини кўрсатиб турибди . Бу каби фикрлар табиийки уша давр чор ҳукумати ва кейинчалик ташкил топган совет давлати ҳам уни ўзининг асосий душмани сифатида кўриб келди. Бунга унинг 14 тилни бемалол гаплашиши ва бемалол мулоқот қилиши ва уша давлатлар билан бемалол фикр алмашиниши уларнинг газета ва журналларида оташин мақолалар чоп қилиши ортидан Туркия, Ҳиндистон, Эрон , Қрим каби ҳудудларда уни зур эҳтиром ва ҳурмат қилишарди. Саид Ризо Ализода уларнинг матбуотида ҳам тез-тез ўзининг мақоларни эълон қилиб туриши советларни ташвишлантирар эди. Қолаверса Саид Ризо Ализода Туркистон жадидлар билан жуда яхши алоқаларга эга эди. Бу эса табиий равишда советларга ёқмас эди. Саид Ризо Ализода давр нотинчликларга қарамасдан ҳақиқатни мавжуд тузум кирдикорларни очиб ташлайди . Буни биз “Зарафшон ” газетаси 1924 йил “Мен суддан қўрқмайман ” мақоласини ўқиймиз “Зарафшон газетасининг 111-сонида “Орлиқ ва туппонча”[46] сарлавҳаси остида ёзилғон бир ҳабардан Боғишамолнинг баъзи ёшкумлар ҳаёжонга тушуб, хабар ёзгувчининг ким эканлигини билиб судга бермақчи эканлар. Шунинг учун “Ўгутчи” имзоси билан ушбу хабарни ёзғон одамнинг уларга маълум бўлиши керак экан. Мен эса уларнинг меҳнатини озайтириш учун (яъни суд воситаси билан газета идорасидан ушбу хабарни ёзғон одамнинг ким эканлигини билиш учун ташвиш тортмасунлар деб) ўзимни билдириб маҳкама (суд) курсисида бул ҳақ сўзларим учун ўлтиришни , ҳатто маҳкама менинг зарарimга ҳукм қилғонда неча кун ҳибсда ётишни ўзим учун фахр ва ифтихор санайман. Чиқинг майдонға мен суддан қўрқмайман !” деб ёзади . Бу ўз даври муқаррар исён эди.

Хулоса қилиб айтганда, Саид Ризо Ализода мамлакатни ривожлантириш, уни дунёнинг ривожланган мамлакатлари қаторида кўриш учун, энг аввало, ёшларни илм-маърифатли қилишга киришган. У ёшлар тарбиясида диний ва дунёвий билимларни бир – биридан ажратмасдан, миллий ўзликни сақлаган ҳолда замонавийликка эришишга ҳаракат қилган.

Адабиётлар

1. Мухторов Ш. Ислоҳни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.
2. Мухторов Ш. Ислоҳни нимадан бошларга // Садои Фаргона. 1914 йил 3 апрель.
3. Ғ.Ҳ. Раҳимов “Саид Ризо Ализода абадияти” .–Т. “Шарқ”. 2017 й. 4-5 бет.
4. С. Ализода. “Мен суддан қўрқмайман”, “Зарафшон” газетаси.–1924 й. 146-сон.

[46] С. Ализода. “Мен суддан қўрқмайман”, “Зарафшон” газетаси.–1924 й. 146-сон.

5. Saydulloevich, Ulugmurodov Elyor. "ISLAMIC CULTURE: THE ESSENCE AND WAYS TO IMPROVE IT." *Academicia Globe: Inderscience Research* 3.03 (2022): 208-212.
6. Улугмуродов, Элёр Сайдуллоевич. "ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЦЕННОСТЕЙ ИСЛАМА В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ." *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ*. 2020.
7. Улуғмуродов, Элёр Сайдуллоевич. "Диний қадриятлар ва тасвирий санъат интеграциясининг ёшлар эстетик тафаккурига таъсири." *Oriental Art and Culture* II (2020): 52-59.

ФАН ИЖТИМОИЙ - ФАЛСАФИЙ ФЕНОМИН СИФАТИДА

Ж.Рўзиев
Пайариқ тумани 82 – умумтаълим мактаби ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада ҳозирги замон фанларининг ўрганиш объекти мураккаблашиб бориши, мураккаб тизимлар намоён бўлиши, уларни илмий билишнинг методологик асослари ижтимоий-фалсафий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Фан, объект, методологик онг, ақл, дунёқараш, субстанция.

Аннотация. В данной статье объект изучения современных наук усложняется, социально-философски анализируются возникновение сложных систем, методологические основы их научного познания.

Ключевые слова: наука, объект, методологическое сознание, разум, мировоззрение, субстанция.

Abstract. In this article, the object of study of contemporary sciences is becoming more complex, the emergence of complex systems, the methodological bases of their scientific knowledge are socio-philosophically analyzed.

Key words: Science, object, methodological consciousness, mind, outlook, substance.

Бугунги постмодерн социумда катта ўзгаришлар содир бўлмоқда. Жамиятнинг барча соҳалари – бўлмиш сиёсат, иқтисодиёт, фан, маданият тубдан ўзгараётган даврда яшамоқдамиз. Инсоният борлиқнинг янги, номаълум қирраларини адекват инъикос эттириши учун янги фалсафий йўналишлар ва уларга мувофиқ фалсафий тил вужудга келмоқда.

Ҳозирги замон методологик онг таркиби кўп қатламли ва хилма-хилдир. Фан доирасида унинг классик тимсолини бартараф этиш жараёнлари авж олиб бормоқда. Фан тимсоли янги парадигма, йўналишлар таъсирида ўзгармоқда. Ижтимоий ҳаётда ҳам ўзгаришлар содир бўлмоқда.

Ҳозирги замон фанларининг ўрганиш объекти борган сари мураккаблашиб бормоқда. Фан объектлари сифатида мураккаб тизимлар намоён булганда, уларни илмий билишнинг методологик асосини ҳам ўзгартирилиши тақозо этилади. Чунки, методология объектларни тадқиқ этишнинг назарияси сифатида ориентация вазифасини бажаради.

Ҳозирги вақтда фан аввало ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида намоён бўлади. Бу фан жамиятда амал қилувчи ранг-баранг кучлар ва таъсирларга боғлиқ эканлиги, ижтимоий контекстда ўз устувор вазифаларини белгилаши, муросаи мадорага мойиллиги ва ўзи ҳам жамият ҳаётини сезиларли даражада белгилашини англатади. Шу тариқа икки хил боғланиш қайд этилади: фан ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида инсониятнинг дунё ҳақида ҳақиқий, аниқ билим олиш ва яратишга бўлган муайян эҳтиёжига жавоб тариқасида юзага келган ва ўз мавжудлик жараёнида жамият ҳаётининг барча жабҳалари ривожланишига анча кучли таъсир кўрсатади. Фан ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида қаралиши шу билан изоҳланадики, унинг асосларини

ўрганиш тўғрисида сўз юритилган тақдирда бугунги кунда биз фан деб атайдиган ҳодисанинг чегараси «маданият» чегарасигача кенгаяди. Бошқа томондан, фан ўзининг дастлабки – фаолият ва технология сифатидаги талқинида маданиятнинг бирдан-бир барқарор ва «ҳақиқий» пойдевори ролига даъвогар бўлади.

Фанни олимлар ҳамжамияти ривожлантиради. Шу сабабли фан муайян ижтимоий ва касбий ташкилотга, ривожланган коммуникациялар тизимига эга бўлади. Френсис Бэкон ўз даврида шундай деб қайд этган эди: «Фаннинг такомиллашувини бирон-бир одамнинг қобилияти ёки уддабуронлигидан эмас, балки бир-бирининг ўрнига келувчи кўплаб авлодларнинг изчил фаолиятидан кутиш лозим». Олим – доим у ёки бу ижтимоий-маданий муҳит вакили. Мавжуд илмий-ижодий имкониятларга бутун ижтимоий-маданий майдоннинг таъсири фан препаратининг «софлик» даражасини кўрсатади.

Ayollarni qo‘llab-quvvatlash masalalarida davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligini qayd etib o‘tish joiz. Birgina joriy yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari hamda «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi ijobiy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega: birinchidan, oila va xotin-qizlar bilan professional tarzda ishlashga ixtisoslashtirilgan yangi davlat organi – Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi; ikkinchidan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi; uchinchidan, xotin-qizlar bilan ishlashning yangi mexanizmi – mahallalarda xotin-qizlar bilan maqsadli va

manzilli tartibda ishlash amaliyoti belgilab berildi; to‘rtinchidan, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida yangi huquqiy mexanizmlar – prokuratura organlarining ushbu sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorati joriy etildi; beshinchidan, xotin-qizlarga ta’lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun davlatning yangi kafolatlar va imtiyozlar paketi joriy etildi; oltinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning munosib turmush kechirishlariga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi amaldagi mexanizmlar takomillashtirildi; yettinchidan, xotin-qizlarning sog‘lig‘ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo‘lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish onalikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi; sakkizinchidan, xotin-qizlar bilan muloqot qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda va muloqotning yangi, samarali platformalariga asos solindi.

Bugun yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalasi davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishlari qatorida alohida belgilanganligiga bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va sa’y-harakatlar samarasidan ham guvoh bo‘lib turibmiz.

Ayollar salomatligiga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatning sog‘lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog‘lom ekani bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “…ona va bola sog‘lig‘iga e’tibor – jamiyatga, kelajakka e’tibordir».

Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zotan, Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta’minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan.

Hozirgi vaqtda ayollarning jamiyatdagi mavqei va roli masalasi hozirgi zamonamizning global ekologik va iqtisodiy muammolaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va qurish jarayoni zamonaviy dunyoda erkaklar va ayollarning roli muqarrar ravishda o'zgarishiga olib keladi, ayollar qarorlarni qabul qilishda tobora ko'proq ishtirok etadilar, gender tenglik har tomonlama himoya qilinmoqda, uning etnik va ijtimoiy-madaniy jihatlari hisobga olinadi. Erkakning boquvchisi bo'lgan oilaning avvalgi buzilmagan shakli o'z shaklini o'zgartirmoqda. Ayol oilada tenglik, er va xotin o'rtasidagi majburiyatlarning uyg'un taqsimlanishiga intiladi. U yanada mustaqil bo'lib, o'zini nafaqat oilada, balki undan tashqarida, professional sohada ham bilishni xohladi. Endi ayol ilgari erkaklar ko'rish mumkin bo'lgan pozitsiyalarni egallamoqda. Shunday qilib, O'zbekistonning demokratik jamiyatga ega huquqiy fuqarolik davlati sifatida shakllanishi hozirgi kunda *qoraqalpoq ayollarining* ijtimoiy-siyosiy faolligi oshishining eng muhim omilidir.

Mamlakat Konstitutsiyasida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi bu jarayon uchun mustahkam huquqiy asosdir. Mamlakatimiz hukumati xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy va tibbiy madaniyatini, intellektual salohiyatini oshirish, huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda. 2019 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan tabrigida Sh.M. Mirziyoyev davlat tomonidan ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda [5] va 2018 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ayollarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi: "... Biz ayollarning tashvishlarini engillashtirish, ularning hayotiy muammolarini hal qilish, ularning qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda yordam berish uchun davlat va jamiyatning barcha imkoniyatlaridan foydalanamiz". [2]

Qadim zamonlardan beri O'zbekiston taniqli ayol olimlar, fan, ta'lim, tibbiyot, biznes, san'at va sport vakillari bilan mashhur bo'lgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ulkan yutuqlarga erishilmoqda, xalqimizning ko'zga ko'ringan vakillari xotirasi yodga olinadi va hurmat qilinadi va zamondoshlari bilan faxrlanadi.

Bu yerda shuni ta'kidlashni istardikki, O'zbekistonda, ayniqsa Qoraqalpog'istonda, ayollar juda mehnatsevar va ijtimoiy ishlab chiqarishda munosib o'rin egallashga intilishadi. An'analar va sharqona turmush tarziga qaramay, ayollar mamlakatimiz siyosatida tobora kuchayib bormoqda. Shunday qilib, bugungi kunda respublikada 17 nafar senator ayol, 15 nafar qonunchilik palatasi deputati, 15 nafar O'zbekiston qahramonlari, oltita akademik va 514 fan doktorlari bor. Bundan tashqari, halol jinsiy aloqa mahalliy kengash deputatlari sonining 23 foizini tashkil etadi. [4] Albatta, shuni ta'kidlash kerakki, erkaklar bilan solishtirganda, ayollar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ishtirok etish imkoniyatlariga kamroq ega, ammo ular o'z faoliyatlarida olg'a siljishgandan ko'ra yomonroq bo'lishga intilishadi (ya'ni erkaklar).

Shu sababli ularning hayotning barcha sohalaridagi, siyosiy va ijtimoiy munosabatlardagi faolligi, shuningdek, zamonaviy jamiyatda ayollarning o'rni tobora ortib borayotganini ta'kidlash lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasida «ayollar savollari" tadqiqotchilar uchun ulkan sohadir. O'zbekistonning zamonaviy tarixshunosligida «ayollar masalasi" chuqur va har tomonlama ishlab chiqilmoqda, hozirgi paytda yangi yondashuvlar va yangi tushunchalar bayon qilingan. [3]

Hozirgi bosqichda, suveren Qoraqalpog'iston sharoitida «ayollar muammosi"ni taniqli (deyarli yagona) tadqiqotchilaridan biri Y.A.Abdullayev. Ushbu mavzu bo'yicha bir nechta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar va 40 ga yaqin maqola va tezislar nashr etgan. [1] 1990 - yillarning o'rtalariga kelib, Qoraqalpog'istonda aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan ayollar soni ko'paydi. Shunday qilib, olim ayollarning soni 500 kishidan oshdi, R.Esemuratova, G.Esemuratova, S.Baxadirova, G.Sirymbetova, T. Doshumova va boshqalar kabi

fan, adabiyot va madaniyat ayollari juda mashhur bo'lishdi. 1990-yillarning o'rtalariga kelib, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1371,6 ming kishidan 783,5 mingi ayollar (umumiy aholining 57,1 %), shundan 123,2 mingi ishlaydigan ayollar (15,7 %). Jumladan, qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning umumiy soni — 13,2 ming kishi, sanoatda — 15,9 ming kishi, sog'liqni saqlashda — 24,2 mingta, xalq ta'limi sohasida — 40,8 ming kishi, madaniyatda — 2,42 ming kishi, ilmiy soha — 680, transport va qurilish — 8,2 ming, savdo — 16,8 ming, uy-joy kommunal xo'jaligi — 2,08 ming ayol. [6] “Perzent” markazi (prof. O. A. Ataniyazova rahbarlik qilgan), “Orol dengizining madaniy merosi” (M. M. Babanazarova), “Xayriya va sog'liqni saqlash jamg'armasi” (L. M. Jumanazarova), “Oltin Orol dengizi merosi” — nodavlat notijorat tashkiloti (G. Embergenova), “Uyg'onish davri” (G.Ya. Dosumova) va boshqa ko'plab jamoatlar.

Ayollar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, masalan, «Qoraqalpog'istondagi olim-ayol” (S. Baxodirova), «Qoraqalpog'istonning tadbirkor ayollari”, «Qoraqalpog'iston ayollari — Qoraqalpog'iston faxriylari” va boshqalar. Shuningdek, “O'zbekiston Ishbilarmon ayollar uyushmasi Qoraqalpog'iston bo'limi”, “Qoraqalpog'iston ayollari uchun krizis markazi” yaratilgan edi. Shunday qilib, faqat Qoraqalpog'istonning o'zida 2000 yilgacha 12 ta xotin-qizlar tashkiloti mavjud bo'lib, ulardan 7 tasi Qoraqalpog'iston Xotin-qizlar qo'mitasi qoshida faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, «Ilimpaz Xayol” ayol olimlar uyushmasi, «Faxriy ayollar” uyushmasi, «Oila va hayot” assotsiatsiyasi, «Ona, bola va atrof-muhit” jamoat birlashmalari, «Ijodiy ayollar” va «Inta” ayollar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash markazi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, «Tadbirkor ayol” O'zbekiston ishbilarmon ayollari uyushmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi, «Orol dengizining oltin merosi” ijodiy va intellektual mehnat ayollari jamoat birlashmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi ayollarini ijtimoiy himoya qilish «Qirq qiz” jamg'armasi faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 2001 yilgacha «Orol qizlari” jurnali ishladi — uning bosh muharriri va tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq yozuvchisi Gulaysha Esemuratova edi. O'n bir yilgacha jurnalda davlat tuzilmalari tomonidan e'tirof etilmagan (masalan, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi (raisi — Tolepbergen Qayipbergenov), «Amudaryo» jurnali — bosh muharriri — Annaklicheva G.), istiqbolli yosh iqtidorli qoraqalpoq ayollarining barcha ijodiy loyihalari nashr etildi. Ushbu tashkilotlarning barchasi sof ayollardan iborat edi, ya'ni gender masalalari bilan yaqindan shug'ullanadigan tashkilotlar.

Shu bilan birga, gender masalalari sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari: «Mahalla», «Sog'lom avlod uchun» xayriya jamg'armalarining filiallari, «ECOSAN» Xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, shuningdek, «Perzent» Qoraqalpoq reproduktiv salomatligi va atrof-muhit markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'pgina hollarda, ushbu tashkilotlar o'z faoliyatini nafaqat davlat subsidiyalari hisobiga, balki ichki manbalar va jalb qilingan investitsiyalar hisobidan amalga oshirdilar.

Keyingi vaziyat xalqaro tashkilotlar va fondlar bilan aloqalar o'rnatilganining tasdig'i edi. Ayollarning ijtimoiy ahvoli, ularning bandligi, malakasining pastligi, jamoat qurilishida sust ishtirok etish muammolarining tahlili markazda ham, joylarda ham Xotin-qizlar qo'mitalari faoliyatini tubdan qayta qurish zarurligini ko'rsatdi. Shuningdek, viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, huquqshunoslar, olimlar, san'atkorlar, tibbiyot xodimlari, faxriylarning jamoat birlashmalari qoshida «Yil ayoli" tanlovlari o'tkazilmoqda. Ammo Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ayollar tashkilotlarining yanada yumshoq siyosati talab qilinadi. Buning uchun ayollarning ta'limiy, ijtimoiy va ma'naviy saviyasini ko'tarish, ularga burch va mas'uliyat hissini uyg'otish sharoitida monitoring, uzunlamasına sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish zarur, natijada kelajakda yordam beradigan aniqroq usul va usullar aniqlanib xalqimiz genofondini mustahkamlash, ijtimoiy qurilishdagi nomutanosibliklarni, deformatsiyalarni aniqlash va bartaraf etishda, jamiyatning barqaror rivojlanishida tasdiyqlanadi. Inson huquqlari va umuman ayollar sohasida ayollar harakatini rivojlantirishni rag'batlantirish, zamonaviy jamiyatdagi ayollarning mavqeini aniq belgilash juda muhimdir.

Buning uchun ayollar masalasidagi vaziyatni tez va sifatli o'zgartirish maqsadida ayollar jamoat tashkilotlari koalitsiyasini tuzish, ularning faoliyati strategiyasi va taktikasini belgilash zarur. Bizning fikrimizcha, ayollarning mehnat va hayot potentsialidan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solishning juda muhim strategik yo'nalishi bu mehnat bozorida raqobat uchun teng imkoniyatlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Agar mehnat bozorida ayollarning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolsa, bu ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kichik va o'rta biznes sohasida yanada moslashuvchan soliq siyosatini yaratish, ayollar uchun ish joylarini yaratadigan xususiy tadbirkorlik, ayollar ishlab chiqarish va tijorat birlashmalari uchun ma'lum imtiyozlar berish, shuningdek, tadbirkorlik, «uy sharoitidagi biznesni» qonuniylashtirishga ko'maklashadigan bir qator chora-tadbirlar zarur. Bundan tashqari, ishchilar va mutaxassislarni biznes ehtiyojlari uchun tayyorlash uchun xizmatlar va iste'mol tovarlariga talabni o'rganish bo'yicha bozor tadqiqotlarini o'tkazish muhimdir.

Shuningdek, mehnat bozorida ayol ishchi kuchiga talabni o'rganish, ayollarni yangi kasbga o'rgatish, ularni qayta tayyorlash, investitsiyalarni jalb qilish, kredit olishni soddalashtirish, xom ashyo va jihozlar bilan ta'minlash, ish o'rinlari yaratish, ish sharoitlarini yaxshilash va yaratish ular uchun shaxsiy xizmatlar. Shuningdek, ayollarni ijtimoiy foydali ishlarga maqsadli yo'naltirish, ayollar o'rtasida keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish muhimdir. Faoliyatning asosiy yo'nalishlari ayollarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularni ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy va ijtimoiy mavqeini oshirish, ayollarni ozod qilishning nafaqat huquqiy va me'yoriy asoslarini, balki iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy, ma'naviy asoslarini o'rgatish masalalari bo'lishi kerak.

Mamlakatda ijtimoiy rivojlanishning barcha parametrlarida ayollarning muammolarini keng yoritish maqsadida respublikada ayollar uchun ixtisoslashgan

ommaviy nashrni tashkil etish zarur. Buning uchun juda katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish kerak, ularning echimini Ta'sischilar kengashi shakllantirmoqda. Ta'sischi Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi va boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Abdullaeva Y.A. Qoraqalpog'iston xotin-qizlari: kecha va bugun. XIX soningiri va XX asr. –Toshkent.

IMOM AL BUXORIY HADISLARIDA AYOLLAR BILAN BOG'LIQ HADISLARNING FALSAFIY GERMENEVTIK TAHLILI

Ulfatillayeva Sayyora
O'ZMU falsafa va mantiq kafedrasi
Doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al Buxoriy hadislarida ayollar bilan bog'liq hadislarning falsafiy germenevtik tahlili haqida so`z yuritilgan. Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo'yilmagan. Shuningek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko'zlagan bo'lib, u "himoya" deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, ayollarning sha'ni, ularga taalluqli bo'lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur'oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta'riflar alohida e'tibor bilan keltiriladi, adolat, latofat va mehr ila bayon qilinadi. Shularni e'tiborga olgan holda, ayolning qiz, rafiqa va ona sifatida umr kechirishi va uning umr bosqichlarida ehtiromi va himoyasini ko'zda tutgan oyat va hadislarni etiboringizga havola etamiz.

Kalit so`zlar: Qur'oni karim, Imom al Buxoriy, hadis, ayollar, falsafiy germenevtik tahlili, muhaddis, islom.

Abstract. This article talks about the philosophical hermeneutic analysis of the hadiths related to women in the hadiths of Imam al-Bukhari. In our holy religion Islam, everyone is addressed equally and men and women are treated equally. One of the rights is not prioritized over the other. Also, Islamic Shari'a aims to achieve a specific goal in its general form, which is called "protection". Protection is manifested in different ways and in different forms. In particular, the honor of women and everything related to them is protected on the basis of Islam. For this reason, the rights and rights of women in the Qur'an and the Prophet's Sunnah are given with special attention and are explained with justice, kindness and love. Taking this into consideration, we bring to your attention the verses and hadiths that envisage the life of a woman as a daughter, wife and mother, and respect and protection of her at the stages of her life.

Key words: Quran, Imam al-Bukhari, hadith, women, philosophical hermeneutic analysis, muhaddis, Islam.

Абстракт. В данной статье речь идет о философско-герменевтическом анализе хадисов, связанных с женщинами, в хадисах имама аль-Бухари. В нашей священной религии Исламе ко всем относятся одинаково, и к мужчинам и женщинам относятся одинаково. Одно из прав не имеет приоритета над другим. Также исламский шариат направлен на достижение конкретной цели в его общей форме, которая называется «защита». Защита проявляется по-разному и в разных формах. В частности, честь женщин и все, что с ними связано, охраняется на основе ислама. По этой причине права и права женщин в Коране и Сунне Пророка даны с особым вниманием и

разъяснены со справедливостью, добротой и любовью. Принимая это во внимание, предлагаем вашему вниманию аяты и хадисы, предусматривающие жизнь женщины как дочери, жены и матери, уважение и защиту ее на этапах ее жизни.

Ключевые слова: Коран, имам аль-Бухари, хадисы, женщины, философско-герменевтический анализ, мухаддисы, ислам.

Imom Buxoriy buyuk muhaddis sifatida barcha musulmonlar tomonidan birdek ulug'lanadi. Shunday ekan, *Buxoriyning buyukligi sabablari nimada, u haqida dunyo olimlari qanday fikrda, umuman, dunyo olimlari al-Buxoriy haqida nimalar bilishadi va uning merosini qanday baholashadi* kabi savollarning tug'ilishi tabiiy. Tan olishimiz kerakki, biz buyuk allomalarimiz haqida juda kam bilamiz. Shu bois, Imom Buxoriy haqidagi dunyo olimlarining asarlari bilan tanishish foydadan xoli bo'lmaydi.

Ma'lumki, hadislar islomda Qur'oni karimdan keyingi o'rinda keluvchi muhim manba sanaladi. Ular ijtimoiy hayotning muqaddas kitobda ko'zda tutilmagan masalalariga echimlar taqdim etadi. Hadislar o'zida sunnani mujassamlashtiradi. Ya'ni, cunna hadislarda o'z aksini topgan va ular orqali keyingi avlodlarga etkazilgan.

Xalifalar davridan keyin hadis ilmi taraqqiy eta boshladi. Hadis ilmi nafaqat hadislarni yig'ish, balki ularning sahihlarini soxta va to'qimalaridan ajratish, tizimlashtirish, tasniflash va sharhlashga qaratilgan sayi-harakat natijalarini o'z ichiga oladi. Milodiy VIII asrdayoq hadislar soni haddan ziyod ko'payib ketgani bois sahih hadislarni alohida ajratib olish va tizimlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Milodiy IX asr (hijriy III asr) hadis ilmining gullab-yashnagan davri bo'ldi. Sahih hadislarni soxta va to'qima hadislardan ajratib olishga to'liq muvaffaq bo'lindi. Oltita eng sahih hadislar to'plami – “Sihohi sitta” (“*Sihah Sittah*”) yaratildi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (vafoti milodiy 870/hijriy 256 y.), Muslim ibn al-Hajjoj (vafoti milodiy 875/ hijriy 261 y.), Muhammad ibn Iso al-Termiziy (vafoti milodiy 892/hijriy 279 y.)larning “Jome' as-sahih”lari va Abu Dovud Sulaymon (vafoti milodiy 889/hijriy 275 y.), Ahmad ibn Shuayb al-Nasoiy (vafoti milodiy 915/hijriy 303 y.), Ibn Moja al-Qazviniy (vafoti milodiy 886/ hijriy 273 y.)larning “Sunan”lari mana shu davrda yaratildi.

Bular orasida dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgani Imom Buxoriyning sahih hadislar to'plamidir. Aksariyat manbalarda, Imom Buxoriy 600 mingta hadisdan 200 mingtasini yod bilgani, shundan 7275 tasini sahih sifatida taqdim etgani qayd etiladi.

Yana shuni ham e'tiborga olish kerakki, Imom Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bevosita bag'ishlangan monografik asarlar nisbatan kam uchraydi. Chunki, buyuk alloma haqida asar yozishga jur'at etadigan qalam sohiblari barcha zamonlarda sanoqli bo'lgan. Ammo, islomshunoslikning turli mavzulari doirasida Imom Buxoriy va uning faoliyati haqida so'z yuritilgan bilvosita asarlar talaygina. Bunday asarlarda alloma haqida to'liq ma'lumotlar berilmasa-da, ulug' muhaddis shaxsining u yoki bu qirralari turli mavzular ohangida bayon etiladi.

Imom Buxoriy ilmda xolis, insoniylikda esa juda hokisor bo'lgan. Muhaddis Xurosonda bir muddat yashagan paytlarida viloyat hukmdori Xolid al-Zuhali Buxoriydan uning xonadoniga kelib, o'zining farzandlariga “Sahih” va hadis ilmidan saboq berishini so'raydi. Buxoriy uning taklifini rad etadi. U Xolidga uning farzandlarini o'z talabalari orasida ko'rishdan xursand bo'lishini, ammo uning uyiga alohida dars berish uchun bora olmasligini ma'lum qiladi.

Shu tariqa Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi betakrordir, uning hadislar to'plami esa favqulodda mukammallik kasb etadi. Bu esa uning hadislaridan keng foydalanishga turki beradi. Mana shu sabablarga ko'ra, Imom Buxoriy hadislari butun islom dunyosida keng tarqaldi, uning o'zi buyuk muhaddis sifatida shuhrat qozondi.

Germenevtika - falsafiy fikrlashning shunday usuliki, unda uning markazini tushunish jarayoni tashkil qiladi. Faylasuflar qadim-qadim zamonlardan buyon mavjud narsalarni, sodir bo’layotgan voqealarning tub mag’zini chaqishni va tushunganlarni boshqalarga bayon etib berishni o’z burchlari deb bilganlar. Shunga ko’ra, har bir faylasufning tushunish muammosi bilan shug’ullanishi tabiiy holatdir. Lekin har qanday faylasuf ham germenevt hisoblanavermaydi. Ta’rif berishlaricha, faqat aynan tushunishni falsafaning birlamchi prinsipi deb hisoblaydigan faylasuflargina germenevtiklar hisoblanadi. Ular uchun odam tushunuvchan mavjudotdir. Odamga taalluqli bo’lgan boshqa hamma narsalar ikkilamchidir. Ular tushunishdan tashqari tushunish jarayonida ishtirok etadi, yoki ushbu jarayonning bir jihatini tashkil etadi. Germenevtik tahlil asosan lingvistikada amalga oshirilib, boshqa bir tildagi matnni izohlash, uni boshqalarga sharhlash uchun xizmat qiladi. Diniy-falsafiy germenevtika esa, matnning diniy-falsafiy jihatlarini sharhlash, izohlash uchun qo’llaniladi.

Islom dini ayollarning sha’nini ko‘tarib, ularning turmush tarzini go‘zallashtirgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o‘z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarini yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko‘rganining xabari berilsa, g‘azablanganidan yuzlari qorayib, bo‘zarib ketar edi. Alloh taolo Qur’oni karimda ularning bu holatini bunday bayon qiladi:

بِهِ بُشِّرَ مَا سُوءِ مِنْ الْقَوْمِ مِنَ يَتَوَارَى * كَظِيمٌ وَهُوَ مُسْوَدًّا وَجْهُهُ ظَلَّ بِالْأُنْثَى أَحَدُهُمْ بُشِّرَ وَإِذَا يَحْكُمُونَ مَا سَاءَ أَلَا التُّرَابِ فِي يَدُسُّهُ أَمْ هُونٍ عَلَى أَيُمْسِكُهُ

“Qaysi birlariga qiz *(ko‘rgani haqida)* ***xushxabar berilsa, g‘azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki*** *(tiriklay)* ***tuproqqa qorish*** *(to‘g‘risida o‘y surib),* ***o‘ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan*** *(oriyat qilib)* ***odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo‘lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir*** *(“Nahl” surasi, 58-59 oyatlar).*

Qur’oni karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo‘lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko‘rsatib beradi.

Alloh taolo “Niso” surasida bunday marhamat qiladi:

فَالصَّالِحَاتُ أَمْوَالِهِمْ مِنْ أَنْفَقُوا وَبِمَا بَعْضٍ عَلَى بَعْضَهُمْ اللَّهُ فَضَّلَ بِمَا النِّسَاءِ عَلَى قَوَّامُونَ الرِّجَالُ الْمَضَاجِعِ فِي وَاهْجُرُوهُنَّ فَعِظُوهُنَّ نُشُوزَهُنَّ تَخَافُونَ وَاللَّاتِي اللَّهُ حَفِظَ بِمَا لِلْغَيْبِ حَافِظَاتٌ قَانِتَاتٌ كَبِيرًا عَلِيًّا كَانَ اللَّهَ إِنَّ سَبِيلًا عَلَيْهِنَّ تَبْغُوا فَلَا أَطَعْنَكُمْ فَإِنْ وَاضْرِبُوهُنَّ

"Erkaklar xotinlar ustidan *(oila boshlig'i sifatida doimiy)* ***qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari*** *(erkaklar)****ni ayrimlari*** *(ayollar)****dan*** *(ba'zi xususiyatlarda)* ***ortiq qilgani va*** *(erkaklar o'z oilasiga)* ***o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir.*** *(Ayollar ichida)* ***solihalari – bu*** *(Allohga va eriga)* ***itoatli, g'oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli*** *(ya'ni, erlarining sirlari, mulklari va obro'larini saqlovchi)****lardir. Xotinlarning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so'ngra*** *(bu ta'sir qilmasa,)* ***ularni o'rinlarda*** *(aloqasiz)* ***tark etingiz, so'ngra*** *(bu ham kor qilmasa)* ***ularni*** *(majruh bo'lmagudek darajada)* ***uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi*** *(boshqacha)* ***yo'l axtarmangiz. Albatta, Alloh oliy va ulug' zotdir*** *("Niso" surasi, 34-oyat).*

Alloh taolo ushbu oyati karimada soliha ayolning sifatlarini bayon qilib, ortidan itoatsizlik sodir etgan ayolga rahm-shavqat bilan, bosqichma-bosqich qilinishi kerak bo'lgan muomala uslubi haqida ta'lim bermoqda. Bu uslub – avval chiroyli pand-nasihat, so'ngra shunda ham itoat qilmasa, o'rinlarini alohida qilish, bu ham kor qilmasa, qattiqroq chora – ozor bermaydigan darajada ta'zir berishga izn berilishidir. Ushbu ta'lim mehribon va rahmli bo'lgan Alloh taolo tomonidan ayollarga bo'lgan izzat-ikrom namunasi desak, adashmagan bo'lamiz.

Ayollarga bo'lgan ikromning namunalaridan yana biri shuki, ushbu surada ayollar va erkaklar lafzlarining teng miqdorda keltirilganidir.

Islom erkaklarga o'z ayollari bilan go'zal muomalada bo'lishni va bunda ular uchun yaxshilik borligi quyidagicha bayon qiladi:

كَثِيرًا خَيْرًا فِيهِ اللَّهُ وَيَجْعَلَ شَيْئًا تَكْرَهُوا أَنْ فَعَسَى كَرِهْتُمُوهُنَّ فَإِنْ بِالْمَعْرُوفِ وَعَاشِرُوهُنَّ

"Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko'rsalaringiz, *(bilib qo'yingki,)* ***balkim sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh*** *(sizlar uchun)* ***ko'pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin"*** *("Niso" surasi, 19 oyat).*

Shuningdek, dinimizda ayollar ona sifatida ulug'lanadi. Islom farzandlarni onalariga chiroyli muomalada bo'lishga buyurib, bu orqali ayollarni ona sifatida ulug'laydi. Alloh taolo Qur'oni karimdagi boshqa o'rinlarga nisbatan ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan oyatlarni juda ham chiroyli tarzda bayon qilgan. Jumladan, "Isro" surasining 23-oyatida:

"Rabbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. *(Ey inson!)* ***Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uff!..» dema va ularni jerkima! Ularga*** **(doimo)** ***yoqimli so'z ayt!"*** , – deya amr qilingan.

Boshqa surada esa:

"Biz insonga ota-onasini *(rozi qilishni)* ***buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan*** *(qornida)* ***ko'tarib yurdi. Uni*** *(ko'krakdan)* ***ajratish*** *(muddati)* ***ikki yilda*** *(bitar).* ***(Biz insonga buyurdikki) «Sen Menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir"****,* – deb buyuriladi *("Luqmon" surasi, 14-oyat).*

Qur’oni karimdagi ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan yana bir oyat quyidagicha marhamat qilinadi:

“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni *(qornida)* ***qiynalib ko‘tarib yurgan va uni qiynalib tuqqandir. Unga homiladorlik va uni*** *(sutdan)* ***ajratish*** *(muddati)* ***o‘ttiz oydir. Bas, qachonki, u voyaga yetib, qirq yoshga to‘lganida: «Ey, Rabbim! Menga va ota-onamga in’om etgan ne’matingga shukr qilishga va O‘zing rozi bo‘ladigan solih amalni qilishga meni muvaffaq etgin va men uchun zurriyotimni isloh et! Albatta, men Senga*** *(gunohlarimdan)* ***tavba qildim va, albatta, men musulmonlardandirman», – deydi”****(“Ahqof “surasi, 15-oyat)****.***

Ushbu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, Allohga osiy bo‘luvchi o‘rinlarda ularga itoat qilinmaydi. Bu haqda bunday marhamat qilinadi:

“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. *(Ammo)* ***agar ular sen bilmagan narsalarni*** *(soxta ma’budalarni)* ***Menga sherik qilishingga zo‘rlasalar, u holda ularga itoat etmagin!*** *(Barchangiz)* ***Menga qaytursiz, bas, Men*** *(o‘shanda)* ***sizlarga qilib o‘tgan amallaringiz xabarini berurman”****,* – deb marhamat qilinadi *(“Ankabut” surasi, 8-oyat)*.

Sunnati nabaviyyada ham onalarga yaxshilik qilishga doir ko‘plab buyruqlar kelgan bo‘lib, ba’zilarini e’tiboringizga havola etamiz.

“Bir kishi Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: “Yo Rasulullоh, eng chiroyli muomalamga kim haqli?” – deb so‘radi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Onang”, – dedilar. U kishi: “So‘ng kim?” – dedi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Onang”, – dedilar. U kishi yana: “So‘ng kim?” – dedi. Rasulullоh alayhissalom: “Onang”, – dedilar. U kishi: “So‘ng kim?” – dedi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “So‘ng otang”, – dedilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam uch bora “Onang”, deb aytishlari Islomda onaning sha’ni naqadar ulug‘ va hurmat-ehtiromga loyiq ekaniga dalolat qiladi. Islom shariatidan boshqa hech bir shariatda onaning qadri bunchalik baland qilib belgilanmagan.

Darhaqiqat, islomda ayollar rafiqa sifatida ulug‘lanadi. Bu borada Rasululoh sollallohu alayhi vasallamning “Vidolashuv haji”da sahobiylarga qarata ayollar haqida aytgan vasiyatlarini keltirib o‘tishimiz juda ham o‘rinli bo‘ladi: ***“Ayollar borasida Allohdan qo‘rqinglar. Chunki sizlar Allohning omonati ila ularni qo‘lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o‘zlaringizga halol qilib oldingiz”*** (Buxoriy rivoyati).

Rasulullоh alayhissalom boshqa bir hadisda: “Albatta, ayollar erkaklarning yarmi (sherigi, tug‘ishganlari)dir”, – deganlar (Imom Abu Dovud rivoyati).

Ushbu hadisi sharifga binoan, Islom shariati ayollarni har qanday holat va ishlarda erkaklarga sherik qilgan desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, ayol farzandlarni tarbiyalash, borasidagi xizmati oilani mustahkamlash yo‘lida ham erkaklarga hamroh ekanidan dalolatdir. Er-xotin o‘zaro inoq bo‘lgan oiladan sunnati nabaviy ko‘rsatib bergan yo‘lga muvofiq go‘zal xonadon paydo bo‘ladi. Bunday

xonadonlar esa jamiyat binosini barpo qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ham ayol jamiyatning yarmi deyiladi. Balki, ayol yarmidan ham ko‘proq ulushga ega. Zero, ayol bu – ona, rafiqa, qiz va opa-singildir.

Qolaversa, islomda ayollar qiz sifatida ulug‘lanadi. Nabiy alayhissalom Islomning mohiyatini bayon etib, qizlarning ulug‘ maqom sohibalari ekanini ta’kidlaganlar. Ularning huquqlarini bayon qilib, zimmalaridagi vojiblarni ko‘rsatib berish ila johiliyat davrida urfga aylanib, tarqalib ketgan qabihlik – qizlarni tiriklayin ko‘mish muammosini bartaraf qildilar.

Ko‘pchiligimiz er va xotinlik eng muqaddas insoniy aloqalar ekanini yaxshi bilamiz. Ammo bu aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda Qur'oni Karim va hadisi shariflarga amal qilib ish tutishimiz lozim. Ayol kishi turmushga chiqqach, erining izmida bo‘ladi, endi u ota-onasidan ko‘ra ko‘proq eriga itoat etishi lozim. Agar er to‘g‘ri yo‘lda bo‘lib, xotiniga nisbatan o‘z zimmasidagi majburiyatlarni bajarsa, xotini unga itoatsizlik qilishi gunohdir. Ayol erining iznisiz, huda-behudaga uyidan chiqishi joiz emas. Ammo zaruriyat yuzasidan, ota-onasining ziyorati uchun, ayniqsa, bemor ota-onasiga zarur bo‘lib qolganda chiqishiga shar'iy jihatdan hech qanday mone'lik yo‘q. Er-xotinlik munosabatlarida shunday holatlar ham bo‘ladiki, erkak kishi ayolining ehtiyojlarini doim qondirib yuradi, lekin kuni kelib biror sabab bilan uning xohlagan narsasini olib bera olmasa, ayol darhol erining barcha yaxshiliklarini unutib: «Sendan nima ko‘rdim», deydi. Bu ayol kishining nafaqat erini qadrlamasligi, balki noshukurlik qilib, erining barcha yaxshiliklaridan ko‘z yumishidir. Bunday holatlarda ayolning o‘ylamay-netmay aytgan bir og‘iz gapi ham, uning do‘zax ahllaridan bo‘lib qolishi uchun yetarli sabab ekanligi quyidagi hadisi sharifdan anglashiladi. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: **Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Menga do‘zax ko‘rsatildi, qarasam, undagi odamlarning ko‘pi inkor qiluvchi xotinlar ekan». Sahobalar: «Allohni inkor qilganmi?» – deb so‘radilar. «Erning yaxshiligini inkor qilganlar, erning qadriga yetmaganlar. Agar bularning bittasiga bir umr yaxshilik qilsang-u, keyin sendan bir kichik yomonlik ko‘rsa: «Sendan nima ko‘rdim, hech yaxshilik ko‘rmadim», – deb aytadir», – deb javob berdilar.**(Imom Buxoriy rivoyati)

Darhaqiqat, Alloh taolo erkak kishini uning jismoniy va ruhiy jihatlari bilan oila rahbari bo‘lishga mos qilib yaratgan. Oila qurish va uning osoyishtaligini saqlash, bu yo‘ldagi barcha sarf-xarajatlar erkak kishining zimmasidadir. Ibn Umar roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda: **«Nabiy alayhissalom: «Barchalaringiz homiysiz va qo‘l ostingizdagilarga mas'ulsiz. Imom homiydir va qo‘l ostidagilarga mas'uldir. Erkak o‘z ahliga homiydir. Va qo‘l ostidagilarga mas'uldir», dedilar».** (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati).

Erining ruxsatisiz nafl ro‘za tutmasligi va begona odamlarni uyiga kiritmasligi lozim. Bu haqda Abu Hurayra roziyallohu anhudan shunday rivoyat qilinadi: **«Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Ayol kishi uchun erining huzurida uning ruxsatisiz (nafl) ro‘za tutishi va uning iznisiz uyiga begonalarni kiritishi halol emas», dedilar»** (Buxoriy rivoyati).

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ayol go‘yo qalb gavhari. Ayol borki, olam munavvar. Ona – mehribonlik timsoli! Unga yaxshilik qilish esa dunyoda baxt, oxiratda saodatga erishish sabablaridandir. Shunday ekan, onamizning nurli yuzlariga tabassum ila boqib, mehribonlik va oilaviy mehr-muhabbat asosida hayot kechirish barchamizga nasib etsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imom Buxoriy ta`rifi. –T.: CHo’lpon, 1996.-B.32
2. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O’zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.62.

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA TARIXIY XOTIRA VA ONGNING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Ruziyev Anvar Jumanazarovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
Associate professor Social Sciences of the Department
Jizzakh Polytechnic Institute (Uzbekistan)

Annotatsiya. Millat o‘z tarixida boshdan kechirgan voqea-hodisalarni, ijobiy va salbiy tomonlarni tahlil qilar ekan, bu voqealar nima sababdan yuz bergani va kelajakda ularning takrorlanmasligi va erishilgan yutuqlarni saqlab qolish, rivojlantirish uchun nima qilish keraqligini anglab yetadi.

Maqolada milliy o‘zlikni anglashda tarixiy xotira va ongning o‘zaro uyg‘unligi masalalari, tarixiy ong va xotira hamda dunyoqarash borasida bir qator ijtimoiy fanlar doirasida tadqiqotlar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: milliy o’zlik, ong, tafakkur, tarixiy ong, xotira, mustaqillik, o’tmish va bugun, vorisiylik.

«Xotira – atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha ta’sirlarni ijodiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan mnemik (eslab qolish, esda saqlash) xotira, faoliyatdir»[1:12].

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bilan esa milliy tarixiy ong va xotiramiz rivojida mutlaqo yangi davr boshlandi, deyishimiz mumkin. Albatta, milliy tarixiy xotiradagi qatlamlarni davriylashtirish shartli harakterga ega. Negaki, birinchidan, har bir xalqda u o‘ziga xos tasniflanishi va xronologik nuqtai nazardan turli davrlarni qamrab olishi mumkin. Ikkinchidan, o‘z milliy tarixiy xotiramizga tadbiqan olinganda ham, har bir qatlam doirasida bir-biridan sifatiy farqlanuvchi davrlarni ajratsa bo‘ladi. Shunday ekan, milliy tarixiy xotirada turli qatlamlarni ajratish uning rivojiga xos bo‘lgan xususiyatlarni tahlil qilish uchun qulaylik yaratishini qayd etish lozim.

Ong va xotira murakkab strukturaviy hodisa bo‘lib, uning bir nechta asosiy elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur elementlar ijtimoiy-tarixiy haqiqatni anglash usullari, shakllari, mezonlari, muayyan ijtimoiy-tarixiy davr va silivizatsiyalarga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Ammo, ilmiy doirada umume’tirof etilgan taomilga binoan, tarixiy ongni kundalik hamda nazariy darajada ko‘rib chiqish mumkin. Ongning ushbu sohalari o‘zaro aloqadorlikda ijtimoiy-tarixiy voqe’likni turli daraja va sathlarda aks ettirish imkonini beradi.

Inson o‘z tarixiy xotirasiga ega bo‘lmasdan turib, hayotining turli sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlarning asl mohiyatini anglab yeta olmaydi, o‘z navbatida kelajagini ham tasavvur qilishi mushkul. Shu sababdan ham, mamlakatimizning

birinchi prezidenti I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q» iborasi ayni haqiqatdir.

Zero, hozirgi inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir paytda, voqe’likdagi bo‘layotgan jarayonlarni tahlil etish, kerak bo‘lsa anglash, unga munosabat bildirish uchun nafat ilmiy bilimlar balki, tarixiy bilim va tajriba suyanishni taqozo etadi.

«Tarixiy ong» atamasi so‘nggi yillarida ma’lum sohadagi tadqiqotlarning asosiy mavzusi bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchi M.N.Melikova «O‘zbekiston yoshlarining tarixiy ongi (ijtimoiy falsafiy tahlil)» mavzusida tadqiqot olib borgan. Mazkur tadqiqotda tarixiy ong atamasi G‘arb va Sharqdagi falsafiy qarashlar doirasida tahlil qilingan. Alohida ta’kidlash kerakki, bu borada G‘arbda bir qancha modellar ishlab chiqilgan va ular ba’zida bir-birlarini inkor etishsa-da, ayrim hollarda esa taqozo etadilar.

Sharq olimlari tomonidan tarixiy ong va xotira jamiyatning taraqqiyotini kafolatlovchi omil sifatida qaraydilar, shu bilan birga tarixiy ong va xotirani yanada rivojlantirish uchun bor imkoniyatni amalda qo‘llashni taklif etadilar.

Umuman olganda tarixiy ong masalalari dastlab Yevropa fanlarida tadqiq etila boshlandi, zero, u avval aytganimizdek, ushbu masalaga dastlab german olimlari asosiy e’tiborni qaratgan bo‘lsalarda, so‘ngra boshqa Yevropa mamlakatlarida ham tarixiy ong masalalari asosiy tadqiqot mavzularidan biriga aylandi, alaloqibat jaxon ilm-fanida unga katta qiziqish bilan munosabat bildirildi.

Mamlakatimizda ham tarixiy ong va xotira hamda dunyoqarash borasida bir qator ijtimoiy fanlar doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy ong tushunchasiga berilgan ta’riflar orasida o‘zbekistonlik olim N.Jo‘raevning «tarixiy ong – bu jamiyat, ijtimoiy guruxlarning ajralmas qismi bo‘lib, ayni paytda shaxs, insoniyat o‘tmishi haqidagi tasavvurlaridir. Binobarin, tarix o‘tmish, bugungi kun hamda kelajakni butun bir uyg‘unlikda qamrab oladi»[2:215] – deya bergan ta’rifi alohida ahamiyatga molik.

Tarixiy ong o‘tmishda yuz bergan tarixiy voqealarni tiklashda katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy ong o‘tmishga ongli ravishda murojaat qiladi, undagi voqealarga ijobiy hamda salbiy (yaxshi va yomon) nuqtai nazardan baho berishga intiladi. Faylasuflar bundan tashqari tarixga, ongda aks etayotgan xodisalarga murojaat qila turib, u yoki bu davrda jamiyat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini, mohiyatini tushunishga intiladilar.

Tarixiy ongda «o‘tmish-bugun-erta»dan iborat ichki ziddiyat mavjud. Ushbu xususiyatni e’tirof etgan holda A.V.Guliga tarixiy ongga «inson (ijtimoiy guruh, jamiyat) tomonidan o‘z ining zamondagi o‘rni, o‘tmishning bugungi kun va kelajak bilan aloqadorligining o‘zlashtirilishidir. Bu istiqbol uchun muhim bo‘lgan o‘tmishga qaratilganlikdir»[3:16] – deya ta’rif beradi.

Demak, tarixiy ong alohida olingan shaxs, ijtimoiy guruh va etnoslarning zamondagi o‘rni, o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashining in’ikosi hisoblanadi.

Tarixiy ongning mohiyatiga bunday yondashuv tarixiy xotiraning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayni paytda, ayrim tadqiqotlarda yo‘l qo‘yilayotganidek, unga yuzaki yondashishdan saqlaydi. Bunga «...tarixiy xotira milliy g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri»[4:207] yoki «...tarixiy xotira deyilganda jamiyatning moddiy-ma’naviy hayoti doirasida tadbiq qilish mumkin bo‘ladigan, shaxsning hayoti va faoliyatini insonparvarlashtirishga imkon beradigan xalq, millatning o‘tmishdagi ijobiy tajribalarining majmui tushuniladi»[5:107], «shaxsni butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar bilan bog‘lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ma’naviy-ruhiy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir»[6:12] – degan fikrlar misol bo‘la oladi.

Qayd etilgan fikrlarda, birinchidan, «tarixiy xotira» va «milliy tarixiy xotira», ikkinchidan, «shaxs tarixiy xotirasi» va «milliy tarixiy xotira» tushunchalarining mazmuni aynanlashtirib yuborilgan. Uchinchidan, «tarixiy xotira» tushunchasining mazmuni sun’iy tarzda toraytirilgan.

Bunday chalkashliklarni inobatga olmaganda ham, tarixiy xotirani «milliy g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri», «o‘tmishdagi ijobiy tajribalarning majmui», «ma’naviy-ruhiy ozuqa beradigan qudrat» deyish bir yoqlamalikdir. Negaki, bunday yondashuvda tarixiy xotira faqat pozitiv mazmunga ega bo‘lib qoladi. Aslida esa, unda salbiy harakterga ega bo‘lgan, g‘ururlanish, ruhiy qudrat manbai bo‘lish uchun zamin bo‘la olmaydigan hodisalar bilan bog‘liq tasavvurlar ham mavjud bo‘ladi.

Tarixiy xotira mohiyatiga bir yoqlama yondashuv boshqa shakllarda ham uchraydi. Xususan, tadqiqotchi Rossiyalik V.B.Ustyansev tarixiy xotirani «tarixiy yozma manbalarga tayangan holda shakllanishi»[7:5-6] ni ta’kidlaydi.

Ma’lumki, tarixiy xotirada yozma manbalar bilan bir qatorda og‘zaki ijod ham muhim o‘rin egallaydi. Tarixiy xotirani faqatgina yozma manbalarga bog‘lagan holda tushuntirish, bizningcha, uning mazmun doirasining torayishiga olib keladi. Chunki, tarixiy xotira sistemalashgan tarixiy bilimlar, o‘tmish haqidagi tasavvurlar kabi ko‘plab axborotlarni qamrab oladi va ularga tayangan holda takomillashib boradi. Tarixiy xotira yangi axborotlarni qayta ishlash oqibatida muttasil rivojlanib boradi va u mohiyatan kelajakka qaratilgan bo‘ladi. Uning shu jihatiga e’tiborni qaratgan holda, professor D.Alimova «Tarixiy xotira xalq ijtimoiy borlig‘ining rivojlanish istiqbollari, ya’ni kelajakni o‘zida aks ettiradi. Zero, kelajak – o‘tmish va bugunning muqarrar yakuni, ularning natijasi va davomidir»[8:] – degan fikrni bildiradi.

Mazkur ta’rifda ham «tarixiy xotira» va «milliy tarixiy xotira»ning mazmuni tenglashtirib qo‘yilgan bo‘lsa-da, o‘tmish, bugun, kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri e’tirof etilgan. Ayni paytda, tarixiy xotiraga uzluksiz rivojlanish xosligi ta’kidlangan. Bunday yondashuv «Tarixiy xotira – inson xayolotida o‘rnashib qolgan qat’iy holat. Boshqacha qilib aytganda, inson fotoapparatga aylanadi-yu, aniq ob’ekt, holat yoki voqelikni qanday bo‘lsa, shundayligicha suratga oladi. Aniqrog‘i, uning ongida muhrlanib qoladi. Bu sur’at fikrdan, kayfiyatdan, mantiq

va mazmundan begona. Unda harakat yo‘q»[9:5] – degan qarashlarning o‘rinsizligini ko‘rsatadi.

Tarixiy xotiraga vorisiylik xosdir. Ma’lumki, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy meros avlodlar tomonidan o‘zlashtiriladi. Uni saqlab, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasini bajarishda tarixiy xotiraning roli muhimdir. Shunga ko‘ra, tadqiqotchi J.T.Тощenko «...tarixiy xotira o‘tmish haqidagi axborotni bugungi kun va kelajak bilan bog‘liq holdagi muhim xususiyatini aks ettiradi. U o‘z mohiyatiga ko‘ra xalq, davlat, mamlakatning o‘tmish tajribasining to‘planishi, saqlanishi va qayta tiklanish jarayonining uni kishilar faoliyatida qo‘llash ehtimolini uning ta’sirini ijtimoiy ong sohasiga qaytarishning aks etishidir» [10] – degan fikrni bildiradi. Mazkur ta’rifda tarixiy xotiraga xos bo‘lgan xususiyatlar ochib berilgan bo‘lsa-da, unda o‘tmish tajribasining to‘planishi shakllari masalasi e’tibordan chetda qolgan. Bundan tashqari xotira inson, insonlar guruhiga xos ruhiy holat hisoblanishini inobatga olsak, tarixiy xotiraning sub’ektlari doirasi sun’iy tarzda kengaytirilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Zero, «mamlakat tarixiy xotirasi» yoki «davlat tarixiy xotirasi» haqida gapirish ma’nisizdir. Qayd etilgan mulohazalar tarixiy xotirani muttasil rivojlanib boradigan, o‘zida «o‘tmish-bugun-erta» o‘rtasida bog‘liqlikni, ijobiy va salbiy axborotlar majmuini ifodalaydigan hodisa sifatida tushunish imkonini beradi: to‘liqligi konkret vaziyat bilan belgilanadigan, muhim ahamiyat va qimmatga ega bo‘lgan o‘tmish tajribasining muayyan tasavvur, bilim va xulosalar ko‘rinishida esda olib qolinishi, saqlanishi va zarur bo‘lgan holda qayta tiklanishidan iborat bo‘lgan ma’naviy-ruhiy jarayonga tarixiy xotira deyiladi. Xotiraning mohiyatini bilish, uning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan tarixiy xotiraning va bu o‘z navbatida milliy tarixiy xotiraning mazmunini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Sub’ektiga ko‘ra farqlanadigan shaxs, ijtimoiy guruh va millat tarixiy xotirasiga xos xususiyatlarni o‘rganish esa, ularning spesifik va o‘xshash jihatlarini hamda o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yo‘l ochadi.

Milliy tarixiy xotiraning mazmunini anglashda Abdurauf Fitratning fikrlari ham e’tiborga molik. Jumladan, u «har bir qavm o‘zining bosib o‘tgan ijtimoiy, siyosiy ahvolini bilishi kerak, o‘zini o‘sha o‘tgan tarixiy davri bilan taqqoslab o‘sha davridan qanchalik rivojlanganligini bilishi joizdir. Har bir millat agar yashashni hohlasa, o‘z qavmining o‘tmishi, tarixiga murojaat qiladi va agar biror qavm halokatga mahkum bo‘lgan bo‘lsa, uning sabablarini o‘rganib, bu halokatga bog‘liq bo‘lgan odatlarini tark qilishi kerak. Boshqa bir millatning taraqqiysiga sabab bo‘ladigan qoidalarni o‘ziga qabul qilishi zaruriyatdir»[11:50-51] – deb yozgan edi.

Mazkur mulohazalardan o‘z o‘tmishi, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni chuqur bilish va o‘zga xalqlar tarixi, ularning yutuq va xatolaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish har bir millatning taraqqiyotiga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida talqin qilinganini anglash mumkin.

Bugungi kun ilmiy adabiyotlarida mavjud bo‘lgan qarashlarni o‘rganish milliy tarixiy xotiraning mazmunini yanada chuqurroq va teranroq anglashga yordam beradi.

Mazkur mulohazalardan o‘z o‘tmishi, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni chuqur bilish va o‘zga xalqlar tarixi, ularning yutuq va xatolaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish har bir millatning taraqqiyotiga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida talqin qilinganini anglash mumkin.

Demak, dunyoqarash, ong va hotira o‘rtasidagi munosabat – umumiylik, juz’iylik va xususiylik o‘rtasidagi munosabat kabidir. Tarixiy ong hamda tarixiy xotira tarixiy dunyoqarashning muhim tarkibiy komponentlarini tashkil etadi. Ular bir butunlikda yaxlitlashib tarixiy dunyoqarashni hosil qiladi, shuningdek, ong individ, jamoa, elat, millat, xalqlarning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqidagi kundalik idrok va tasavvurlari, bilishning tarixiylik va mantiqiylik tamoyili asosida chiqargan ilmiy-amaliy xulosalarining majmui sifatida gavdalanib, tarixiy dunyoqarashda tizimlashadi va yaxlitlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Наврўзова Г., Юнусова Г. Ўзликни англашда хотиранинг роли (Абдуқодир Гийлоний асарларининг фалсафий тахлили). Chahma Print МЧЖ нашриёти, 2013. –Б.12.
2. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.215.
3. Гулыга А.В. Историческое сознание.//Современные проблемы философии истории: Тезисы докладов в межвузовской научной конференции. – Тарту, 1989. – С.16.
4. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.207.
5. Курбанмамедов А. Историческая память в духовном совершенствовании личности // Миллий истиқлол ғояси тарғиботининг илмий асослари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – С.107.
6. Қурбонов Т. Ёшлар онгига миллий истиқлол ғоясини сингдиришда маданий мероснинг ўрни. Фалс. фан. номз. дис. автореф. – Қарши, 2005. – Б.12.
7. Устьянцев В.Б. Социальные и гносеологические аспекты становления исторического знания. Автореф. дис. уч. канд.филос. наук. – Саратов, 1982. – С.5-6.
8. Алимова Д., Ғуломова Д. Тарихий хотира ва ёшлар./ FIDOKOR. 2001 йил, 18 октябрь.
9. Жўраев Н. Миллий истиқлол ғояси ва тарихни англаш.//Жамият ва бошқарув, 2003, №2. – Б.5.
10. Тощенко Ж.Т., Что такое историческое сознание и историческая память. http://vivovoco.rse.

MOLIYA VA IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISHDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH DOLZARBLIGI VA TAMOYILLARI

Xudoyberdiev Hakim Murtazaqulovich
Oliy va amaliy matematika kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshkent moliya institute, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada oliy matematikaning mahlum yo'nalishlardagi mutuxassis kadrlar yetishishidagi roli va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Bugungi darslarda tanlangan masalalar aynan mutaxassislik uchun yo'naltirilsa, uning ahamiyati yanada yaxshi bo'ladi. Oliy ta`lim muassasalarida o'qitilayotgan "matematika" fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish, talabalarga faqatgina tushunchalar berib qolmasdan ularga misol va masalalar yechish yordamida ularni mustaqil mantiqiy fikrlashi, erkin matematik mushohada yurita olishiga erishish, mahlum qarorlar qabul qila olish uchun zamin yaratish bugungi kun professoro'qituvchilarning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Maqolada oliy matematikaning ayrim mavzularini yoritishda (amaliyot darslarida) tanlanishi mumkin bo'lgan metodlar namunalari keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** to`g`ri chiziq, ko`pburchak, gradiyent.

Аннотация. В статье рассматривается роль и значение высшей математики в развитии специалистов определенных направлений. Если вопросы, отобранные на сегодняшних занятиях, будут направлены именно на специальность, ее актуальность будет еще выше. Теоретико-практический анализ приоритетных направлений развития «математики», преподаваемой в высших учебных заведениях, не только дающей понятия студентам, но и помогающей им решать задачи и примеры, добиваться самостоятельного логического мышления, самостоятельного математического наблюдения, делать обоснованные решения Создание почвы для получения - актуальная задача современных профессоров и преподавателей. В статье представлены примеры методов, которые можно выбрать для освещения отдельных тем высшей математики (на практических занятиях).

Ключевые слова: прямая, многоугольник, градиент.

Abstract. The article reveals the role and im'ortance of higher mathematics in training s'ecialists. If the tasks set at the lessons are oriented to the s'ecialty, it will be better. The 'rior aims of the teachers of «Mathematics» nowadays in higher educational institutions are to analyze theoretically and 'ractically, to develo' critical thinking of the students by the hel' of calculations and solution, to be able to make free mathematicthinking and to make students to make decisions.

Keywords: straight line, polygon, gradient.

Hozirgi kundagi "Oliy ta`limning bakalavriat ta`lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi matematika va tabiiy fanlar bloki mazmuniga qo'yilgan davlat talablari"ni amaldagi kun talabidan kelib chiqqan holda tanqidiy o'rganib chiqish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, ta`lim sohasiga oid innovatsiyalardan kelib chiqan holda unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish lozim.

Ushbu ishda ko’rilgan masalalar hozirgi kunda oliy ta`lim muasasalarining o’quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo’lib matematikaning turli bo’limlari uchun umumiy xossalar aytish imkoniyatini beradi. Uning ajoyib qonuniyatlarini o’rganib, ishlab chiqarish, fizika, tibbiyot, biologiya, qurilish va boshqa yo’nalishlardagi tadbiqlari haqida fikr yuritish muhim hisoblanadi.

Matematika fanini texnika oliy o’quv yurti talabalariga o’qitilayotganda, iloji boricha yo’nalishlariga qarab, mutahasisliklaridan kelib chiqib misol va masalalar tanlanishi kerak.

Quyida iqtisod yo’nalishi talabalariga “Tekislikda to’g’ri chiziq” mavzusini yoritish uchun bir necha masalalar namunasi keltirilgan.

Talabalar guruhlarga bo’linadilar(ko’pi bilan 3 guruh). Barcha talabalarga bir xil topshiriq beriladi

“Charxpalak” topshirig’i

Har bir guruhga mahlum mavzu bo’yicha kengroq mahlumot berish so’raladi. So’ralgan mavzu bo’yicha barcha mahlumotlar yozilib, so’ng keyingi guruhga uzatiladi. Bu jarayon guruhning o’z vazifasi qaytib kelgunga qadar o’tkaziladi. Barcha ma‘lumotlar yig’ilib, guruhlar taqdimotga tayyorgarlik ko’radilar va taqdimot qiladilar.Guruh talabalari har xil rangdagi ruchkalar bilan ishlaydilar.


Mavzular:


1.To’g’ri chiziq tenglamalari turlarini aytib bering.

2.Ikki to’g’ri chiziq orasidagi burchakni topish masalasining yechimini qanday topsa bo’ladi?

3. To’g’ri chiziq tenglamalarini qaerlarda qo’llash mumkin?

Masalan birinchi topshiriq uchun Ikkinchi guruh uchun





Real hayotiy masala

Bir shifoxona bosh vrachi zaytunal degan dorini yetkazish muximligi haqida gapirib o'tdi. Hozirgi kunda bu doriga bo'lgan extiyoj juda katta. Aynan shu shifoxonaga 210 donadan kerakligi mahlum. Undan tashqari yana qaysidir shifoxona 240 donadan buyurtma bergan. Eng qiynayotgan masala dorini yetkazish. Eng kam harajat orqali yetkazish rejasini tuzish kerak. Korxonalar talabini to'g'ri inobatga olgan holda ilgari ham bu korxonalardan dori –darmonlar olib kelingan. Yetkazib berish xarajatlari xisoboti

Farmatsevtika bo'limlari	SHifoxonalar		
	I	II	III
A	4	3	5
B	5	6	4

Bir necha qog'ozlar to'plami qo'limga tushib qoldi



Ro'znomadagi e`lon

So'nggi yangilik!!!

Respublikamiz farmatsevtlari olamshumul dorini yaratdilar. Uning nomi "zaytunal" bo'lib, sitelit kasalligini davolashda keng qo'llanilmoqda. Dorining shifobaxshligi olimlar tomonidan ehtirof etildi. Preparat juda qimmat bo'lishiga qaramasdan o'ta og'ir bemorlar uchun bepul tarqatilmoqda. Bu yana bir bor jamiyatga bo'lgan e`tiborning yorqin dalilidir.

Hozirda O'zbekistonda bu dorini ishlab chiqarish uchun ikkita farmatsevtika korxonasi jalb etilgan. Birinchi korxonada bu dori 250 dona, ikkinchisida 350 donadan ishlab chiqarilmoqda. Hozirdan bu doriga buyurtmalar qabul qilinmoqda. Markaziy shifoxona dori uchun 150tadan buyurtma berdi.

Yechish. A punktdan I punktga olib borilayotgan mahsulotni x orqali belgilaylik, A punktdan II - punktga olib borilayotgan mahsulotni y. I punktdagi ehtiyoj 150 birlikka teng, shuning uchun V punktdan (150 - x) birlik berilishi kerak. Shu kabi B punktdan II ga (240 - y) birlik keltirilishi kerak. A punktning mahsulotdorligi 250 birlikka teng, biz (x + y) birlikni taqsimladik. Demak III uchun mahsulot Adan keladi (250 - x -y) birlik. III punktning ehtiyojini qondirish uchun, B punktdan 210 - (250 - x - y) = x + y - 40 birlik mahsulotni keltirish kifoya.

Tashish rejasi quyidagicha beriladi:

Ishlab chiqarish punkti	Istehmolchi		
	I	II	III
A	x	y	250 - x - y
B	150 - x	240 - y	x + y - 40


Tashishning barcha sarfini hisoblash uchun bu jadvaldagi barcha elementlarni yuqoridagi jadvalning mos elementlariga ko’paytirib qo’shamiz. Quyidagiga ega

S(x,y) = 4x + 3y + 5 (250 - x - y) + 5 (150 - x) + + 6 (240 -y) + 4 (x + y - 40) = - 2x - 4y +3280.

Masala shartiga ko’ra bu ifodaning minimumini topishimiz kerak.x va i y musbat qiymatlarni qabul qiladi. Chunki tashilayotgan mahsulot hajmi manfiy qiymatni qabul qila olmaydi. Demak ikkinchi jadval elementlari musbat:

$x \geq 0, y \geq 0, 250 - x - y \geq 0, 150 - x \geq 0, 240 - y \geq 0, x + y - 40 \geq 0.$

Berilganlarni tekislikda ifodalasak



Ko'pburchak uchlarini aniqlasak: A(0,40), B(40,0), C (150,0), D (150,100), E (10,240), F (0,240). Tushunarliki tenglama ko'pburchak uchlarida eng kichik qiymatga ega bo'ladi. O'rniga qo'ysak

S (0,40) = 3120, S (40,0) = 3200, S (1,500) = 2980,

S (150,100) = 2580, S (10,240) = 2300, S (0,240) = 2320.

Bu yerda eng kichik qiymat 2300 ga teng. Bu qiymatga u Ye nuqtada erishadi. E (10, 240), yahni, x = 10, y = 240. Jadval esa

Ishlab chiqarish punkti	Istehmolchi		
	I	II	III
A	10	240	0
B	140	0	210

Demak, A punktdan I punktga 10 birlik mahsulot, A punktdan II punktga- 240 birlik va h.k. mahsulot keltirilishi kerak. Rejaning qiymati (sarfi) 2300ga teng

Masala

Stantsiyadan har kuni tez yurar va passajir poezdlarini jo'natish mumkin. Ular haqidagi mahlumotlar quyidagi jadval asosida berilgan.

Poezdlar	sostavdagi vagonlar soni		
	platskart	kupeli	Yumshoq o'rindiqli
Passajir poezdi	5	6	3
Tez yurar	8	4	1
Vagonlar rezervi	80	72	21

Oxy tekisligida poezdlarning mumkin bo'lgan formirovkasini quring.

echish. x orqali passajir poezdlarning sonini belgilaylik, y – tez yurar poezdlar. Quyidagi tengsizliklarga ega bo'lamiz: $5x + 8y \le 80$, $6x + 4y \le 72$, $3x + y \le 21$, $x \ge 0$, $y \ge 0$.


Ularga mos to'g'ri chiziqlarni quramiz:

$5x + 8y = 80$, $6x + 4y = 72$, $3x + y = 21$, $x = 0$, $y = 0$,

Kesmalar bo'yicha tenglamalarni yozsak: $x/16 + y/10 = 1$, $x/12 + y/18 = 1$, $x/7 + y/21 = 1$, $x = 0$, $y = 0$.

demak tez yurar poezdlar soni 10dan, passajir poezdlari soni esa 7dan oshmasligi kerak.

Tengsizliklarga mos sohani shtrixlasak mumkin bo'lgan qiymatlarga ega bo'lamiz:



Yuqorida yuritilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda bugungi darslarda tanlangan masalalar aynan mutaxassislik uchun yo'naltirilsa, uning ahamiyati yanada yaxshi bo'ladi. Oliy ta`lim muassasalarida o'qitilayotgan "matematika" fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish, talabalarga faqatgina tushunchalar berib qolmasdan ularga misol va masalalar yechish yordamida ularni mustaqil mantiqiy fikrlashi, erkin matematik mushohada

yurita olishiga erishish, mahlum qarorlar qabul qila olish kabi hislatlarini shakllantirish, talabalarga matematika fani va ularni tatbiqlarini o'rgatish, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida talabalarni ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirishni ta`minlovchi uslubiy shartsharoitlarni, uslublarini aniqlash, matematikaning hozirgi zamon taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatiga e`tiborni jalb etish, matematik fikrlash va xulosa chiqarishni o'rgatishimiz zarur.

References

1. Abdinazarov, X. X., Madumarov, M. J., & Haydarov, S. M. (2019). Zooplankton of Sarikamish Lake (Uzbekistan). *Open Access Library Journal*, *6*(3), 1-8.
2. Walli, M. H., Al-Jubouri, Z., Madumarov, M. M., Margaryta, M., & Aldibe, A. A. A. (2022). Genetic and environment diversity to improve wheat (Triticum spp.) productivity: A review. *Research on Crops*, *23*(2), 295-306.
3. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus Rhabdochona in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, *45*(4), 1084-1089.
4. Kuchboev, M. J. M. A. E., Abdunazarov, H. K., & Olimlonovich, A. O. (2021). Development of the Parasite Nematode Echinuria Uncinata (Nematoda: Acuariidae) in the Intermediate Host in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, *25*(6), 3118-3124.
5. Мадумаров, М. Ж. (2021). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРАЗИТИЧЕСКОЙ НЕМАТОДЫ ECHINURIA UNCINATA У ДАФНИЙ. In *Современное состояние водных биоресуров* (pp. 159-163).
6. Abdinazarov, K. K., Madumarov, M. J., & Khaidarov, S. M. (2020). ZOOPLANKTON OF FISHING FISHERY OF FERGANA REGION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(1), 93-98.
7. Madumarov, M. J., Kuchboev, A. E., Abdunazarov, H. K., & Amirov, O. O. ARTICLE INFO ABSTRACT.
8. Abdunazarov, L. M. (2020). Amaliy ekologiya o'qitishning ilmiy asoslari. Инновационное развитие науки и образования, 1(1), 30-33.
9. Abdunazarov, L. M. (2020). Ecological security and the need to ensure it. International scientific and practical conference Cutting Edge-Science, 1(1), 49-51.
10. Абдуназаров, Л. М. (2020). Экологик таълим тарбияда экологик маданият тушунчаси мазмуни ва моҳияти. Педогика ва психологияда инновациялар, 20(1), 1053-1062.
11. Абдуназаров, Л. М. (2019). Миллий таълим тизимида экологик маънавиятли шахсни тарбиялаш. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. 1(18), 24-27.

YOSHLARDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH - DAVR TALABI

Daminova Nigora Kudratovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom va baquvvat, axloqan pok va vijdonli, ruhan tetik va barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Ularning turmush tarzini xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan axloqiy an’analari, rasm-rusumlari, marosimlari bilan uyg‘unlashtirib borish har tomonlama chinakam axloqli insonlar qilib tarbiyalash bugungi kuning dolzarb masalasidir.

Har bir mamlakatning rivojlanishi ta’lim-tarbiya natijasiga bog‘liqligi barchaga ayon. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirmay turib, ma’naviy boy barkamol insonni voyaga yetkazish, tarbiyalash mushkuldir. Shuning uchun ham “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilab bergan “Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish”[1] kundalik hayotning o‘zi talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli ham mustaqillikning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma’rifiy, ma’naviy zamin qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berishimiz hamda milliy ruhda tarbiyalashimiz, ularga xalqimiz urf-odatlari, axloq-odob normalari, salomlashish odobi, insonparvarlik sifatlarini singdirib, ularni yetuk, komil inson qilib tarbiyalashimiz lozim.

Yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularni barkamol, odobli shaxs qilib tarbiyalash muqaddas burchimizdir. Lekin insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish ko‘p qirrali murakkab jarayondir. U kunlar, oylar va hatto, bir necha yillar mobaynida oliy maqsad yo‘lida sabr-toqat, chidam va qat’iylik, irodali bo‘lishni talab etadi.

Hozirgi kunda bu murakkab jarayonni, ya’ni o‘quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini samarali shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligida amalga oshirilsa, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki sog‘lom muhit natijasidagina axloqiy insonparvarlik fazilatlari tarkib topadi. Bizning oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda vatanga muhabbat, mehnatga fidoyilik bilan o‘zgalarga foyda keltirish, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishdan iborat. Farzandlarimizning bunday insonlar bo‘lishida oilaning totuvligi, ota-onaning mehr-muhabbati ham samarali ta’sir etadi. Bu borada Prezidentimiz quyidagicha fikrni bildiradi “Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak

bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz” [2] .

O‘quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish lozim, chunki ta’lim berishda asosiy siymo o‘qituvchi bo‘lsa, tarbiya berishda oila, ota-onaning o‘rni beqiyosdir. Bolalarda insonparvarlik fazilatlarini kamol toptirishda ota-onalar, o‘qituvchilar shu bilan birgalikda rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan mahallalarning roli beqiyosdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu borada ijtimoiy institut – mahalla institutiga alohida to‘xtalib shunday fikrlarini bildiradi: “Xalqimizda: **“Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”**, degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma’naviy barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, **“Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”** tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir”[3].

Ayniqsa, maktab, ta’lim-tarbiya sohasidagi vazifalariga to‘xtalib, “Ta’lim sohasining yana bir muhim vazifasi – faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo‘lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat’iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat. Shu sababli **“Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari konsepsiyasi”**ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish obyektiv zaruratga aylanmoqda, deb o‘ylayman”[4].

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyot tarixi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviyat, ma’rifat axloq keng quloch yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-birlariga mehr-oqibatli, axloqli, odobli insonlar shakllanishi mumkin.

O‘quvchilarda adolatparvarlik sifatlarini shakllantirishda milliy ma’naviy merosimizdan, qomusimizdan, qadriyatlarimizdan, Prezidentimiz asarlaridan, urf-odatlarimizdan foydalanish o‘rinlidir.

Bir so‘z bilan aytganda, iymon va insof so‘z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotigan jamiyatning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib qoldi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro xis etishi va unga amal qilishi lozim.

Yoshlarni tarbiyalashda Sharqona va milliy axloq-odob ma’naviyatimiz normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o‘quvchilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni // (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son) https://lex.uz/en/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // https://president.uz/uz/lists/view/5774.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga bayram tabrigi // https://president.uz/uz/lists/view/4250
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi // https://president.uz/uz/lists/view/4660
5. Даминова Н. К. ЗАМОНАВИЙ ОЛАМДА ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙЛАШУВИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 274-278.
6. Mukhtarovna B. D., Kudratovna D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. – 2022.
7. Kudratovna D. N. SOCIALIZATION OF YOUNG PEOPLE IN THE PROCESS OF FAMILY EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 37-45.
8. Begmatova Dilnoza Mukhtarovna, & Daminova Nigora Kudratovna. (2022). PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. European Scholar Journal, 3(3), 92-94.
9. Бегматова Д. М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 127-129.
10. Махмудова М. ИНСОННИНГ КЕЛАЖАГИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБ ТАНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 4.
11. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2017. – Т. 2. – №. 3 (64). – С. 24-26.
12. Махмудова М. Воспитание общественной активности у младших школьников. – 1994.
13. *Mahmudova, M. (2021). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODIYLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI.*
14. Maxmudova M. ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал. – 2017.
15. Maxmudova M. ЎЗБЕК ОИЛАСИ ВА УНИНГ ФУНКЦИОНАЛЛИГИ АСОСЛАРИГА ДОИР //Scienceweb academic papers collection. – 2016.

ADVANTAGES OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Masharipova Shokhida Umidbekovna
School No. 10, Khiva District, Khorezm Region
English teacher

Aminboyeva Guloy Zaynitdin kizi
School No. 15, Khiva District, Khorezm Region
English teacher

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** ingliz tili, pedagogik texnologiya, interfdaol metodlar, innovatsiya, ta`lim, lug`at.

Abstract. This article talks about the advantages of using pedagogical technologies in teaching English.

Key words: English language, pedagogical technology, interactive methods, innovation, education, vocabulary.

Абстракт. В данной статье говорится о преимуществах использования педагогических технологий в обучении английскому языку.

Ключевые слова: английский язык, педагогические технологии, интерактивные методы, инновации, образование, лексика.

Today, the main focus is on the student, his personality and unique inner world. Therefore, the main goal of a modern teacher is to choose methods and forms of organization of educational activities students that optimally correspond to the set goal of personal development. In recent years, the issue of using new information technologies in schools has been raised more and more. It is not only new technical means, but also new forms and methods of teaching, a new approach to the educational process. The main goal of teaching foreign languages is to form and develop the communicative culture of schoolchildren, to teach them to practice a foreign language.

Popular methods of teaching and learning English and Internet resources were used in the research process. During the writing of the article, the principles of theoretical deductive conclusion, analysis and synthesis, logicality were used.

The possibilities of using Internet resources are huge. The Global Internet provides conditions for students and teachers located anywhere in the world to get any information they need: regional geographical materials, news in the life of young people, articles from newspapers and magazines, etc.

A number of didactic problems can be solved using the Internet in English in lessons:

- formation of reading skills and competencies using global network materials;
- improving the writing ability of schoolchildren;

- filling students' vocabulary; formation of students' motivation to learn English.

In addition, this work aims to explore the possibilities of Internet technologies to expand the horizons of schoolchildren, establish and maintain business relations and contacts with peers in English-speaking countries. The task of the teacher is to create conditions for practical mastery of the language for each student, to choose such teaching methods that allow each student to demonstrate his activity and creativity. The task of the teacher is to activate the cognitive activity of the student in the process of teaching foreign languages. Modern pedagogical technologies, such as collaborative learning, project methodology, use of new information technologies, Internet resources, help to implement a person-oriented approach in the educational process, individualization and differentiation of teaching, taking into account the abilities of children, their level of learning provides. Forms of working with computer training programs in foreign language classes include:

- learning vocabulary;
- practice pronunciation;
- teaching dialogic and monologic speech;
- teaching writing;
- development of grammatical events.

Students can take part in online tests, quizzes, contests, Olympiads, correspond with their peers in other countries, chat, videoconference, etc. Students can learn about the problem they are currently working on in a project. The meaningful basis of mass computerization is related to the fact that the modern computer is an effective tool for optimizing the conditions of mental work, in general, in any of its forms. The computer has one characteristic that defines its use as a tool for teaching others and as an aid in the acquisition of knowledge, and that is its inanimate nature.The machine can have a "friendly" relationship with the user and sometimes "support" him, but he will never show signs of anger and will not let you feel bored. In this sense, the use of computers is perhaps most useful in individualizing some aspects of teaching.

The main goal of learning a foreign language at school is the formation of communicative competence, all other goals (education, training, development) are implemented in the process of realizing this main goal. Communicative approach includes communication training and the formation of intercultural communication skills, which are the basis of Internet activities. Without communication, the Internet has no meaning - it is an international multinational, intercultural society, whose life is based on the electronic communication of millions of people around the world, talking at the same time - this is the number and size of the participants in it, the biggest conversation on. Attending a foreign language class for him, we create a real communication model. Currently, communication, interactivity, authenticity of communication, language learning in cultural context, autonomy and humanitarianism of education are given priority. These principles allow the development of intercultural competence as a component of communicative

competence.The ultimate goal of teaching foreign languages is to teach a free orientation in a foreign language environment and the ability to adequately respond to different situations, i.e. contact Today, new methods using Internet resources are opposed to traditional foreign language teaching.

To teach communication in a foreign language, you need to create real, real-life situations that stimulate the learning of the material and develop adequate behavior (that is, the so-called principle of communication authenticity). New technologies, in particular the Internet, are trying to correct this error. The communicative approach is a strategy that simulates communication aimed at consciously understanding the material and ways of working with it, creating psychological and linguistic preparation for communication. It is not particularly difficult for the user to implement a communicative approach on the Internet. A communicative task should invite students to discuss a problem or question, students not only exchange information, but also evaluate it. The main criterion that allows distinguishing this approach from other types of educational activities is that students independently choose linguistic units to form their thoughts. In the communicative approach, the use of the Internet is highly encouraged: its purpose is to interest students in learning a foreign language by accumulating and expanding their knowledge and experience. One of the main requirements for teaching foreign languages using Internet resources is to create interaction in the lesson, which is usually called interactivity in the methodology. Interactivity is "combination, coordination and completion of communicative goals and resulting efforts by means of speech”By teaching the real language, the Internet helps to build speaking skills and abilities, and also ensures genuine interest and therefore effectiveness in teaching vocabulary and grammar. Interactivity not only creates real situations from life, but also forces students to give appropriate answers to them in a foreign language. One of the technologies that provide student-centered education is the project method as a method of developing creativity, knowledge activity, and independence. The typology of projects is diverse. Projects can be divided into monoprojects, collective, oral, concrete, written and Internet projects.In actual practice, it is often necessary to deal with research projects, mixed projects with creative, practice-oriented and informational features. Project work is a multifaceted approach to language learning, covering reading, listening, speaking and grammar. The project method helps to develop active independent thinking of students and directs them to joint research work. In my opinion, project-based learning teaches children to cooperate, and learning to cooperate instills moral values such as mutual aid and empathy, builds creativity and activates students. In general, the inseparability of teaching and education is observed in the process of teaching the project.The project method develops students' communication skills, culture of behavior, the ability to form thoughts concisely and easily, tolerance of the opinions of communication partners, the ability to receive information from various sources, process using modern computer technologies, contribute to the emergence of natural needs creates a

language environment that grows. in foreign language communication. The project form of work is one of the most relevant technologies that allow students to apply the accumulated knowledge on the subject. Students expand their horizons, the limits of knowledge of the language, gain experience in its practical use, learn to listen and hear speech in a foreign language, understand each other when defending projects.

Children work with reference books, dictionaries, computers, and thus create an opportunity for direct contact with the real language, which does not provide language learning in the classroom only with the help of textbooks. Working on a project is a creative process. The student searches for a solution to the problem independently or under the guidance of the teacher, which requires not only knowledge of the language, but also a large amount of subject knowledge, creative, communicative and intellectual skills. In the course of foreign languages, the project method can be used within the program materials of almost any subject. Working on projects develops imagination, fantasy, creative thinking, independence and other personal qualities

TO modern technologies cooperation technology is also applicable. The main idea is to create conditions for active joint activity of students in different educational conditions. Children are united in groups of 3-4 people, they are given one task, while everyone's role is discussed. Each student is responsible not only for the result of his work, but also for the result of the whole group. Therefore, weak students try to find out what they do not understand from weak ones, and strong students try to make the weak ones understand the task thoroughly. And the whole class benefits because the gaps are closed together.

The introduction of information technologies into education will greatly diversify the process of information perception and processing. Thanks to the computer, the Internet and multimedia, a unique opportunity was created for students to absorb a large amount of information with further analysis and sorting. The motivational basis of educational activity is also expanding significantly. In the context of the use of multimedia, students receive information from newspapers, television, conduct self-interviews and hold teleconferences.The main criteria for assessing the level of knowledge of a foreign language in language portfolio technology is the test. The priority of this technology is to direct the educational process from the teacher to the student. The student, in turn, is consciously responsible for the results of his educational activity. The above technology leads to the gradual formation of students' skills of independent assimilation of information. In general, the language portfolio is multifunctional and contributes to the development of multilingualism.

References

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.

Internet resources

“BOBURNOMA” ASARI ASOSIDA KAYFIYAT KONSEPTINI IFODALASH

Begoyim Abdusattorova
Andijon Davlat Chet tillari instituti 2-kurs magistranti
begoyimabdusattorova@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda hozirda dolzarb bo’lgan konsept tushunchasi va “Boburnoma” asari orqali kayfiyat konsepti taxlil qilinadi. Konsept haqida umumiy tushunchalar berilib, asarda berilgan parchalar orqali kayfiyat konseptining umumiy tavsifi berilgan.

Kalit so’zlar: kayfiyat, konsept, g’azab, quvonch, ijobiy kayfiyat, tushkun kayfiyat, Boburnoma, tilshunoslik, kayfiyat semantikasi.

Annotation. This article analyzes concept of mood through “Baburnama” and concept that is controversial in linguistics. In this article general ideas are given about concept and general exposition of mood concept is expressed through passages of Baburnama.

Keywords; Mood, concept, anger, joy, positive mood, pessimistic mood, Baburnama, linguistics, semantics of mood.

Аннотация. В данной статъе анализируется понятие консепт, актуалъное в настоящее время в языкознании, и понятие настроения через творчество “Бабурнама”. В этой статъе даются общие представления о концепте, а общее изложение концепта настроения выражается через пассажи Бабурнамы.

Ключевые слова: Настроение, концепция, злость, радость, позитивное настроение, депрессия, Бабурнама, лингвистика, семантика настроения.

Kirish. Tilshunoslikda hozirgi davrda konsept tushunchasi dolzarb bo’lib, u mental tuzilma hisoblanadi va turli tarkibdagi va ko’rinishdagi bilimlar tuzilmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini hosil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo’lib xizmat qiladi. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo’lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo’ladi.

Asosiy qism: Fanda konsept tushunchasi turli yondashuvlar asosida yoritiladi. A.Vejbitskaya so’zlariga ko’ra, konseptlarni mantiqiy-tushunchaviy asosida o’rganish insonning “voqelik” olami haqidagi madaniy bog’langan tasavvurlarini aks ettiruvchi ideal olamidagi obekt sifatida talqin qilish yotadi. Ushbu nazariyaga ko’ra, konsept borliqdagi hodisa va obektlarning qanday tuzilganligi haqidagi tafakkur asosida yaratilgan tushunchani ifodalovchi fenomen sanaladi. Konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib,inson ongida “madaniyat qaymog’i” ni namoyon qiladi va shu orqali madaniyat inson mental olamiga kirib keladi. Integrativ yondashuv konseptlarni lingvistik,kognitiv,kulturologik,sotsiologik nuqtai nazarlari orqali o’rganishga imkon beradi.

Ko’p hollarda kayfiyat tushunchasini og’zaki ifodalash uchun stilistik vositalardan foydalaniladi. Ko’proq ifodalash uchun mo’ljallangan konseptsiyani ko’rib chiqishda mavzu asosiy 2 ta yo’nalishda ya’ni yaxshi va yomon ko’rinishda

bo'ladi. Konsept zamonaviy tilshunoslikning har ikki yo'nalishi uchun ham, ya'ni lingvokulturologiya va lingvokognitologiyada faol qo'llaniladi. Bevosita matn konsept ifodachisi bo'la oladi chunki unda individual-muallifiy yondashuv hamda milliy mentallik belgilari ham o'z aksini topadi. Konsept ikki tomonli xususiyatga ega. Avvalo madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, so'ngra inson konsept orqali madaniyatga kiradi. Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi va jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli manbalardan o'rganib chiqish jarayonida shuni bildimki, kayfiyat nisbatan uzoq davom etadigan shu bilan birga ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega hisoblanadi. Kayfiyat holatiga kiritilgan 2 ta muhim komponentni ta'kidlash joiz. Biror sabab yoki hodisa sabab ruhiy holatga ta'sir ko'rsatadi va shaxsning xulq atvoriga ta'sir qiladi.

Asosan kayfiyat tushunchasi birinchidan uni boshdan kechirayotgan subyekt va uning ortidagi motivga bevosita bog'liqdir. Kayfiyat semantikasi ikki shaklda ifodalangan tizim ya'ni yaxshi va yomon tizimga bo'linadi. Kayfiyat farqlanmagan umumiy fon sifatida [quvnoq yoki tushkun kayfiyat] yoki aniq farqlangan [zerikish, qayg'u, g'amginlik, qo'rquv yokida aksincha ishtiyoq, quvonch] asosida boshdan kechiriladi.Ijobiy kayfiyat quvonch, baxt, quvnoqlikni ifodalasa salbiy kayfiyatga qayg'u, g'azab, umidsizlik, nafrat kiradi. Misol uchun qayg'u so'zi orqali qayg'uli, qayg'uli kayfiyat. Masalan, kayfiyat konsepti quyidagicha ifodalanadi;

1. Shaxsning ruhiy xolatiga ma'lum vaqt davomida ta'sir qiluvchixissiy xolat.
2. Shodonlik, zerikish, qayg'u, xursandchilik.
3. Tushkun kayfiyat, yaxshi kayfiyat, eyforiya.

"Boburnoma" jimjimadorlikan yiroq, samimiy va sodda jumlalar orqali ifodalangan bo'lsada, biroq tarixiy voqealik bayonida shoh va shoir Boburning mahorati yaqqol sezilib turadi. Bobur har bir tarixiy voqeaning xayotiy-real bo'lishi uning kayfiyati yozilgan to'rtliklarida, davra suhbatlarida berilishi va shu hissiyotni kitobxon ko'z o'ngida kelishi va his etishi Boburning ancha mahoratli ekaniga dalolat.Misol uchun Boburnoma asarida Qosimbek qavchin haqida "**Royi va tadbiri bisyor yaxshi edi. Xeyli mutoyaba qilur edi"** (he used to make entertaining jokes) shunday yozadi. Bunda mutoyaba ya'ni mutoyiba so'zi orqali bu shaxsning xushchaqchaqlikka moyilligi borligi ifodalangan. Shu bilan bir qatorda til vositalari hissiy bo'yoqdor va neytral bo'lishi mumkin.

Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yamonroq nima bo'lmas emish [On hearing this, my state of mind was miserable indeed, for well is it understood that nothing in the word is worse than fear for one's life] "Boburnoma'' asaridan olingan bu parchada va uning ingliz tiliga qilingan tarjimasida g'arib va miserable so'zlari tushkun kayfiyatning ekspressiv ko'rsatkichi hisoblanadi, ya'ni bu so'zlardan foydalanish tufayli kayfiyatning tushkunligi ifodalanadi. Holat va state of mind so'zlari neytral hisoblanib na ijobiy na salbiy bo'yoqdorlikka ega.

Xisravshoh Qunduz qo'rg'onida edi. Inisi Valini bir pora o'bdon yigitlar bilan Ishkamish va Fulul va ul tog' domanalarig'a yiborib edikim, yana tashqaridin xaduk va tashvish bergay. Bu yerda ishlatilgan xadik va tashvish so'zi orqali bu yerda bo'layotgan hodisa qanchalik tusda ekanligini bilsh mumkin. Chunki bu so'zlar qo'rqinch kayfiyatini yana ham kuchliroq ifodalash uchun ishlatiladi.

"Boburnoma" asarida Boburning Umarshayx mirzo, Sultn Maxmud mirzo, Sulton Axmad mirzo, Boysunqur mirzo, Xusayn Boyqaro singari temuriy xukmdorlarning tab'i nazmi haqidagi taxlillari berilgan va Boburning bu shaxslarga bergan munosabatida ular to'g'risida ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik bo'lgan. Misol uchun Boysunqur mirzo haqidagi " ...nastaliq xatini xeyli xo'b bitur edi. Naqqoshlikda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. Odiliy taxallus qilur edi. She'riy devon tartib qilguncha bo'lmaydur edi.... Samarqandda Boysunqur mirzoning g'azallari oncha shoyidurkim, kam uy , bo'lg'ay erdikim mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi" bu so'zlarida yosh umri xazon Boysunqur mirzoning bir necha xil ilmu hunarni maromiga yetkazib o'rganganligi , devon tuzib ulgurmay g'azallarining xalq tomonidan suyib o'qilishi haqidagi berilgan ma'lumotlarda Boburning ham faxr, ham nadomat tuyg'ulari bor. Chunki Bobur bunday mahoratli insonning vaxshiylarcha Xusravshoh tomonidan o'ldirilganini "... mundoq xushta'b va purfazilat va xasab va nasab bila orosto podshohzodani shaxid qildi " deb yozadi. Hodisa esa shunday bo'lgan " Xisravshoh Balxga yurish qilish davomida Boysunqur mirzoni Qunduzga chaqirib oladi. U avboj degan joyga yetganda badbaxt, noshukur Xisravshoh hukmronlik orzusida shunday qildi:- Axir pastkash, qobiliyatsiz, zoti-yu nasabi notayin, no'noq va shijoatsiz, noinsof va adolatsiz bu badbaxtga hokimiyat xayf emasmi! Boysunqur mirzoni beklari bilan birga tutib, Boysunqur mirzo bo'yniga arg'amchi soldi. **Axir pastkash, qobiliyatsiz, zoti-yu nasabi notayin, no'noq va shijoatsiz, noinsof va adolatsiz bu badbaxtga hokimiyat xayf emasmi!** bu jumlani o'zida muallif orqali darg'azablik, nafratlanish ni kitobxon xis qilishi mumkin. Chunki bu yerda salbiy bo'yoqdorlik hissini ritorik so'roq gaplardan so'ng qo'llanilgan undov belgisi orqali yana ham oshirib shu holatni yaqqol namoyon qilish uchun ishlatilgan.

Xulosa. Hozirda tilshunoslikda eng ko'p uchrayotgan konsept atamasi haqida atroflicha o'rganish olib borish asnosida shuni bildikki bu mavzu juda chuqur va bir asar asosida konseptning bir qismi ya'ni kayfiyat konseptini ko'rib chiqdik. Bu asnoda Boburning qanday ichki kechinmalari bo'lsa mohirona kitobxonga yetib borgani va uning qanchalik shoirtabiat inson ekanligi to'rtliklarda, suhbatlarda misollar asosida kayfiyat konsepti bilan bog'liq tarzda o'rganib chiqishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Қаюмов, Х.Султанов, Б.Алимов. Халқаро Бобур фонди.-Т.: "O'qituvchi" НМИУ 2008.
2. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. –Т .: Шарқ,2007

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т .: Шарқ, 2002
4. Зоҳидов В. Бобурнинг фаолияти ва илмий-адабий мероси ҳақида. Бобурнома. – Т.: ЎзССР ФА нашри, 1960.
5. Хўжаев Ғ. “Бобурнома” анъаналари. // Адабий мерос. Т.: 1989.
6. Хасанов.Х. Бобур- сайёх ва табиатшунос-Т; Ўзбекистон.1983

IMPORTANT AREAS OF ORGANIZATION OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH

Shakhnoz Khikmatovna Samieva
Associate professor of the Bukhara Institute of engineering and technology, candidate of Pedagogical Sciences
samieva-1978@mail.ru

Annotation. The economic development of the New Uzbekistan depends primarily on the quality of personnel trained in higher education, and the reforms carried out in recent years have once again proved the relevance of this issue. In order for modern education to progress to the required level in higher educational institutions, the provision of a material and technical base in addition to educated and high-potential professors and teachers, the application of digital technologies to the educational process is one of the important factors.

Keywords: higher education, innovation education, modern personnel, management, strategic planning.

Аннотация. Янги Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши, аввало, олий таълим тизимида тайёрланаётган кадрлар сифатига боғлиқ бўлиб, сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар бу масаланинг долзарблигини яна бир бор исботлади. Олий таълим муассасаларида замонавий таълим талаб даражасида ривожланиши учун билимли ва юқори салоҳиятли professor-ўқитувчилардан ташқари моддий-техник базани таъминлаш, ўқув жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш муҳим омиллардан биридир.

Калит сўзлар: олий таълим, инновацион таълим, замонавий кадрлар, менежмент, стратегик режалаштириш.

Аннотация. Экономическое развитие Нового Узбекистана зависит в первую очередь от качества кадров, подготовленных в системе высшего образования, и реформы, проведенные в последние годы, еще раз доказали актуальность этого вопроса. Для того, чтобы современное образование в высших учебных заведениях развивалось на требуемом уровне, обеспечение материально-технической базы в дополнение к образованным и высокопотенциальным профессорам и преподавателям, применение цифровых технологий в образовательном процессе является одним из важных факторов.

Ключевые слова: высшее образование, инновационное образование, современные кадры, менеджмент, стратегическое планирование.

The future of Uzbekistan and its prosperity are first determined by the development of Science and the development and improvement of education, therefore, from the first years of independence, the issues of Science, Education and training and training of modern personnel were paid attention as a priority of the policy of our state.

Developed countries in the world have organized the development of various spheres of their activity, including the educational and educational sphere, on the

basis of relevant national models. Improving the quality of Independent Education in the world is one of the important features of youth in finding a successful place in society. In particular, in the concept of Universal Education adopted until 2030, the idea of “creating an opportunity for quality education throughout life” is aimed at developing the necessary competencies, creative creativity, research, logical thinking through modern education of young people, continuous improvement of skills of independent work.

Strategic planning is the basis for the development of any socio-economic sphere, which today requires the necessary condition for the formation of an innovative economy, the modernization of the higher education system, which is a factor of the country's well-being and security.

Today, New Uzbekistan is being built on the basis of the principle of” society and a nationalistic state in which human value is a priority." In particular, the implementation of the tasks set in the development strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026, the level of qualitative development of society depends on the growth of its intellectual, cultural and spiritual potential, and the role of education in this process is invaluable.

The 21st century is a period of thinking and honest work for believing, religious youth with a healthy outlook in New Uzbekistan. Especially the doubt that the high human qualities and qualities inherited from our ancestors to us are embedded in the upbringing of young people, and their service in the formation of spiritually mature, potential, intelligent and harmonious is immeasurable burden.

In the era of global crises observed in countries around the world, each person must first of all act conscientiously to correctly analyze the situation and make ways out of it. Including, no matter what profession they have, they should act in harmony. The role of educators in this regard is great. Having correctly interpreted such situations to the emerging new generation, we must form in them an unshakable will and culture.

The development of the country is determined by qualified specialists, it is impossible to raise society without the cultivation of personnel who meet the requirements of the time, occupy the achievements of Advanced Science and technology. The system of Continuing Education, established on the basis of the law “on Education”adopted in 2020 and the concept of the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the mechanism for the formation of a comprehensively educated, intellectual potential, high spirituality, harmonious generation serves as an important factor in the establishment and development of a strong Democratic It is known that educational reforms are one of the most important and decisive directions of socio-economic reforms carried out in our country. "There are interruptions between higher education and science and production, integration is not provided, research institutes are not involved in the process of training personnel in higher education at the required level, scientific research is carried out in them without proceeding from the real needs of the economic spheres. Systematic unpreparedness of highly

qualified scientific and scientific-pedagogical personnel leads to a decrease in the scientific potential of higher educational institutions"[2].

As New Uzbekistan follows the path of building a legal democratic society, it pays special attention to the spiritual and moral formation of its citizens, especially the growing generation, who are determined to build a new society. The organization of the upbringing of a harmonious personality has been an important requirement and the main goal of social society at all times.

In the progressive development of society, Higher Education and educators are of high importance, and as a person shaping the future of Education, Science and culture, one should highly assess his position in the life of society. Nowadays, it is very important to realize that with the transition to a new stage in the development of Science and society, the requirements of modern society for a teacher are growing, while its contribution to the development of this society is also increasing.

Today, the issue of digitalization and development of the system of Higher Education on a global scale, including in our country, has been raised to the state level, and large-scale measures are being implemented in this regard. In the conditions of Uzbekistan, the study of laws, trends and opportunities for the development of the digital economy, in particular, the degree of penetration of information technology into various sectors of the economy on a scientific basis, is extremely relevant.

Within the framework of the" Digital Uzbekistan – 2030 " strategy, the following works should be carried out to ensure the stability of the socio-economic development of the Republic of Uzbekistan, to digitalize the national economy at an accelerated pace, relying on world experience:


- formation of the regulatory framework for the development of the digital economy;
- introduction of the latest digital technologies as possible in the modernization of all sectors and sectors of the national economy;
- acquisition, installation of communication tools, machinery and equipment based on the latest digital technologies and improving the skills of local personnel to work in them;
- development and maintenance of personnel policies aimed at the development of the digital economy, starting from the system of preschool education to the system of education after higher education.

The rapid development of digital technologies leads to radical changes not only in the economy, but also in society.

No matter what type and stage of economic sectors and education are, it relies on the basis of a quality criterion in its survival and implementation in the conditions of a market economy, therefore, the provision of quality in the field of Higher Education ultimately leads to the training of mature personnel. In this regard, world experiences are also being studied in our country, which in turn testifies to the fact that higher education in Uzbekistan, as a component of World

higher education, has found its place in globalization processes. It seems to us that such processes should be further studied by the scientific community, and, consequently, the need for a complete understanding and interpretation of the essence of quality has arisen. It is advisable to critically analyze the world experience[6].

The strategic goal of state policy in the field of higher education in our country is to develop an innovative economy, to implement a high-quality education system that meets the modern needs of society and youth.



One of the most important conditions for the implementation of this strategic goal is the involvement of students and teachers in fundamental and Applied Research in the higher education system, the introduction of financial investments in education, this process allows the cultivation of a new generation of researchers focused on the modern economy and provides for the solution of the following priority tasks:

- establishment of the innovation system of education, including the formation of intersectoral research centers in higher educational institutions;
- ensuring a competency-based approach, the interconnection of academic knowledge and practical skills, the continuity of education with production;
- increasing the amount of funds allocated to the financing of scientific research in higher educational institutions;
-identification of talented young people, their involvement in scientific research and improvement of the support system;
- development and implementation of corporate programs in cooperation with production enterprises for the professional development and retraining of continuing professional personnel;
- development of a mechanism for participation in international research through the formation of mechanisms for assessing the quality and demand of higher education in cooperation with production enterprises;
- ensuring the participation of consumers and state organizations in monitoring and assessing the quality of Higher Education;

- formation of a network of world-class scientific and educational centers that solve the tasks of advanced scientific research and educational programs, developer of innovative projects, research;

- to develop innovative programs for the development of the economy based on the integration of Education, Science and production activities[4].

Training of highly qualified and competitive personnel in the higher education system of our country is one of the most important tasks of this system. The effective solution of this task is not without the great influence of socio-economic reforms carried out in our country and ensuring the achievement of goals for the radical reconstruction of the life of our society. Because, as is known from practice, the effectiveness of any socio-economic change is directly dependent on the professional maturity of professionals who are mobilized to perform the tasks set in this regard[3].

Young people with modern knowledge, skills and abilities can build a harmonious society, therefore, now, looking at young people as a component and a specific group of society, it is necessary to analyze the state of their comprehensive development and formation within the framework of this society, based on its internal characteristics. Since young people embody both strong and weak aspects in the social sense, they are characterized, on the one hand, by social activity, a high degree of impressionability and a craving for news, a need for ideals, a thirst for creative reconstruction of the universe, being, curiosity, and on the other, impatience, reckless criticism, aspects of denying everything are visible.

Arming every young specialist with thorough scientific and theoretical knowledge, applying the acquired scientific knowledge in practical activities, acquiring skills and abilities, upbringing is definitely not an easy task. Raising young people who look at learning with a scientific, conscious attitude, think independently, who need to master excellent information, who embody cognitive activity and the culture of mental work is an important and State - important task.

The essence of development and its pace in all periods of the development of society has been tied to the level of spiritual maturity of people. A spiritual person was considered the power power of a People, Society, state and was defined as a powerful force that enriches his inner world, strengthens his will, faith, evokes his conscience. So what kind of bunyod does this magical power, this Botanic power come to?

At the same time, when spiritual maturity is high, society develops, the economic, social, political process facing the New Uzbekistan is closely related to improving the work of education and upbringing.

Only people who have a life faith of spiritually perfect, noble ideas can build a new Uzbekistan. Therefore, in our renewed society, significant attention is paid to the upbringing of a healthy generation, the formation of free civic spirituality, the upbringing of harmonious people by raising spiritual and educational work to a high level. The radical reform of the system of Education, forming the spirituality

of the younger generation in our country, are also important steps towards the implementation of this ambitious goal.

Taking into account the modernization of the educational system in our country, its structural development, modern achievements of Education, Science, Technology and technology, economics and culture at the world level, education provides for the introduction of innovations in programs. The widespread adoption of advanced technologies in education, the integration of continuing education with science and production, the introduction of a differentiated approach to education in accordance with the capabilities and capabilities of young people, and the development of advanced pedagogical technologies of teaching, didactic support of the educational process require the improvement of the Educational Management System[7].

In recent years, the break between the dramatically changed life conditions and the higher education system, the types and content of its goals has become noticeable, and the social problems that need to be solved in the process of modern personnel training have become transverse. These are:

- a change in attitude towards the creative and intellectual abilities of young people;
- growth in demand for modern education;
- the inconsistency of modern personnel in demand, due to changes in the requirements of society, the variability of training and adaptation to labor conditions,
- the fact that young people do not have a comprehensively developed and personal independent opinion is such a problem as a lack of professional skills.

Without establishing quality education in the system of higher education and successfully mastering scientific and technical achievements, it is impossible to move on to the path of rapid development of the economy. In particular, the constant and rapid change of technologies, innovations in the information, as well as in the socio-economic sphere are the world education it is generating a gradual change in the system. The uncertainty and variability of socio-economic processes in the world requires the development of skills and abilities in modern education, which, in addition to obtaining knowledge, allows young people to work as efficiently as possible in a rapidly changing environment.

One of the main tasks of these educational institutions is to improve the educational process in the system of higher education, develop requirements for their training at the level of qualified personnel, content and development of scientific and creative training of students in higher educational institutions[4].

The sphere of higher education is the main and decisive branch of the national economy, therefore, for the successful development of modern education in our country and the development of youth in science, research skills, the following are the necessary indicators:

- popularization and support of research work of talented youth,

- to establish an effective mechanism for the development of higher education institutions as an Innovation Center in the region and areas;

- coordination of existing directions and specialties in the system of higher education with new needs of production;

- modernization of the educational system, including the introduction of adaptive, practice-oriented and flexible educational programs;

-to update the professional knowledge of the student-youth and create conditions for the acquisition of professional skills.

The purpose of modern education is to teach students and young people to set and solve strategic tasks, for this it requires modern education, creative thinking, effective organization of research activities, regular movement in the information space. All of the above-mentioned areas are closely related to the modernization of the educational system and serve to strengthen the importance of disciplines in the direction and specialty of education, to train qualified personnel for sectors of the economy, to train personnel with scientific potential.

List of used literature

1. Development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026.
2. Resolution of the president of the Republic of Uzbekistan dated July 27, 2017 No. 3151 PP-3151 “on measures to further expand the participation of sectors and sectors of the economy in improving the quality of training of specialists with higher education”.
3. Malika Mukhamadjonovna Parpieva operates innovation in improving the quality of the education system // Academic research in educational sciences. 2021. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/
4. Hikmatovna, Samieva Shakhnoz, et al. "Professional Development of the Teacher's Personality in the System of Secondary Special Vocational Education." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 2946-2949.
5. ЕВРАЗИЙСКАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ КОМИССИЯ: Департамент промышленной политики. “Анализ мирового опыта развития промышленности и подходов к цифровой трансформации промышленности государств-членов Евразийского экономического союза”. Москва. —2017
6. Кешелава А.В. (2017) Введение в «Цифровую» экономику/ А.В. Кешелава В.Г. Буданов, В.Ю. Румянцев и др.; под общ. ред. А.В. Кешелава; гл. «цифр.» коне. И.А. Зимненко. - ВНИИГеосистем, 2017. - 28 с.
7. Куприяновский В.П., Намиот Д.Е., Синягов С.А ва бошқалар “Оптимизация использования ресурсов в цифровой экономике”. International Journal of Open Information Technologies ISSN scientific journal. —2016.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛАРИНИ КРЕАТИВ ФИКРЛАШ ОРҚАЛИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ САМАРАЛИ ЙЎЛЛАРИ

Ф.Ф. Нарзуллоева
Бухоро муҳандислик-технология институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада олий таълим муассасалари талабаларида креатив ёндашув асосида иқтисодий билимларини такомиллаштиришнинг инновацион йўллари ҳамда ушбу фаолиятни самарали ташкил этиш усул ва воситаларини ишлаб чиқиш ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, инновация, креатив ёндашув, педагогик фаолият, олий таълим.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные пути совершенствования экономических знаний студентов высших учебных заведений на основе креативного подхода, а также разработка методов и средств эффективной организации данной деятельности.

Ключевые слова: экономика, инновации, креативный подход, педагогическая деятельность, высшее образование.

Annotation. This article discusses innovative ways to improve the economic knowledge of students of higher educational institutions based on a creative approach, as well as the development of methods and means of effective organization of this activity.

Keywords: economics, innovation, creative approach, pedagogical activity, higher education.

Ҳозирги замон глобаллашув шароитида ҳар бир соҳада тубдан ўзгаришлар кузатилмоқда, жумладан олий таълим тизимида ҳам талабаларда креатив фикрлаш сифатларини шакллантириш масаласига алоҳида, жиддий эътибор қаратилмоқда. Жамиятдаги барча корхона, ташкилотларда инновацион ҳамда креатив фикрлашга зарурат туғдирадиган глобал муаммоларни ҳал қилиш учун инновацион билим ва яратувчанлик қобилиятига тобора эҳтиёж сезилмоқда.

Талаба шахсининг мутахассис сифатида етук касбий камол топиши, ривожланиши ўз моҳиятига кўра тизимли ижодий жараён тарзида намоён бўлади. Ижодкор шахснинг шаклланиши ва ривожланиши унинг ички ва ташқи олами ўзгаришининг ўзаро мос келиши, ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлар ҳамда инсон онтогенези - туғилишидан бошлаб, то умрининг охирига қадар узлуксизлик, ворисийликни тақозо этадиган фаолият мазмунига боғлиқ. Таълимнинг асосий роли талабаларни жамиятда муваффақият қозониш учун зарур ва керак бўладиган сифатли таълим бериш ҳисобланса, креатив фикрлаш ҳозирги ёшларнинг ривожланиши учун зарур эҳтиёж бўлиб ҳисобланади.

Маълумки, касбий тажриба билим, кўникма ва малакаларнинг интеграцияси сифатида акс этади. Бироқ, касбий-ижодий фаолият кўникмаларининг ўзлаштирилиши нафақат амалий кўникма ва

малакаларнинг интеграцияси, мутахассис сифатида фаолиятни самарали ташкил этиш усул ва воситаларини ишлаб чиқишни, шу билан бирга касбий ижодкорлик методологиясидан, замонавий билимлардан хабардор бўлиш, ижодий тафаккурни ривожлантириш ва креатив характерга эга шахсий сифатларнинг етарли даражада ўзлаштирилишини талаб қилади.

Креативлик (лот, инг. «create» - яратиш, «creative» яратувчи, ижодкор) - индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрлигини тавсифловчи ҳамда мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти маъносини белгилайди.

Креатив фикрлаш эса – бу инновацион (янги, новатор, оригинал, ностандарт, ноодатий ва ҳоказо…) ва самарали (амалий, натижавий, тежамли, оптимал ва ҳоказо) ечимларни топиш, янги билимларни эгаллаш, тасаввурни таъсирчан ифодалашга қаратилган ғояларни ишлаб чиқиш, баҳолаш ва такомиллаштириш жараёнида самарали иштирок этиш қобилиятидир.

Ижодкор шахснинг шаклланишини шахснинг ўзаро мос тарзда бажарилган ижодий фаолият ва ижодий махсулотларни яратиш борасидаги ривожланиши сифатида белгилаш мумкин. Ушбу жараённинг суръати ва қамрови биологик ва ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги ва креатив сифатлари, шунингдек, мавжуд шарт-шароит, хаётий мухим ва касбий шартланган ходисаларга боғлиқ. Замонавий шароитда педагогнинг креативлик сифатларига эга бўлиши тақозо этилади. Талабанинг креативлик сифатларига эга булиши унинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қувватини, касбий фаолиятини сифатли, самарали ташкил этишга йўналтиради.

Олий таълим тизимида ўкиш фаолиятида бўлган талабалар креатив фикрлаш сифатларига эга бўлишлари учун уларда ўқув ва тарбия жараёнларида анъанавий ёндашишдан фарқли ўлароқ танқидий фикрлаш методларини ҳам билишлари лозим.

Талабаларда иқтисодий билимларни креатив фикрлаш орқали шакллантиришда профессор-ўқитувчилар маҳорати ҳамда ўзидаги ноанаънавий ғоялари алохида ўрин тутади. Ваҳоланки, ўқитувчи аудиторияда талабалар ўзини эркин сеза оладиган ва ўз фикрлари, ғоялари билан бўлиша оладиган мухит яратиши лозим. Талабалар креативликни аудиторияда ўз иқтисодий ғоя ва фикрларини турли йўллар билан ифода этишлари лозим.

Талабалар онгида юз бераётган жараёнларни янада фаоллаштириш учун ўрнатилган қонун-қоидалар, стандартлардан четга чиқиб, турли саволларга жавоб беришда эркин ҳаракат қилишлари керак. Педагог талабалардаги креативликни ноодатий ғояларни ўртага ташлаш ва уларни вербал ва новербал тарзда рағбатлантириш орқали қўллаб-қувватлайди. Педогогнинг талабалар бераётган креатив ғояларига нисбатан тўғри муносабати уларнинг мумкин бўлган ва мумкин бўлмаган шартларни англашида муҳим ахамиятга

эга. Мазкур элементларнинг барчаси ўқитувчи-талаба муносабатининг мухим қисми бўлиб, талабалар муваффақиятини таъминлайди.

Муайян омиллар талабаларда креатив фикрлаш малакаларини ривожлантиришга тўсқинлик килади.

Креатив фикрлаш талабаларга муаммоларни ҳал қилишда ноодатий, кутилмаган ечим топишга ёрдам беради. Бироқ биз уни танқидий фикрлаш билан адаштириб юбормаслигимиз, аксинча, бизга имконсиз муаммоларни ҳал қилишда бир-бирини тўлдириб турувчи ечимларни топишда ёрдам берадиган “ака-укалар”дек қарашимиз керак.

Ҳар бир талабада таълим олишга бўлган истак бор. Фақатгина биз шу истакнинг бошланғич нуқтасини топишимиз керак.

Талабаларнинг биргина иқтисой билимларга бўлган эҳтиёжини оладиган бўлсак, улардаги қизиқувчанлик одатий назарий билимлар билан етарлича қондира олинмайди. Таълимда замонавий қарашлар креатив фикрлаш каби ғоялар кириб келиши билим олувчилар учун самарали йўл бўлиб хизмат қилмоқда.

Педагогнинг креативлик сифатларига эга бўлиши унинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қувватини касбий фаолиятни сифатли, самарали ташкил этишга йўналтиради. Олий таълим тизимида фаолият юритаётган педагогларнинг креативлик сифатларига эга бўлишлари уларда ўқув ва тарбия жараёнларини ташкил этишга анъанавий ёндашишдан фарқли янги ғояларни яратиш, бир қолипда фикрламаслик, ўзига хослик, ташаббускорлик, ноаниқликка тоқат қилмасликка ёрдам беради. Бинобарин, креативлик сифатларига эга педагог касбий фаолиятини ташкил этишда ижодий ёндашиш, янги, илғор, талабаларнинг ўқув фаолиятини, шахсий сифатларини ривожлантиришга хизмат қиладиган ғояларни яратишда фаоллик кўрсатиш, илғор педагогик ютуқ ва тажрибаларни мустақил ўрганиш, шунингдек, ҳамкасблар билан педагогик ютуқлар хусусида доимий, изчил фикр алмашиш тажрибасига эга бўлишга эътибор қаратади.

Одатда педагогларнинг креативлик қобилиятига эга бўлишлари педагогик муаммоларни ҳал қилишга интилиш, илмий-тадқиқот ишлари ёки илмий лойиҳаларни амалга ошириш ва ўзаро ижодий ҳамкорликка эришишлари орқали таъминланади.

Педагог ўз-ўзидан ижодкор бўлиб қолмайди. Унинг ижодкорлик қобилияти маълум вақт ичида изчил ўқиб-ўрганиш, ўз устида ишлаш орқали шакллантирилади ва у аста-секин такомиллашиб, ривожланиб боради. Ҳар қандай мутахассисда бўлгани каби бўлажак педагогларнинг креативлик қобилиятига эга бўлишлари учун талабалик йилларида пойдевор қўйилади ва касбий фаолиятни ташкил этишда изчил ривожлантириб борилади. Бунда педагогнинг ўзини ўзи ижодий фаолиятга йўналтириши ва бу фаолиятни самарали ташкил эта олиши муҳим аҳамиятга эга. Педагог ижодий фаолиятни ташкил этишда муаммоли масалаларни ечиш, муаммоли

вазиятларни таҳлил қилиш, шунингдек, педагогик характердаги ижод маҳсулотларини яратишга алоҳида эътибор қаратиши зарур.

Муаммоли масала ва вазиятларни ҳал қилар экан, педагогнинг масала ечимини топишга ижодий ёндашиши унда ҳиссий-иродавий сифатларнинг ривожланишига ёрдам беради. Педагог ўз олдига муаммоли масалаларни қўйиш орқали мавжуд билимлари ва ҳаётий тажрибаларига зид бўлган далиллар билан тўқнаш келади. Бунинг натижасида ўз устида ишлаш, мустақил ўқиб ўрганишга нисбатан эҳтиёж сезади. Педагогнинг илмий-тадқиқот ишлари ва илмий ёки ижодий лойиҳаларни амалга ошириши унда креативлик потенциалини янада ривожлантиради.

Иқтисодий билимнинг барча босқичларида ўқув дастурларининг изчиллиги ва ўзаро мувофиқлиги таъминланди, “Иқтисодий билим асослари” ўқув дастурларида умумий ва қўшимча таълимнинг интеграциялашувини, шу билан бирга ўқитиш мазмуни-моҳиятини реал ҳаётий эҳтиёжларга максимал даражада яқинлаштириш кўзда тутилади.

Таълим жараёнидаги креативлик талабаларда ўқишга кизикишларини орттирувчи креатив саволлар тузиш, турли расм, тасвир, жадвал, диаграмма, рамзий ифодалардан фойдаланиш, таълим олувчиларга баён этилаётган ўқув ахборотлари билан мутлақо алоқаси бўлмаган ғоялар ўртасидаги ўзаро боғликлиликни топиш каби вазифаларни бериш, кичик кичик гуруҳларда ишлашларини таъминлаш каби харакатларда акс этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Гревцева, Г. Я., Олимов, Ш. Ш., Абдуллаев, К. Ф., & Самиева, Ш. Ҳ. ОБЩАЯ ПЕДАГОГИКА.

2. Самиева Ш., Шодмонова М., Рахматова Г. ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИДА БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАР ИЖОДКОРЛИК ВА ЛОЙИҲАЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ: Самиева Шахноз Хикматовна, педагогика фанлари номзоди, Бухоро муҳандислик-технология институти доценти Шодмонова Мижгона Салимовна, Бухоро муҳандислик-технология институти стажёр-тадқиқотчиси Рахматова Гулмира Насилло қизи, Бухоро муҳандислик-технология институти стажёр-тадқиқотчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 154-162.

3. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. OLIY TALIMDA STRATEGIK FIKRLASH VA KREATIV BOSHQARISH ASOSIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM YONALISHLARI: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. АВАЗБОЕВ А.И., ПАРДАБОЕВ Ж.Э. ТАЛАБАЛАРДА КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ ЙУЛЛАРИ
2. Усмонбоева, А.Тураев, Креатив педагогика асослари. Укув-услубий мажмуа. -ТСПУ, 2016.

O’QUVCHILARDA ILMIY TUSHUNCHALARNI TO’G’RI TARKIB TOPISHIDA FIKRLASH JARAYONLARI VA SHAKLLARINING AHAMIYATI

Akmaldinova Feruza Inoqjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’quvchilarda ilmiy tushunchalarni to’g’ri tarkib topishida fikrlash jarayonlari va shakllarining ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** o`quvchi, boshlang`ich ta`lim, tafakkur, mantiq ilmi, fikrlash, mustaqil yondashuv, bilim.

Abstract. This article talks about the importance of thinking processes and forms in finding the correct content of scientific concepts in students.

Key words: student, primary education, thinking, science of logic, thinking, independent approach, knowledge.

Абстракт. В данной статье говорится о значении процессов и форм мышления в поиске правильного содержания научных понятий у учащихся.

Ключевые слова: школьник, начальное образование, мышление, наука логика, мышление, самостоятельный подход, познание.

O’quvchilarda ilmiy tushunchalarni to’g’ri tarkib toptirish uchun o’qituvchi bola taffakurrining rivojlanish xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini puxta anglab olgan bo’lishi kerak. Fikr yuritish operatsiyalarining psixologiya asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, u bularni o’quvchilar ongiga singdira olishi mumkin emas.

Tushunchalarni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri ularni umumlashtirishdir. Umumlashtirish operatsiyalari muhim sharti narsa va hodisalar o’rtasidagi umumiylik, o’xshashlik, xarakterli xususiyat, bog’lanish va o’zaro munosabatlarning muhim belgilarini topishdir. Borliqdagi narsa va hodisalarni muhim belgilari bo’yicha umumlashtirishdan oldin, o’sha voqelikni ko’zga yaqqol tashlanib turgan tashqi belgilari bo’yicha umumlashtirishni bilish kerak. Buni hissiy bilish orqali konkret umulashtirish deyiladi. Bu davrga kelib narsa va hodisalarning tashqi belgisi, asosan, umumlashtirish o’quvchi bilimi qobig’iga sig’may qoladi. Endigi navbat o’qitish jarayonida ularning bilimlariga, saviyalariga mos keladigan umumlashtirishni yuqoriroq darajasiga ko’chirishni taqozo etadi.

O’quvchilarning umumlashtirish faoliyati o’qitishning turli bosqichlarida bir xilda bo’lmaydi: o’qitishning dastlabki bosqichlarida u sodda (elementar holda) bo’lib, faqat o’xshashlik belgisi asosiga qurilgan bo’ladi. Keyinroq narsa va hodisalarning tashqi sifati hamda xususiyatiga taalluqli belgilarni guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya qilishga suyanadi. Boshlang’ich sinfning oxirida, o’quvchilar narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, ularning ichki murakkab bog’lanishlari va munosabatlarining muhim belgisiga asoslanib umumlashtirishga ko’chadilar. Birinchi va ikkinchi sinf o’quvchilari

buyumlarining o'ziga beixtiyor tortuvchi tashqi belgilariga tayanib fikr yuritishni amalga oshiradilar: o'quvchi quyosh, momaqaldiroq, sigir, avtomobilb, qush va boshqa narsalar to'g'risida fikr yuritishi davomida "quyosh yoritadi, isitadi...", "momaqaldiroq guldiraydi, chaqmoq chaqnaydi", "qush sayraydi" - deya mulohaza yuritadi. Ularning har turli "sigir sut beradi", "avtomobilb yuk tashiydi", "qushlar, buyum va narsalar" to'g'risidagi muhokamalarida dastavval ana shu narsalarning xilma-xil harakatlari va ularga nisbatan bo'lgan harakatlar vujudga keladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari jism va predmetlarning muhim ichki belgilarini bevosita aniqlash kezida qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki ular muhim, muhim bo'lmagan, umumiy, xususiy, yagona singari termin hamda tushunchalarni anglab yetmaydilar. Bilish jarayoni ko'pincha tashqi belgilarga, konkret alomatlarga qaratilgan bo'ladi. Ana shuning uchun kichik maktab o'quvchilari oldida murakkab vaziyat yuzaga kelib turadi. Unday holatdan chiqish uchun ularning aqliy imkoniyatlari, turmush tajribalari yetishmaydi.

Rus psixologi R.G.Natadze tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kit va delbfinni baliq deb qisoblaganlar, keyinchalik esa kitning havo bilan nafas olishi, sut emizuvchi hayvon ekanligi atroflicha tushuntirilgandan so'ng ham o'z shaxsiy fikrini to'la-to'kis o'zgartirmaganlar, ya'ni sinaluvchilarning ko'pchiligi eksprimentator so'ziga ishonqiramay qaraganlaricha qolganlar. Bu konkret fakt yana bir marotaba mazkur yosh davrdagi bolalarda umumlashtirish jarayoni ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi tashqi belgilarning kuchli iskanjasi ostida sodir bo'lishini tasdiqlab turibdi. Matematik topshiriqlarni bajarish kezida ham ularda ana shunday elementlar yoki noto'g'ri umumlashtirish holatlari uchrashini kuzatish mumkin.

Shveytsariyalik psixolog Jan Piajening ko'p yillik tajribalarining dalolat berishiga qaraganda, ushbu yoshdagi o'quvchilar narsalarning o'zgarishsiz qoladigan ba'zi belgilarining doimiyligini darrov anglab ololmaydilar. Jumladan, agar xamirdan bir xil ikkita zuvala qilinib, so'ngra ularning biridan kulcha yasalsa, 7-8 yoshli o'quvchilar xamirning miqdori bir xilda bo'lmay qoldi, deb hisoblaydilar. Hajm o'zgargani uchun ular zuvalaning oqirligi o'zgaradi deb xulosa chiqaradilar. J. Piajening muloqazasiga binoan, bu holat-bola tafakkurining birdan- bir eng asosiy xarakterli xususiyatidir.

Xuddi shu tadqiqotchining boshqa tajribalarida ko'rsatilishicha, bolalar turli belgilar ustida ishlaganlarida o'zgarmaslik (doimiylik) tushunchasini bir vaqtning o'zida egallab olmas ekanlar. Bolalar narsalar sonining o'zgarmas tushunchasini o'rta qisobda 7-8 yoshda, og'irlikning o'zgarmas tushunchasini 9-10 yoshda, hajmning o'zgarmasligini esa faqat 11-12 yoshda tushunib yetadilar. Lekin rus psixologlarining ilmiy tekshirishlariga ko'ra, J. Piaje olgan natijalar qozirgi davr talabiga javob bera olmaydi.

O'quvchilar uchinchi sinfga o'tganlaridan keyin o'zlarining umumlashtirish, klassifikatsiyalash faoliyatlarida moddiy dunyodagi voqelik o'rtasidagi eng muhim munosabat, uzviy zaruriyat va bog'lanishlarni aks ettirishiga qodir bo'lgan ichki,

murakkab belgilarga tayanib ish tutadildar. Jumladan, ular suv, havo, metall va boshqa jismlarning issiqdan kengayishi va sovuqdan torayishi xususiyatini umumiy, muhim alomatlari va jihatlariga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari o'simliklarning hayot kechirishi, rivojlanishi va ko'payishi, shuningdek voyaga yetishi kabi umumiy belgilarga suyangan holda "jonli tabiat" tushunchasini umumlashtiradilar.[11]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikr yuritishlarini qiyoslash uchun ularning mulohazalaridan misollar keltiramiz: "Shaftoli daraxti issiq iqlimli joyda o'sadi" (1-sinf o'quvchisi), "Paxta dalada o'sadi, uni jamoa xo'jaligidagi ishchilar yetishiradilar, terib oladilar, so'ng undan kiyim-kechak tayyorlanadi" (2-sinf o'quvchisi), "qarag'ay igna bargi daraxt hisoblanib, o'rmonlarda o'sadi, qarag'ayda bujurlar mavjud, qarag'ay o'rmonlarida olmoxonlar yashaydilar. Olmoxonlar qarag'ay bujurlarini chaqib ichidagi mevasini yeydilar qishda ko'm-ko'k turadi" (3-sinf o'quvchisi).

O'quvchilarning yuqoridagi mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, jonli predmetlarga nisbatan bildirilgan alomatlarda aniqlik yetishmaydi, muhim belgilar miqdori esa haddan tashqari kam. Ular o'simliklarga xarakteristika berganlarida, daraxtlarning qaysi turga oidligi, qanday zonalarda o'sishi, inson hamda hayvonot olami uchun qanchalik foyda keltirishini ta'kidlab o'tadilar, xolos. Ammo birinchi darajali xususiyatlar, ichki boqlanishlar, qonuniyatlar va xossalar ahamiyatiga e'tibor berilmaydi.

Ayrim rus psixologlari ta'biri bilan aytganda, bu umumlashtirish usuli o'quvchilardan passiv harakat qilishi taqozo etib, boshqa usulga nisbatan ta'limga yetarli darajada ta'sir etmas emish. Aslida bo'lsa, bu usulning o'qitish samaradorligini oshirishda muhim rolb o'ynajagi hech kimda shak-shubha tug'dirmasa kerak. Bu yerda so'z usullarini taqqoslash ustida emas, balki boshqa narsa ustida yuritilyapti. Usulning foydali tomoni shundan iboratki, bunda bolalar narsa va hodisalarning muhim belgisini muhim bo'lmagan belgisidan ajratishni o'rganadilar. O'ylaymizki, bu narsa ta'limning eng zarur elementi sifatida muhim o'rin egallaydi. Birinchi sinf o'quvchilarining tafakkuri quyidagicha rivojlantirilsa, u holda samarali natijalar berishi mumkin.

O'quvchining "Bu nima?", "nega bunday?" degan savollariga o'zi javob berishga o'rgatish kerak. Bu o'rinda asosiy vazifa unga to'g'ri ko'rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to'g'ri mulohaza yuritishga ko'maklashishdan iboratdir. Masalan: "5" raqami qanday bo'laklardan tuzilgan? Bir juft so'zdan gap tuzish mumkinmi? 3 va 2 sonini yaxlitlab ko'r-chi? To'rt tayoqchadan to'rtburchak yasa-chi? Meva xususiyatini so'zlab ber-chi? Yirtqich hayvonlar qanaqa bo'ladi? Eshitgan cho'pchagingizdagi odamlarni sanab ber-chi? Va boshqalar.

Taqqoslash yordami bilan narsalardagi o'xshash va farqli tomonnlar aniqlanadi. Taqqoslash kishi bilan faoliyatining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon orqali beshning uchdan kattaligi, daraxtning uydan past yoki balandligi, daryoning soydan kattaligi, sopolning chinnidan mo'rtligi fikran solishtiriladi.

Natijada o'quvchiga o'xshash va tafovutli belgilar anglashila boradi va u ular yuzasidan ma'lum xulosaga keladi. Bolaga nimani nima bilan taqqoslash kerakligini uqtirish lozim, xolos. Aks holda u qanday yo'l tutishni bilmasdan dovdirab qolishi mumkin.

Mavhumlashtirish yaqqol narsalardan muhim tomonini fikran ajratib olish demakdir. Jumladan, o'quvchi oq ko'ylak to'g'risida so'z yuritgan bo'lsa, taklifimizga binoan u qor, sut, oq ro'mol, ohak, oqlangan imorat haqida mulohaza yuritadi. Keyinchalik esa, butunlay "oq" degan tushuncha ustida o'ylashi mumkin. Avval o'qish kitobi, matematika, mehnat, rus tili, tabiatshunoslik tushunchalarini talaffuz qilib o'rgangan bo'lsa, asta-sekin ularni bir tushuncha bilan "kitob" deb mavhumlashtiradi.

Dunyodagi narsa va hodisalarni, jism va predmetlarni konkretlashtirish, yaqqollashtirish jarayoni mavhumlashtirish bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Yaqqol narsalar o'quvchi uchun juda yengil anglashiladi. Chunki unda ko'rsatmali-harakatli fikr yuritish ustun turadi. O'quvchi hamma vaqt yaqqol narsa bilan mashg'ul bo'lishni yaxshi ko'radi. Masalan, katta, uchburchak, hajm, go'zal, harakat, issiq, elektr, parallel kabi mavhum tushunchalarni ular darrov tushunib ololmaydilar. Ularni yaqqollashtirgan taqdirdagina anglay boradilar. Katta ko'cha, uchburchak taxtacha, besh litrli idish, go'zal o'yinchoq, mashina harakati, issiq xona, elektr chirog'i, parallel temir yo'l izlari va hokazolar to'g'risida ma'lumot berilgandan keyingina o'quvchilar yuqoridagi tushunchalar haqida taassurotga ega bo'ladilar. Ammo har qanday narsalarni ham yaqqollashtiraverish, ya'ni konkretlashtirish maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. Chunki bu narsaning odat tusiga kirib borishi bolalarda mavhum tushunchalar shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Ta'lim jarayonida bunday noxush holatdan iloji boricha saqlanish kerak.

Umumlashtirish usuli o'quvchi fikr yuritishining shunday jarayonidirki, uning yordamida narsalar ma'lum, aniq alomat (belgi, xossa, xususiyat va h.k) asosida fikran birlashtiriladi. "Meva" orqali olma, shaftoli, olcha kabilar to'g'risida fikr yuritadi, qoshiq, cho'mich, tovoq so'zlarini jamlab "idish-tovoq" deya nomlaydi. Narsa va hodisalarni noto'g'ri umumlashtirish ham mumkin. Jumladan: "uy hayvonlar" to'g'risida gap ketsa, birinchi sinf o'quvchilari qo'y, echki, sigir kabilar qatoriga sichqon, kalamush, mushuklarni ham qo'shib aytadilar. Shunday paytlarda o'quvchiga aniq va to'la tushuncha berib o'tmoq maqsadga molikdir. Deylik, stol ustida traktor, raketa, samolyot o'ynchoqlari turibdi. U bu o'ynchoqlarni taqqoslash orqali yakka narsalarni umumlashtirib, "o'ynchoq" deyilishini anglaydi.

Kitob, daftar, qalam-o'quv qurollari: ko'g'irchoq, avtomobilb, belkurakcha - o'ynchoqlar; shkaf, javon, stol, stul - uy jihozlari; uchburchak, to'rtburchak, aylana, burchak - geometrik shaklllar; ayiq, bo'ri, tulki, yo'lbars, arslon - yovvoyi hayvonlar; qarg'a, chumchuq, musicha - qushlar; buvi, opa, oyi, aka, uka, singil - oila a'zolari kabi so'zlar tushunchalar orqali guruhlarga ajratishda, bola aqliy faoliyatini rivojlantirishda salmoqli turtki bo'la oladi. Shuning uchun ularni klassifikatsiya qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida ayrim paytlarda hissiy - konkret yoki empirik umumlashtirish usulini qo'llash hollari uchrab turadi. Bu hol, albatta, topshiriq talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni klassifikatsiya qilish lozim bo'lib qolsa, ko'pincha, shu usuldan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki bunday chog'larda bunday analiz qilish, ulardan muhim belgilarni ajrtish kabi murakkab jarayonlar talab qilinmaydi. Politexnik ta'lim darslarida mana shu xildagi qator vazifalarni berish mumkin. Jumladan, turli hajmda, yasalgan va turli rangda bo'yalgan jumlardan bayram bezaklarini tayyorlash yoki boshqa narsalardan yashil o'simliklar, yumshoq metallar, bezakli-akvarium baliqlar, odamsimon maymunlar, qushlar, yig'loqi bolalar va hokazolarni tayyorlash mumkin.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar oldiga qo'yilgan topshiriqlar predmet va tushunchalarni muhim bo'lmagan belgisiga asoslanib umumlashtirishni, ya'ni tashqi (yuzaki) belgisiga tayangan holda umumlashtirishni nazarda tutadi. Demak, o'quvchilar hissiy-konkret umumlashtirish usuli yordamida vazifani bajarishga muvaffaq bo'lganlar. O'z- o'zidan ma'lumki, bu o'rinda berilgan narsalarning barchasi turli tashqi belgi bilan birlashtirilgan. O'quvchilar ularni "qizil", "yashil", "yumshoq", "bezakli", "odamsimon" kabi belgilarga ajratib klassifikatsiya qiladilar.

Bayon etilganlardan ma'lum bo'lishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida turli fikr yuritish usullaridan foydalanar ekanlar. Ularning fikr yuritish operatsiyalari hamda fikr yuritish formalaridan foydalanib ish tutishlari birinchi sinfdan uchinchi sinf tomon asta-sekin murakkablasha borib, ham son, ham sifat jihatidan katta o'zgarishlarni boshdan kechirar ekanlar. Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan analiz, sintez, taqqoslash, klassifikatsiyalash, umulashtirish, sistemalashtirish, hukm va xulosa chiqarish, tushunchalar usuliga o'rgatish o'quvchilar tafakkurining tez taraqqiy etib katta yordam qilar ekan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar taffakuri mantiqiy fikr yuritish, mulohaza qilish, xulosa chiqarish, turli aqliy faoliyat usullarini qo'llash kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan rivojlana borib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalardan hamda o'smirlardan keskin farq qilishi yaqqol qo'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurida konkret obrazalarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni konkret tafakkur abstrakt tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi. Lekin keyingi yilda D.B. Elbkonni, V.V.Davidovlar olib borgan tadqiqotlar mazkur mulohazalarga katta e'tiroz tug'dirmoqda. Shuning uchun dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni tafakkur operatsiyalari va formalariga o'rgata borsa, ularning tafakkuri tezroq rivojlanish pog'onasiga ko'tariladi. Bundan tashqari, ularning bilishga qiziqishi, bilim fondi ortadi, bilimlar sistemalashib boradi, ayniqsa, aqliy faoliyati, mustaqilligi rivojlanadi va takomillashadi.

Ta'kidlab o'tilgan shu so'nggi usulni qanday tarkib toptirishni ko'rsatib o'tmoqchimiz. Pedagogik psixologiyada shu narsa ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun leksiya tipidagi darslarga qaraganda, izohli o'qish darslari programmadan ko'proq joy olgan. Ana shu faktga tayangan holda ish tutish

natijasida o’qituvchi bolalarning mavzularni o’zlashtirishida asosiy figura bo’lib hisoblanadi. O’quvchilar o’rganishi kerak bo’lgan bilimlar ularga “tayyor holda” berib boriladi. Bunda o’quvchilarga material, xuddi yuqorida bayon etilgan usul yordamida tushuntiriladi, deb o’ylamaslik shart. Chunki hech vaqt pedagog o’z talabalariga umumlashtirish jarayoni yuzasidan bilim bermoqchi emas. O’z-o’zidan ma’lumki, umuman umumlashtirish usullari to’g’risida va aqliy ish-harakat yordamida umumlashtirishni tarkib toptirish borasida so’z yuritilmasligi barchaga ayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мавлянов А.А. Мантиқ. Маърузалар курси.- Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. 48-бет
2. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов, А. Собиров, Д. Набиева Она тили 6-синф учун дарслик “Тасвир”, Тош. 2016. 155-бет
3. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. –М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
4. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009-yil.
5. Karima Qosimova|va boshqalar. Ona tili o’qitish metodikasi**.-** T.: NOSIR, 2009. –b. 316.
6. Nematov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O’zbekiston, 2005.
7. Shohidaxon Yusupova. Til ta’limi va Falsafa.- T.:Mumtoz so’z,2009.-b.4
8. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
9. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.
10. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

ENGLISH TEACHING METHODOLOGY

Salikhova Nasiba
Senior teacher of the department of English in the preschool education, USWLU

Annotation. Every teacher has his own method. A teaching methodology is a method by which a teacher chooses to explain or teach the material to students in order for them to learn the material. A teacher can use a variety of methodologies, and the methods used are frequently determined by the educational philosophy and preferences of the teacher.

Why is methodology important in education?

In teaching, the methodology is the how. It refers to the methods used to address student learning. It's the guiding principles and "big picture" of what one believes how to utilize and gain students' maximum learning potential based on what you believe learning should be like.

Key words: method, principle, teaching styles, discussion activities.

What is The Difference Between Teaching Method And Teaching Methodology?

Teaching methodology refers to the use, or employment, of some method(s), whereas teaching "a method" refers to the use of that one specific method/way. In other words, teaching methodology is the science of methods, whereas teaching method is how to do something.

Students become easily bored if their teacher does not use a variety of teaching methods to make each lesson unique and interesting. A facilitator can convey any information to students in a variety of ways. Some are simple to understand and remember, while others are more difficult.

The combination of various teaching methods is something that every professional teacher should be aware of and put into practice. This may include lecturing, group or small group discussion activities, and involving students as teachers for their peers.

What are the 4 teaching styles?

Teaching methods are classified into four categories based on two major parameters: a teacher-centered approach versus a student-centered approach, and the use of high-tech versus low-tech materials.

Types of Teaching Methods

Once a teacher understands their students' needs, they can select the most effective teaching methods to use. Here are some different teaching methods, along with their benefits and drawbacks. These teaching method examples will assist you in better understanding the distinction.

1. Teacher-centered

In its most extreme form, teachers are the primary authority figures in a teacher-centered instruction model. Students are viewed as "empty vessels" who passively receive knowledge from their teachers through lectures and direct instruction, with the ultimate goal of positive test and assessment results.

Teaching and assessment are viewed as separate entities in this style; student learning is measured through objectively scored tests and assessments.

Advantages:

- ✓ Educational content is organized logically.
- ✓ Cooperation is growing.
- ✓ Concentrate on the subject.
- ✓ Disadvantages
- ✓ There isn't much content.
- ✓ Students are completely reliant on their teachers.
- ✓ Summative evaluation.

2. Student-centered

In this teaching method, both teachers and students are involved in the process to varying degrees. The primary role of the teacher is to coach and facilitate student learning, as well as to ensure that students understand the material. Furthermore, they are expected to evaluate students both formally and informally.

The teacher serves as a guide on the side in a student-centered approach. The students receive their grades by having their student portfolios evaluated and participating in class.

Advantages:

- ❖ Formative assessment.
- ❖ Students actively participating in the learning process
- ❖ The importance of the knowledge being passed down cannot be overstated.

Disadvantages:

- ❖ Special teaching abilities are required.
- ❖ Some students may find it difficult.
- ❖ It focuses on the individual needs of students.

3. High tech

In the last few decades, technological advancements have propelled the education sector. The high tech approach to learning, as the name implies, employs various forms of technology to assist students in their classroom learning.

Many teachers use computers and tablets in the classroom, and others may assign homework via the internet. The internet is also useful in the classroom because it provides limitless resources. Teachers can use the internet to connect their students with people from all over the world.

Advantages:

- Improved knowledge retention.
- Students take part actively.
- The development of collaboration abilities.

Disadvantages:

- Distraction from schoolwork.

- Could reduce the number of student-to-student study groups.
- Lesson planning is time-consuming.
- Expensive.

4. Low tech

While technology has undoubtedly altered education, many educators prefer a more traditional, low-tech approach to learning. Some learning styles necessitate the educator's physical presence and interaction with the student.

Furthermore, some research suggests that low-tech classrooms may improve learning. Students who take handwritten notes, for example, have better recall than students who take typed notes.

Another disadvantage of using technology in the classroom is that students who are exposed to spell check and autocorrect features at a younger age may have weaker spelling and writing skills.

Advantages:

- Writing and spelling skills should be improved.
- Concentrate more on the study's subject.
- Cheap.

Disadvantages:

- Inadequate equipment

All of these teaching methods have their own set of advantages and disadvantages. Teachers must consider the students' talents as well as the final aim of the learning process when deciding which one is best for them.

Teaching Strategies

Different teaching strategies employed by teachers in the classroom are not random. They assess their approaches and methods, as well as their students' strengths and capacities.

More teachers are adapting their teaching styles to meet the needs of their students, but there are a few fundamental styles that have evolved over time but are still considered standard teaching strategies.

The difference between teaching strategies and teaching methods is that a strategy is how a teacher creates a year-long plan to complete a specific book or syllabus, and a method is how that teacher delivers the lecture or how the teacher chooses to complete a task.

The most common teaching strategies are lecture, discussion, demonstration, and assignment.

Lecture. Despite being one of the oldest methods, it is still widely used in most classrooms. Essentially, it consists of lengthy lectures and one-way learning sessions by the instructor in the form of oral presentations and information. It includes all theoretical knowledge about a subject, such as ideas, events, facts, and concepts. It is an example of a low-tech, teacher-centered strategy.

It is especially useful in large classes where it is difficult to get every student to participate. It saves time and is useful for presenting basic information. However, despite their popularity, lectures have limited utility and are deemed

unsuitable for teaching children due to their lack of involvement. It is a more mature style for students.

Discussion. The discussion includes two-way communication, and both the instructor and the students participate. This can be accomplished through the use of a visual presentation or by presenting a research topic to be discussed later in class. It encourages students' creativity and stimulates their thinking.

Demonstration. Technology is advancing at a rapid pace. Healthcare professionals use a variety of medical illustrations to help them understand the complex nuances of the human body. The instructor uses this method to explain a topic through a planned performance or illustration. A multimedia presentation or a practical explanation can be used by an instructor to demonstrate.

While the demonstration is the second most important teaching skill after explanation, it does have some prerequisites. To name a few, careful planning, special arrangements, and tools and equipment are required.

Assignment. This method may necessitate the use of high-tech tools such as the internet, a laptop, or a tablet. Readings from books and/or research papers may be assigned by the instructor, increasing coverage of material while leaving classroom time for discussions and demonstrations.

The only issue is that evaluation becomes more difficult because, unlike tests, there is no solid way to determine whether students did it on their own.

Conclusion. Choosing the appropriate method and strategy for the appropriate session is critical for both the teacher and the students. While lectures are important for covering important fundamentals, it is not possible to learn to drive solely through theory.

When it comes to the importance of teaching methods, it's good to remember that they are vital because they can either improve or detract from teaching effectiveness. However, no method can be recommended in every circumstance.

Different methods are appropriate in various contexts. Furthermore, teaching methods are only one of many components that interact and are intertwined in a teaching event.

Among these are: the teacher's commitment; the physical and psychological conditions of the teaching space; the learners' commitment; caregivers' and parents' support; and the relationship between the curriculum and the students' interests and needs.

Finally, it is important to remember that learning is a continuous process.

References

1. Z.Merve Tiryaki ,Birsen Tütüniş, The Role of Extensive Reading on Vocabulary.Development. Available online at: http://www. ulead.org.tr/journal International Association of Research in Foreign Language Education and Applied Linguistics, ELT Research Journal 2012, 1(4), 209-215, ISSN: 2146-9814

2. İsmail Gürler, Correlation between Self confidence and Speaking Skill of English Language Teaching and English Language and Literature Preparatory Students. Curr Res Soc Sci (2015), 1(2) • 14-19
3. Sayid Dabbagh Ghazvinia, Milad Khajehpoura, Attitudes and Motivation in learning English as Second Language in high school students, Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 15, 2011, Pages 1209-1213
4. Abdel-Rahman Al- Eiadeh1, Dr. Mahmoud A. Al.Sobh2 et.al. Improving English Language Speaking Skills of Ajloun National University Students. International Journal of English and Education.ISSN:2278-4012, Volume:5.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AMALIY TO‘GARAKLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Artikova Xusniya To’laganovna
Toshkent viloyati Parkent tumani
18-umumiy o’rta ta’lim maktabi Boshlang’ich sinf o’tuvchisi

Dadaxo’jayeva Nigoraxon Batirjanovna
Toshkent viloyati Parkent tumani
18-umumiy o’rta ta’lim maktabi Boshlang’ich sinf o’tuvchisi

Shavganova Hakima Baxtiyorovna
Toshkent viloyati Parkent tumani 18- Maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda amaliy to'garaklar shakllanishi tahlil qilinadi va ushbu masala bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: boshlang’ich ta’lim, to’garaklar faoliyati, ta’lim sifati, bilim berish, ko’nikma, maqsad, innovatsiya.

Abstract. The article analyzes the formation of practical circles in primary classes and gives methodological recommendations on this issue.

Key words: primary education, activities of clubs, quality of education, imparting knowledge, skills, purpose, innovation.

Аннотация. в статье анализируется формирование практических кружков в начальных классах и даются методические рекомендации по этому вопросу.

Ключевые слова: начальное образование, деятельность кружков, качество образования, передача знаний, навыков, цель, инновации.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida *amaliy to‘garaklar*ni tashkil etish va uning faoliyatida o‘qituvchilar hamda mutaxassislarning hamkorligidan foydalanish vazifalari qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan mazkur vazifaning ijrosini ta’minlash uchun boshlang‘ich sinflarda o‘ziga xos amaliy to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklar quyidagi ikki turda tashkil etiladi:

1) o‘quv fanlari bo‘yicha;
2) amaliy san’at bo‘yicha.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda *o‘quv fanlari* bo‘yicha amaliy to‘garaklarni yangicha asoslarga ko‘ra tashkil etish taqozo etiladi. Unda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- har bir o‘quv fanining mavzularini amaliy mashg‘ulotlar vositasida mustahkamlovchi to‘garaklarni tashkil etish;
- to‘garaklar faoliyatini o‘qituvchi va mutaxassislar hamkorligida amalga oshirish;
- to‘garaklarda o‘quvchilarning qiziqish va faol ishtirok etishiga erishish.

Amaliy san'at bo‘yicha tashkil etiladigan amaliy to‘garaklar faoliyatini quyidagicha yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi:

- “Tasviriy san’at” to‘garagi;
- “Musiqa san’ati” to‘garagi;
- “So‘z san’ati” to‘garagi.

Bunday to‘garaklar boshlang‘ich sinflarda shu san’at turlarining mutaxassislari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Chunki yuqorida ta’kidlangan Qarorda mazkur masala belgilab qo‘yilgan.

E’tibor berilsa, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni tashkil etish yangicha yondashuvlarga asoslanadi va ularning faoliyati o‘qituvchilar hamda soha mutaxassislari hamkorligida amalga oshiriladi. Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, mazkur Qarorda umumiy o‘rta ta’lim maktablari amaliy to‘garaklarida ishtirok etadigan soha mutaxassislariga Maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan maosh to‘lanadi. Bundan maqsad tajribali va mashhur mutaxassislar ishtirokida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, jumladan, boshlang‘ich sinfda amaliy to‘garaklarning samradorligiga erishishdir. Shu sababli to‘garaklar nomiga *amaliy* tushunchasi qo‘shib ishlatilmoqda.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni tashkil etishda quyidagilarga asoslanish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda:

- o‘quvchilarning qiziqishlari va ularning tashabbuslarini o‘rgangan holda turli amaliy to‘garaklarni tashkil etish;
- amaliy to‘garaklarni o‘quvchilarga quklay va mos bo‘lgan vaqtlarda o‘tkazish;
- amaliy to‘garaklar vositasida o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirishga erishish;
- amaliy to‘garaklar samaradorligini o‘quvchilarning tashkil etilgan to‘garaklar vositasida o‘zlashtirgan ko‘nikmalari darajasiga qarab baholash.

Shu sababli bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni tashkil etishning butunlay yangicha yondashuvlariga tayanish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni tashkil etish bir necha xususiyatlarga ham ega. Bunday xususiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning yosh va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish;
- o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘rganish;
- o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari bilan maslaxatlashish;
- maktab jamoasining muhokamasi vositasida amalga oshirish;
- amaliy to‘garaklarning maxsus jihozlangan va barcha sharoitlarga ega sinf xonalarda o‘tkazish [1];
- amaliy tugaraklarning samaradorligi bo‘yicha Sinf rahbari tomonidan monitoring olib borilishi.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi. Chunki bugungi kunda amaliy to‘garaklarning samaradorlik darajasiga ko‘ra boshlang‘ich ta’limning

natijaviyligini baholash tizimi yuzaga kelmoqda. Shu sababli mazkur masalada tajribalardan kelib chiqgan holda yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi [2].

Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda amaliy to‘garaklarni yangicha asoslarda tashkil etish bilan boshlang‘ich ta’limning samaradorligiga, sifatiga va uning vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy ko‘nikmalarini kutilgan darajada shakllantirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
2. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
3. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
4. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.
5. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
6. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in *переводческий дискурс: междисциплинарный подход* (pp. 133-138).
7. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, *10*(01), 227-232.
8. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. *Современное образование и воспитание*, *1*(1), 289-294.
9. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of russian-uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版), 48*(12).
10. Кадирова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. *Традиции и инновации в изучении и преподавании языков*, *1*(1), 173-176.
11. Akhmedov, B. A., & Jakhongirova, Y. J. (2022). Methodology of teaching english: approach of national way. *Uzbek Scholar Journal*, *10*, 218-224.
12. Ахмедов, Б. А. (2022). Повышение питательности завтрака с помощью биодобавок для укрепления здоровья студентов. *Uzbek Scholar Journal*, *11*, 7-11.
13. Akhmedov, B. A., & Jakhongirova, Y. J. (2022). Translating culture-specific concepts. *Uzbek Scholar Journal*, *10*, 161-165.

RUS TILINI O‘RGANISH AHAMIYATI VA O‘QITISHDA INTERFAOL - PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH KO‘NIKMALARI

Bozorova Pokiza Imomaliyevna
Toshkent viloyati Parkent tumani
18-umumiy o’rta ta’lim maktabi rus tili fani o’qituvchisi

Asadova Dildora Murodillayevna
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Xaitova Dilnoza Baxtiyor qizi
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. tilning asosiy funksiyalari tilning sinfiy hodisa emas, balki ijtimoiy ekanligini ko‘rsatadi. Barcha odamlar, ularning sinfiy va ijtimoiy yoki professional guruhlaridan qat’iy nazar, muloqot, fikr yuritishlari va fikrlarini bildirishlari lozim.

Kalit so‘zlar: rus tili, xalqaro ta’lim markazlari, jahon tillari klubi, xalqaro rus tili va adabi yoti o‘qituvchilari assotsiatsiyasi, atama.

Abstract. The main functions of language show that language is not a class phenomenon, but a social one. All people, regardless of their class and social or professional groups, should communicate, think and express their opinions.

Key words: Russian language, international educational centers, world language club, international association of teachers of Russian language and literature, term.

Аннотация. Основные функции языка показывают, что язык - явление не классовое, а социальное. Все люди, независимо от их сословной и социальной или профессиональной группы, должны общаться, думать и выражать свое мнение.

Ключевые слова: русский язык, международные образовательные центры, мировой языковой клуб, международная ассоциация преподавателей русского языка и литературы, семестр.

Kirish. Jamiyat, odamlarning eng muhim vositasi bo‘lgan, tildan foydalanmasdan yashay olmaydi. Biron bir inson faoliyati yo‘q-ki tilni o‘zlarining fikrlari, hissi yotlari va iroda ifodasi sifatida qo‘llamaydilar. Vaqt o‘tishi bilan odamlar uning doimiy hamrohi, tilga qiziqib qolishdi va u haqida fan yaratdilar. Ushbu fan hozirgi kunda tilshunoslik yoki lingvistik fan deb ataladi. Kasbi tilni o‘qitish yoki tadqiq qilish bilan bog‘liq bo‘lganlar uchun ushbu fan, shuningdek, tilni professional vosita sifatida ishlatishi lozim bo‘lganlar (o‘qituvchilar, advokatlar, ma’ruzachilar, jurnalistlar, yozuvchilar va boshqalar) uchun juda muhimdir.

“Rus tili – bu dun yo tili”, deydi taniqli tilshunos Vyacheslav Belousov. Uchinchi ming yillikda u madaniy yoki tarixiy ahamiyatini yo‘qotmaydi. U nafaqat MDH davlatlarida, balki butun dun yoda ham o‘z mavqeini saqlab qoladi”.

Rus tilining dun yo tillari sifatida vazifalari Birinchidan, rus tili (ingliz, xitoy, fransuz, ispan va arab tillari bilan bir qatorda) ko‘plab xalqaro tashkilotlar - BMT, YuNESKO va boshqalarning rasmiy tili hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, ushbu tashkilotlarning rasmiy hujjatlari, maxsus jurnallari rus tilida nashr etiladi, ularning veb-saytlari yaratilmoqda va radioeshittirishlar olib borilmoqda. Rus tili - bu xalqaro nodavlat tashkilotlarning deyarli uchdan bir qismi, shu jumladan Jahon kasaba uyushmalari federatsiyasi va Yevropa xavfsizligi bo‘yicha xalqaro qo‘mita gapiradigan tillardan biridir.

Adabiyot tahlili. Shuningdek, u turli mamlakatlar vakillari o‘rtasidagi aloqani yengillashtirish uchun yirik xalqaro konferensiyalar va sammitlarda ish tili sifatida ishlatiladi.

Ikkinchidan, rus tili eng yirik xalqaro ta’lim markazlaridan birining tili.

Uchinchidan, rus tili nafaqat rus ilm-fani va madaniyati boyliklariga, balki boshqa mamlakatlarga ham kirish imkoniyatini ochib beradi, turli xalqlar, xususan yevroosi yo mintaqasida o‘zaro vositachilik vazifasini o‘taydi. Va nihoyat, dun yoda nashr etilgan ilmiy va badiiy adabi yotlarning aksariyati rus tiliga tarjima qilinadi.

To‘rtinchidan, Rossiya xalqaro ta’lim bozorida muhim rol o‘ynaydi.Rus tili jahon standartlari darajasida yuqori kasbiy ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Beshinchidan, madaniyat bilan, xususan, uning ortida turgan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan adabi yot bilan tanishish istagi hanuzgacha rus tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning muhim sababi hisoblanadi. **YUNESKO** va Yevropa Kengashining turli madaniyatlari o‘rtasidagi muloqotlar bu bizning davrimizning dolzarb vazifasi deb biladi, chunki bunday suhbatlar boshqa odamlarning qadriyatlari va an’analarini o‘zaro tushunishni, asrlar davomida to‘plangan tajriba almashishni, dun yoda yashaydigan xalqlarning o‘tmishi, buguni va kelajagining dolzarb masalalari bo‘yicha fikr almashishni nazarda tutadi. [1, 15 b].

Oltinchidan, talabalarning ma’lum bir guruhini rus tilidagi qiyinchiliklari o‘ziga jalb qiladi. Amerikalik talabalarning fikriga ko‘ra, rus tilini to‘siqlarni yengishni yaxshi ko‘radiganlar tanlaydi.

Rus tili dun yodagi ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan eng boy badiiy adabi yotning tili. So‘nggi o‘n yil ichida MDHdan tashqari mamlakatlarda rus tiliga qiziqish biroz pasaygandek. Ammo bugungi kunda borgan sari ko‘proq odamlar yana unga murojaat qilishmoqda. Bir tomondan, ular rus madaniyati bilan qiziqishadi, ikkinchidan, bu sof pragmatik qiziqishdir, chunki rus tili ularga rus ishbilarmonlari bilan hamkorlik qilish va uzoq muddatli ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatish imkoniyatini beradi. Avvalo, gap MDH doirasidagi hamkorlik haqida ketmoqda. Sababi rus tili ittifoq davrida xalqaro aloqa tili edi va shu kungacha shunday bo‘lib qolmoqda.

Rus tili zamonaviy dun yoni qiziqtirishni davom etmoqda. Rossiya matbuotidagi nashrlarda yozilishicha, so‘nggi paytlarda rus tili va adabi yotini o‘rganishni boshlagan AQSh, Fransiya, Ispaniya, Shvesiya, Finlyandiya, Avstriya va Koreya fuqarolari soni bir necha bor oshgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Rus tili nafaqat Rossiya Federatsiyasining rasmiy tili. Bu dun yo tillaridan biri, ya’ni turli davlatlar xalqlari o‘rtasida xalqaro aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan tildir. Dun yoda ma’lum bo‘lgan ikki yarim mingdan zi yod tillarning ichida dun yoning eng rivojlangan tillari guruhi deb nomlangan Jahon tillari klubi xalqaro aloqani ta’minlaydi. Tilni dun yo tili sifatida targ‘ib qilish ushbu tilda yaratilgan madaniyatning umuminsoniy ahamiyati bilan belgilanadi. Tilning jahon tili maqomi qonuniy ravishda xalqaro tashkilotlar yoki konferensiyalar (BMT, YuNESKO va boshqalar) ning rasmiy yoki ishchi tili sifatida tan olinishi bilan ta’minlanadi. Masalan, rus tili ingliz, arab, ispan, xitoy va fransuz tillari bilan birga BMTning oltita rasmiy tillaridan biri sifatida tan olingan; unda eng muhim xalqaro shartnomalar va bitimlar yozilgan. Rus tili dun yoning aksariyat mamlakatlarida o‘rganiladi. Rus tili o‘qituvchilari Xalqaro rus tili va adabi yoti o‘qituvchilari assotsiatsiyasiga (MAPRYaL) birlashtirilgan.

Hozirda rus tili unda gapiradigan odamlar soni bo‘yicha dun yoda hali ham to‘rtinchi o‘rinda turadi. Ro‘yxatning yuqori qismida ingliz tili (taxminan 500 million kishi ingliz tilini birinchi yoki ikkinchi tili sifatida bilishadi, va 1 milliarddan oshig‘i ingliz tilini chet tili sifatida bilishadi) va xitoy tili (unda deyarli 1350 milliondan ortiq kishi ona tili sifatida gaplashadi). Uchinchi o‘rinda ispan tili (bu tilda 360 million kishi, shu jumladan 335 millionga yaqin ona tilida so‘zlashadiganlar gaplashadi).

Shunday qilib, zamonaviy dun yoda rus tilining ulkan roli uning madaniy qiymati, qudrati va buyukligi bilan belgilanadi.

So‘nggi o‘n yillikda dun yoda ro‘y bergan tezkor ijtimoiy-si yosiy o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi tub o‘zgarishlarga olib keldi, albatta, bu rus tilining rivojlanishi va faoliyati uchun oqibatlarsiz qolishi mumkin emas edi.

Dun yodagi lingvistik vaziyatning hozirgi holatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, lingvistik o‘zgarishlarning aksariyat qismi jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. [2, 25 b].

Til odob-axloq me’ yorlarini e’tiborsiz qoldirish mumkin deb hisoblaydigan odamlar nisbati tobora ortib bormoqda. Chet elliklarga murojaatlarning soni sezilarli darajada oshdi, ayniqsa yirik shaharlarda lingvistik odob-axloq qoidalarining “an’anaviyligi”, uning zamonaviy aloqada foydasizligi to‘g‘risida fikr shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Til madaniyati va matbuot, radio va televizion xodimlarning umumiy madaniyati keskin pasayib ketdi. Ko‘plab lingvistik xatolar va lingvistik madaniyat me’ yorlaridan qo‘pol og‘ishlar efirda uchraydi. Tilga nisbatan efirdagi zamonaviy erkin xatti-harakatlar ovozning ko‘payishiga, gapirish tezligiga, artikulyatsion keskinlikning kuchayishiga va tomoshabin bilan suhbatning haddan tashqari emotsionalligiga olib keladi va

ko‘pincha shafqatsizlik, xavfli nutq epitetlari va metaforalaridan foydalanishga olib keladi. Barcha ijtimoiy va yosh guruhlarida lingvistik madaniyat darajasi pasaygan.

Bosib chiqarilgan nashrlarni, xususan, gazetalarni kompyuterda terish va tarjima sohasida qo‘pol xatolarga olib keladi, bu esa aholi orasida bugungi kunda tarjima qoidalari bekor qilingan degan qat’iy fikrni keltirib chiqaradi.

Jamiyat si yosatchilar nutqiga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda, ularning xatolari matbuotda qayd etilib, masxara qilinmoqda. Bu yangi avlod si yosatchilarini o‘z nutqi uchun mas’uliyatni ko‘proq olishga va uz ustida ishlashga undaydi.

Fuqarolarning kundalik ha yotini intensiv ravishda texnik qayta jihozlashni texnik inqilob deb ta’riflash mumkin va bu birinchi navbatda zamonaviy maishiy va ofis jihozlarini, asosan, xorijiy ishlab chiqarishning kundalik ha yotida keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Kompyuterlar, videokameralar, yangi avlod televizorlari, fakslar, nusxa ko‘chirish moslamalari, maishiy texnika, xorijiy mashinalar - bularning barchasi rus tilida ko‘plab yangi atamalar va so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu bilan birga, chet eldan olib kiriladigan avtomobillarga oid ko‘plab ko‘rsatmalar, mashinalar boshqaruvidagi yozuvlar chet tilini, asosan ingliz tilini o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Yuqori sifatli zamonaviy aloqa - uyali telefonlar, kompyuter aloqasi va boshqalar yozma aloqaning qisqarishiga olib keladi, telefon aloqasi va texnik vositalar bilan aloqa ulushi ortib bormoqda. Bu aholining, ayniqsa yoshlarning savodxonligi darajasining pasayishiga olib keladi. Xuddi shu sababga ko‘ra badiiy adabi yot, ayniqsa yuqori darajada badiiy adabi yotdarning o‘qish hajmi kamaymoqda.

Ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie) bilan aloqa ulushining oshishi zamonaviy odamning quloq orqali ma’lumotni qabul qilish hukmronligiga va yozma matnni tushunish va izohlash qobiliyatining zaiflashishiga olib keladi.

Bu zamonaviy jamiyatda nutq madaniyati me’ yorlarini ta’minlash bo‘yicha maqsadga muvofiq ish, odamlarni o‘z nutq madaniyatiga e’tibor berishga o‘rgatish muammosini keltirib chiqaradi.

Tahlil va natijalar. Ta’limning zamonaviy paradigmasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, individualizatsiya va differensiatsiya kabi tushunchalar ta’lim faoliyati, o‘quv motivatsiyasini shakllantirish, talabalarning o‘zini rivojlantirish kabi ilmiy va nazariy ko‘nikmalarga asoslanadi.

Xozirgi kunda ta’lim protsessini to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlaydigan axborot va ta’lim muhiti masofaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning konseptual g‘oyalari Internet tarmog‘iga va undagi ma’lumotlardan mohirlik bilan foydalana olgan holda zamonaviy tarzda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning eng muhim yo‘nalishlaridan biri o‘qituvchilarni o‘quv jarayonida texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash va ularda axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini (AKT - kompetensiyasi) shakllantirishdan iborat. Asosan talabalar va o‘qituvchilar jamoasi tomonidan bilvosita (masofadan elektron ta’lim) o‘zaro aloqada bo‘lgan

axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari masofaviy o‘qitish texnologiyalari deb tushuniladi.

Elektron ta’lim deganda talabalar va o‘qituvchilar jamoasi xamkorligida ma’lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan va amalga oshirishda foydalaniladigan ma’lumotlardan foydalanish o‘quv ma’lumot dasturlari va ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalar, texnik vositalar, shuningdek, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari, ko‘rsatilgan ma’lumotlarning aloqa liniyalari orqali uzatilishini ta’minlash, o‘zaro ta’sir ta’lim faoliyatini tashkil etish tushuniladi. Masofaviy ta’lim tizimdagi o‘qitish asosan uchta: kunduzgi, sirtqi va sirtqi ta’lim sifati shaklida belgilanadi. Ta’lim olishning shakli sifatida ta’limning ikki xil shakli mavjud bo‘lib, birinchisi- ta’lim faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlar va ikkinchisi- ta’lim faoliyatini amalga oshiradigan tashqi (oilaviy ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklida) gisi.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning xususiyatlaridan biri, masofaviy o‘qitish kurslarini katta foizni o‘z ichiga oladigan Internet-resurslaridan faol foydalaniladigan mustaqil ish jarayonidir. Zamonaviy o‘quv jarayoni kunduzgi masofaviy va ta’lim texnologiyalaridan va elektron resurslardan foydalangan holda onlayn masofaviy yoki kunduzgi ta’lim faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlarda aralash ta’lim shaklida taqdim etiladi. [3, 35 b].

“Onlayn masofaviy o‘qitish darslar vositasida talaba-yoshlarimiz ko‘proq mustaqil ishlashga, ilmiy ijod bilan shug‘ullanishlariga, kitoblarni mutolaa qilishlariga imkoniyaiga ega bo‘ldilar, pedagog-o‘qituvchilarimiz esa xorij olimlari ishtirokida tashkil qilinayotgan onlayn videokonferensiyalarda qatnashib, kasbiy mahoratlarini rivojlantirish uchun muntazam ishlashga intilyaptilar.

Hozirgi vaqtda o‘qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jihatdan tez o‘tish uchun ob’ektiv asos yuzaga keldi, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o‘z-o‘zidan ta’limda ham tubdan o‘zgartirishlarni taqozo etmoqda. Hech bir o‘qituvchi-pedagog ertami-kechmi bu jarayonga qo‘shilmasdan chetda qolishi mumkin emas.”

MDH davlatlarining masofaviy o‘qitish, ta’lim tizimining tarkibiy qismi va shakli sifatida ko‘rib chiqan olimlar va yetakchi mutaxassislari qatorida Pedagogika fanlari doktori professor E.S. Polatning takidlashicha "...masofaviy o‘qitish - bu ta’lim shakli, bunda o‘qituvchi va talabalar va talabalarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri amalga oshiriladi masofa va ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan barcha tarkibiy qismlarni (maqsadlar, mazmun, usullari, tashkiliy shakllari, o‘qitish vositalari), aniq tomonidan amalga oshiriladi Internet texnologiyalari yoki boshqa ta’minlovchi vositalar yordamida interaktivlikdir »

Masofaviy ta’lim kursini uchun maxsus LMS (Learning Management System) LMS - tizim kabi dasturiy ta’minot (qobiqlar) ta’limni boshqarish, Moodle - kurslarni boshqarish tizimi (elektron ta’lim) va boshqalarlardan ishlab chiqish uchun foydaliniladi. Masofaviy kurs - ishtirokchilarining bu interfaol uchun maxsus tizim ta’lim jarayonidagi o‘zaro ta’siri. Bu ta’lim manbai (veb-sayt),

masofaviy tizim uchun zarur bo‘lgan bir qator bo‘lim sahifalarini o‘z ichiga olgan ma’lum bir kurs doirasida va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq mashg‘ulot bo‘lib, masofaviy kursni ta’minlaydigan tizim sifatida ko‘rish mumkin.

Bu kurs bir qator elementlardan tashkil topgan didaktik sikl:

- o‘quv-uslubiy majmua (O‘UM);
- o‘quv materiallari joylashtirilgan dasturiy veb-sayti yoki LMS;
- ushbu kurs uchun o‘qitish jarayonida extiyojga qarab Internet web2.0 xizmatlari to‘plami

UMK an’anaviy ravishda quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi: tashkiliy blok: kirish (video, matn), a’zolarning yig‘ilish joyi o‘quv guruhi (forum, ijtimoiy tarmoq), foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar kursda ishlatiladigan dasturiy ta’minot (bu LMS bo‘lishi mumkin, xizmatlari web2.0 va kursni o‘rganish uchun qo‘llanma, kurs dasturi. setiket boshqalar), (Internet tarmog‘ida o‘zini tutish qoidalari, kirish va chiqish anketalari).

- Nazariya.
- ta’lim ma’lumotlari turli shakllarda taqdim tilishi mumkin: grafikali matn, kurs mavzusi bo‘yicha video ma’ruzalar, veb-seminarlar, ochiq Internet-resurslarni yozib oldi.
- amaliy mashg‘ulotlar: seminarlar, topshiriqlar, tezislar, keyslar va referatlar.
-nazorat turlari: testlar, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zaro nazorat uslubida tashkil etilgan bitiruv malakaviy ishlar, portfolio va boshqalar.
- pedagogik muloqotga kirishish jarayoni: masalan o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi virtual aloqada konferensiya, forum yoki ZOOM dasturida dars o‘tish uchun maxsus joyning mavjudligi.

Masofaviy kursning ushbu o‘qitish modeli tavsiflash nuqtai nazaridan o‘zgaruvchan bo‘lib, tanlov xususiyatlarni inobatga olgan holda, kursning bloklari yoki bo‘limlari soni, ularning ketma-ketligi, mazmuni maqsadi, talabalar ehtiyojlari, dasturiy ta’minotiga qarab farq qilishi mumkin.

Masofaviy ta’limning o‘qitishning tashkiliy shakllari va vositalari har bir modeli o‘ziga xos usullarga ega. Hali ham dolzarbligini yo‘qotmagan va aksincha, o‘z ahamiyatini yangi rivojlanish nuqtasi sari ildamlab borayotgan masofaviy ta’limning asosiy modellariga quyidagilar kiradi:

- tarmoqdagi kunduzgi va masofaviy o‘qitishning integratsiyasi;
- masofaviy o‘qitish kursining erkinligi;
- axborot va ta’limni yetkazish muhiti (virtual maktab, bo‘lim, kafedra, universitet);
- tarmoq ta’limi, keys texnologiyalari va videokonferensiyalar;

Rus tilini o‘qitish mazmunining yetakchi komponenti fanning asoslari emas, balki faoliyat usullari - nutq faoliyatining har xil turlarini o‘rgatish: gapirish, tinglash, o‘qish va yozish kabi o‘ziga xos xususiyatga ega. Muloqot qobiliyatini shakllantirish (kommunikativ kompetensiya) va lingvistik tushunchalar va til tizimi to‘g‘risida bilimlarni yaratish tilning aloqa vositasi sifatida ishlashi rus tilini o‘rgatishning maqsadiga kiradi. [4, 15 b].

"Rus tili" predmeti bilan "Ona tili til»ning farqi shundaki nutq amaliyotining miqdori yuqoriligi (oilada, do‘stlar, tanishlar va boshqalar bilan) va rus tilida muloqot qilish qoida shaklida, universitetdagi chegaralangan xaftalik soatlardagi amaliy seminarlar doirasi bilan cheklanadi. Rus tilini yanada samarali o‘rgatish va o‘qitish uchun nutq ko‘nikmalarini nutq amaliyoti hajmini oshirish kerak, an’anaviy yuzma-yuz mashg‘ulotlarida rivojlantirish kerak.

Internetdan axborot va ta’lim muhiti xizmatlari imkoniyatlaridan foydalangan holda, mustaqil ish, maxsus tanlov va o‘quv materialini tizimlashtirish, interaktivlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar rus tilini o‘z ona tillari sifatida so‘zlashuvchilarni jalb qilish va ular bilan aloqani tashkil qilish masofaviy ta’limning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Rus tilidagi Internet-resurslardan matnlarni o‘qish va video tomosha qilish asosida dolzarb ma’lumotlar, masalan, dunyodagi so‘nggi voqealar (sport, madaniy, siyosiy va boshqalar), o‘z ona tili hisoblangan rusiyzabon ma’ruzachilarning matnlari (siyosiy arboblarning konferensiyalardagi chiqishlari, seminarlar, taqdimotchilarning e’lonlari), filmlar, videolar, elektron materiallar kutubxonalar va boshqa ma’lumotlardan til zaxiraini boyitishda foydalanib ishlashga imkon beradi. Dolzarb ma’lumotlarni olish jarayonida o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirib, rus tilini o‘rganish uchun individual ta’lim traektoriyasi va motivatsiyasi oshadi hamda ma’lumot, loyiha, ijodiy, tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq vazifalarning rivojlantirishni talab qiladi.

Masofaviy kurs jarayonida rus tilini yanada samarali o‘rganishga hissa qo‘shadigan pedagogik texnologiyalar dars mazmuni: munozaralar, rol o‘yinlari, loyiha faoliyati va boshqalar uchun o‘quv materialini hisobga olish muhimdir.

Xulosalar. Zamonaviy axborot dunyosida odamlarning aloqasi yordamida amalga oshiriladigan har xil turdagi raqamli qurilmalar rus tilda nutq amaliyotining zichligini oshirish mumkin bo‘lgan (mobil telefonlar, smartfon, ayfon, planshetlar kompyuterlar va boshqalar). hozirgi vaqtda konsepsiya sifatida rivojlanib borayotgan mobil ta’lim tufayli ham muassasalar ixtisoslashtirilgan o‘qitish (tanlov kurslari), rasmiy va norasmiy ta’lim integratsiya tufayli kengaymoqda va o‘qituvchilar, murabbiylar va boshqalarning kasbiy rivojlanishi ortib bormoqda

Shunday qilib, ta’kidlash kerakki, tillarni o‘qitishda axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, rus tilini o‘rganishdagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim faoliyatini individualizatsiya qilish va differensiatsiyalash, o‘z-o‘zini tarbiyalash va talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish masofaviy ta’limni rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Pedagogika fanining oldida mavjud zamonaviy masofaviy kurslar uchun maxsus ishlab chiqilgan onlayn ta’lim maqsad va model tanlashga bog‘liq ta’lim, mavjud o‘quv qo‘llanmalarini uslubiy ishlab chiqish, yangilarini tadqiq etish, rus tilini o‘qitishda istiqbolli bo‘lgan texnik vositalar trening tarkibini tanlash, masofaviy kursda rus tili o‘rganishning dasturiy ta’minot imkoniyat va kompetensiyalar, o‘qituvchilar tarkibi va o‘quv jarayonining barcha

ishtirokchilarining tarmoqqa tayyorligi va o‘zaro ta’siri uyg‘unligini takomillashtirish kabi vazifalar turibdi.

Adabiyotlar

1. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
2. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
3. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
4. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.
5. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
6. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in *переводческий дискурс: междисциплинарный подход* (pp. 133-138).
7. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, *10*(01), 227-232.
8. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. *Современное образование и воспитание*, *1*(1), 289-294.
9. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of russian-uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版), 48*(12).
10. Кадирова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. *Традиции и инновации в изучении и преподавании языков*, *1*(1), 173-176.
11. Akhmedov, B. A., & Jakhongirova, Y. J. (2022). Methodology of teaching english: approach of national way. *Uzbek Scholar Journal*, *10*, 218-224.
12. Ахмедов, Б. А. (2022). Повышение питательности завтрака с помощью биодобавок для укрепления здоровья студентов. *Uzbek Scholar Journal*, *11*, 7-11.
13. Akhmedov, B. A., & Jakhongirova, Y. J. (2022). Translating culture-specific concepts. *Uzbek Scholar Journal*, *10*, 161-165.
14. Axmedov BA, Muxamedov GI. Klaster Mobile DGU 09834.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA MAKTAB O‘QUVCHILARIGA YENGIL ATLETIKA MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISH METODIKASI

O’tbosarov Umid Temirovich
Toshkent viloyati Parkent tumani
18-umumiy o’rta ta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi

Yuldashev Baxrom Turg’unovich
Toshkent viloyati Parkent tumani
20-umumiy o’rta ta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya. maqolada boshlang‘ich maktab yoshida yengil atletika mashg‘ulotlarini tashkil etishning umumiy qoidalari keltirilgan. Boshlang‘ich maktab yoshidagi yengil atletika darslariga kiritilgan nazariy va amaliy materiallarning mazmuni tavsiflanadi, darsning tarkibiy qismlari, ularning davomiyligi, me’yorlari va tarkibi hisobga olingan.

Kalit so‘zlar: yengil atletika, boshlang‘ich maktab yoshi, jismoniy madaniyat, umumta’lim maktabi, o‘quv jarayoni.

Abstract. The article presents general rules for organizing athletics training at primary school age. The content of the theoretical and practical materials included in the athletics lessons of primary school age is described, the components of the lesson, their duration, norms and content are taken into account.

Key words: athletics, primary school age, physical culture, comprehensive school, educational process.

Аннотация. В статье представлены общие правила организации занятий легкой атлетикой в младшем школьном возрасте. Описывается содержание теоретических и практических материалов, включаемых в занятия по легкой атлетике младшего школьного возраста, учитываются компоненты занятия, их продолжительность, нормы и содержание.

Ключевые слова: легкая атлетика, младший школьный возраст, физическая культура, общеобразовательная школа, образовательный процесс.

Pedagogika fanining jismoniy tarbiya sohasidagi dolzarb muammolaridan biri maktabdagi ta’lim jarayoni mazmun-mohiyatini modernizatsiyalash va pedagogik texnologiyalarni optimallashtirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 martidagi «Jismoniy madaniyat va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi»gi PF-5368-sonli Farmoni uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni sifatini oshirishga asos bo‘ladi. Farmonda jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari va Respublika maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va instruktorlari faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish [1] xaqida so‘z yuritib o‘tilgan. Jismoniy tarbiya jarayoni ta’limning ilk bosqichlarida tayanch bazasiga oid jismoniy tayyorgarlik asoslarini yaratish, harakatlantiruvchi mahorat, malaka va

ko‘nikmalar fondini shakllantirish, o‘sib kelayotgan avlodning har taraflama(garmonik) rivojlantirishni nazarga oladi.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining rivojlanishida yoshga oid bosqichning o‘ziga xosligi, bevosita sensitiv davr bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularning jismoniy rivojlanishi va harakatlantiruvchi tayyorgarligiga maqsadga yo‘naltirilib ta’sir ko‘rsatish uchun qulayligi bilan tavsiflanadi, hamda ushbu yoshga oid qulay davr faktorini e’tiborga olmaslik ularni rivojlanishining keyingi bosqichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab jismoniy tarbiya dasturining tahlili va 1–4 sinf o‘quvchilari uchun «Engil atletika» bo‘limiga ta’limni o‘quv yillari bo‘yicha o‘quv soatlarining taqsimlanishi, 1-sinfda dasturning ushbu bo‘limiga 13 soat ajratilganini, bu tayanch bazaviy mashg‘ulotlariga ajratilgan umumiy soatlar sonining 19,7% tashkil qilishini ko‘rsatdi. 2-3 sinflarda ushbu bo‘limga ajratilgan soatlar 16 soatgacha oshirilgan, o‘rtacha 23,5% ni va faqat o‘qishning to‘rtinchi yilida yengil atletikaga 18 soat ajratilgan bo‘lib, o‘rtacha bazaviy amaliy mashg‘ulotlarning 26,5% tashkil qiladi. Ta’kidlash joizki, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida aynan yengil atletika darslarida kelajakda ularga yengil atletikaga oid turli harakatlantiruvchi mashqlar texnikasini to‘g‘ri egallash ko‘nikmalari shakllanadi

Kichik maktab yoshidagi bolalar yoshga oid rivojlanishining eng qulay davri bo‘lishiga qaramay, jismoniy mashqlarni bajarishda asab tizimidagi qo‘zg‘alish jarayonini uzoq vaqt bir maromda ushlab turib bo‘lmaydi, bu ularning tezda charchab qolishlari bilan bog‘liq. Mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda uzoq davom etadigan tushuntirishlar va ko‘rsatmalar, davomli va zerikarli topshiriqlardan qochish kerak. Harakatlantiruvchi mashqlarga o‘rgatayotganda e’tiborni ta’limning yaxlit, bir butun uslubiga, asosiy diqqatni o‘rganilayotgan mashqlar texnikasi asoslariga qaratgan ma’qul. Harakatlantiruvchi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda taqlid qilish, mashg‘ulotlarning emotsionalligi va o‘yin uchun mo‘ljallangan faoliyat katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya darsida harakatlantiruvchi mashqlarga o‘rgatishda qat’iy reglamentga solingan metoddan foydalanish, ularni takomillashishiga qarab, o‘quvchilarda ishonch paydo bo‘lgandan so‘ng, musobaqalashishga oid hammabop, yengil shakllardan faol foydalanish maqsadga muvofiq.

Tajribalar boshlang‘ich sinfdagi maktab o‘quvchilarining yoshi, koordinatsion qobiliyatlar va umumiy egiluvchanlikni rivojlantirish uchun juda muvofiq ekanini ko‘rsatadi, shuning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bu yoshdagi bolalarda suyak sohasi yetarli darajada egiluvchan ekani va ular noto‘g‘ri holatda turish-o‘tirishi hamda jismoniy yuklamalarning baravar taqsimlanmaganligi sababli shaklini o‘zgartirishi (deformatsiya) mumkinligini e’tiborga olishlari kerak. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida mushak bog‘lovchi apparatning yengil cho‘ziluvchanligi, bukiluvchi mushaklar kuchining rostlovchi mushaklarnikidan ustunligi qayd qilinadi. Ushbu fiziologik faktor shug‘ullanuvchilar gavdasining turishi(vaziyati)ga alohida e’tibor berishni, uzoq davom etuvchi bir tomonlama

mashqlardan qochishni, majburiy ravishda gavda mushaklari va oyoq kafti kuchini rivojlantiruvchi jismoniy mashqlardan foydalanishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabning o‘quv-tarbiyaviy jarayoni doirasida kichik yoshdagi maktab o‘kuvchilariga yengil atletikadan o‘quv jarayonini tashkillashtirish uslullarini ishlab chiqish va tadqiqotda asoslash. Ta’limning maktab strukturasida «Jismoniy madaniyat» fanini o‘qitish doirasida yengil atletika mashg‘ulotlarida metodik ta’minlashni tanlab olish, hamda amalga oshirish va o‘quv-tarbiyaviy jarayon doirasida kichik yoshdagi maktab o‘kuvchilariga yengil atletika mashg‘ulotlarida o‘quv jarayonini tashkillashtirishda ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik tadbirlar tuzilmasining samaradorligini tekshirish.

Dars an’anaviy tarzda uch qismga bo‘linadi: tayyorlov, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat bo‘lishi kerak. Yengil atletika darsining tayyorlov qismiga safga tizilishlar va yangidan saflashlar kiritish, gavdani tik tutishga hamda barcha topshiriq va ko‘rsatmalarning bajarilishiga alohida e’tibor qaratish tavsiya qilinadi. Bir joyda turib va harakatda, juft bo‘lib, guruhlarda hamda turli sport jihozlari bilan bajariladigan turli jismoniy mashqlar jamlanmasini uslubiy jihatdan to‘g‘ri bajarishlarni kiritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, 8-12 daqiqa davom etadigan darsning bu qismiga, bajarishga qiyinchilik tug‘dirmaydigan mashqlar kiritilishi lozim.

Darsning asosiy qismini o‘tkazish jarayoniga yuqori darajadagi jismoniy yuklamalar rejalashtiriladi, bunda uning samaradorligini oshirish uchun mavjud barcha sharoitlardan maksimal darajada foydalanish kerak. Darsning asosiy qismi boshida o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan, bajarishda aniqlik talab qilinadigan, murakkab koordinatsiyali, tezkorlik va kuch sifatlari, epchillik namoyon qilinadigan mashqlarni o‘zlashtirishda, darsning so‘nggida esa kuch va chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda uslubiy izchillikka qat’iy amal qilish kerak. Darsning asosiy qismi 25-30 daqiqa davom etadi.

Darsning 3-5 daqiqa davom etadigan yakunlovchi qismini tashkil qilishda, o‘z ichiga mushaklarni bo‘shashtiruvchi bir maromda va osoyishta bajariladigan mashqlarni oluvchi, his va asab-mushak qo‘zg‘alishini tinchlantiruvchi mashqlar jamlanmasini oldindan ko‘zda tutish kerak. O‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini mustaqil kuzatib borish uchun qo‘llaniladigan jismoniy sifatlar darajasini aniqlashga qaratilgan mashqlar bilan tanishiladi, jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida yurakning qisqarish chastotasini o‘lchash o‘rganiladi.

Sport-sog‘lomlashtirish faoliyati doirasida bolalarni jismoniy jihatdan takomillashtirish uchun jismoniy madaniyat darslarida quyidagi yengil atletika mashqlarining texnikasi o‘zlashtiriladi:

– yugurish mashqlari: tosni baland ko‘tarib, sakrab va tezlatib, harakat yo‘nalishini o‘zgartirib, turli boshlang‘ich holatdan yugurish; mokkiga o‘xshab (borib-kelish) yugurish; keyingi tezlashish bilan yuqori startdan yugurish;

– sakrashga oid mashqlar: bir joyda turib va olg‘a siljib bir va ikki oyoqda sakrash; uzoqqa va balandga sakrash; balandlikdan sakrab tushish va balandlikka sakrab chiqish;

– to‘ldirilgan to‘pni (1 kg) turli usullar bilan uzoqlikka otish;
– tennis to‘pini vertikal nishonga va uzoqlikka otish.

Asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun quyidagi yengil atletikaga oid mashqlardan foydalaniladi:

– koordinatsiyani rivojlantirish: cheklangan tirgovuchlar bo‘ylab o‘zgaruvchan yo‘nalishda yugurish; turli boshlang‘ich holatlardan qisqa masofalarga yugurish; bir oyoqlab joydan turib va ikki oyoqlab navbatma- navbat arqon ustidan sakrash;

– tezlikni rivojlantirish: yuqori startdan maksimal tezlikda yugurish mashqlarini takroriy bajarish; mokkiga o‘xshab (borib-kelish) yugurish; maksimal sur’atda qiya joylarda yugurish; turli boshlang‘ich holatdan tezlashib yugurish; tennis to‘pini maksimal sur’atda turlicha boshlang‘ich holatdan, burilishlar bilan devorga otish va ushlash;

– chidamlilikni rivojlantirish: (piyoda)yurish, yuqori tezlikda yugurish, tezlanishlar bilan almashib turuvchi o‘rtacha tezlik rejimidagi bir maromda yugurish; 30 m. masofaga maksimal tezlikda takroriy yugurish; 400 m. gacha bo‘lgan masofaga yugurish; bir maromda yugurish;

– kuch bilan bog‘lik qobiliyatlarni rivojlantirish: ko‘plab hakkalashlarni takrorlash; to‘siqlardan takroriy o‘tish (15-20 sm); to‘ldirilgan to‘pni (1 kg) turlicha boshlang‘ich holatdan maksimal sur’atda uzatish; to‘ldirilgan to‘pni (1-2 kg) bir va ikki qo‘llab turlicha boshlang‘ich holatdan va turlicha usular bilan otish; tepalikka yuklama bilan chiqishni takroriy bajarish; osib qo‘yilgan mo‘ljalga qo‘llarni yetkazib joydan turib sakrash; oldinga siljish bilan turli balandliklarda joylashgan mo‘ljalga yetib sakrash (o‘ng va chap yon bilan); belgiga qarab tizzani bukib sakrash; sakrab chiqib sakrab tushish.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiyalashda harakatning tabiiy turlaridan bo‘lgan yugurish, sakrash va otishlar yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Musobaqalarni tashkil qilishning eng oddiy shakllarini va qoidalarini egallash maqsadida, bolalarga quvonch hamda xursandchilik bag‘ishlash uchun yengil atletika mashqlarini asosan o‘yin va musobaqa shaklida o‘tkazish tavsiya qilinadi, ularning erishgan muvaffaqiyatlarini xolis va bag‘araz baholash esa natijalarni yanada oshirishga rag‘batlantiruvchi omil bo‘ladi. Sog‘lomlashtirish natijadorligiga erishish yengil atletika mashqlarini ochiq maydonda, ob-havo mo‘tadil bo‘lganda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda yurish, yugurish, sakrashlarning harakatlanish asoslarini to‘g‘ri bajarishni o‘rganishlari kerak: stadion yo‘lagi bo‘ylab 60 m.gacha maksimal tezlikda yugurishi; 10 daqiqagacha bir maromda yugurishi; turli boshlang‘ich holatlardan startga chiqishi; 7-9 qadamdan tez yugurib kelib sakrash chuqurligiga zarb bilan tepinib sakrashi va yerga tushishi; 3-5 to‘siqdan iborat yo‘lakchada yugurish va sakrash yordamida o‘tishi; 7-9 qadamdan yugurib kelib to‘g‘ridan va yon tomondan balandlikka sakrashi kerak. O‘quvchilar uzoqlikka va merganlikka otishda 150 g.gacha og‘irlikdagi to‘pni joyida turib va 1-3 qadamdan turli boshlang‘ich holatlardan yugurib kelib otishni,

og‘irligi 1 kg. bo‘lgan to‘ldirilgan to‘pni bir va ikki qo‘llab otishni bilishlari kerak; tennis to‘pini 10 m. masofaga o‘rnatilgan mo‘ljalga otish boshlang‘ich sinf o‘g‘il bolalari jismoniy tayyorgarligi uchun me’yor sanaladi.

Xulosalar. Shunday qilib, mashg‘ulotlarda bu yoshdagi bolalarda charchoqni his qilish yetarli darajada rivojlanmaganligini, toliqish darajasini yaxshi baholay olmasligini va o‘z sezgilarini so‘z bilan aniq ifodalay olmasligini e’tiborga olish va jismoniy yuklamalar miqdorini qat’iy nazorat qilish kerak. Tezkorlikni talab qiladigan mashqlarni bajarish 5–6 soniyadan, katta kuch-quvvat talab qiluvchi davriy mashqlar 4–5 daqiqadan oshmasligi kerak. Yurishning tavsiya etilayotgan sur’ati – 1 daqiqada 100 qadam. Chidamlilikni rivojlantirishda aerob ishdan (maksimal kuch-quvvat 50 %) foydalanish kerak. Yurak-tomir va respirator tizimlari ular tomonidan salbiy reaksiyaga uchragani sababli, statik kuchlanishlardan tez-tez foydalanish tavsiya qilinmaydi.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini bilishga oid faolligi, qiziqishi, hissiyotliligining yuksak darajasi mushg‘ulotlarga ijodiy yondashish va tashabbuskorlikni rag‘batlantiruvchi ma’lum darajadagi erkinlik va harakatlarda mustaqillikni ta’minlovchi topshiriqlarni kiritishni taqozo qiladi. Bu yoshda nazorat qilish va baholash o‘quvchini o‘zini o‘zi o‘stirish (kamolatga yetkazish)ga bo‘lgan intilishini, faolligini oshirish, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishdan oladigan quvonch, xursandchiligini rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi.

Adabiyotlar

1. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
2. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
3. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
4. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.
5. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
6. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in *переводческий дискурс: междисциплинарный подход* (pp. 133-138).
7. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, *10*(01), 227-232.

MAKTAB O‘QUVCHILARIGA TARIX O‘QITISH METODIKASI VA FAN SIFATIDA DOLZARBLIGI

Boltayev Azizxo’ja Fayzullayevich
Toshkent viloyati Parkent tumani
18-umumiy o’rta ta’lim maktabi Tarix fani o’qituvchisi

Norov Xasan Zokirovich
Toshkent viloyati Parkent tumani 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ta’lim klasterining umumiy qonuniyatlari va tamoyillari asosida tarix fanlarini o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha ilmiy mulohaza va farazlar keltirib o‘tilgan. Ayniqsa, maktab darsliklarida tarix ta’limi bo‘yicha mavjud muammolar tahlili, uni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari hamda asosiy uslublari, tarix ta’limida formatsion va sivilizatsion yondashuvlar integratsiyasi muhimligi asoslab o‘tilgan

Kalit so‘zlar: integratsiya, ta’lim klasteri, uzviylik, fanga oid kompetensiyalar, ta’lim sifati, tizimlashtirish, formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv, tarixiy tasavvurlar, tushunchalar, tarixiy bilimlarni o‘rganish metodologiyasi.

Abstract. The article presents scientific considerations and assumptions on the organization of the teaching of history based on the general laws and principles of the education cluster, which is relevant in the system of continuing education. In particular, the analysis of existing problems in the teaching of history in schools, the specific features, goals and objectives and main methods of its development, the importance of the integration of formational and civilizational approaches in the teaching of history.

Keywords: integration, education cluster, membership, science competencies, quality of education, systematization, formative approach, civilizational approach, historical assumptions, concepts, methodology of studying historical knowledge.

Аннотация. В статье представлены научные соображения и гипотезы организации исторического образования на основе общих закономерностей и принципов образовательного кластера, приобретающего актуальное значение в системе непрерывного образования. В частности, анализ существующих проблем исторического образования в школьных учебниках, специфические особенности, цели и задачи и основные методы его разработки, обосновывается важность интеграции формирующего и цивилизационного подходов в историческом образовании.

Ключевые слова: интеграция, образовательный кластер, связность, компетентности, связанные с наукой, качество образования, систематизация, формативный подход, цивилизационный подход, историческое воображение, концепции, методология изучения исторического знания.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni o‘qitish, ularni qay tarzda taqsimlash, o‘qitish va amaliyot integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus konsepsiya ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta’kidlab o‘tildi[1]. Bu yo‘nalishda Sh.Mirziyoev tomonidan “2022-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi[2] tavsiya etildi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirish” vazifasi belgilangan[3]. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim oluvchilari ta’lim va tarbiyasi sifatini oshirishning eng samarali yo‘llari bo‘yicha ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta’lim jarayonlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini, kompetentligini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Topishmoqlar topilishi zarur bo‘lgan narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish asosiga tuziladi. Topilishi zarur bo‘lgan narsa va hodisalarning nomi yashirilgani holda, uning muhim belgilari topishmoqning shakliy strukturasida o‘z ifodasini topadi. Natijada topishmoq ikki qatordagi mazmuniy

tuzilishga ega bo‘ladi. Birinchi qatorda shakliy tuzilish birliklari ma’nosidan kelib chiqadigan yuza ma’no, ikkinchi qatorda esa shakliy tuzilish birliklari ostida ifodalanayotgan va tinglovchining til ko‘nikmasi asosida anglashiladigan tagma’nodir.

Shuning uchun topishmoqlarning mazmuniy tuzilishi, unda topilayotgan narsa va hodisaning integral va differensial belgilarini o‘rganish ona tili darslarida katta ahamiyatga ega. Bu esa tanlangan mavzuning hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Topishmoqlar dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblanadi. Bu o‘zbek topishmoqlariga ham xos xususiyatdir. Biroq “kichik” atamasini nisbiy ma’noda qabul qilish zarur. Zero, xalq og‘zaki ijodida shunday topishmoqlar borki, ularning mazmunini butun boshli ertak yoxud dostonga teng deb qarashimiz mumkin.

Topishmoqlarimiz borasida qator izlanishlar mavjud. O‘zbek topishmoqlarining tadqiqi olimaning bu fikrlarini to‘la tasdiqlaydi.

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi. Topishmoqda yashirilgan narsalarning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

O‘ziga xos tarbiya vositasi bo‘lgan topishmoqlar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Bilamizki, topishmoq inson fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E’tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik, halollik tuyg‘ulari ustuvor bo‘ladi va har bir topishmoq yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g‘alabasi bilan tugaydi. «…Shunday qilib ular murod-maqsadiga yetibdi» degan iboraning deyarli hamma topishmoq yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, topishmoqlar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantirar ekan. Bola topishmoq orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o‘rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib qoladi. Va bola voyaga yetganidan keyin ezgu ishlarga odatlanadi.

Ma’lumki, topishmoqni qiziqarli va maromiga yetkazib aytish va shu orqali bolaning e’tiborini jalb qilish ham bir san’at. Qolaversa, xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lmish topishmoqlar faqat tarbiya vositasi emas, balki ota-ona va farzandni ruhan yaqinlashtiruvchi ko‘prik hamdir. Shuning uchun ham mutaxassislar ota-onalarga farzandlariga ko‘proq topishmoq aytib berishni ta’kidlashadi. Zero, bir narsani unutmaslik lozim, topishmoqlar hayotiy uydirmalar

asosiga qurilgan bo‘lsa-da, ularda tabiiy ravishda hayot haqiqati aks etadi. Qiziqarli syujet bilan boyitilgan bu hikoyalar bolaning ongli ravishda hayotni anglashiga yordam beradi.

Dunyo xalq og‘zaki ijodini kuzatadigan bo‘lsak, ular orasida farqlardan ko‘ra, o‘xshashliklar ko‘proq ekanligiga amin bo‘lamiz. Buning sababi shuki, insonlar qaysi millat vakillari bo‘lishidan qat’i nazar ularning farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori bir xil. Shuning bilan birga, har bir millat avlod-ajdodlari tafakkurida dastlab mifologik tasavvurlar ustunlik qilgan va o‘sha davrlarda qadriyatlar, orzu-istaklar deyarli bir xillik kasb etgan. Topishmoqlar turli tillarda, turli urug‘ va qabilalarda turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, o‘zimizning respublikamiz miqyosida oladigan bo‘lsak, Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida topishmoq – matal deb nomlansa, Buxoro atrofidagi ayrim qishloqlarda ushuq, Xorazmda – varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida – cho‘pchak deyiladi.

O‘zbek milliy topishmoqlarining aksariyati «biror narsani shakli va xarakterini belgilash», bilan boshlanadi, eng asosiy voqealar «rangi, tusi, ta’mi»dan keyingi vaziyatga to‘g‘ri keladi. «beriladigan narsani nima ekan?» degan savolga topishmoq yakunida albatta «u narsa uchun to’liq ma’lumot» tarzida javob olinadi.

Bizning millatimizda kun botgach, bolaga topishmoq aytib berish o‘ziga xos an’anaga aylangan. Va bu an’ana asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Chunki topishmoq bolaning aqliy salohiyatini, topqirligini o‘stirish bilan birga, uning tunni tinch va osuda o‘tkazishiga ham xizmat qilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, topishmoqlar yosh avlodning sog‘lom va barkamol voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa ota-onaga jahon va o‘zbek xalq topishmoqlari jamlangan kitoblar yaqindan ko‘mak beradi. Farzand o‘stirayotgan har bir ota-onaga ana shunday topishmoq kitoblar hamroh bo‘lsa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Topishmoqlarda biror bir jism (harakat yoki holat) ikkinchi bir jismga majoziy qiyoslanib, “bu nima”, degan savol qo‘yiladi va yakunida uning javobi beriladi. Bu janrning zaruriy sharti, muhim spetsifik xususiyati, o‘zgarmas qonuniyati hisoblanadi. Misol:

Qator, qator qora nor,
U ne bo‘ldi bolqanto‘z?
Uy ortida qo‘sh terak,
U ne bo‘ldi bolqanto‘z.[4] (Soch o‘rimi).

Hayotni o’ziga xos badiiy idrok etish shakli bo’lgan topishmoq o’zbek folklorining ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o’rab turgan olam, topishmoqlarda ko’chimlar, o’xshatishlar, taqqoslashlar. Qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o’ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo’lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo’lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga xos xususiyatdir. Demak, u - xalqaro janr. SHu bilan birga har bir xalqning

topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos, original, jozibali va benazirdir.

Bilim – inson faoliyati ko'rinishlaridan biri hisoblanmish bilish jarayonining mahsuli. Bilish esa voqelikning inson ongida in'ikos etishi, shu asosda obyektlarning xossalari, belgi va mohiyatini ifoda etadigan tushunchalar, g'oyalarni ishlab chiqarish jarayonidir. Aqliy salohiyat boyib borishida til tizimi obrazli qurilishida so'z obrazining kaliti deb e'tirof etilayotgan topishmoq, jumboqlarning roli beqiyosdir.

Topishmoq-ssenariy yaratilish jarayonida avval obyekt tanlanadi, shu obyektga mos metaforik qiyoslar natijasida topishmoq tuziladi, yaratiladi. Topishmoq topuvchidan metaforik jumboqlangan obyekt narsa, tabiat hodisalari, biror voqelikni nomini aytib berish so'raladi.

Tez aytish — o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlalar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Mas., Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash. Tez aytishda har bir tovush o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash Tipologik qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri bo‘lmish tez aytish ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqiar sho'x, qiziqarli bo'ladi.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan, ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o'rganish boshlang'ich sinflarda dastlab har bir darsda amalga oshirilib boriladi. Alohida dars sifatida o'rganishda esa o'qituvchilar turli usullardan foydalanishlari mumkin.

Tipologik guruhlash yordamida o`rganilayotgan predmetning turli xildagi birliklari sifat jihatdan bir xil guruhlarga, bir xil tiplarga ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar struktural, ifoda usuli, mazmun-mohiyatiga koʻra oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlarga ega. Ulardagi oʻxshashlik har ikkalasi ham mifolik tasavvur mahsuli ekanligini koʻrsatadi. Bu tasavvurlar ajdodlarimizning qadim dunyoqarashi bilan bogʻliq boʻlib, tarixiy taraqqiyot jarayonida ular bilan bogʻliq tushunchalar ham oʻzgarib borgan. Topishmoq motivida aks etgan metafora va ramzlar xalq ogʻzaki ijodi badiiyatini kuchaytirib, estetik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida quyidagi xulosalarni aytishni lozim topdik: har bir fanda boʻlganidek, jahon folklorshunosligining ham oʻz tadqiq metodlari bor. Ularni mifologik, antropologik, tarixiy, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy kabi maktab vakillari ishlab chiqqanlar. Bu maktab vakillari ba'zan bir-birlarining qarashlarini toʻla inkor qilish darajasigacha yetgan boʻlsalar-da, ular kashf etgan metodlar bir-birini toʻldirib, folklor tarixi, poetikasi, ahamiyati haqidagi ulkan ishlar yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Topishmoq tarixiy asoslari ibtidoiy davrlar bilan bogʻliq jahon folkloriga xos janr boʻlgani uchun boshqa turlar ular oʻrtasida genetik aloqadorlik, umumiy va farqli jihatlar boʻlishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zarifov H. Topishmoqlar // Oʻzbek folklori: xrestomatiya. – Toshkent, 1939;
2. Oʻzbek topishmoqlari. Uzbekskiye zagadki / Tuzuvchi, tarjima, soʻzboshi va izohlar muallifi M.Abdurahimov. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1991;
3. Jahongirov Gʻ. Oʻzbek bolalar folklori. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1974;
4. Abdullayev J.X. Oʻzbek topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi diss… avtoref. – Toshkent, 1993;
5. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va difrensemalar munosabati (Oʻzbek topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss… avtoref. – Toshkent, 2007;
6. Saparniyozova M. Oʻzbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi diss… avtoref. – Toshkent, 2005;
7. Qobuljonova G. Metaforalarning sistemaviy-lisoniy talqini (Oʻzbek xalq topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss… avtoref. – Toshkent, 2006;
8. Joʻrayeva M. Topishmoq va marosim // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. -№2. – B.19 – 24.
9. Topishmoqlar. Oʻzbek xalq ijodi. Koʻp tomlik. – Toshkent: Adabiyot va sa'nat, 1981;
10. Husainova Z. Topishmoqli ertaklar //Oʻzbek folklori ocherklari. T.2. – Toshkent: Fan, 1989. – B.102 – 129.
11. Husainova Z. Soʻngsoʻz // Topishmoqlar. Koʻp tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B.337 – 338.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA DESMOS DASTURINING AFZALLIKLARI

Xaydarov Ilhom Qudratovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mo`minova Xursanoy Rasuljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika o`qitishning yangicha ko`rinishlari, amaliy mashg`ulotlar samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o`rni. Desmos dasturining qator afzalliklari haqida fikr yuritiladi

Kalit so`zlar: axborot texnologiyalari, desmos, dastur, grafik, kalkulyator

Аннотация. В данной статье новые аспекты обучения математике, роль современных информационных технологий в повышении эффективности практических занятий. Обсуждаются несколько преимуществ программы Desmos

Ключевые слова: информационные технологии, десмос, программа, графика, калькулятор.

Annotation. In this article, new aspects of teaching mathematics, the role of modern information technologies in increasing the effectiveness of practical training. Several advantages of the Desmos program are discussed

Key words: information technology, desmos, program, graphic, calculator

Kirish. Bugungi kunda axborot olish va tarqatishning ko‘plab usullari mavjud. Shuningdek ma’lumotlar qamrovi kun sayin ortib bormoqda, axborotlarning bunday jadalligi o‘quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarda multimedia dasturlaridan samarali foydalanish ko‘nikmasini oshirishni taqazo etadi. Shuningdek darslarda turli multimedia vositalari va dasturlardan foydalanish amaliy darslarning sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi davrda matematika o‘qitishning zamon talablariga javob berishining kerakli shartlaridan biri eng so‘nggi texnologik yangiliklarni darslarga tatbiq etishdir. Bu borada qilingan yangiliklar [1-3] adabiyotlarda mashg‘ulotlar jarayonida eng so‘nggi texnologik dasturlardan foydalanishni to‘g‘ri tashkil etish, shuningdek ba’zi mavzularni o‘qitish uslublari haqida ijobiy fikrlar bildirilgan.

Muhokama va natijalar. Ushbu maqolada Desmos internet servisining afzalliklari, uning amaliy darslarga tatbiqlari haqida so‘z yuritilgan.

Desmosning afzalliklari**:**

- Desmosning asosiy afzalligi Desmos doskasida tenglamalarni yechishda interaktiv kalkulyator tenglamaning berilishi va yechimini bir vaqtning o’zida ifodalaydi. Ma‘lumot kiritilishi bilan uning grafigi ham ekranda paydo bo‘ladi. Agar tenglamaga o‘zgartirishlar kiritilsa, shu zahoti ekrandagi grafik ham o‘zgaradi.

- Desmos dasturi juda murakkab ko‘rinishi mumkin, ammo undan maktabgacha ta‘limdagi bolalardan tortib Oliy ta‘limdagi talabalar va barcha yoshdagi foydalanuvchilar foydalanishlari mumkin. Dastur har qanday yosh guruhiga mos ravishda o’zgartirilishi mumkin. U bolalarga kalkulyator yordamida masalalarni qanday yechishni o’rgatadi, hamda masofadan mustaqil ta‘lim olishga rag‘batlantiradi, bu xalq ta’limi tizimidagi sinf xonalari muammolarini yanada kengroq hal qilishda foydalanishi bilan tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- Sayt boshqa foydalanuvchilar tomonidan saqlangan ko’plab dizaynlarni saqlaydi va ularni namoyish etadi. Ba’zilari juda sodda, boshqalari esa innovatsion va qiziqarli.. Desmosdan foydalanib, matematika fanidan qanday qilib o’quv vazifalarini bajarish, o’yin-kulgi va zavq olish uchun foydalanish mumkinligini ko’rish haqiqatan ham ilhom baxsh etadi.

- Desmos - bu o’qituvchilar uchun bir nechta turli fanlarga tatbiq etilishi mumkin bo’lgan ajoyib manba. Hozircha bu mutlaqo bepul, shuning uchun u o’z-o’zidan foydali bo’ladi. Buning o’qituvchilar va talabalar uchun ma’nosi shundaki, u qimmat grafik kalkulyatorlarini sotib olish xarajatlarini tejaydi. Bu barcha ishtirokchilar uchun ajoyib manba.

- Desmos matematika fani o’qituvchilari uchun eng yaxshi manba bo’lib, u yordamida grafikalar kalkulyatorda xususiyatlar ro’yxatlari, regressiyalar, grafikalar, cheklovlar, interaktiv o’zgaruvchilar, qutbli grafikalar, parcha grafikalar, grafikalar bir vaqtning o’zida ikki turdagi grafik panjaralar va boshqa kompyuter funktsiyalari yaratilishi mumkin.

- Desmos dasturini oflayn rejimida ham ishlatish mumkin, onlayn va oflayn rejim o’rtasida almashtirishga imkon beruvchi variant o’rnatilgan . O’tish tez va oson. Desmos-ning yana bir ajoyib xususiyati shundaki, bir nechta foydalanuvchilar darsni yaratishda hamkorlik qilishlari mumkin, keyin ishni nashr etishadi va keyin ro`yxatdan o`tishlari mumkin.

Desmos dasturiga www.desmos.com havolasi orqali kiriladi, “инструменты” oynasidan kerakli funksiya tanlanadi, grafiklar chizish uchun “Графический калькулютор” , hisob-kitoblar uchun “Научный калькулютор”, matritsalar ustida amallar bajarish uchun “Матричный калькулютор”, geometric masalalarni yechish uchun “Геометрические инструменты” kalkulyatorlaridan foydalaniladi. Ko`rinib turibdiki Desmos dasturi matematika fanining barcha sohalarini qamrab oladi.

Xulosa. Desmos dasturining oflayn rejimda ishlashi, kalkulyatorlarining xilma-xilligi, interfeysning rang-barang va foydalanish uchun soddaligi uni darslarga tatbiq etishda qulaylik yaratadi. Bu dastur ta’limni yangi darajaga olib chiqadi va matematikani o`rganishni qiyin mashg`ulotdan, zavqli amaliyotga aylantiradi. Shuning uchun zamonaviy ta’limda Desmos dasturi juda zarur

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.J.Begimqulov. Pedagogik ta“limda zamonaviy axborot texnologiyarini joriy etishning samarali ilmiy-amaliy asoslari. T.: ”Fan”, 2007.

2. В.З.Аладьев “Системы компьютерной алгебры” Maple. Искуство программирование (2-изд. 2007).
3. R.Djuraqulov, S.Akbarov, T.Sh.Toshpo,,latov “Matematika”, Toshkent, 2020
4. S. A. Akbarov, D. Sh. Toshpo‘latov, R. Jo‘raqulov “Matematik ta’lim: o‘qitishda innovatsion usullar” *Academic research in educational sciences*, 2(7). 103-111

YURTIMIZDA KURASH SPORT TURINING RIVOJLANISHI VA YOSHLAR HAYOTIDAGI O‘RNI

N.Mamirov
TATU Farg‘ona filiali O‘zbek tiliva gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yurtimizda kurash sport turiga qaratilayotgan e’tibor, hozirgi kunda yoshlarning kurashga bo‘lgan qiziqishlari va yoshlar hayotida tutgan o‘rnii haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Sport, kurash, belbog‘li kurash, kurash gilami.

Abstract. This article talks about the attention paid to the sport of wrestling in our country, the interest of young people in wrestling and its role in the life of young people.

Key words: Sport, wrestling, belt wrestling, wrestling mat.

Аннотация. В данной статье рассказывается о внимании, уделяемом спортивной борьбе в нашей стране, интересе молодежи к борьбе и ее роли в жизни молодежи.

Ключевые слова: Спорт, борьба, борьба на поясах, борцовский ковер.

Kurash haqida — sportning qadimiy turi. U 5 ming yildan ortiq vaqtdan buyon ma’lum. Uning haqiqiy vatani O‘zbekistondir. O‘zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo‘lgan mardlik, jasurlik, bag‘ri kenglik, raqibiga nisbatan olijanoblik, halollik, insonparvarlik fazilatlari mujassamlashgan.

Bizning ona zaminimizda tug‘ilib-o‘sib, nomlari afsona-yu dostonlarga aylanib ketgan Alp Er To’nga (Afrosiyob), Alpomish, Pahlavon Mahmud singari yelkasi yerga tegmagan bahodirlar kurash orqali o‘zbek yurtining dong‘ini butun olamga taratganlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha milliy qadriyatlar kabi kurashga ham e’tibor kuchaydi. Taniqli kurashchi, xalqaro toifadagi sport ustasi Komil Yusupov jahon andozalariga mos keladigan qonun-qoidalarva kurash kiyim-kechagini ishlab chiqdi.

Musobaqada hakamlar kurash gilamiga chiqqanlarida, o‘rtadagi hakam qo’lini ko‘ksiga qo‘yishi bilan chetdagi ikki hakam ham qo’lini ko‘ksiga qo‘yib, barobariga tomoshabinlarga va bosh hakamga qarab, egilib ta’zim qiladilar.

Milliy kurashda faqat tik holatda va qabul qilingan usullar qo‘llash orqali kurashiladi. Bellashuvda kurashchilar oyoqyalang, yashil va ko‘k yaktak, qizil belbog’ va oq ishtonda bo’ladilar.

Bellashuv vaqti oldindan kelishib olinadi, lekin 3 minutdan kam, 20 minutdan ko‘p bolmasligi kerak. Bunda «To‘xtang» va «Kurash» shartli iboralari oralig’idagi vaqt hisobga kirmaydi. Bellashuvda bir kishi g’olib bo’lishi yoki kuchlar teng kelishi mumkin. Kurashchilar harakati quyidagicha baholanadi:

Kurashning jahon miqyosida tan olinishida, dunyoga yoyilishida 0‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning xizmati katta. Uning tashabbusi bilan Termiz va Toshkent shaharlarida kurash bo’yicha xalqaro turnirlar o‘tkazildi.

1998-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti kubogi musobaqalarida jahonning 28 mamlakatidan polvonlar qatnashdi. Shu yili xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil etildi.

1999-yil 1 — 2-may kunlari Toshkentning «Yunusobod» tennis saroyi va «Jar» sport majmuida kurash bo‘yicha 1-jahon chempionati musobaqalari bo’lib o‘tdi.Unda o’zbekistonlik Akobir Qurbonov (73 kg vaznda), Kamol Murodov (90 kg vaznda) va Tosh- temir Muhammadiyev (90 kg dan yuqori vaznda)lar jahon chempionlari boldilar. 0‘zbekiston terma jamoasi a’zolari yana 3 ta kumush, 4 ta bronza medali oldilar.

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qad. olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Milliy Kurashning xilma-xil ko‘rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va b. mamlakatlarda mavjud. Zavonaviy sport Kurash ining asosiy qoidalari 18-a. oxiri — 19-a. boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-y. Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-y. dan a’zo). Xalqaro maydonda sport Kurash ining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va b. turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek Kurashi ham alohida Kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan oliva boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan Kurash bilan shugullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qad. Baqtriya (O‘zbekiston jan.) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham Kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan da-lolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (2—3-a.) va b. tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart ko‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shar-tda Kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — «Alpo-mish»dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida yozgan: «Kurashning turlari ham bir щ Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi…». Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Alisher Navoiyning «Hamsa», «Holoti Pahlavon Muhammad», Zayniddin Vosifiyning «Badoe’ ul-vaqoe’», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida Kurash hakida qimmatli ma’lumotlar bor. 9—16-a. larda

Kurash xalqo‘rtasida keng ommalashgan. Shudavrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar Kurash dovrug‘ini oshirishgan.

O‘zbek xalq yakka kurashining belbog‘li kurash deb nomlangan turi ham bor. Unga ham taalluqli ko‘plab arxeologik topilmalar va tarixiy qo‘lyozmalar mavjud. Bundan 5 ming yil ilgari davrga mansub qad. Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog‘li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning qad. «Tan-shu» qo‘lyozmasida Farg‘ova vodiysida to‘ylar, sayllar Kurash musobaqalarisiz o‘tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo‘ja polvon va sh. k. K. ning ana shu turida shuhrat qozonishgan (19-a. oxiri — 20-a. boshi). Chorizm istilosi va sho‘rolar davrida o‘zbek milliy Kurash ini xalq turmush tarzidan sun’iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. 20-a. ning 90-y. lari oxiriga kelib bu urinishlarga barham berildi. 1991-y. dakurashchilar sulolasi vakili, bir necha Kurash turlari bo‘yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o‘zbekcha Kurashning xalqaro andozalarga moslangan quyidagi qoidalarini ishlab chikdi: K. tushuvchilar 14 x 14 m dan 16x 16 m gacha bo‘lgan, chetroq qismi qizil rangli «xavfli chiziq» bilan belgilangan ko‘k-yashil tusli Kurash gilamida tik turgan holatda bellashadilar. G‘olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo‘yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo‘g‘ish, raqibga og‘riq beruvchi usullar qo‘llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko‘k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, belga eni 4 - 5 sm li tasma (belbog‘) bog‘lanadi, erkaqlar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, va 78 kg dan ziyod vazn toifalarida kurashadilar (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, yoshi ulug‘lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalari belgilanadi). Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (1KA)ning 2003-y. Toshkentda o‘tgan kongressi har bir uchrashuvning qizg‘in bo‘lishini ta’-minlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 min. qilib belgiladi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g‘irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g‘irrom» bilan jazolansa) bu uning g‘alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor «dakki» deya jazolanishi) ham g‘alabani anglatadi. «Chala» baholari hisobga olib boriladi va h. k. Bahrlar tengligida oxirgi baho olgan kurash-chiga g‘alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo‘ladi, jazolar soni teng bo‘lsa oxirgi jazo olgan mag‘lub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo‘lsa, g‘olib hakamlarning ko‘pchilik ovoziga ko‘ra e’lon qilinadi.

1992-y. da O‘zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001-y. da O‘zbekistonda belbog‘li kurash federatsiyasi tuzildi. 1998-y. sent. da Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, O‘zbekiston, Yaponiya va h. k.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari bo‘lishdi va shu munosabat bilan bu yerda o‘zbekcha Kurash bo‘yicha yirik xalqaro musobaqa o‘tkazildi. O‘zR Prezidentining «Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo‘llab-

quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni (1999-y. 1 fev.) o‘zbek milliy Kurash ining yavada rivojlanishiga turtki bo‘ldi. O‘sha yili Toshkentda o‘zbekcha Kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk sh. da ayollar o‘rtasida xalqaro musobaqa bo‘lib o‘tdi. IKA qoshida Xalqaro Kurash akademiyasi, Butun jahon Kurashni rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi, assotsiatsiya muassisligida «Kurash» jur. ta’sis qilindi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik, axborot-reklama yo‘nalishidagi bu jur. Toshkentda 1999-y. okt. oyidan buyon nashr etiladi.

2000-y. O‘zbekistonda Kurash oyligi o‘tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln. ga yaqin kishi Kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an’anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-y. dan Xalqaro Kurash in-ti (Toshkentda) faoli-yat ko‘rsata boshladi. 1KA ga 66 ta milliy federatsiya a’zo bo‘lib kirdi (2003). Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya K. konfederatsiya lari tuzildi. Hoz. paytda o‘zbekcha Kurash bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug‘ullanadi. Kurashning bu turi bo‘yicha jahon, qita va mamlakatlar chempionatlari hamda birinchshtiklari, O‘zbekistonda atTermiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan va boshqa ko‘plab xalqaro musobaqalar muntazam o‘tkaziladi. Hoz. vaqtda O‘zbekistonda 22 ta olimpiada o‘rinbosarlari maktabi, 37 ta bolalaro‘smirlar sport maktabi va 206 ta Kurash maktabida sportning bu turi bo‘yicha o‘quvchilarga tahsil beriladi. Oliy o‘quv yurtlarida 100 dan ortiq Kurash to‘garaklari faoliyat ko‘rsatadi. Kurashchilar bilan 851 vafar murabbiy shug‘ullanadi (2003). Osiyo olimpiya kengashi 2003-y. da Kurashning bu turini Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritdi. Kurash bo‘yicha o‘tkazilidigan jahon chempionatlarida Bahrom Anazov, Isoq Axmedov, Maxtumquli Mahmudov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Akobir Qurbonov (O‘zbekiston), Kubashxonim Elknur, Selim Totar o‘g‘li (Tur-kiya), Aleksandr Katsuragi, Karlos Xonorato (Braziliya), Pavel Melananes (Polsha), Xiroyoshi Kashimoto (Yaponiya) va b. golib chikdilar va sovrindor bo‘ldilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda yurtimizda nafaqat kurashga balki, sportning hamma turlari bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Mazkurimkoniyatlardan to‘g‘ri va oqilona fodalanish lozimimligini yoshlar ongiga singdirish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Норқобилов М.Н., Мирходжаева З.С., Маҳмудов В.В. Жисмоний маданиятва спорт машғулотларида соғлом турмуш тарзини талабалар онгига сингдиришда педагогик ѐндашувлар. Монография. Тошкент.: ТИҚХММИ, 2019, -Б. 4.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «2019 — 2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 118-сон. Қарори. 2019 йил 13 февраль.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада

такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.
5. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2020 йил 24 январь

АБДУЛЛА ОРИПОВ ИЖОДИГА ҲАДИСИ ШАРИФЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Ойгул Ҳамдамова ,
ТАТУ Фарғона филиали ассистент (Ўзбекистон)

Аннотатция. мақолада Абдулла Ориповнинг ҳадиси шарифлар таъсирида юзага келган “Ҳаж дафтари – Ҳикмат садолари” тўпламининг услубий хусусиятлари ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: ҳадислар, диний маданият, мазмун, Алишер Навоий, Жалолиддин Румий, Саид Аҳмад, шеърий нутқ, қиёслаш.

Барча мусулмон халқлари қатори халқимиз ҳаётида дин ва диний тушунчалар миллий маданиятимизнинг бир бўлаги сифатида муҳим ўрин тутади ва булар она тилимизда ўз ифодасини топади. Диний қарашлар нафақат бутун жамият ҳаётида, балки ҳар бир индивидуал шахс – инсон турмуш тарзида ҳам катта аҳамиятга эга. Шундай экан, бу мавзу бугунги ўзбек тилшунослиги олдида чуқур тадқиқ этилиши лозим бўлган асосий мавзулардан биридир, деб ҳисоблаймиз.

Мълумки, ҳадиси шарифларда ислом динининг йўл-йўриқлари билан биргаликда инсоний фазилатлар, яъни комилликка интилиш кенг тарғиб қилинади. “Ҳадис” ва “суннат” сўзлари муҳаддислар ўртасида бир маънода қўлланилиб, Жаноб пайғамбаримизнинг айтган сўзлари, феъл-атворлари, ахлоқлари, тақрирлари ва пайғамбарликка қадар бўлган ҳамда пайғамбарлик йилларидаги сийратларини, яъни ҳаёт йўлларини англатади”[52]. Бугунги кунимизда мустақил Ўзбекистонимиздан етишиб чиққан буюк муҳаддис олимларимизнинг бутун дунёга машҳурлиги сир эмас. Жумладан, Имом Исмоил ал-Бухорий, Исо ат-Термизий, Имом Аҳмад ибн Ҳанбал ал-Марвазий, Имом ал-Ҳайсам ибн Кулайб аш-Шоший, Жамолиддун ан-Насафий, Ҳофиз ал-Хоразмий каби уламоларимизнинг номларини фахр билан айтиб ўтишимиз мумкин.

Шарқ адабиёти намояндалари ҳам ўз ижодида ҳадисларга жуда кўплаб мурожаат қилганлар. Масалан, мумтоз шоирларимиздан Жалолиддин Румий “Фиҳи мо фиҳи”(“Ичиндаги ичиндадур”) асарида ҳадис ва оятлардаги ўта мураккаб фалсафий қарашларни соддалаштирган, тушунтиришга ва моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилган. Абдураҳмон Жомийнинг “Чиҳил ҳадис”ини Алишер Навоий туркийзабонлар учун “Арбаин” (“Қирқ ҳадис”) номи остида етказиб берди. Замонавий адабиётимиз вакилларидан Саид Аҳмад, Ўткир Ҳошимов, Тоҳир Малик ва Абдулла Ориповларни ҳам мана шундай ижодкорлар сирасига киритиш мумкин.

Абдулла Орипов ижодида “ Ҳаж дафтари – Ҳикмат садолари” тўплами алоҳида мавқега эга. Ушбу тўплам ҳадиси шарифларнинг кучли остиа яратилганлиги ҳақида китобнинг сўзбошисида шоирнинг ўзи шундай дейди:

[52] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Ал-Бухорий, Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ, Қомуслар бош таҳририяти, Тошкент, 1991, 3- бет.

“Маккайи мукаррамага борганимнинг дастлабки кунида Каъбатуллоҳда – Оллоҳ уйи ёнида тунни бедор ўтказиб,тиловат билан бир қаторда байтлар ёза бошладим. Мен бу ҳолатга аввалдан бирмунча тайёр бўлганим сабаблими сатрларим ўз-ўзидан қуйилиб келавердилар. Шеърий ҳадисларимнинг барчаси пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом суханлари билан бевосита боғлиқ эди”[53].

Юқоридаги фикрлардан аён бўладики, муаллифнинг ўзи “*шеърий ҳадислар*” атамасини қўллайди.Тўпламдаги айрим шеърларда ҳадисларнинг айнан шеърий баёни келтирилади, масалан, қуйидаги ҳадисни кўриб чиқайлик:

“Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳу ривоят қиладилар: Расулуллоҳ саллолоҳу алайҳи васаллам: “Бировни(курашиб) йиқитган полвон эмас, балки ғазабланган вақтида жаҳлини ютган одам полвондир!” – дедилар”(“Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”дан)[54]

Бу ҳадис мазмуни шоир сатрларида шундай ифодаланади :

Бир суҳбат чоғида Ҳазрат Пайғамбар
Ўртага ташлади савол ногаҳон.
Айтдилар: – Зарурат туғилса магар
Кимни атардингиз асл паҳлавон?
Саҳобалар деди: – Ҳар ким доимо
Чекига тушгандир келгандир олиб
Кураш майдонига чиққанда аммо
Паҳлавон аталгай ким бўлса ғолиб.
Расулуллоҳ деди: – Кўҳнадир жаҳон
Турфа хил куч-қудрат бордир оламда.
Лекин ўз жаҳлини енголган инсон
Ҳақиқий паҳлавон эрур оламда.

Бундан кўриниб турибдики, шеърнинг сўнгги икки мисрасига ҳадиснинг асл мазмуни сингдириляпти ва қолган мисраларга ҳам шоирнинг ўз ҳис-туйғулари, муносабати қўшилмаган. Шунингдек, “Рўза”, “Билол ҳабаш”, ”Шамол” каби шеърларида ҳам ҳадиснинг асл мағзини сўнгги икки мисрада акс эттирган.Аммо қуйидаги “Она” шеърида муаллиф ҳадис мазмуни билан биргаликда ўзининг шахсий туйғуларини ҳам ифодалайди:

Кимдир савол берди: – Айтгил, Муҳаммад,
Ёлғиз сен Расулсан буткул оламга.
Кимга кўп яхшилик айлай, ўзинг айт,
Ота-онамгами ёхуд боламга?
Расул жавоб қилди: – Тингла, биродар,
Гапимни уч бора қулоққа илгил.
Имкон топа олсанг дунёда агар
Энг аввал онангга яхшилик қилгил.

[53] А.Орипов, Ҳаж дафтари-Ҳикмат садолари.library.ziyonet.uz/
[54].Аҳмедов С, Қосимов Б.,.Қўчқоров Р, Ризаев Ш.. Адабиёт,5-синф учун дарслик.-Тошкент:Шарқ,2020.

Бу ҳикмат шарҳини ўйладим узоқ
Ростдан она эрур қиблаи олам,
Гарчи барчамиз ҳам падармиз, бироқ
Онадан туғилган пайғамбарлар ҳам.

“Ибрат” ва “Ойиша” каби шеърларида ҳам шоир айнан ҳадиснинг ўзини келтирмайди. Пайғамбар (с.а.в.) ва Ойша(р.а.)га ўзининг чексиз ҳурмати, муҳаббати ва алқовини ифода этади. Шунингдек, айрим ҳадисларнинг мазмунини шеърий матнга тўлиғича сингдириб юборади, яъни ҳадиснинг айнан ўзини келтирмайди.

Абдулла Ориповнинг лирикасига хос маъюслик, ҳисларнинг дардли, содда инсоний тушунчаларда ифодаланиши “Ҳаж дафтарида” ҳам яққол сезилади. Тўпламнинг илк шеъри “Каъбатуллоҳ”га назар солайлик:

Ҳануз бири икки бўлмаган элдан
Келдим, мадад бергил, ё Каъбатуллоҳ.
Бағри хун толеи кулмаган элдан
Келдим, мадад бергил, ё Каъбатуллоҳ.

Шоир бунда фақат ўзининг исломий амалини бажариш учунгина эмас, балки бутун бир халқнинг дардини кўтариб, элнинг гуноҳларини кечиришини ва уларга мадад беришини сўраб ёлборади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Абдулла Орипов ижодига ҳадитси шарифларнинг таъсири катта бўлган ва шоир ўзбек миллати ҳаётида мухим ўрин тутадиган ҳадиси шарифлар мазмунини шеърга солди. Бу билан уларни янада халққа яқинроқ қилди, ўқувчиларга содда, равон тарзда етказишга ҳаракат қилди ва ўз мақсадига эришди ҳам. Шу билан бирга унутилиб бораётган мумтоз шеърий анъанани – “арбаин”ликни давом эттирди. Бугунги кунимизда комил, маънавий соғлом инсонларни вояга етказиш масаласи кўндаланг турар экан, Абдулла Орипов адабий меросини ислом динининг таъсири нуқтаи назаридан ҳам чуқурроқ ўрганишимиз, таҳлил этишимиз, тегишли хулосалар чиқаришимиз лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Ал-Бухорий, Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ, Қомуслар бош таҳририяти, Тошкент, 1991.
2. Аҳмедов С, Қосимов Б.,.Қўчқоров Р, Ризаев Ш.. Адабиёт,5-синф учун дарслик.-Тошкент:Шарқ,2020.
3. А.Орипов, Ҳаж дафтари-Ҳикмат садолари.library.ziyonet.uz/

MUNDARIJA

Mustafoyev A.M. Hanifiy mazhabi ulumul hadis fani qoidalarining etimologiyasi 2
Mustafoyev A.M. Hanifiy mazhabi olimlarining ulumul hadis fani haqida yozgan mashhur asarlar tasnifi 7
Nazarov X. O'zbekistonda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi 10
Турсунов Ҳ.А. Дунёни ҳайратга солган санъаткор 14
Турсунов Ж.А. Хўшбоқ бахши Мардонақул ўғли.....17
Tursunov Z.A. Bolalar musiqa va san'at maktablarida inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy darslar samaradorligini oshirish yo'llari 20
Xakimov O.B. Folklor ijrochilik san'atida qo'shiq janrining o'rni 23
Жумаев Ҳ. Оммавий байрам ва томошаларнинг ижтимоий - маънавий- хусусиятлари .29
Choriyev B.B. G'ijjak qobuz bas cholg'usining yaratilish tarixi va o'zbek musiqa ijrochiligida tutgan o'rni 34
I.S.Soliev, G.N.Sirojiddinova O'qituvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish 38
Axmadaliyeva Sh.M. Lirik qahramon ruhiyati tasvirida badiiy vositalarning o'rni 44
Orazimbetov E.K. The significance of helpful didactic tools in teaching biology.....47
Eshnazarov A. O'zbek dialektologiyasining taraqqiyoti va unga aloqador hodisalar 51
Mirzayeva G.S. Milliy va madaniy koloritini ifodalashda realiyaning eng muhim hususiyatlari 61
Kazakova D.B. Theoretical analysis of training to improve tourism in the country 66
Xidirov K.A. O'zbek musiqa madaniyatida yuksak ahamiyatga ega shashmaqomning rivojlanish tarixi 69
Irgashev S.U., Xayitova Y.D. Kilinika oldi modullarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash (Tibbiyot oliy o'quv yurtlari misolida) 73
Ernazarova D.O. Eng qadimgi teonimlarning leksik-etimologik xususiyatlari.....77
Мавлонова С.Х., Тулкинова М. Использование современных педагогических технологий на уроках биологии 81
Sh.U.Turaboyev, H.D.Dehqonova Kiyim ranglarining o'rganish va ilmiy tahlil qilish 88
Haydaraliyeva G.B., Teshabayeva D.M. Advantages of using intensive methods in teaching foreign languages 93
Umirov N.U., Vafoqulova Sh.G'., Mirsaidov F.S. Anatomiya darslarida pisa testlaridan foydalanish.....96
Ismoilova S., Sunnatillayev A. Doston ijrochiligida ovozni yo'lga qo'yish masalalari.....101
Худайбердиев С.С., Нортожиев А.М. Техника олий таълим муассасаларида физикадан амалий машғулотларни лойиҳалаш методи орқали ўтказиш усули 104
Jurayeva Sh.S. Qishloq ayollaridagi qadriyatlar yo'nalishlarining o'ziga xos ijtimoiy - psixologik jihatlari 110
Xodjiyeva N.Dj., Latipova N.X., Ganikhodjayeva D.Z., Sharipov B.A. Методика оценки энергоэффективности теплотехнологического оборудования при управлении сложными технологическими объектами.....114
У. Назаров Саид Ризо Ализоданинг Самарқанд жадидчилигига қўшган ҳиссаси.....120
Ж.Рўзиев Фан ижтимоий - фалсафий феномин сифатида 124
Rashidov Q. The role of the dombira in the performance of the Uzbek schools of the art of penity (Surkhondarya and Kashkadarya) 129
Qodirov B.X. Advanced methods of forming the skills of performance with the piano of works written for the performance of dutor 136
Raximova R.H. Kimyo fanida turli interfaol metodlarni qo'llash usullari.....140
Doshmuratova G. Qoraqalpoqlar xayotida xotin-qizlarning o`rni.....142
Ulfatillayeva S. Imom al Buxoriy hadislarida ayollar bilan bog'liq hadislarning falsafiy germenevtik tahlili 150
Ruziyev A.J. Milliy o'zlikni anglashda tarixiy xotira va ongning o'zaro uyg'unligi 157

Xudoyberdiev H.M. Moliya va iqtisodiyot yo'nalishi talabalarini o'qitishda matematika fanini o'qitish dolzarbligi va tamoyillari 162
Daminova N.K. Yoshlarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish - davr talabi 169
Masharipova Sh.U., Aminboyeva G.Z. Advantages of using pedagogical technologies in teaching english 172
Abdusattorova B. "Boburnoma" asari asosida kayfiyat konseptini ifodalash 176
Sh.Kh. Samieva Important areas of organization of education in higher education on the basis of a creative approach 180
Ф.Ф. Нарзуллоева Талабаларнинг иқтисодий билимларини креатив фикрлаш орқали такомиллаштиришнинг самарали йўллари 187
Akmaldinova F.I. O'quvchilarda ilmiy tushunchalarni to'g'ri tarkib topishida fikrlash jarayonlari va shakllarining ahamiyati 192
Salikhova N. English teaching methodology 198
Artikova X.T., Dadaxo'jayeva N.B., Shavganova H.B. Boshlang'ich sinflarda amaliy to'garaklarni tashkil etishning ahamiyati 203
Bozorova P.I., Asadova D.M., Xaitova D.B. Rus tilini o'rganish ahamiyati va o'qitishda interfaol - pedagogik usullardan foydalanish ko'nikmalari 206
O'tbosarov U.T., Yuldashev B.T. Jismoniy tarbiya darslarida maktab o'quvchilariga yengil atletika mashg'ulotlarini o'qitish metodikasi 214
Boltayev A.F., Norov X.Z. Maktab o'quvchilariga tarix o'qitish metodikasi va fan sifatida dolzarbligi 219
Miradhamova Sh.A., Turdimurodova A.M. Pedagogik texnologiyalarga va ta'lim texnologiyalarga asoslanib fizika fanini o'qitish usullari 226
Mirzaeva L. Classification of prefixes in english language 231
Зарипов О.К. Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратиш методикасини бошқариш моделлари 240
Djurayeva I.G., Tuykulova G.T. Use of interactive methods in english language teaching 246
Xaydaraliyeva M.A. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarning ahamiyati 251
G'ulomqodirova M.A. "G'aroyib us-sig'ar" asarining matniy xususiyatlari 255
Очилова Ш.А. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини баркамол авлод таълим-тарбиясига оид касбий компетентлигини шакллантириш 258
Abdullaeva G. OTMda inklyuziv ta'limga kiritilgan imkoniyati cheklangan talabalarning umumiy muammolari 265
Эшниязова Г.Х. Роль словообразовательных процессов в структуре стратегической компетенции при чтении на французском языке 269
Ishniyazova G. X. Axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida chet tilini o'qitishning etodikasining samaradorligi 275
Абдуллаева Г.С., Гулматова Ш. Особенности связной речи у глухих учащихся 281
Safarova Z. G. Inklyuziv ta'limda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar 286
Гулматова Ш. Особенности методической работы по формированию навыков построения монологической речи у глухих школьников 294
Azizov I.G. Bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari 299
Eshchanov Z.Sh., Vaisova I.D., Umarova Sh.Y. Advantages of using new pedagogical technologies in english language teaching 305
Usmonova N.S. Topishmoqlarning leksik-semantik xususiyatlari, mavzuiy guruhlash, tipologik tahlil, tez aytishlarning xususiyatlari 309
Xaydarov I.Q., Mo`minova X.R. Matematika fanini o'qitishda desmos dasturining afzalliklari 314
Mamirov N. Yurtimizda kurash sport turining rivojlanishi va yoshlar hayotidagi o'rni i 317
Ҳамдамова О. Абдулла Орипов ижодига ҳадиси шарифларнинг таъсири 322